

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LIM,
FAN VA INNOVATİSYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSİTETİ**

TAHRİRİYAT HAY'ATI

Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.
Bosh muharrir o'rinxosari:
f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.
Mas'ul kotib: dots. Ne'matova Y.O.
Tahririyat hay'ati a'zolari:
prof. Bahriiddinova B.M.
prof. Bo'riyev O.B.
prof. Yoziyev L.Y.
prof. Jabborov A.M.
prof. Jabborov X.J.
f.-m.f.d. Imomov A.A.
k.f.d. Kamolov L.S.
prof. Kuchboyev A.E.
prof. Mengliyev B.R.
prof. Normurodov M.T.
prof. Nurillayeva Sh.N.
prof. Nurmanov S.E.
p.f.d. Oripova N.X.
prof. Ochilov A.O.
prof. Tojiyeva G.N.
prof. To'rayev D.T.
prof. Umirzakov B.Ye.
prof. Xayriddinov B.X.
prof. Xolmurodov A.E.
prof. Choriyev S.A.
prof. Shodihev R.D.
prof. Shodmonov N.N.
prof. Erkayev A.P.
prof. Ernazarova G.X.
prof. Eshov B.J.
prof. Qurbanov Sh.Q.
prof. Qo'yiliyev B.T.
prof. Bekmurodova G.H.
prof. Imanova G.T.
prof. Bobonazarov G.Y.
prof. Shukurov O.M.
prof. Yusupova A.Sh
f.f.d. Imomova G.M.
dots. Ro'ziyev B.X.
dots. Eshkorayeva N.G.
dots. Xolmirzayev N.S.
dots. Hamrayeva Y.N.
dots. Rizayev B.X.
dots. Nashirova Sh.B.
f.f.f.d. Musayeva D.T.

2025
3(1)

QarDU xabarlari
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Jurnal 2009-yilda
tashkil etilgan.**

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Pochta manzili: 180003, Qarshi,
Ko'chabog', 17.Qarshi davlat universiteti,
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.
Telefon: 97-222-10-80
TelegramID:
https://t.me/Qardu_Xabarlari2024
Elektron pochta: qardu_xabarlari@mail.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

Muassis: Qarshi davlat universiteti

Jurnal Qashqadaryo viloyati

**Matbuot va axborot boshqarmasi
tomonidan 2010.17.09 da**

**№ 14-061 raqamli guvohnoma
bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.**

Musahhihlar:

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

Sahifalovchi:

Yuldashev D.N.

Texnik muharrir:

Raxmatov M.

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasи huzuridagi**

Oly attestatsiya komissiyasi

**Rayosatining qarorlari bilan fizika-
matematika, kimyo, biologiya, tarix,
falsafa, siyosatshunoslik, filologiya,**

**pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.**



**Yiliga 4 marta
chop etiladi.**

**Jurnaldan olingan materiallarga "QarDU
xabarlari" jurnalidan olindi", degan havola
berilishi shart. Mualliflardan kelgan
materiallar egalariga qaytarilmaydi.**

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlar**

MUNDARIJA

TARIX

Qurbanov N.M. O‘zbek xonliklari davridagi tibbiyot.....	4
Ko‘paysinova N.K. Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan yurt haqida mulohazalar....	9
Nishonov J.T. Kesh (Shahrisabz-Kitob) vohasidagi ko‘hna shahar tadqiqotlari tarixiga nazar.....	14
Khamdamova S.S. Ancient culture of the peoples of central asia.....	18
Bo‘riyev A., Egamberdiyev F.P. Uzlar qavmi etno tarixi: haqida ba’zi chizgilar.....	23
Махкамова Н. Отражение вопросов национально-территориального размежевания средней азии в советской исторической литературе.....	28
Ваисова Н.А. Согдийцы в истории династии тан.....	33
Bobobekova N.I. Sog‘liqni saqlash tizimida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida: statistik tahlil (Jizzax viloyati misolida).....	38
Rizayev B.N. O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi to‘qqizinch besh yillikda: qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirishning yo‘nalishlari.....	41
Xushmatova G.N., Xamdamov L.Sh. Sports diplomacy (a case study of the global achievements of uzbekistani youth).....	46
Maxmanova M.N. Qashqadaryo viloyatida musiqa va san’at mакtablarini rivojlantirilishi: yutuqlari va istiqbollari.....	50

FALSAFA

Shaymanova A.E. Sun’iy intellekt va axloqiy qadriyatlar.....	55
Haydarov K. Tarbiya fani mashg‘ulotlarida ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati.....	58
Usmonova L.R. Zamonaviy fan falsafasining asosiy muammolari (muammolar va yechimlar).....	64
Азизов И. Р. Межпарламентские отношения как фактор развития интеграционных процессов в центральной Азии.....	68
Bekmurodova G.X. O‘zbekistondagi iqtisodiy-destruktiv holatlarning sabablari va oqibatlarining ijtimoiy –falsafiy talqini.....	80

FILOLOGIYA

Tojiyeva G.N., Xolmuratova M.J. Qishloq xo‘jaligi turizm terminologiyasi sohasiga hissa qo‘shgan olimlar va ularning metodologik yondashuvlari.....	85
Jumaniyozov Z.O. Diplomatik leksik birliklarning fonetik va morfologik xususiyatlari (A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani leksik birliklari misolida).....	88
Tursunboyev B.N. The influence of modern lexicographic trends on the creation of dictionaries with idioms: a focus on the uzbek language.....	93
Hamzayeva Z.M. “Tess d’urbervilles” va “Bonu” romanlarida tasvirlangan tarixiy-ijtimoiy muhit va unda ayolning o‘rni.....	97
Jumanazarova R.J. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida urf-odatlarning badiiy talqini.....	100
Sultonova N.N. Hozirgi o‘zbek nasrida syujet transformatsiyasi.....	105
Otamurodova O.M. I va II jahon urushining ingliz adabiyotiga psixologik ta’siri.....	110
Shukurova S.O. Hudkushlik va bilvosita suitsid.....	113
Rizayeva Sh.Sh. Yengilmas qahramon obrazi talqini: Ernest Xeminguey va Xurshid Do‘stmuhammad asarlari misolida.....	115
Qurbanova Sh.Sh. F.Scott Fitzgeraldning buyuk gatsby asarida yo‘qotilgan avlod tushunchasi: madaniy inqiroz va shaxsiy identitetning fragmentatsiyasi.....	120
Nizomjonova Z.N. Xilvatiyning “Mavludi sharif” asaridagi g‘azallarning badiiy xususiyatlari.....	122
To‘raliyev B.E. Savdo leksikasining yozma manbalarda aks etishi.....	126

Omonova M.K. Distributive analysis of polymodality in context.....	130
Usmonova M.K. Ijtimoiy tarmoqlarda murojaat shakllarining lingvopragmatik xususiyatlari.....	135
Rahmatova Z.H. Bolalar ensiklopedik lug‘atlari madaniyatlararo aloqani ta’minalash vositasi sifatida.....	140
Fayzullayev X. “Qoraquyun” romanida inson va tabiat muammosining poetik tasviri.....	145
Imomova G. Roman poetikasida muallif nutqi va qahramonlar nutqining ichki aloqalari.....	149
Yo‘ldoshev D.N. Matyoqub Qo‘shtonov fenomeni va jahon adabiy tanqidchiligi aloqalari.....	154
Пардаева Д. Литературное осмысление образа Тимура в русской и узбекской прозе XX века.....	159

PEDAGOGIKA

Rasulova H.S. Vitagen ta’lim asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	163
Xolmatova F.B. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin terapiyasi asosida bolalarda faol nutqni rivojlantirish.....	167
Isokova S.Sh. Integration of interactive technologies and a cross-linguistic approach in language aesthetic culture.....	172
Xamrokulov J.M. Talabalarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.....	175
Normuradov M., Xoliqulova S.Yu. “Nanoelektronika” kursini innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan ta’lim modeli.....	179
Razzoqov D.N., Ravshanova Sh.Q. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kasbiy qiziqishni shakllantirish texnologiyasi.....	185
Sattorova F.E. Concepts and methodologies of teaching english in primary education.....	189

SIYOSATSHUNOSLIK

Djurayev N.A. Davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun siyosiy hokimiyat institutlarini shakllantirish.....	194
---	-----

O'ZBEK XONLIKHLARI DAVRIDAGI TIBBIYOT**Qurbanov Nodir Mirzoxidovich**

Buxoro davlat tibbiyot instituti lmiy tadqiqotchisi

komnatan704@gmail.com

ORCID 0009-0003-6685-1924

УДК 61(091)/141.7

Annotatsiya. Maqola o'zbek xonliklari davridagi tibbiyotda an'anaviy usullar va islom dini hamda uning tibbiyot bilan munosobati, tibbiyot bilan shug'ullangan olimlarning tibbbiy-falsafiy merosiga, ijtimoiy salomatlikni asrashdagi faoliyatlariga bag'ishlangan. Bu davrda Ibn Sino va uning asarları katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ibn Sinoning "Al-Qonun fi-t-tib" asari shifokorlar uchun asosiy qo'llanma hisoblangan. Buxoro, Xiva va Qo'qonda davolash muassasalari bo'lib, ularda malakali tabiblar faoliyat yuritishgan. Bemorlar maxsus darsxona va davolanish xonalari-shifoxonalar bo'lgan. Shifobaxsh giyoqlar va tabiiy dorilar keng qo'llanilgan. Buxoroda va Xivada tibbiy maktablar faoliyat yuritgan. Shu davrda tibbiy manbalar tarjima qilingan va amaliy tajribalar orqali yangi davolash usullari rivojlangan. Tibbiyot nafaqat amaliyotda, balki nazariy jihatdan ham rivojlangan bo'lib, o'sha davr tibbiyoti hozirgi zamonaviy tibbiyotga asos bo'lgan.

Kalit so'zlar: tibbiyot, tibga oid asarlar, Subhonqulixon-tib homysi, shifoxona, ijtimoiy salomatlik.

MEDICINE IN THE PERIOD OF THE UZBEK KHANATE

Abstract. The article is devoted to the influence of traditional methods and Islamic medicine on medicine during the period of the Uzbek khanates, the legacy of scientists involved in medicine, and their activities to preserve public health. During this period, Ibn Sina and his works were of great importance. Ibn Sina's "Al-Qanun fi-t-tib" was the main guide for doctors. In Bukhara, Khiva, Kokand there were medical institutions staffed by qualified doctors. Patients were treated in special darshans and hospitals. Medicinal herbs and natural remedies were widely used. Medical schools operated in Bukhara and Khiva. During this period, medical sources were translated and new methods of treatment were developed through practical experiments. Medicine developed not only in practice, but also in theory, and the medicine of this period became the basis of modern medicine today.

Keywords: medicine, health, medical heritage, Subhonkulihon-sponsor of doctors of the past.

Kirish. O'zbekistonda aholi salomatligini asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, keyingi yigirma yillikda yangi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan tibbiyot muassasalari, shifoxonalar soni sezilarli darajada ortdi. Bu yo'nalishlardagi sa'y-harakatlar samarasini oshirish uchun millatimizning tarixiy-tibbiy merosi ham mufassal tahlil qiimog'i darkor. Chunki O'zbekiston tarixida xonliklar davridayoq aholi salomatligini asrashga oid muayyan tajribalar jamlangan. Bizning fikrimizcha, o'zbek xonliklari davridagi tibbiyot, unga hissa qo'shgan allomalar, ularning tibbiy manbalarini o'rganish bu boradagi ishlarmizga katta amaliy yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Xonliklar davridagi tibbiyotning ahvoli, allomalarining uni takomil toptirishga doir taklif va mulohazalari H. Salomova, M. Hasaniy, S. Karimova, A. Choriyev asarlarida juz'an o'rganilgan (bu manbalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan). Ilmiy manbalarining kamligi mavzuning yetarli darajada tadqiq etilmaganini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilishning usullaridan keng foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Vatanimiz qadimdan ilk tamaddun beshiklaridan biri sifatida mashhur bo'lib, mintaqada ilm-fan, madaniyat doimiy rivojlanishda bo'lgan. IX-XII va XIV-XV asrlarda Movarounnahrda tibbiy bilimlarga bo'lgan qiziqish, e'tibor bizga tarixdan ma'lum. Ayniqsa, X-XI asrlarda Ibn Sino davriga kelib tibbiy bilimlar rivoji o'lkada o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Dorishunoslik, jarrohlik, an'anaviy tabiblik kabi tabobat sohalari rivoj topdi. Tibbiyot nafaqat ilmiy asarlar va risolalar, balki she'riy yo'l bilan yozilgan dostonlarda ham o'z ifodasini topdi. XV asrning oxiriga kelib Amir Temur tuzgan ulkan davlat hududi shayboniyalar sulolasiga hukmronligi ostiga o'tdi. Harbiy kurashlar natijasida yangi sulola asoschisi bo'lgan Muhammad Shayboniyxon temuriylar qo'li ostidagi ko'pgina hududlarni o'ziga bo'ysundirdi. XVI asrning boshlarida Movarounnahr hududida yangi davlatlar – xonliklar tashkil topdi. Mamlakat

markazlashgan davrlarda iqtisodiy barqarorlik vujudga keldi. Bunday iqtisodiy barqarorlik tufayli ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot ilmi va amaliyoti yanada rivojlandi, gullab-yashnadi. Ko‘pgina hukmdorlar tibbiyot rivojiga o‘z hissalarini qo‘sha boshladilar, homiylik qilishni o‘z zimmalariga oldilar. Aholi salomatligini saqlash, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish, tibbiyot olimlariga bo‘lgan e’tibor tibbiyotda katta burilish yasadi.

Shayboniyalar sulolasи hukmronligi davrida Mavarounnahrning yirik shaharlarida kasalxona, dorixona, tibbiy maktablar qurilishiga alohida jiddiy e’tibor berildi.

Shayboniyalar sulolasи hukmronligi davrida tibbiyot rivojiga asosan uchta omil katta ta’sir ko‘rsatdi. Bular quyidagilardir:

mamlakat hukmdorlari tomonidan bunyod ettirilgan va aholiga xizmat qilgan tibbiyot muassasalari;

mahalliy tibbiyot olimlarining asarlari va oqilona faoliyatları;

qo‘sni mamlakatda yashaydigan tib olimlarining asarlari hamda ularning xonliklardagi tibbiyot ilmi rivojiga salmoqli ta’siri.

Davlat hukmdorlarining bevosita homiyligi ostida xonliklarda tibbiyot sohasining yetuk bilimdonlari va ularning izlanishlari natijasi bo‘lgan yirik tibbiyot asarlari yaratildi. Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi tibbiyot, tib ilmi va amaliyoti o‘ziga xos tarzda rivojlandi.

Yirik tibbiyot bilimdonlari shayboniyalar sulolasи davrining eng yorug‘ yulduzlariga aylangan edilar.

Shayboniyalar davrida O‘zbekiston hududida yashagan tabiblar

1. Muhammad Husayn Miroqiy as-Samarqandiy
2. Shoh Ali ibn Sulaymon al-qahhol
3. Sulton Ali Xurosoniy
4. Mullo Muhammad Yusuf
5. Ubaydulla ibn Yusuf al Qahhol
6. Mir Muhammad Husayn al-Oqiliy

Ushbu davrning yirik tabiblaridan biri – Shoh Ali ibn Sulaymon qahhol (ko‘z tabibi)dir. Shoh Ali ibn Sulaymon Toshkent hokimi Baroqxon saroyida xizmat qilgan eng kuchli tabiblardan biri bo‘lib, o‘z asarlarini she’riy usulda yaratgan.

Shoh Ali ibn Sulaymonning tibga oid asarlari 1499–1500-yil yozilgan “Qahhollik san’atiga bag‘ishlangan risola”(she’riy uslubda yozilgan). Mazkur asar ko‘zning tuzilishi, ko‘z kasalliklarining kelib chiqishi, ularni aniqlash va davolash masalalariga bag‘ishlangan. 1544-yilda yaratilgan “Zubdai manzuma”. Bundan tashqari Shoh Ali ibn Sulaymon X asrda Ali ibn Isoning “Tazkirat ul kahholin” asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan.

1510–1530-yillarda mamlakatni boshqargan Ko‘chkunchixon saroyida o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan tabiblaridan biri Sulton Ali Xurosoniy xizmat qilgan. Ularning kelib chiqishlari Xurosondon bo‘lgani bois “Tabib-i Xurosoniy”, ya’ni Xuroson tabibi deb nisbat berilgan[2]. Sulton Ali Xurosoniy Samarqandda 40 yildan ortiqroq yashab tabobat ilmi bilan shug‘ullangan. Sulton Ali Xurosoniy o‘zining barcha ilmiy-amaliy ishlari haqida ikkita asar yozdi, mazkur asarlar bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Sulton Ali Xurosoniy qalamiga mansub yozgan tibbiy asarlar:

1526–1527-yillar “Dastur al-iloy” (“Davolash dasturi”) asari yozilgan. Asar ikki qismidan iborat:1-qismi – 24 fasl; 2-qismi 8 fasldan iborat. Asarda inson organizmining barcha a’zolari kasalliklarini boshdan boshlab, oyoqqacha batafsil bayon etgan.

Sulton Ali Xurosoniy 1530–1533-yillar “Muqaddimai dastur al-iloy” (Kasallarni davolash bo‘yicha qo‘llanmaga kirish”) asarini yozdi. Mazkur asarda salomatlikni saqlash uchun qanday tadbirlarni amalgalash yurish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Buxoroda shayboniyalar sulolasи saroyida xizmat qilgan, dono, o‘tkir tabiblardan biri Mulla Muhammad Yusuf asli toshkentlik tabib bo‘lib, qahhol (ko‘zni davolaydigan tabib-S.N.) kasalliklaridan tashqari, boshqa kasalliklarni ham yaxshi bilgan. Ularni Samarqand hokimlaridan Abdullalatifxon (1540–1551-yillar) o‘ziga shaxsiy tabib etib tayinlagan.

Mulla Muhammad Yusuf “Tahqiq ul-hummayot” (“Isitmalarни aniqlash”) “Risola dar tah tahqiq-i nabz va tafsira” (“Tomir va peshob haqida risola”) “Ko‘z tabibining afzalligi”

asarlarini yaratgan.

Mulla Muhammad Yusufning “Tomir va peshob haqida risola” asari ikki qism (“maqsad” va “matlab”)dan iborat bo‘lib, birinchi qismda tomir urishining yil fasliga, kishi ruhiyatiga qarab o‘zgarishi, kasallik turiga ko‘ra o‘zgarishlari bayon etilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida peshobga qarab kasalliklarni aniqlash usullari bayon etilgan. Muallifning ta’kidlashicha, har ikkala asarni yozishda o‘z ustozi mavlono Mirkalonning ko‘rsatma va maslahatlariga amal qilganlar.

Shayboniylar sulolasi davrida yashagan ko‘z tabiblaridan yana biri Ubaydulloh ibn Yusuf qahholdir. U Toshkent hokimi Muhammad Darvish Baxodirxonga bag‘ishlab 1562–1567-yillar mobaynida 500 betlik “Shifo ul alil” – “Kasalliklar shifosi” nomli katta asar yozdi. Asar ikki – kitobdan iborat bo‘lib, o‘sha davr tabobatiga xos – an‘anaviy bo‘lgan “boshdan to tovongacha” tana a‘zolarining kasalligi hamda davolash usullariga bag‘ishlangan. Kitobni yozishda Ubaydulloh ibn Yusuf Abu Bakr Roziy, Ismoil Jurjoniy, Najibuddin Samarqandiy tajribalaridan foydalangan.

Muhammad Oqiliy-Mir Muhammad Husayn al-Oqiliy – tabiblar oilasidan bo‘lgan. Asli o‘zi xurosonlik bo‘lib, lekin Mashhadda yashagan. U tibga oid bir qator asarlar yozgan: 1.“Dorilar xazinasi”. 2.“Qorabodin” (Farmakopeya) Kitobda organlarning yunoncha, arabcha, turkcha (o‘zbekcha) nomlari berilgan. Dorilar, ularni tayyorlash, foydalanish usullari keng yoritib berilgan. Muhammad Oqiliyning tibga oid asarlar O‘zbekistonda keng tarqalgan.

XVI asrning o‘rtalarida Toshkentning “Chorbog” nomli hududida o‘z davrining yirik kasalxonalaridan biri maxsus “Shifoxona” aholiga xizmat ko‘rsatgan. “Shifoxona” oddiyina davolash maskani bo‘libgina qolmay, uning tarkibiga talabalarga tibbiyotdan dars beruvchi madrasa va dorixonalar ham mansub bo‘lgan. Uzoq yillar davomida Movarounnahrning tarkibiy qismi bo‘lgan Hirotda “Dor ush shifo”ning ochilishi bu yerda o‘sha davrning mashhur tabiblarining to‘planishiga xizmat qilgan. Hirota kelib bu yerda faoliyat olib borgan mashhur tabiblardan yana biri – Ne’matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Hakim Kermoniydir. Hakim Kermoniyning bilim doirasi nihoyatda keng, u faqat tabibgina bo‘lmay, balki shoir ham bol‘gan. Hakim Kermoniy 1463–1464-yillarda “Bahr ul havoss” nomli asar yozdi. Mazkur asar muqaddima, uch maqola va xotimadan iborat. Muqaddima qismida tabobatda foydalaniladigan o‘simlik va qimmatbaho toshlarning nomlari va ularning turli tillardagi ma’nolari keltirilgan. Birinchi maqola sodda holda ishlatiladigan dorilarning xossalari bag‘ishlangan, ikkinchi maqola murakkab dorilarning tayyorlanishiga, uchinchi maqola esa dorilarning kasalliklarga qarab qanday tartibda, qanday miqdorda berilishiga va xotima qismida tabobatda ishlatiladigan atamalarga bag‘ishlangan.

Hirot hukmdorlari saroy tabiblaridan yana biri – Muhammad Husayniy Purbaxshiy Bahouddavladir. U 1501-yilda “Xulosat at-tajorib” – “Tajribalar xulosasi” nomli asar yozgan. Mazkur asar Muhammad Husayniy Purbaxshiy Bahouddavlanning ko‘p yillik kuzatuvlari natijasida darslik shaklida tuzilgan.

XVI asr tabobatiga ulkan hissa qo‘sghan tabiblardan yana biri – Imoduddin Mahmud ibn Ma’sud Sheroziy (1515–1592 yil) bo‘lib, hozirgi kunga qadar ularning 20 dan ortiq ilmiy asarlari fanga ma’lum.

Imoduddin Mahmud ibn Ma’sud Sheroziy tibga oid 1569-yilda “Risola-i otashak” – “Zaxm haqida risola” asarini yozdi. Uning “Risola-i podzahr” (Yozilgan yili noma’lum), “Risola dar bob-i samum” – “Zaharlarga bag‘ishlangan risola” (Yozilgan yili noma’lum) asarlari ma’lum.

Buxoro xonligining Subhonqulixon davridagi tibbiyotga nazar tashlasak, Buxoro amiri Subhonqulixon – Sayyid Muhammad Subhonqli ibn Sayidnodir Muhammadxon 1680–1702-yillarda Buxoro xonligini idora qilgan davrda tibbiyot ilmi yanada ravnaq topdi. Subhonqulixon o‘z zamonasining tabiblariga homiylik qilish bilan birga o‘zi ham tib ilmi bilan jiddiy shug‘ullangan. U ayniqsa Ibn Sino, Hakim Kermoniy asarlarini chuqur o‘rgandi.

Subhonqulixon mamlakat boshlig‘i sifatida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash ishiga ma’lum darajada e’tibor berdi. O‘z davridayoq mamlakatning har bir fuqarosi sog‘lom bo‘lsa, u mamlakat ravnaqi uchun, jamiyat uchun nihoyatda qadrli, foydali fuqaro ekanligini bildi. Aholi salomatligini saqlashda sifatli, to‘yimli ovqatlanish, ozodalik-tozalik, shaxsiy gigiyena

hal qiluvchi omil ekanligni bildi. Tibbiyot rivojidagi alohida salmoqli xizmatini quyidagilarga ajratib ko'rsata olishimiz maqsadga muvofiqdir:

O'rta Osiyo sharoitida yozning issiq kunlarida ich ketish kasalligi ko'payadi. Shuning oldini olish maqsadida nonvoylar non yuziga kunjut urug'i sepib yopsinlar, degan farmon chiqardi; Kunjut avvalo xushbo'y hidli, yoqimli, ikkinchidan, u ich ketishni to'xtatadi. Farmon bilan boshlangan bu tadbir hozir odat tusiga kirgan;

Subhonqulixon o'zbek (turkiy) tilida birinchi yozilgan tibbiy asarlar muallifi sifatida tibbiyot tarixida muhim o'rinni tutadi. Subhonqulixonning tibga oid ikki asari borligi ma'lum. Asarning o'zbek tilida yozilganligi haqida muallif shunday yozgan: "O'tmishdagi tabiblar bizga arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Men turk (o'zbek) tilida yozilgan tibbiy kitob uchratmadim. Mahalliy aholi arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalana olmaydi. Shuning uchun men o'z kitobimni turk (o'zbek) tilida yozdimki, undan o'zimizning odamlar foydalansinlar."

1682-yilda Subhonqulixon farmoni bilan Buxoroda kasalxona barpo etildi. U "Dor ush-shifo", ya'ni "Shifo beruvchi manzil"^[3] deb atalar edi. Kasalxona mablag'i xon xazinasidan ajratilgan. U vaqf yerlar va boshqa manbalardan ta'minlangan. Shifoxona madrasa ko'rinishida qurilgan bo'lib, 18 ta hujra-palatadan tashkil topgan. Shifoxona majmuasiga: A) shifoxona; B) tibbiy maktab; V) yirik kutubxona; G) dorilar tayyorlanadigan xonalar kirgan.

Buxoro "Dor ush-shifo"da quyidagi olim – tabiblar dars berishgan: 1) Mavlono Mirqosim Hakim – kasalxona va tibbiy maktab rahbari sifatida faoliyat yuritganlar; 2) Hoja Amin Rais; 3) Oxund Mullo Abdug'afur Hakim; 4) Xoja Yoqub (bular Subhonqulixonning kitobdori bo'lganlar); 5) Mullo Mirmuh

Subhonqulixon – Sayyid Muhammad Subhonquli ibn Sayidnodir Muhammadxonning – tibga oid ikkita asari ham o'zbek tilida yozilgan, ammo Subhonqulixonning o'zi amaliy tibbiyot bilan shug'ullanligi ma'lum emas. "Ihyo ut tibi Subhoni" yoki "Subhonning hayotbaxsh tibbiyoti" deb nomlangan. Mazkur asar 8 qismdan iborat bo'lib, asar dorilarga bag'ishlangan. Har bir qismda dorilar sifati, tayyorlanishi va ishlatalishiga oid masalalar batafsil yoritilgan. Subhonqulixon tomonidan yozilgan ushbu asarga faqatgina Ibn Sinoning tibga oid asarlarigina emas, balki asli eronlik bo'lgan Ne'matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Hakim Kermoniyning 1463–1464-yillarda yozgan "Bahr ul xavoss" ("Xosiyatlar dengizi") asari ham katta turtki bo'lgan.

Subhonqulixon tomonidan yozilgan yana bir tibga oid asar "Subxon tibbiyoti" deb nomlangan. Kitob u qadar katta hajmli emas, ammo tili tushunarli, sodda bo'lib, har xil kasalliklarni aniqlash va davolash haqida aniq ma'lumotlar bergen.

Tibbiyot madrasasiga dars bergan olimlar keyinchalik Subhonqulixonning topshirig'i bilan Ne'matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Hakim Kermoniyning 1463–1464-yillarda yozgan "Bahr ul xavoss" ("Xosiyatlar dengizi") asarini, Ibn Sinoning "Qonuni"ga, nabototga oid bo'lgan "Ixtiyor badiiy", tibga oid "No'zhat ul qulub", "Bahr ul javohir," "Shifo ul alil" asarlari bilan solishtirib, kelingan xulosani tibbiyotga oid asar ko'rinishida Hakim Abdurahmon Barqiyxon uchun oqqa ko'chirishgan.

Abulg'ozibn Abulmuhammadxon Xorazmiy (1605–1664-yillar) Xiva xonligini 1644–1664-yillarda idora qilgan tarix, riyoziyot, adabiyot va tibbiyot sohasida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan davlat arbobi bo'lgan. U o'zi hukmronlik qilgan yillarda mamlakatda obodonchilik ishlariiga katta ahamiyat berdi. Madrasalarda o'qitish jarayonini yaxshilashga katta ahamiyat berdi. Uning o'zi ham tarix va adabiyotga oid bir qancha asarlar yozgan. Mamlakatdagi madrasalarni ta'mirlatish ishlari bilan bir qatorda, poytaxtdagi madrasa qoshida kambag'allar va bemorlar uchun kasalxona tashkil etdi. Kasalxona va dorixona xarajatlari xonlik xazinasi hisobidan amalgalashgan.

Abulg'ozibn Abulmuhammadxon Xorazmiy tibga oid "Insonga foydali kitob" asarini o'zbek tilida yozdi. O'zbek tilida yozilgan bu asar so'ng fors tiliga tarjima qilindi. Mazkur asar to'rt qismdan iborat. Uning dastlabki qismida oddiy dorilar, ularning xossalari, tayyorlanishi va ishlatalish usullari bayon etilgan. Asarning ikkinchi qismi murakkab dorilar, ularni tayyorlash, ishlatalish usullari va saqlash qoidalari bag'ishlangan. Uchinchi qismi

tibbiyotda eng ko‘p ishlatalidigan dorilarga – umumiy dorilarga bag‘ishlanadi. Abulg‘ozixonning “Insonga foydali kitob” asari tabiblar o‘rtasida keng tarqaldi va undan ko‘p tabiblar foydalanishgan.

O‘scha davrda Marvda Sayyid Muhammad Hasrat ismli shoir va tabib yashagan. Asli Mahadlik bo‘lgan bu tabib, faqat tib ilmini emas, balki tarix, adabiyot fanlarini ham chuqur o‘rgangan. Turkiya, Hindiston, Iroq kabi mamlakatlarda bo‘lib, oxiri Marvga kelib, mashhur tabiblardan saboq oldi va umrining oxirigacha shu yerda yashadi. Sayyid Muhammad Hasratning tibga oid asarları: “Sihatlik nazmi” (Marv hokimi Bayramxonga bag‘ishlangan asar); “Tuhfai Husayniy” (Marv hokimi Bayramxon o‘g‘li Husaynga bag‘ishlangan asar).

Sayyid Muhammad Hasrat “Sihatlik nazmi” asari o‘z nomiga ko‘ra, she’riy usulda yozilgan. Kitobda mizoj, uning mohiyati va xillari, xiltlar, ovqat mahsulotlari va ularning salomatlikka ta’siri bayon etilgan. Ovqat mahsulotlaridan tuxum, go‘sht, parranda go‘shtlari, ularning inson salomatligidagi o‘rni, ularning “issiqlik”, “sovusqlig” xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Shifokordan dori bilan birgalikda bemorning ovqat tavsiyasiga ham jiddiy e’tibor berishi zarurligi uqtirilgan. Masalan, eng yaxshi tuxum tovuq tuxumi ekanligi ko‘rsatilgan. Hasratning fikricha, tovuq tuxumining sarig‘i “issiqlik”, oqi esa “sovusqlig” xususiyatiga ega. Yong‘oq – “issiq” va “quruq” xususiyatga ega. Yong‘oq jigar, taloq va me’da kasalliliklarida yaxshi foya keltiradi. Sayyid Muhammad Hasratning “Tuhfai Husayniy” asari oddiy dorilar va ularning “issiqlik va sovusqlig” xususiyatlariga bag‘ishlangan. Darhaqiqat, mizoj-insonning ichki immanent, tabiiy-ruhiy me’yordir. Aynan ovqat, kiyim, kasallikni davolashda u mezon sanaladi.

Xulosa. Yuqorida nomlari zikr etilgan tabiblar asarlarini topish, o‘rganish va ularni o‘zbek, rus tillariga tarjima qilish – davr talabi. Zero, har bir asar tarkibida ko‘rsatilgan dorivor o‘simliklarni o‘rganib, xalq tabobati orqali davolashdagi o‘rni beqiyosdir. Ikkinchi yana bir muhim tomoni bilishda tajriba-amaliyotning o‘rni beqiyos zarurligiga e’tibor qaratib, individual salomatlik bilan jamiyat salomatligi dialektik aloqadorlikdagi mantiqiy tahlil qilib, bunga oid tib ilmlarini amaliyotga qo‘llaganliklaridir. Sog‘lom turmush tarziga oid Ibn Sino g‘oyalalarini yanada rivojlantirib, faslga mos ovqatlanish, mizoja mos, o‘z individual tabiiy holatiga mos ovqatlanishlar, tozalikka jiddiy e’tibor, dorivor o‘simliklar, foydali ko‘katlardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘ya olganliklaridir. O‘z davrining faylasuflarigina emas, hatto shoirlari, davlat rahbarlari – xonlarning ham tabobat ilmi bilan qiziqib, uni o‘rganishgani, tibbiy ilm, madaniyatni to‘g‘ri targ‘ib eta olganlaridir.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Саломова Х.Ю., Иноятов А.Ш., Саломова Н.М. Ибн Синонинг тиббий илмий мероси. – Самарқанд-Бухоро, 2019. –140 б.
2. Махмуд Ҳасаний, Каримова С. Навоий даври табобати. –Т.: Ибн Сино, 1991. 7-бет.
3. История Узбекистана (XVI- первая половина XIX в.) Отв. ред., проф. Д. А. Алимова. - Т.: Фан., 2012. - С.594.
4. Чориев А. Инсон фалсафаси. Биринчи китоб. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. –Т.: “Chinor ENK”.1998.
5. Чориев Анвар. Инсон фалсафаси. Иккинчи китоб. Мустақил шахс. –Т.: Chinor ENK, 2002. –274 бет.
6. Чориев Анвар. Инсон фалсафаси. Учинчи китоб. Ижтимоий тарбия. Қарши:Ilm-fan-ma’naviyat, 2024. –344 бет.
7. Инженерная экология и экологический менеджмент. - М.: Логос, 2003. - Учебник XXI века. - 530 С.
8. Саломова Х.Ю. Экология ва яшил иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. // Бухоро: Дурдона, 2023. – 178 б.
9. Саломова Х.Ю. Меърнинг фалсафий моҳияти ва амалий аҳамияти. Бухоро: Дурдона, 2018.–198 б.
10. Yusupovna S. H., Nodir K. Jalaluddin Rumi's Human Essence and His Comments on the Types //Asian Journal of Basic Science & Research. – 2023. – T. 5. – №. 2. – C. 46-59.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN YURT HAQIDA MULOHAZALAR

Ko‘paysinova Nargiza Karimovna
 Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy
 akademik litseyi, o‘qituvchi
 Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
kopaysinovanargiza7223@gmail.com

UDK 929/94(575.1)“13”

Annotatsiya. Sohibqiron Amir Temur jahonning mashhur sarkardalaridan biri bo‘lib, xudo bergen ulug‘ lashkarboshilik salohiyatini to‘la-to‘kis namoyon eta olgan, tengi yo‘q buyuk armiya qo‘mondoni, davlat arbobi, ilm-fan homiysi - Ikkinchı Renessans asoschisi sifatida tarixga kirdi. O‘z davrida barcha raqiblarini munosib ravishda yengdi va Movarounnahr hukmdori bo‘ldi. Tarixda Temuriylar davlati nomi bilan mashhur bo‘lgan imperiya asoschisiga aylandi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo‘ylari, Balxash ko‘li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirdi hamda ulkan saltanatni vujudga keltirdi.

Kalit so‘zlar: Renessans, imperiya, qo‘lyozma, muarrix, tug‘ilgan joy, muallif, dargoh, sulola, qishloq, qo‘shin, istiqlol.

Abstract. Amir Temur, one of the most famous military leaders in the world, fully demonstrated his extraordinary military leadership skills granted by God, becoming an unparalleled great army commander, a statesman, and a patron of science and culture – recognized as the founder of the Second Renaissance. During his time, he successfully defeated all his rivals and became the ruler of Movarounnahr. He is remembered in history as the founder of the empire known as the Timurids dynasty. His vast empire stretched from India and China to the Black Sea, covering regions from the Aral Sea to the Persian Gulf, including parts of Small Asia, Syria, Egypt, the lower the Volga, the Don, the area around Lake Balkhash, the Elsuvi River, and Northern India, establishing a great state.

Keywords: renaissance, empire, manuscript, historian, place of birth, author, court, dynasty, village army, independence

Kirish. “Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon talablari, kerak bo‘lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat-xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi... Kimki Amir Temur qadimiy Turkiston zaminida tasodifan paydo bo‘lgan desa, xato qiladi. Nega deganda hech narsa to‘satdan paydo bo‘lmaydi” [1.3].

Bugun xalqimiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshshiligidagi “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” deb nomlangan bosh g‘oyasiga tayanib, Ushinchı Renessans poydevorini yaratish yo‘lida birlashdi. Ushinchı Renessans poydevori bo‘lgan vatanimiz tarixidagi ikkinchi Uyg‘onish davri bunyodkori Amir Temur shaxsini va siyosatini har tomonlama o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sohibqiron Amir Temur jahonning to‘rtta mashhur sarkardalaridan biri, ulug‘ lashkarboshi xudo bergen salohiyatini to‘la-to‘kis namoyon eta olgan, tengi yo‘q buyuk armiya qo‘mondoni edi. Bir qancha janglarda g‘alaba qozonib Movarounnahr hukmdori bo‘ldi va Temuriylar davlatiga asos soldi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo‘ylari, Balxash ko‘li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirdi.

Temurbekka ko‘plab hukmdorlarda bo‘lganidek, saltanat mulk sifatida otadan meros bo‘lib o‘tmadi. Balki Yaratganning inoyati tufayli o‘zining jidd-u jahdi, g‘ayrati bilan markazlashgan davlat asoschisi bo‘ldi. U bir tug‘ ostida shunshalik katta hududni qovushtira oldiki (tarixshilar Amir Temur imreriysi o‘sha paytdagi 27 davlatni birlashtirganini qayd etadilar. Bugungi holatga razm solinsa, bu davlatlar soni 40 ga yaqinlashib qoladi), o‘sha yillari ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand deyarli yer yuzining bosh kentiga aylandi. Bu ulug‘ saltanat insoniyat tarixidagi eng buyuk imperiyalardan biri bo‘lib qoldi[6.4].

E’tibor bering, ana shunday bepoyon hudud bir odamning qosh-u qabog‘iga qarardi, uning irodasi turli din va e’tiqoddagi odamlar uchun qonun edi. Yana ye’tirof etiladiki – bu ittifoq kuchga, zulmga asoslanmagan edi (mamlakat yaxlitligini ta’minlash uchun

uyushtirilgan harbiy harakatlar istisno qilinadi), balki xalqlarning sohibqiron panovida bo‘lishi o‘sha xalqlarga bo‘lgan marhamati ostida taraqqiy etib, to‘q, farovon yashash xohishidan yuzaga kelgan yaxlit davlat barpo etilganligi edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohibqiron Amir Temur haqidagi turlicha fikrlar qariyb 700 yildan beri tarix charxpalagida aylanadi. Garchi Yer joyida turgan bo‘lsa-da, tuzumlar-tutumlar nesha bor o‘zgardi va shaxsga munosabat ham ming bora turlandi. Gapning sirasini aytganda, tarix g‘aladonida Sohibqiron Amir Temurdek turli nuqtalardan baho berilgan zot kam bo‘lsa kerak.

Turlicha qarashlarning bildirilishi tabiiy hol, taraqqiyot (tiriklikni ta’minlab turgan harakat) ning tabiat shuni talab qiladi. Ya’ni rivojlanish qarama-qarshi qutblarning o‘zaro kurashi – ikkiga bo‘linib olib, bir-biriga qarshi “jangi oqibatida yuzaga kelishi tabiiy, bir masalaga hammaning bir xil qarashi mumkin emas”. Vatandoshimiz Amir Temurga munosabatda esa inson tabiatiga xos juda ko‘p omillar mujassamlashgan[12.37].

Avvalo, shaxs ziddiyatining boisi - faoliyat ziddiyatlarga to‘la makonda kechganidan. O‘shanda ham vatan zulm iskanjasida edi: qariyb bir yarim asrlik mo‘g‘ullar istilosini hamma narsaning odatdagisi o‘zanini buzib yuborgan va qaror topgan azaliy qadriyatlar bir qancha qoliplar tazyiqi ichida yashardi, millat o‘zligini, qiyofasini yo‘qotgandi.

Ikkinci omil esa bevosita Sohibqironning maslagi bilan bog‘liq. “Temur tuzuklari”da bunday qayd etiladi: “Dilimning mashriqidan ko‘tarilgan bиринчи тузугим har yerda va har qachon islam diniga va Muhammad (s.a.v.)ning shariatlariga rivoj berish bo‘ldi”.

Demak, e’tiqod bayrog‘iga qadami yetgan joyda musulmonchilikni joriy etaman, degan shior yozilgan fidoyining ham harakatlari bir xil kutib olinmasligi, qarshilikka uchrashi oddiy haqiqat.

Uchinchi bir sabab shundan iboratki, buyuk bobomiz ot surgan, o‘z qalamraviga olgan hududlar masofa jihatidangina emas, tarixi, ma’naviyati, aholisi, udumlar – umuman, butun borlig‘i bilan bir qolipga sig‘masdi va bunday bepoyonlikda hammani bir dunyoqarashda, yagona fikrlash tarzida ushlab turish ham imkondan tashqarida edi[11.52].

Ushbu maqolani yozishdan maqsadimiz shuki, Sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan joy va shaxsiy sifatlari haqida manbalarda berilgan turli ma’lumotlar mavjudligi sabab ularni tahlil qilishni istadik. Ushbu tahlilimizga Sohibqiron bilan zamondosh bo‘lgan ikki tarixchining bergen ma’lumotlarini asos qilib oldik.

Natijalar va muhokama. Ulardan biri Ibn Arabshoh (1392-1450) bo‘lib, “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur” qo‘lyozmasida berishisha, Amir Temurning ismi Temur ibn Tarag‘ay ibn Abag‘ay bo‘lib, uning tug‘ilgan joyi Xo‘jailg‘or qishlog‘i ekanligi, Xo‘jailg‘or Keshga qarashli joy ekanligi, Kesh Movarounnahr shaharlaridan biri bo‘lib, Samarqanddan 13 farsax masofada joylashganligi, Abbas, Jahonshoh, Qumori Inoq, Sulaymonshoh, Idiku Temur, Joki Barlos va Sayfuddin Barlos ismli 40 chog‘li tengqurlari, Kesh shahridagi Shamsuddin al-Foxuriy ismli shayx Amir Temurning piri haqida, Temurning yoshligidan aqli, oshiq ko‘ngilli, jur’atl, qat’iy kuchli va qobiliyatli bo‘lib o‘sgani, Husaynni 771-yilning sha’bon oyida (28-fevral – 29-mart 1370-yil) mag‘lub yetgani va shu vaqtadan boshlab mustaqil ravishda hokimiyatga egalik qilib, 807-yilning sha’bon (1405-yil fevral) oyida vafot etishi bayon etiladi[5.64-74].

Shu o‘rinda adib haqida ozroq to‘xtab o‘tmochiman. Ibn Arabshohning to‘liq ismi Shihabuddin Ahmad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo‘lib, milodiy 1389-yilda Damashq shahrida tugilgan. Amir Temur 1401-yilda Shom (Suriya)ni zabt etgach, u yerdan juda ko‘p olimlar, fozillar, me`morlar va kosib-hunarmandlarni Movarounnahrga olib ketadi[13.].

O‘n ikki yoshlaridagi Ibn Arabshoh ham oilasi bilan Samarqandga olib kelinadi. U bu yerda kamolga yetadi, madrasalarda o‘qib, yaxshi bilim oladi, fors va turk tillarini o‘rganib, adib va olim bo‘lib yetishadi.

Bularning barchasi damashqlik asirning Temur davrida zulm-taaddi ostida yashamaganligini, balki Sohibqiron hukmdorligi ostida yaratilgan yaxshi imkoniyatlardan bahramand bo‘la olganligini ko‘rsatib turibdi[13].

Ibn Arabshoh bir necha ajoyib asarlar muallifidir. Uning “Mir‘ot ul-adab fi-l bayon v-al-maoni” (“Ma‘no va bayonda adabiyot oynasi”), “Jilvat al-amda al-jamoliya fi-xullatay al-

aruz v-al-arabiya” (“Arab tili va aruz libosi bilan bezalgan go‘zal madhlar jilvasi”), “Foqihat al-xulafo va muhofiqat az-zurafo” (“Xalifalar ovunchog‘i va zariflar ermag‘i”) va boshqa chuqur ma’no, nozik uslub, o‘ynoqi saj‘ bilan yozilgan asarlari arab va jahon ma‘naviy xazinasining noyob durdonalari hisoblanadi. Uning nomini olamga mashhur qilgan shoh asarlaridan biri Amir Temur va temuriylar davri hayotiga bag‘ishlab yozilgan “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) hisoblanadi. Mazkur asarda muallif o‘zi ta‘kidlaganidek “o‘zi ko‘rib mushohada etgan” voqealar va “o‘zgalardan eshitgan” ma‘lumotlar asosida Amir Temurning hukmronligi, yurishlari va insoniy sifatlari, xulq-atvori haqida batafsil hikoya qiladi.

Ibn Arabshoh o‘z asarida Amir Temur va uning faoliyatiga xolisona yondashgan. Garchi Sohibqiron qo‘sishinlari tomonidan asir olinib, o‘zga yurtga keltirilgan bo‘lsa-da, Amir Temurning jangovar va bunyodkorlik salohiyatini qalamga oladi. Ibn Arabshoh Amir Temurni azmu qarori qat‘iy, qanchalik achchiq bo‘lmasin – haqiqatni xush ko‘rib, adolat yuzasidan ish tutuvchi, chuqur fikr-mulohazali, vazmin, tadbirkor, jasoratli, muruvvatli, oliyhimmat, ulug‘vor bir inson sifatida tasvirlaydi. U tasvirda ortiqcha maqtov va madh-u mubolag‘aga berilmaydi. “Temur tamg‘asining naqshi “rosti rusti” bo‘lib, “haqgo‘y bo‘lsang – najot topasan” demakdir, – deb yozadi muarrix. Temur bexato nishonga uruvchi, fikr-mulohazali, bag‘oyat farosatli, mislsiz darajada baxtli-saodatli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat‘iy azm-u qaror bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqgo‘y inson edi... Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo‘lib, qattiqqo‘lligi ezguligiga aralashgan edi”.

Ibn Arabshoh har bir insonda bo‘lgani kabi Amir Temur fe‘li-atvoridagi bu ikki tomon, qarama-qarshilikni xolis, odilona tasvirlaydi, uning yurt obodligi borasidagi sa`y-harakatlari, ilm-fan, madaniyatga qilgan buyuk homiyligi, ulamo-yu fozillarga ko‘rsatgan izzat-ikromini aytish bilan bir qatorda uning muruvvati haybati bilan aralash ekanligini keltiradi.

Ibn Arabshoh Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy yondashgan mualliflardan biri bo‘lib, mazkur holat uning asarida ham aks etgan. Masalan, Amir Temurning bolaligi, harbiy yurishlarning sabablari va ayniqsa, urush qurbanlari soni juda ham bo‘rttirib keltiriladi. Ibn Arabshohning ko‘plab salbiy ma‘lumotlari boshqa bu davr mualliflari tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa-da, ushbu asar Amir Temurga zamondosh bo‘lgan muarrix tomonidan yozib qoldirilganligi bois qadimiy qo‘lyozmalardan biri sifatida qimmatlidir.

Ibn Arabshoh Amir Temurga qanchalik salbiy nazar bilan qaramasin, har holda uning shaxsini munosib baholagan edi. Masalan, “Yetmish yoshli Temurning fikrlari hali ham qat‘iy, har jihatdan kuchli va baquvvatdir... U istehzo va soxtalikni yoqtirmaydi, baxtsiz hodisa ro‘y berganda g‘amga botmaydi, doim sergak va mardonan turadi, uning oldida hamma itoatgo‘y bo‘lib qoladi va hurmat bajo keltiradi. U mard va jasur odamlarni yoqtiradi. U masalaning mohiyatini darhol payqab oladigan mohir bahschi edi. U farosati bilan haqgo‘yni yolg‘onchidan va samimiy maslahatchilarni soxta nasihatgo‘ylardan farqlar edi” [10.20-14] deydi.

Sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan joy haqida ma‘lumot bergen yana bir muarrix” Muntaxib ut-tavorixi Muiniy” asarining muallifi Muiniddin Natanziy ma‘lumotlari haqida ham to‘xtalmoqchimiz.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarida muallif Amir Temur tug‘ilgan joy sifatida Niyoziy nomli qishloqni qayd qiladi [2.262]. Natanziy asari hali u qadar o‘rganilmagan paytda, ilmiy adabiyotlarda Amir Temurga zamondosh mualliflardan faqat Ibn Arabshoh Sohibqiron tug‘ilgan joy sifatida Xoja Ilg‘or nomli qishloqni qayd qilgan, deb hisoblanar, boshqa muarrixlar “Kesh (Shahrisabz) atrofida tug‘ilgan” deb yozish bilan cheklanishgani ta‘kidlab o‘tmochimiz.

Shu o‘rinda “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” muallifi Muiniddin Natanziyning hayoti haqida ham to‘xtab o‘tishni lozim deb bildik. Muiniddin Natanziyning hayoti haqida ma‘lumotlar kam saqlanib qolgan. Nisbasiga ko‘ra, u Isfaxon viloyatidagi Natanz shahrida tug‘ilgan. Natanz shahri Isfaxondan 134 km shimoli-sharqda joylashgan bo‘lib, unda hozirgi davrgacha ko‘plab tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” yozib bo‘linganidan keyin o‘sha davrdagi Temuriylar davlati hukmdori bo‘lgan, g‘arbgan qilgan yurishidan Hirotg‘a qaytib kelgan (1414-yil 7-

oktyabr) Shohrux Mirzoga taqdim qilingan. Natanziy Shohrux nomini quyidagi unvonlar bilan tilga oladi: “Muin ud-dunyo vad din (Dunyo va dinning tayanchi) Abulfath, Shohrux bahodir”.

Natanziy, Shohrux Ozarbayjon va Fors mamlakatlariiga yurishga ketganida, Xurosonni amir Muso ibn Shodixoja bahodir Nasafiy ixtiyoriga topshirganini xabar qiladi. Muarrixning yozishicha, marhum Sohibqiron davrida ham mazkur amir xatarli yumushlarni bajarishga mashg‘ul bo‘lgan[2.163]. Shohrux safardan qaytayotganida, amir Muso uni kutib olish uchun boshqa sovg‘a-salomlar qatorida Natanziyga, shu paytgacha olam yaratilganidan boshlab yozilgan tarix kitoblari temuriylar xonadomi tarixini qamrab olmagani uchun nuqsonli ekanini aytib, Temuriylar davri tarixini ham uz ichiga olgan bir kitobni yaratishni topshiradi. Natanziy bu kitobni yozib, unga “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” deb nom qo‘yadi[2.139].

Amir Muso Natanziyning axborotchilaridan biri bo‘lib, muarrix aksar ma’lumotlarni, jumladan, mazkur amir asli nasaflik bo‘lganini nazarda tutganda, Amir Temur tug‘ilgan Niyoziy qishlog‘i haqidagi xabarni undan olgan bo‘lishi mumkin. Amir Muso haqida ma’lumotlar kam. Biroq Nizomiddin Shomiyining “Zafarnoma” va Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarlaridagi Muso ismli bir amirning faoliyati Muiniddin Natanziyning Muso ibn Shodixoja Nasafiy haqidagi ma’lumotlariiga bir daraja mos keladi. Amir Temur hayoti haqidagi asarlarda ikkita amir Muso degan shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Ularning birinchisi Amir Temurning siyosiy faoliyati boshlangan davrlardayoq Movarounnahrning nufuzli arboblaridan biri bo‘lgan amir Muso bo‘lib, u oldin amir Husayn, uning vafotidan keyin Amir Temur nikohiga kirgan Saroymulkxonimning tog‘asi edi. Amir Muso siyosat sahnasida ba’zan sohibqironga ittifochi bo‘lsa-da, ko‘p hollarda muxoliflik ko‘rsatgan. Bu hol Amir Temur taxtga chiqqanidan keyin ham davom etadi. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sida mazkur amir Muso oxirgi marta Amir Temur 1372-yilda Mo‘g‘ulistoniga yurishdan qaytayotganida sohibqironga sui’qasd uyuşhtirganlardan biri sifatida tilga olinadi.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sida 1398-yilda Hindistonga yurish asnosida tog‘li Katur viloyatini zabit etish uchun qilingan janglarda ishtirop etgan amir Muso nomi zikr etiladi. Albatta, bu amir o‘zining Sohibqironga muxolifligi bilan nom qozongan oldingi amir Muso bo‘lmay, bizning nazarimizda, keyinchalik Natanziy uchrashgan amir Muso ibn Shodixoja Nasafiydir. Mazkur amir Muso nomi sohibqironning Turkiya sultonasi Yildirim Boyazidga qarshi yurishida ham zikr etiladi va Anqara jangida u kishinning amirzoda Shohrux qo‘mondonlik qilgan chap qanoti (maysara)da jang qilishga tayinlangan.

“Matlai sa’dayn va majmai bahrayn”da amir Muso 1410-yilda Shohrux tarafidan Mary shahrini obod qilishga tayinlangan ulug amirlar qatorida zikr qilinadi[4.171].

Xulosa va takliflar. Yo‘qorida Sohibqiron Amir Temur haqida ma’lumot bergen ikki muarrixni bergen ma’lumotlari bilan birga, ularni o‘zлari haqida ham ozroq to‘xtaldik. Ibn Arabshoh Sohibqiron Amir Temur vafot etganida endi 16 yoshga kirgan o‘siprin bo‘lgan. Muiniddin Natanziy esa bu davrda o‘z zamonasining yetuk olimlaridan biru bo‘lgan. Bu haqida Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida “Muiniddin Natanziy bir qancha muddat Sheroz va Isfahon shaharlarida Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayx dargohida bo‘lgan. “Muiniddin Natanziy Sulton Iskandar davrida Iroqi Ajam va Forsda mashhur olimlar jumlasidan bo‘lib, Mirzo Iskandarning maqomot va tarixini yozgan”, deb ma’lumot beradi.

Undan tashqari Ibn Arabshohga Sohibqiron haqida aniq ma’lumot beruvchi shaxslar haqida yoki biron bir asar haqida manbalarda qayd qilinmagan. Muiniddin Natanziyga ma’lumot beruvchi shaxs (amir Muso) haqida bir buncha ma’lumotlar bor. Berilgan ma’lumotlardan bu shaxs Sohibqiron davridayoq davlat ahamiyatiga ega muhim vazifalarini bajarish uchun mas‘ul qilib tayinlanadigan darajada davlat xizmatchisi va qo‘shinni ma’lum bir qismini boshqaradigan darajada muhim sarkardalardan biri bo‘lgan. Bu amir Sohibqiron haqida aniq ma’lumotlar bera oladigan darajadagi sulolaga yaqin shaxslardan biri bo‘lgan, deyishimizga asos bo‘ladi.

Undan tashqari Muiniddin Natanziy o‘z asarini yozib bo‘lib Sohibqiron farzandi Shohrux Mirzoga taqdim qilganiga e’tibor qaratsak. Shohrux Mirzo Sohibqiron Amir Temur haqida berilgan har qanday ma’lumotga e’tiborli bo‘lib, befarq bo‘lmasani aniq.

Shu o‘rinda yapon olimi Shiro Andjo Xoja Ilg‘or va Niyoziy bir qishloqning ikki xil nomlanishidir, degan fikr bildirgan[8.51]iga e’tibor qaratsak. Biroq o‘zbek olimlari har ikki qishloq qadimdan mavjud bo‘lganini dalillar bilan isbot etishdi[9.3].

Undan tashqari Muiniddin Natanziyning Mirzo Iskandarning siyosiy faoliyati haqida bergen ma’lumotlari Hofizi Abruning “Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy” va Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarlarida bat afsil tasvirlanganidan anchayin ishonchliroq emasmi, degan fikrni uyg‘otadi. “O’sha paytdagi Fors viloyati hokimi Amir Temurning nevarasi Iskandar ibn Mirzo Umarshayx (1384-1415) 1384-yilda tug‘ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li bo‘lib, Amir Temurning tung‘ich o‘gli Jahongir Mirzo bilan bir yilda, ya’ni 1356-yilda tug‘ilgan. Demak, u Jahongir Mirzodan bir necha oy kichik bo‘lishi mumkin. Umarshayx Mirzo yoshligidan harbiy qobiliyatini namoyon etgan. Amir Temurning ko‘plab harbiy yurishlarida faol qatnashib, Fargona viloyati hokimi sifatida viloyatni mo‘g‘ullar bosqinidan himoya qilishda jonbozlik ko‘rsatgan. U 1394-yilda Kurdistondagi Xurmota qal’asi devorini kuzatayotganida, qal’a ichkarisidan otilgan o‘qdan halok bo‘lgan. Umarshayx Mirzoning jasadi dastlab vaqtinchalik Sherzoغا dafn etiladi. So‘ngra Shahrисabzga keltirilib, temuriylar xonadoni uchun maxsus bino qilingan dahmaga qo‘yiladi”. Uning qabri hozirda Dor us-Siodat deb ataladigan majmuadadir[7.91].

Ushbu ma’lumotlar ham Muiniddin Natanziyning nafaqat Sohibqiron shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlar bergen, balki sulolaning boshqa vakillari haqida ham asosli ma’lumotlar berib, ularni tahlil qilganiga e’tibor qaratishga undaydi.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘z siyosiy faoliyati boshlarida Amir Temur oliy hokimiyatga intilmagan. U bor kuch-g‘ayratini Movarounnahrda amir Qazag‘on sulolasini qayta tiklashga sarflagan. Mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan deyarli barcha g‘alabalar Temurbek nomi bilan bogliqidir. Biroq amir Qazag‘onning nabirasi bo‘lmish amir Husayn Temurbek va boshqa amirlarning, qolaversa, butun Movarounnahr aholisining ishonch-u umidlarini oqlamagach, o‘zaro nizolar kelib chiqadi. O’sha davrda istiqlol va birdamlik g‘oyalari keng yoyilib, aholining turli qatlamlari diliga o‘rnashgani “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”da keltirilganini Turkiston viloyati ulug‘larining Amir Temurga murojaatidagi ushbu so‘zlar ham tasdiqlaydi: “Sizlar tufayli jar lahza mo‘g‘ul lashkari islom o‘lkasida turli xarobgarchiliklar qilmoqda. Dorul-islam Movarounnahrdagi barcha tartibsizliklar siz – ikki amir o‘rtasidagi kelishmovchiliklar sababidan sodir bo‘lmoqda. Qay tariqa bo‘lmasin, bu dunyoda va qiyomatda buning jazosi berilur. Bu adovat va xusumatni oradan ko‘tarib, botin sofligi bilan o‘zingiz va musulmonlar manfaati yo‘lida sulhga ixlos qo‘ymogingiz vojibdir” [4.251]. Amir Temur hukmronligi davri tarixiga o‘tganda muallifning bayon uslubi ko‘tarinki tus oladi. O‘tgan bir yarim asr davomida tanazzuldan boshi chiqmagan Turonda ulkan o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, ulkan bonyodkorlik ishlarini Amir Temur oldindan rejalashtirib yurgan va taxtga o‘tirishi bilan ularni keng ko‘lamda amalga oshirishga kirishgan: “Samarqand qisqa fursatda shunchalik gullab-yashnadiki, olyi jannatga ta’na qilib, yer yuzining behishtiga aylandi”[2.288].

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”da Amir Temurning shaxsiy xislatlari, qaysi ilmlarga qiziqishi haqida ham ma’lumotlar bor: “Ilm-u hikmat ahli va fan arboblariga g‘oyatda e’tiborli edi. Ularni e’zoz-u ikrom qilishda mubolag‘alar ko‘rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali qavmlar nasabi va sharhi hollarini, turk, arab va ajam podsholarining bo‘lgan joylari va qilgan ishlarini hamda bu ilming tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi... Yana uning majlislarida ilmiy masalalar bahsi juda ko‘p bo‘lib turardi. Nozik masalalarni u yaxshi tuchunar, aksar hollarda uning fikri asosli va to‘gri bo‘lardi. Tib va nujum ilmlarining mashhur masalalarida ko‘pincha hozirjavoblik qilardi... O‘zining aksar vaqtini sayidlar, olimlar va mashoyihlar bilan suhbatlashishga sarf qilardi”[2.280]. Bunday ma’rifatli hukmdorning o‘z mamlakatida ilm-u fan ravnaqiga katta e’tibor qaratishi ajablanarli emas: “Imomlar, islom ulamolari, qozilar va ulug‘ shayxlarga bo‘lgan hurmat-e’tiborini shu darajaga yetkazdiki, ilm-u fan behad ravnaq topib, talabalarning nafaqasi lozim bo‘lgan miqdordan ham ko‘proq qilib belgilandi. Buning natijasida bir necha ming nafar turli ilmlarni egallagan sohibkamollar, sanoqqa sig‘maydigan darajada ko‘p qalbi daryo iste’dod egalari uning ulug‘vor xonadoni saxovati hadyalari nuridan zamona chehrasida zohir bo‘ldilar”[2.288]. “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”dagi bu kabi

ma'lumotlar keyinchalik Ulugbek zamonasida Movarounnahrda ilm-u fanning misli ko'rilmagan tarzda taraqqiy etmog'i uchun Amir Temur davrida mustahkam poydevor yaratilganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada ma'ruzasidan. 2025, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. Muiniddin Natanziy. Muiniy tavorixi-ut Muntaxab. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Sharofiddin ali Yazdiy. Zafarnoma.– Toshkent: Sharq nashriyot -matbaa konsernining bosh tahririysi, 1997.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. 2-jild, 1-qism. Fors tilidan A. O'rınboyev tarjimasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari / Amir Temur Ko'ragon. – T.: "IJOD-PRESS, 2019.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005
7. Shiro Ando. Timuridische Emire aachdem M u'izz al-ansab. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1992
8. Ziyo A. Temur tug'ilgan joy xususida / O'zbekistob adabiyoti va san'ati, 1993, № 15
9. Amir Temur tarixi (1-2-kitoblar, so'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U.Uvatov). – Toshkent, 1992.
10. Bo'riyev O., Xo'jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. Monografiya. – T.: Voris-nashriyot, 2002.
11. G'oibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. –Toshkent, 2001.
12. M.Xudoyqulov. "Darakchi" gazetası. 2016-yil, 21.09.

KESH (SHAHRISABZ-KITOB) VOHASIDAGI KO'HNA SHAHAR TADQIQOTLARI TARIXIGA NAZAR

Nishonov Jamshid To'raqul o'g'li
Osiyo texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar
kafedrasи o'qituvchisi
ORCID-0009-0000-4314-4352
UDK 94:(575.152)

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Janubiy So'g'dning Shahrisabz — Kitob vohasi arxeologik va me'morlik yodgorliklari, xalq hunarmandligi, amaliy va badiiy san'at markazlari keng tarqalgan o'lka bo'lib, uning tarixi muhim voqealarga boyligi haqida fikr yuritadi. Voha qadimgi savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, yozma manbalarida uning to'g'risida turli tarixiy ma'lumotlar saqlanib qoliganligini ilmiy dalillar asosida yoritib bergen.

Jumladan, maqolada o'rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog'ining janubiy yonbag'irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor va O'radyaro vohasi yerlarini o'z ichiga olganligi qayd etilganligi, uning markaziy shahri — Shahrisabz Kitob vohasida rivoj topganligi, Qashqadaryo daryosi irmog'igacha cho'zilganligi, shaharoldi hududlari mahobatlari qo'rg'onlari hamda uylari mavjud bo'lganligi, afsuski, Yerqo'rg'onning shimoliy va sharqidagi shaharoldi qismlari yaxshi saqlanmaganligi, ammo bu hududlardan topilgan g'ishtlar, kulolchilik va boshqa buyumlar xronologik jihatdan Yerqo'rg'onning gullab-yashnagan davriga mos kelganligi to'g'risida ham ma'lumotlar tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: Shahrisabz — Kitob vohasi, xalq hunarmandligi, badiiy san'at, markaziy shahar, Qashqadaryo vohasi, So'g'diyalar yeri, uy-qo'rg'onlar, shahar xarobalari, mudofaa devori, ilk shaharlar, moddiy manbalar, voha chorvachiligi, hunarmandlik buyumlari, xususiy mulkchilik, qadimgi davlatlar, urbanizatsiya jarayonlari.

Abstract. In this article, the author discusses the Shahrisabz - Kitab Oasis of Southern Sogd, a region with a wide range of archaeological and architectural monuments, folk crafts, applied and artistic centers, and a history rich in important events. He highlights, based on scientific evidence, the fact that the oasis is located at the crossroads of ancient trade routes and that various historical information about it has been preserved in written sources.

In particular, the article analyzes the information that medieval written sources indicate that the territory of the region called Kesh began on the southern slopes of the Zarafshan Range and included the lands of the present-day Kitab, Shahrisabz, Yakkabag, Guzar, and Oradarya oasis, that its central city, Shahrisabz, developed in the Kitab oasis, and extended to the tributary of the Kashkadarya River, that the suburbs had magnificent fortresses and houses, and that, unfortunately, the suburbs in the north and east of Yerkurgan are not well preserved, but the bricks, pottery, and other items found in these areas

chronologically correspond to the heyday of Yerkurgan.

Keywords: Shahrizabz - Book Oasis, folk crafts, fine arts, central city, Kashkadarya Oasis, Sogdian land, house-fortresses, city ruins, defensive wall, early cities, material sources, oasis livestock, crafts, private ownership, ancient states, urbanization processes.

Kirish. Janubiy So‘g‘dning Shahrizabz — Kitob vohasi arxeologik va me’morlik yodgorliklari, xalq hunarmandligi, amaliy va badiiy san’at markazlari keng tarqalgan o‘lka bo‘lib, uning tarixi muhim voqealarga boy. Voha qadimgi savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan, yozma manbalarida uning to‘g‘risida turli tarixiy ma’lumotlar saqlanib qolgan.

O‘rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog‘ining janubiy yonbag‘irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob, Shahrizabz, Yakkabog‘, G‘uzor va O‘radaryo vohasi yerlarini o‘z ichiga olganligi qayd etilgan. Uning markaziy shahri — Shahrizabz Kitob vohasida rivoj topgan. “Kesh” atamasi, tangalardagi yozuvlarga ko‘ra (“Kesh podshosi”, “Axurpat Kesh hokimi”), VI–VII asrlarda paydo bo‘lgan. Bular — Gavdara, Gavtena, — Govxona, Gavmard, Gavmurda, Govardtepa, Gav tog‘lari, Gav cho‘qqisi singari, ko‘p hollarda joylar, qadimgi yodgorliklar, qishloqlarning nomlaridir[1:10]. “Gav” iborasining avesto tilidagi aynan tarjimasi “buqa” ma’nosini anglatadi. Shu narsa ham ma’lumki, “gav” tushunchasi “kuch”, “qudrat” ma’nosida xalq bahodirlari va polvonlariga nisbatan ham qo‘llangan. Demak, Gava So‘g‘da atamasini “qudratli Sug‘d”, “qudratli o‘lka” sifatida talqin qilish mumkin.

“Avesto” ma’lumotlariga ko‘ra, zardushtiyarning ulug‘ va donishmand xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlar ro‘yxatida Gava So‘g‘da ikkinchi o‘rinda tilga olingen.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘rganilayotgan davrda olib borilgan ilmiy ishlar orasida F.Qarshiyevaning tadqiqotini alohida ko‘rsatib o‘tish zarur. Mazkur tadqiqotda qadimgi Sug‘dning mil. avv. VII – milodiy VII asrlardagi tarixi va madaniyati masalalari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan bo‘lib, olimaning Afrosiyob ko‘hna shahri tarixshunosligiga oid ma’lumotlaridan tadqiqotda foydalanildi. O. Lushpenkoning maqolasi esa Qashqadaryo vohasining ilk temir davri manzilgohlarining o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu davrga oid Uzunqir va Yerqo‘rg‘on ko‘hna shaharlari tarixshunosligi tahlil etilgan va ularning arxeologik jihatdan o‘rganilishi masalasi yoritilgan. Mustaqillik yillarida O‘rta Osiyoda shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi masalalarini o‘rganishda ancha jonlanish kuzatildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tadqiqotlarda bronza va ilk temir davri shaharlari “shaharmonand”, “ilk shahar”, “shahar” sifatida e’tirof etilib, ularning tegishli bo‘limlarida shaharlarning o‘rganilganlik darajasi ham yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarning barchasida O‘rta Osiyoning janubi, Surxon va Qashqadaryo vohalari, Xorazm, Farg‘ona vodiysi hududlarida ilk shaharlarning arxeologik jihatdan o‘rganilishi masalalari yoritilgan. O‘.Abdullayev va I.Yuldashevlarining ilmiy ishlari qadimi shaharlar tarixshunosligi tahliliga bag‘ishlanganligi bilan alohida e’tiborga loyiqidir.

Natijalar va muhokama. “Avesto” da O‘rta Osiyo qadimgi qabilalari joylashgan yerlar haqida quyidagi ma’lumotlar mavjud: “U mamlakatning jasur sardorlari qilishda tarixiy ko‘pdan ko‘p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylov larga ega, suvgan serob tog‘larida chorva tinch o‘tlov va yemish bilan ta’minlangan, bu zamindagi sersuv chuqur ko‘llar to‘lqinlanib, kema qatnaydigan keng daryolari Porumadagi Iskata, Xaravaydagagi Mouru, So‘g‘ddagi Gava va Xorazm tomoniga toshib intiladilar»[2:21].

“Avesto” ning Videvdat kitobiga ko‘ra, zardushtiyarning xudosi Axuramazda payg‘ambar Zaratushtraga bunday xabar qiladi: “O, Spitama Zaratushtra, obod joylarda baxt qancha kam bo‘lsa-da, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, insonlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatga, Vanxvi Damyo daryosidagi Aryonam Vayjoga asos soldim. Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar, o‘lkalardan biri bo‘lgan Gava So‘g‘da makoniga asos soldim”[2:22].

Mil. avv. VI asrning oxirgi choragida O‘rta Osiyo qadimgi tarixiy-madaniy o‘lkalari — So‘g‘d, Parfiya, Areya va Xorazm bilan birgalikda Erondagi Axomaniylar davlati tarkibiga kirib, uning o‘n oltinchi harbiy o‘lkasi – satrapligini tashkil qilgan.

Mil. avv. IV asrda Qashqadaryo hududi bilan uchta viloyat – Nautaka, Ksenippa va

Gabaza bog‘lanadi. Bu haqda yunon tarixshunosi Arrian va rimlik Kursiy Ruf ma’lumot berishgan. Yunon mualliflarining asarlari biz ko‘rib chiqayotgan o‘lkaning tarixiy geografiyasi bilan bog‘liq dolzARB muammolarni hal qilishda asos bo‘ladi. Manbalar hozirgi tarixiy adabiyotda shu nuqtayi nazardan kerakli darajada yoritilgan.

Mil. avv. 329-yilda Makedoniyalik Aleksandr armiyasi Oks—Amudaryoga yetib keladi. Baqtriya va So‘g‘diyonaning hokimi Bess Axomaniylar sulolasining so‘nggi podshosi Doro III ni o‘ldirishda qatnashib, o‘zini Artakserks — “Osiyoning ulug podshosi” deb e’lon qiladi va Arrian ma’lumotlariga ko‘ra, “So‘g‘diylar yeri” – Nautaka viloyatiga qochishga majbur bo‘ladi. Viloyatning tog‘oldida joylashgan bir kichik istehkomida makedonlar Bessni asir oladi. Nautaka va Marokanda shaharlari atrofida joylashgan va yunon-makedon bosqinchilarga qarshilik ko‘rsatgan so‘g‘diylar uy-qo‘rg‘onlari Aleksandr buyrug‘iga binoan vayron qilinadi[3:41].

Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida bu davrga oid 30 dan ortiq qal’alar, uy-qo‘rg‘onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog‘ tog‘lari yonbag‘rida joylashgan Daratepada mil. avv. VII-V asrlarga oid g‘isht va paxsadan qurilgan uy-joylar topilib ochilgan.

O‘rganilgan ma’lumotlar asosida yodgorliklarning ilk bor o‘zlashtirilishi mil. avv. IX–VIII asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Uzunqirda mil. avv. I ming yillik boshlariga oid sopol idishlar topib tekshirildi, shuningdek, paleobotanik (turli uzum navlari atrofidagi yer, arpa, bug‘doy qoldiqlari) va osteologik ashyolar (uy hayvonlarining suyaklari) tadqiq etildi[2:21].

Sangirtepa va Uzunqir Qashqadaryoning sharqiy qismidagi yirik qadimiy madaniyxo‘jalik tumani hududida joylashgan. Arxeologik tekshiruv ishlari qarorgohda Sangirtepaning to‘rtburchak reja shaklidagi markaziy tepaligidagi olib borildi. Sangirtepa umumiy maydoni 3 hektardan iborat bo‘lib, hamma tomoni mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Yodgorlikning atrofi ekin ekish maqsadida tekislab yuborilgan. Sangirtepaning shimoli-sharqiy qismida amalga oshirilgan arxeologik qazuv ishlari bu yerda madaniy qatlamning qalinligi 6,8 metrga teng bo‘lganligini ko‘rsatdi[4:38-40].

Keyingi davr (mil. avv. VII–VI asrlar) Sangirtepa o‘rnida vujudga kelgan yirik mustahkamlangan ma’muriy majmua (ark) – Sangirtepa va uning atrofidagi yerlar o‘zlashtirilgan va ularda bonyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Manzilgohning o‘zlashtirilgan qismini mustahkamlash ehtiyoji paydo bo‘lgach, qariyb 3 hektar hudud mustahkam va qalin mudofaa devorlari bilan o‘ralib, Sangirtepa mahalliy hukmdor qarorgohiga aylantirilgan.

Arxeologik ma’lumotlarning dalolat berishicha, mil. avv. IV–III asrlarga kelib, Sangirtepada hayot to‘xtagan. U yerning tashlandiq va xarobaga aylangani ham buni tasdiqlaydi[5:182-186].

Sangirtepadan 650 m shimolroqda, Sho‘robsoy qirg‘og‘ida Uzunqir xarobalari joylashgan. Yodgorlikning katta qismi shudgor qilingan va tekislab yuborilganligi uchun faqat janubi-g‘arbiy tomonida mudofaa devorining 450 mga teng qismi saqlanib qolgan. Tadqiqtolar davomida devorning tashqi tomonida shaharga kirish joyi va shinaklari bo‘lgan burjlar qoldiqlari oolib o‘rganildi. Shuningdek, yodgorliklardan mil. avv. VII-V asrlarga taalluqli sopol idishlar yig‘ib olindi[6:36-38].

Uzunqir shahar xarobasining mudofaa devorini o‘rganish natijasida Janubiy So‘g‘dning ilk temir davri mudofaa me’morligiga doir yangi ma’lumotlar aniqlandi. Uni O‘rta Osiyoning ushbu davrga oid bir qator yodgorliklari (Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm shahar xarobalari bilan qiyoslaganda, ularning qurilishidagi ko‘pgina umumiy tomonlar bilan birga, faqat Uzunqirga xos bo‘lgan jihatlar ham aniqlandi[7:43-49].

Uzunqirdagi g‘arbiy, sharqiy va janubiy qismidagi mudofaa devorlari qoldiqlarining qalinligi 20 m bo‘lgan va Sho‘robsoydan tortilgan sun‘iy handaq bilan o‘rab olingan bo‘lib, shimoliy tomon uchun bunday xandaq vazifasini Sho‘robsoyning o‘zi bajargan. Uch joyda darvozalar o‘rni aniqlangan[8:81-86].

Uzunqir va uning atrofini suv bilan ta’minalash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Suv Sho‘robdan va Zax bulog‘i, soyi hamda irmoqlaridan olingan bo‘lib, u Uzunqirdan shimolroqda oqib o‘tgan. Hozir bu hudud Pistaxon kanali bilan sug‘orilgan, mahalliy aholi

ma'lumotlariga ko'ra, u ilgari bevosita Uzunqir devorlarigacha kelgan. Kanalning boshlanish qismida o'tkazilgan tadqiqotlar sug'orish tizimining qadimiyligi, suvni Qashqadaryodan, Yangiqishloq yonida oqib o'tuvchi irmoqdan damba yordamida olishi va yana ikkita boshlanish qismiga ega bo'lganligini ko'rsatdi[9:48-5.3].

Uzunqir Shahrisabz — Kitob vohasida ilk shahar tuzilmasining shakllanishiga misoldir. U yirik o'troq dehqonchilik vohasining hamda Janubiy So'g'ddagi viloyatining xo'jalik, ma'muriy, harbiy va madaniy markazi bo'lgan. XX asrda manzilgoh hududi qishloq xo'jalik maqsadlarida tekislab yuborilganligi sababli biz hozir ilk shaharning ichki tarkibiy tuzilishi to'g'risida hech nima deya olmaymiz. Lekin qariyb 70 ga hududni o'rabi olgan qalin mudofaa devorining mavjud bo'lishi shahar qurilishi yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bunday yirik shaharlarda, albatta, qo'rg'on-qarorgoh, saroy va diniy markaz, hunarmandlar guzarlari va yuqori darajada taraqqiy etgan hunarmandlik bo'lgan[1:19].

Qashqadaryo vohasida (va umuman So'g'diyona hududida) eng qadimgi temir qurollar Daratepada topildi. Ular mil. avv. VII–VI asrlarga oiddir. Arxeologik topilmalar ilk temir davrida Qashqadaryo vohasi sharqiy qismida me'morlik va qurilish usullari, hunarmandlik – metallchilik, kulollik va to'qimachilik rivojlanganidan dalolat beradi. Turli xil ma'lumotlar bu yerdagи qadimiy madaniyat yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi[10:314-320].

Mil. avv. VII–VI asrlarda O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarda (Mar-g'iyona, Baqtriya, So'g'diyona) yirik shaharlар markazlarining (Qiziltepa, Yerqal'a, Afrosiyob, Ko'ktepa, Yerqo'rg'on) vujudga kelishi juda muhim masaladir. Turli viloyat va tumanlarda o'tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida topilgan dastlabki shaharlар va qal'alar xarobalari hamda moddiy manbalar uzoq o'tmishi tarixiy voqealaridan dalolat beradi[11:119].

Ilk temir davrida xo'jaliklar, madaniyat va savdo yuksak darajada rivojlanib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi xususiy mulkchilik va ayirboshlashni keltirib chiqargan, xomashyo va hunarmandlik buyumlari savdo mahsulotiga aylangan. Savdo-sotiq rivojlanishi asosida madaniy munosabatlar tez taraqqiy etgan (umuman olganda, ishlab chiqarish o'sishi natijasida moddiy madaniyat ham yangi asosda taraqqiy etgan).

Ilk temir davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta muvaffaqiyatlaridan biri – qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishidir. Bu davrda kanal qazib, daryolardan suv chiqarish, kanal va ariqlarni doimiy tozalab turish, yangi ekinlar maydonlarini o'zlashtirish va sug'orish ishlari, dehqonchilikda don (arpa, bug'doy, javdar) ekish, chorva uchun yem-xashak bo'ladigan o'simliklar o'stirish keng yo'lga qo'yilgan. Sabzavot va mevachilik rivojlantirilgan. Qadimgi dehqonlar atrofi devor bilan o'ralgan uy-qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashaganlar.

Ko'plab tumanlarda kulollik va temirmirchilik ustaxonalarining qoldiqlari qazib ochildi. Qadimgi yodgorliklarda sopol idishlar, bronzadan va temirdan ishlangan qurollar va zeb-ziynat buyumlari topildi. Moddiy manbalar hunarmandlik yuksak darajada rivolanganidan darak beradi.

Uzunqir shaklidagi ilk shaharlarning paydo bo'lishini O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlarning vujudga kelishi jarayoni bilan bog'lash mumkin. Shahrisabz–Kitob vohasining ilk shahar markazi Uzunqirda makedoniyalik Aleksandr harbiy yurishlaridan so'ng, mil. avv. II asrga kelib, turli siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra hayot to'xtadi. Shahar va uning ichki qal'asi – Podayotoqtepa xarobaga aylandi.

Mil. avv. III asrda Uzunqir aholisi Sho'robsoy bo'yidan Oqsuvdaryo – hozirgi Kitob hududiga ko'chib, shu joyda yangi shaharga asos solgan. Xuddi shu davrda viloyat va uning markaziy shahri nomi yana bir bor o'zgargan. Xitoy yozma manbalarida u Suse nomi bilan ma'lum. Ushbu so'z "So'g'd", ya'ni So'g'diyona tushunchasidan kelib chiqqan va Xitoy manbalarida "Suse" deb yoritilgan. Uning bilan markaziy shahri maydoni 40 gektarga yetgan, shahar mustahkam mudofaa devoriga hamda arkka ega bo'lgan. VI–VII asrlardan boshlab bu shahar Kesh deb atala boshlangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Kesh-Shahrisabz vohasidagi ilk shahar madaniyatining shakllanishi mil.avv. VIII–VII asrlar bilan bog'lanadi. Uzunqir ko'hna shahri ushbu shahar madaniyatining yorqin namunasi bo'lib, uning atrofida qal'a va ibodatxona ham mavjud. Antik davrga kelib turli tarixiy va geografik shart-sharoitlar

taqozosiga ko‘ra Sho‘robsoy vohasidagi shahar madaniyati rivojida o‘zgarishlar yuz beradi. Shahar dastavval Kitob(Qalandartepa) keyinroq, ya’ni ilk o‘rta asrlar davrida Shahrisabz hududlariga ko‘chadi. Ilk o‘rta asrlar vohasidagi urbanizatsiya jarayonlari esa alohida mavzu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қадимги Кеш–Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир А.С. Сагдуллаев.–Тошкент: Шарқ, 1998. Б.10 (204)
2. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.21 (106).
3. Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. –Ташкент, 2002. - С. 41 (116)
4. Хасанов М.Х., Мехендали С. Раскопки Сангирапа в Кашкадарье // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. –Самарканд-Ташкент, 2007. - С. 38-40
5. Хасанов М.Х., Рапен К. (и др) О работах на городище Сангирапа в 2012 году // АИ вып.9.- Самарканд, 2013. - С182-186
6. Сагдуллаев А.С., Лушпенко О.Н. Новые данные к изучению древнесогдийских поселений // ОНУз. № 12. - С. 36-38
7. Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннекелезного века долины Кашкадары - Сб. Древняя и средневековая археология Средней Азии – Ташкент, 1990. - С. 43-49
8. Лушпенко О.Н. Оборонительные стены раннекелезного века Южного Согда (по материалам памятников Сангирапа и Узункыр). ММК. - М.2000. - С. 81-86
9. Крашенинникова Н.И. Работы в Китабском и Шахрисабзком районах // АО. М., 1985. С.533-554; Сагдуллаев А.С. К вопросу оросительных систем Южного Согда // ИМКУ. 1989. № 4 - С.48-53
10. Сагдуллаев А.С. Поселение Даратепа // СА. 1987. № 3 - С. 314-320
11. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B.119

ANCIENT CULTURE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Khamdamova Sitora Safarovna

Associate professor, Doctor of Philosophy (PhD)

Senior teacher

Academy of The Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

sitoraxamdamova92@gmail.com

ORCID 0000-0002-0798-938X

UDK 1.091.101.3

Abstract. The article highlights in detail the flourishing of the Greco-Bactrian Kingdom in Central Asia, the introduction and development of Hellenic culture, the founding of new cities, and the widespread influence of the Greek language, culture, and art. In particular, it is stated that ancient monuments and buildings identified on the basis of archaeological finds reflect the harmonious culture of the Greek and local population in fine arts, building construction, religious beliefs, and painting, and that the simultaneous mass marriages of high-ranking members of the Greek army with the daughters of local nobles and the teaching of the Greek alphabet to local youth led to the rapid spread of Greek culture and its penetration into the local population. It is also emphasized that the Hellenistic culture that emerged in Central Asia during this period had a positive impact on the economic and cultural life of local peoples, that interest and aspiration for science and Greek culture increased, that science and cultural life in Sogdia and Bactria, in the lands of Khorezm, in the cities of Afrasiab-Marokand created the basis for the development of science and cultural life. The activities of scientists and thinkers of Central Asia in the Hellenistic period also made a significant contribution to the development and dissemination of the peoples of the world, including the Greek peoples, in close cooperation with other peoples in various fields, in the process of developing economic and cultural ties and relations.

Keywords: cross-culture, civilization, language, science, cultural influence, development.

Anotatsiya. Maqlada Markaziy Osiyoda Yunon–Baqtriya podsholigining ravnaqi, ellen madaniyatining kirib kelishi, rivojlanishi, yangi shaharlар barpo etilishi, yunon tili, madaniyati va san’atining keng ta’siri to‘g‘risida atroflichha to‘xtalib o‘tilgan. Ayniqsa, arxeologik topilmalari asosida aniqlangan, qadimgi yodgorlik va xonalar yunon va mahalliy aholining uyg‘unlashgan madaniyati tasviriy san’atda, binolar qurilishida, diniy e’tiqodlari va rasm-rusumlarida o‘z aksini topganligi, shuningdek, yunon harbiy qo‘sishinlarining yuqori lavozimdagи kishilar mahalliy zodagonlarning qizlari bilan bir vaqtning o‘zida ommaviy nikohlanishi, mahalliy yoshlarga yunon alifbosining o‘rgatilishi tez sur’atlarda yunon

madaniyatining tarqalishiga, mahalliy aholi orasiga kirib borishiga sabab bo‘lganligi yozilgan. Shuningdek, bu davrda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan elliň madaniyatining mahalliy xalqlar iqtisodiy va madaniy hayotiga ijobjiň ta’sir qilgani, ilm-fanga, yunon madaniyatiga qiziqish va intilish kuchaygani, qolaversa, So‘g’d va Baqtriya, Xorazm o‘lkalari, Afrosiyob-Maroqand shaharlarda ilm-fan madaniy hayotning rivojlanishi uchun zamin yaratgani, elliň davrida Markaziy Osiyo olimlari, mutafakkirlarning ijodi ham Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan xalqlarning boshqa xalqlar bilan yaqindan turli yo‘nalishdagi hamkorlikda, iqtisodiy va madaniy aloqalarini, munosabatlarni rivojlantirish jarayonida dunyo xalqlarining, jumladan, yunon xalqlarining taraqqiy etishi, yoyilishiga muhim hissa qo‘sghanlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: kross-madaniyat, sivilizatsiya, til, fan, madaniy ta’sir, rivojlanish.

Introduction. If we look at the ancient culture of Central Asia, we will see that during this period, as in all areas, certain changes and developments occurred, and changes also occurred in the culture of the peoples of Central Asia, which developed together with the cultures of other peoples.

If we consider the use of ancient culture as a general pattern inherent in the Renaissance, then this pattern acquires its own characteristics depending on the nature and content of ancient culture and the general specific historical conditions of the countries that inherited it. We can see this in the example of the Renaissance in Europe and the East. The use of ancient culture, in particular ancient Greek and Roman, in itself acquired a certain specificity in Europe, the Near and Middle East. For example, in the East, special attention was paid to the achievements of Ancient Greece in the field of specific sciences, natural science - natural philosophy, mathematics, philosophy, logic.

Research methodology. Alexander the Great’s campaign in Ancient Asia in the 4th century BC and the spread of Greek culture in the region were considered a significant historical event. During this period, the Greco-Bactrian state emerged, which received its famous name. The emergence of this state marked the beginning of the Hellenization process.

The process of colonization of Central Asia can be divided into three stages [3]:

the first stage, associated with Alexander's military campaign, is considered the shortest in time, but at the same time the most intense in terms of cultural influx. At this stage, Alexander's personality becomes significant with his bright, unconventional decisions and actions aimed at connecting his ancient Eastern culture with the achievements of Greek civilization. Examples of this are the simultaneous mass marriages of high-ranking Greek military men with the daughters of local nobles, the teaching of the Greek alphabet to local youth, and others. It can also be noted that several Alexandrian cities were founded during this period. Alexandrias were built in strategically important places and were intended to protect the conquered territory. An example of this is Alexandria Eschatae - distant Alexandria. This city was built on the banks of the Tanais River (Sirdarya), and in addition to being the most remote territory of the Greeks on the map, it also served as a defense against the attacks of the Sakas;

the second name of the city mentioned in the book of Pliny the Elder is Scythian Antioch. Its foundation can be attributed to the second stage of colonization, related to the Seleucid period. The exact location of this city has not yet been determined. Judging by the name, its main function is protection. Of the currently known archaeological sites, the ancient city of Kanka corresponds to it in size and geographical location;

the third stage: The third stage of colonization refers to the Greco-Bactrian period. During this stage, the Greeks, led by Diodotus, gained independence from the Seleucid Empire.

The process of colonization of Central Asia was not easy; in Sogdiana alone, several rebellions occurred, the last of which was suppressed thanks to the careful preparation of Alexander the Great himself, and his power in this region was strengthened.

In particular, the death of Spitamenes marks the end of the second stage of the Sogdians struggle for freedom. However, in order to keep the Sogdians and Bactrians under his control, Alexander built cities and fortresses on these lands and settled Macedonians and Greeks, as well as skilled locals, there. According to Curtius Rufus, in 327 BC he founded six new cities in the Murghab Valley, in the Margiana region. In his will, Alexander wrote that he wanted to build cities in Asia and settle Europeans there, and settle Asians in European cities [4].

Results and discussions. According to the information presented above, the mixing of Greek culture with the culture of the indigenous peoples is associated with the migration of Greeks to new cities and fortifications during this period. The process of cultural study and development was further accelerated. The emergence of Greek units of measurement and coins in Central Asia and the ease of their use in the everyday life of the local population contributed to the spread of Greek culture.

Although various sources mention the process of Hellenization, ancient Greek culture and Greek works of art, the Greeks who occupied Sogdia and Bactria created a single state bearing the name of this people. In support of our idea, in science this state is called the Greco-Bactrian Kingdom, and the term Greco-Bactrian was first introduced by the Russian academician Baer in 1738. Sometimes it is called the Bactrian state of the Greek kings [3].

Along with the mixing of Central Asian and Hellenistic cultures, one of the most important events of this period was the penetration and spread of polytheistic beliefs in Central Asia. As a result of this cross-culture, traditions, religion, writing, and material and spiritual cultures were intertwined.

In addition, the material and spiritual culture of the Hellenistic period had a stronger influence, and their traditions, religion and writing occupied a strong place in antiquity [3].

Today, archaeological excavations have shown that during the Hellenistic period, there was a process of cultural exchange and trade relations between the countries of Central Asia, India and Iran. Material artifacts found in these regions prove that there was an exchange of cultures here.

In the 320s B.C.E., Alexander of Macedon also campaigned into Central Asia, with such results as the introduction of Greek settlers, the founding of new cities and states, and extensive influence of Greek language, culture, and art, especially in Bactria (roughly, modern Tajikistan), where a Greco-Bactrian state lasted into the mid-second century B.C.E. Probably woven in the borderlands between Iran and Central Asia about the time of Alexander's campaigns, the Pazyryk carpet proves that carpets were already woven and exchanged across vast distances [1].

The Hellenistic period promoted the integration of different cultures and peoples and provided the Greeks with the first opportunity to become acquainted with Eastern culture. Eastern culture contributed to the expansion of the Greek scientific sphere.

The relationship of some objects to Central Asia, gives us grounds to suppose that, together with India, this region could be one of the inter-links between both cultures, though we suppose the sea route as the main way of the spread of Post-Hellenistic cultural influence to South-East Asia [10].

The nations that survived the Hellenistic period developed science and culture. In particular, the exact sciences, geography and astronomy were further developed in these regions. The reason for the flourishing of the exact sciences was, firstly, the possibility of introducing Eastern and Western science, and secondly, the mutual assimilation of scientific achievements.

This increases the possibility of the role of Bactria, which was the most important supplier of this rare mineral in the ancient period, as the connecting link between countries, which inherited Hellenistic culture and South-East Asia [10].

The emergence of Hellenistic culture in countries such as Central Asia, India and Iran, and the development of trade relations between these countries also led to the mutual dissemination of Greco-Roman culture.

Attention should be paid to the fact that in southern Thailand, together with artifacts belonging to Greco-Roman culture, objects related to Bactria are also found. This shows the possibility of contacts with Central Asia, which received Hellenistic influence (Kushan Empire etc.) [10].

Due to its geographical location, Central Asia is considered a region where cultures of different nations collide. Greek culture also penetrated this region and, based on the mixing of cultures of the local indigenous population, created a single culture in Central Asia, and from

the geographical area where these cultures collided, this culture spread to other countries. Today, archaeological finds confirm this theory.

As we known, the favorable geographical position, nature and climate of Central Asia, the cradle of ancient culture, ensured the early start of the socio-economic development of the region and served as a link between the East and the West, Mesopotamia, Iran, Egypt, and later Greece and Rome with China and India, ensuring the interweaving of cultures of different peoples. This feature of Central Asia also attracted the attention of many peoples and led to its repeated conquests. In this regard, one can agree with the opinion of the archaeologist and scientist Stavisky, who said: "The similarity of the cultures of the ancient Greeks and the peoples of Central Asia should be understood as a result of the unity of the distant ancestors of the peoples of Central Asia and the Hellenes," or the orientalist Fozila Sulaimanova, who said: "The black horse is deified by the peoples of Central Asia, as well as by the Greeks, and the rituals dedicated to it are the same. In both regions, the rituals are associated with the winter and spring solstices, with mourning in winter and celebration in summer." On this basis, we can conclude that the mixing of cultures of different peoples is one of the foundations and reasons for the development of the Turkestan region [5].

Central Asia is considered a region of cultural clashes, and various peoples have visited the region for various purposes since ancient times, most of whom came for trade. Since ancient times, Iranian, Indian, Greek and Arabic cultures have penetrated the region and mixed with the local indigenous culture, resulting in the indigenous culture and the outside cross-culture and forming a new culture in each period. For example, Alexander the Great's conquest of Central Asia led to the influence of Hellenistic culture on the lifestyle and customs of the local indigenous population. The arrival of Greek culture led to the minting of coins in Central Asia, which depicted kings on the obverse and Gods on the reverse.

Uzbekistan is located at the crossroads of international routes connecting the enlightened worlds and cultures of Europe and Asia, and on the ancient "Great Silk Road" that once ran here. At least three thousand years have passed since our spirituality began to form. Uzbeks are a very ancient and diverse people with deep roots dating back to the Sakas, Massagets, Sogdians, Seleucids and Turkic tribes. Their ancestors began to settle on this land thousands of years ago. The formation of the Uzbek people was directly influenced by the Arabs and representatives of the Persian-Tajik culture in the past, the Mongols of the 13th-16th centuries, as well as the Mongols of the Chigatai Ulus of Genghis Khan in the 15th-16th centuries. If you look into this issue more deeply, you can see that the ancestors and descendants of the Uzbeks were also under the spiritual and cultural influence of the Indians, Chinese and Greeks. It is worth noting that this unique tribal-style carpet also contains less noticeable cultural patterns belonging to the Uyghurs, Armenians, Gypsies and dozens of other relatively small ethnic communities [11].

Central Asia has long been inhabited by various peoples and has various cultures. During the Hellenistic period, Greek architecture spread to Central Asia, and the architecture of the Greek peoples had a great positive influence on the construction of local buildings. We can still see traces of Greek architecture in ancient temples found by archaeologists today.

Based on the facts and figures given, it can be said that there was no limit to the material and spiritual wealth in Uzbekistan. At present, it has become a tradition and custom to collect books and manuscripts here, preserve them as spiritual and national values and pass them on to future generations [2].

In our opinion, the penetration of Hellenistic culture also had a positive impact on the education and scientific achievements of Central Asia. This led to the spread of Greek philosophical ideas to Central Asia. Later, the unique works of the Greeks were translated into Arabic.

The culture of the peoples of Central Asia is very ancient, its history goes back several thousand years. The culture of our people is also inseparable from world culture, emerging and developing side by side. The culture of a people develops not only within its own country, in narrow national isolation, but also in interaction with the cultures of other peoples, in interdependence, on the basis of mutual influence and reflection. History shows that the

culture of the Uzbek people grew and developed not only on a national basis, but also under the influence of universal cultures. It was positively influenced by the cultures of China, the ancient world, the Roman era and other cultures around the world. In turn, the peoples of Central Asia also had an active influence on the formation of the cultures of other peoples and the development of world culture. An example of this is the fact that the teachings of great representatives of medieval culture, such as Khorezm, Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan al-Biruni, Ulugbek, Ali Kushchi, Kazizoda Rumi, Alisher Navoi and other scholars, are an integral part of world culture [6].

Just as the culture of a people that has existed for centuries did not develop in isolation, the culture of Central Asia could not have formed in isolation. The Central Asian region has historically been of interest to many countries that have maintained cultural and trade ties with this region. As a result, the cultures became harmonious, that is, they contributed to the renewal, development and improvement of a single culture.

Culture is a holistic phenomenon in its origin. But it is always in search and development. So, culture is inherently changeable. Over a thousand years, culture changes so much that one can easily see the difference between the culture that arose first and the culture that arose later. At the same time, there were different types and forms of culture that existed simultaneously, in parallel. Naturally, there was a difference between the culture of Ancient Greece, which existed in the 5th century BC, and a unique culture that developed in a completely different way in another part of our planet at the same time [8].

The Hellenistic period influenced the culture of many regions, countries around the world, and even the culture of Central Asia. As a result of Alexander the Great's conquests, the Greek people and culture penetrated into Central Asia, and the Greek culture and people merged with these people. This, in turn, helped Alexander build cities and spread Greek culture easily.

The influence of Greek tradition on the empire of the Kushans, successors to the Greeks in Central Asia, should neither be over- nor underestimated. This influence was profound, as one would expect, even though in certain fields it met with an anti-Hellenistic reaction. These former nomads, having subjected an empire of sedentary peoples, adopted some of the ways of urban life and civilization in an environment that had been shaped by two or three centuries of Greek domination. Greek ceased to be the official language, and was replaced by local Iranian and Indian languages; but to write Bactrian, which until then had been only a spoken language, the Kushans made use of the Greek alphabet with minor modifications. Gold replaced silver as the monetary standard, but the highly developed monetary system of Kushan Central Asia, based on bimetallism (gold and bronze) and using coins depicting the king on the obverse and various deities on the reverse, was a Greek invention and in no way a product of the Iranian or Indian East [9].

Conclusion. To sum up, during the Hellenistic period, Greek influence was observed in all areas of life, from architecture to the Greek alphabet, which was positively received by the people, easily assimilated and widely used in their way of life.

The king and the elite also liked to present themselves as people of Greek culture, educating their children in the traditional manner within the confines of the gymnasium. The many bathrooms excavated in the palace, beneath the gymnasium and in aristocratic houses, reveal the importance they attached to bodily care, a characteristic Greek practice unknown among Iranian populations. The Greek character of the city and its architectural decoration is, moreover, what made its discovery so important. But we know very little about the appearance of the other eastern Greek colonies and of other royal towns. We know that there was a theatre in Babylon and Seleucia on the Tigris, and probably a gymnasium at Susa, where a wealthy aristocratic house was also excavated. These large cities must have common features, and Ai Khanoum was no exception in this respect. If we accept, therefore, that it was the main residence of Eucratides, his "capital," it is not impossible that like the other great Hellenistic royal residences it had the attributes of a true Greek city and was endowed with traditional civic institutions. One sometimes gets the idea that Greek cities, because they were subject to royal power, were opposed to it. But it was the kings who were the main promoters of civic

life. They were the only people authorised to found cities or to grant civic institutions to a community. They were also often the protectors of these institutions. For a king like Eucratides, promoting Greek culture meant erecting prestigious buildings such as the theatre and gymnasium, as well as perhaps encouraging civic life, since this was a characteristic part of Greek culture, as the Greeks were fully aware. The status of Ai Khanoum may be comparable to that of Alexandria, Seleucia on the Tigris, Antioch or Pergamum, especially since the Graeco-Bactrian kingdom functioned much like other Hellenistic kingdoms. Thus Ai Khanoum may well have possessed traditional institutions, assemblies and magistrates, but in close association with the king and his administration, which oversaw their activities. We know nothing of these because the citizens of the city appear not to have been in the habit of engraving the administration's decisions in stone [7].

Reference

1. Carter Vaughn Findley. The Turks in world history. United States, 2005. P. 27.
2. D.A. Alimova. Testimonies and lessons of history. Sharq. Tashkent. 2001. P. 332.
3. History of the Uzbek statehood. Volume 1. Akademnashr. Tashkent, 2021. P. 159-177.
4. History of the peoples of Uzbekistan. Volume 1. Tashkent, 1992. P. 33.
5. History of Uzbekistan. Collection of lectures. Part I. Tashkent, 2000. P. 83-84.
6. J. Tulenov, Z. Gafurov. Philosophy. O'qituvchi, Tashkent, 1997. P. 271-272.
7. Laurianne Martinez-Sèvre. Ai Khanoum and Greek Domination in Central Asia. ELECTRUM Journal of Ancient History. Vol. 22, 2015. P. 40-41.
8. M. Bekmurodov, N. Yusupova. Sociology of Culture. Study Guide. New Edition, Tashkent, 2010. P. 30.
9. P. Bernard. The Greek kingdoms of Central Asia. 1994. P. 124. https://ar.unesco.org/silkroad/sites/default/files/knowledge-bank-article/vol_II%20silk%20road_the%20greek%20kingdoms%20of%20central%20asia.pdf
10. Sergey Lapteff. On Post-Hellenistic Influence in South-East Asia. Based on New Materials Recently Found in Southern Thailand and around Tonle Sap Lake in Cambodia. Journal of Ancient Civilizations from Scythia to Siberia. No. 22, 2016. P. 295-316.
11. U. Tadjihanov, A. Saidov. Theory of legal culture. Volume 1. Tashkent, 1998. P. 120.

UZLAR QAVMI ETNO TARIXI: HAQIDA BA'ZI CHIZGILAR

prof.Achil Bo'riyev
Bo'riyevachil@gmail.com
 dots.Egamberdiyev Faxriddin Panjiyevich
 Qarshi davlat universiteti
egamberdiyevfaxriddin987@gmail.com
 ORCID 0009-0006-5552-1235
 УДК 94:39(021)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek millati tarkibiga kirgan Uz qavmi etno tarixi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Uz qavmi qadimgi etnoslardan biri ekanligi to'g'risidagi bahs va munozaralarga yangicha ilmiy yondashilgan. Uzlar bo'yicha manba va adabiyotlar to'laqonli tahlil qilingan va tegishli xulosalar chiqarilgan. Uzlar, asosan, chorvachilik bilan shg'ullanganlar, keyinchalik lalmi dehqonchilik ham ularning mashg'ulotiga aylangan. Uzlarning avlodlari hozirgi kunda Zarafshon vodisining o'rta oqimlarida Payariq tumanida (qora uz), Navoiy viloyatida, Samarqand viloyati Nurobod tumanining "Ulus" hududida, Qarshi cho'lidagi Ko'kdala, Harduri, Taloktepa, Olato'n, O'tamali, So'fi, Xo'shali, Moylijar, Sho'rbozor kabi qishloqlarda yashashadi. Ular hozirda o'zlarining Uz urug'idan ekanligini juda yaxshi biliшади, o'ziga xos etnohududi урғодатлари va udumlarini hozirgacha ma'lum darajada saqlab qolishgan. Mazkur hududda ham Uzlarning boshqa o'zbek urug'lari bilan qorishuv jarayonlari davom etmoqda.

Kalit so'zlar: Uz, etnos, az, qipchoq, bijanaklar, o'g'uz, skif, sarmat, alan, xun, xazar, tatar, uzbboy, uzbek, qavm.

Abstract. The article presents information about the history of the Uzbek ethnic group, which is part of the Uzbek nation. A new scientific approach was applied to the debates and discussions about the Uzbek people being one of the ancient ethnic groups. Sources and literature were carefully analyzed and appropriate conclusions were made. They were mainly engaged in cattle breeding, and later their occupation became agriculture. The descendants of the Uz currently live in the Payarik district (black Uz) in the middle part of the Zarafshan valley of the Navoi region, the "Ulus" district of the Nurabad district of the Samarkand region, in such villages as Kokdala, Kharduri, Taloktepa, Olata'n, Utamali, Sofi, Khoshali, Moylidzhar,

Shorbazar in the Karshi desert. Now they are well aware of their Uzbek origin and to a certain extent have preserved their unique ethno-territorial customs and traditions. In this region, the process of mixing of Uzbeks with other Uzbek tribes continues.

Keywords: separation, ethnicity, az, kipchak, yezhats, oguz, Scythians, wars, cities, hu, kxazars, tatars, slaughter, uzbeks, tribes.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining, jumlada, o'zbek xalqining shakllanishida qadimgi turkiy qabilalardan Uz qavmi ham faol ishtirok etganlar. Uzlarning salmoqli qismi X–XI asrlar davomida g'arbga tomon siljib, sharqiy Yevropaga, ayrim guruhlari esa Garbiy Yevropagacha ham borib o'rashgan. Keyinchalik ular mahalliy xalqlar tarkibiga kirib, ularga aralashib ketgan. Uzlarning Markaziy Osiyoda qolgan qismi ilk o'rta asrlardayoq o'zbek elatining tarkibiga kirgan va xalqimiz shakllanishida muhim rol o'ynagan. Uzlar etnik tarixi bo'yicha ba'zi tarixiy manba va adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi. Lekin bu mavzu hozirgacha alohida o'rganilmaganki, bu ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Turkiy qavmlardan hisoblangan Uz qabilasi etnik tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar mashhur tilshunos Mahmud Koshg'ariy, arab muarixi Mas'udiy (X asr), Vizantiya tarixchisi K.Bagryyanarodniy (IX asr), arman tarixchisi M. Edesskiy (XI asr). Agtaliyet (XI asr), Skilitsiy (XI asr). A.Komnina (XII asr) asarlarida tilga olingan. Shuningdek, uzlar haqida G.Z.Bayyer. D.A.Xvolson, F.Sum S.M.Solovyov, N.M.Karamzin, M.P.Pogodin, F.Brun, P.Golubovskiy, N.A.Aristov, V.V.Bartold, S.A.Pletneva, S.Ogajonov, D.A.Rasovskiy, R.A. Ageyeva kabi mualliflar asarlarida ma'lumotlar mavjud [1].

XX asr 50-yillarining oxiri -60-yillarining boshlarida Uzlar etnik tarixi bilan moskvalik rus elshunos olimasi K.L.Zadixina shug'ullanib, quyi Qashqadaryo Uzlari haqida qiziqarli ilmiy maqola yozgan edi [2].

XIX asr 60-80-yillarida Uzlar qipchoqlarning bir urug'i sifatida tilga olingan. N.M.Karamzin, M.P.Pogodin, F.Brun, P.Golubovskiyler rus yilnomalariga asoslanib, Uzlarni torklar tarkibiga kiritadilar [3]. I.N. Jitetskiy Uzlarni bijanaklar qabilasiga tegishli urug' jamoasi desa [4], N.A. Aristov, V.V. Bartold, S.A. Pletneva, S.G. Ogajonovlar Uzlarni o'g'uzlar tarkibiga kirgan qabila sifatida talqin etgan [5].

D.A.Rasovskiy uzlar o'g'uzlar tarkibiga kiritishni asossiz hisoblab, ularni torklar qavmiga mansub urug' jamoalardan biridir [6], deydi. R.A. Ageyeva "O'zbek" etnik nomi "Az" va "Uz" etnonimlaridan kelib chiqqanligini aytadi [7].

Tahlil natijalari. Tarixiy-etnografik manbalarga ko'ra, Uzlar VIII asr o'rtalarida Sirdaryoning o'rta va quyi havzalarida yashaganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shu asrning 60-yillaridan ularning asosiy qismi Orol dengizining shimoli-g'arbiy hududlariga ko'chib o'tgan. Bu qarluqlarning Yettisuv o'lkalarini bosib olishi va Sirdaryoning quyi va o'rta havzalarida o'g'uzlar qabila ittifoqi tashkil topishi bilan bog'liq bo'lган. Ammo Uz qabilasining ma'lum qismi o'z joylarida qolib, dastlab o'g'uzlar, XI asrning birinchi choragidan boshlab, Sirdaryo bo'yi qipchoqlari ta'sirida edi. Bu haqda Qipchoqlar tarkibida Uz etnonimining mavjud bo'lGANI ham isbotlandi.[8].

Sirdaryo bo'ylari Uz toponimlari uchraydi. Masalan, Sig'noq shahri bilan Barchinlikent qishlog'i oralig'ida o'rta asrlarda Uzgend nomli shahar mavjud bo'lgan [9]. IX asr o'rtalaridan to XI asr birinchi choragiga qadar Uzlar har jihatdan kuchayib, siyosiy maydonga chiqadi, ijtimoiy va siyosiy jihatdan mustaqil hayot kechirgan. Uzlar g'arbiy qo'shnilarini bijanaklar (pecheneglar) bilan kuchli harbiy raqobatda bo'lgan.

Обосновавшись на новом месте, одна часть согдийцев продолжала заниматься торговлей, а другая построила блестящую политическую карьеру, поступив на службу чиновниками в административные и придворные министерства Китая.

Предводитель согдийских колоний назывался «сабао». Этим титулом величали политического и религиозного лидера, а также самое главное лицо, отвечающее за торговлю. Первоначальное же значение слова было «караван бashi», то есть начальник каравана.

Деловая активность и сложная общественная жизнь требовали, чтобы люди были грамотны, знали законы, владели языками, поэтому мальчика обучали грамоте с пяти лет и после того, как он научился читать, его начинали учить азам торговли. Не изменяя зороастрийской вере, согдийцы все больше подпадали под влияние китайской культуры. Некоторые из них даже переиничивали имена на китайский манер, оставляя фамильные иранские корни: Ань Цзя, Ши Шейю, Ань Ши.

Если родоначальники семей были купцами и торговцами, то среди представителей следующего поколения видим: «военачальника, совершившего много военных походов», «чиновника, управлявшего конным двором», «переводчиков в центральном правительстве», «начальника округа Гуочжоу» (провинция Хэнам), ветеринара, солдата, земледельца и т.д. [10]

Например, военным губернатором при китайском императоре Сюань-цзуне (685 – 762 гг.) был Ань Лушань, уроженец Бухары полусогдийского, полутюркского происхождения. [11]

Согдийцы перенесли шёлк из сферы дипломатии в мир коммерции, которая всегда активнее внедряет модификации в технологические процессы. В VI–VII веках согдийская торговля обладала унифицированной, хорошо организованной общественной структурой, обеспечивавшей бесперебойное движение караванов по Великому шелковому пути. Согдиана с главным городом Самаркандром стала центром

сосредоточения и дальнейшего распределения товаров; там же делались заказы на необходимые товары, привозимые из Китая. Можно назвать это первыми логистическими экспериментами.

Развитию торговли в Китае способствовало, прежде всего, образование в конце VI века единой империи, объединившей обширные территории, различавшиеся по уровню социально-экономического развития и хозяйственной специализации. Консолидация политической власти создала благоприятные условия для интенсификации торгового обмена как внутри страны, так и за её пределами. Государство активно занималось благоустройством торговых путей, вдоль которых строились склады, постоянные дворы и иные объекты инфраструктуры, обеспечивающие безопасность и удобство передвижения товаров и людей. Особое значение имело развитие водных путей сообщения, в частности, реставрация и усовершенствование Великого канала в начале VII века. Великий канал, соединявший северные и южные регионы страны, стал ключевой артерией внутренней торговли, способствуя более эффективной интеграции различных экономических зон. Важным шагом в направлении стандартизации экономических процессов стало введение в конце VI века единых эталонов мер и весов, что обеспечило унификацию торговых операций на всей территории империи. Одновременно был наложен выпуск единой монеты установленного веса — медной, с добавлением небольшого количества олова и свинца.

Заключение/рекомендации. Эпоха династии Тан (618–907 гг.) занимает особое место в истории Китая как период наивысшего расцвета политической мощи, экономического процветания и культурного подъёма. В это время Китай превратился в империю с практически глобальным влиянием в евразийском масштабе. Великий Шёлковый путь – сеть сухопутных и морских маршрутов, связывавших Китай с Центральной Азией, Ближним Востоком, Южной Азией и Европой – стал важнейшим инструментом утверждения китайского влияния за пределами собственных границ.

Таким образом, в эпоху династии Тан Великий Шёлковый путь имел решающее значение для экономики, но и культурное и политическое развитие Китая, оставив неизгладимый след в мировой истории

Список использованной литературы

1. Зал культуры племен Северного Кавказа в раннем средневековье. Мощевая Балка. Памятник на Северокавказском шелковом пути. Могильник VIII–IX вв. // <http://rec.gerodot.ru/hermitage/balka.htm>
2. Пигулевская Н.В. Византия на пути в Индию. Из истории торговли Византии с Востоком в IV–VI вв. –Москва–Ленинград, 1951. – 203 с.
3. Бернштам А.Н. Согдийские колонизации Семиречья. // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. – Москва–Ленинград, 1940. - С.34–42.
4. Литвинский Б.А. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности). // Восточный Туркестан и Средняя Азия. История, культура, связи. – Москва: Наука, 1984. – 28с.
5. Чугуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана. // СНВ. – Москва: Наука, 1971. – Вып. X. – 147с.
6. Чжао Сяоцзя. О памятниках согдийцев – эмигрантов по фамилии Ши 6–7в китайском Гуюане. // Актуальные проблемы Центральной Азии и Кавказа. – Москва: Социум, 2015. – С.133–139.
7. Бернштам А.Н. Среднеазатская древность и ее изучение за 30 лет // ВДИ. – 1947. – №3. – С. 91.
8. Чжао Сяоцзя. О памятниках согдийцев – эмигрантов по фамилии Ши 6–7в китайском Гуюане. // Актуальные проблемы Центральной Азии и Кавказа. – Москва: Социум, 2015. – С.133–139.
9. Pelliot P.Le “Cha tcheoutou fou tou king” et la colonie sogdienne de la region du Lop-Nor. // JA, 1916. – Vol. VII. – № 1. – P.122; Чугуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана. // СНВ. – Москва: Наука, 1971. – Вып. X. – 147с.
10. Грене Ф. Знание яштов «Авесты» в Согда и Бактрии по данным иконографии // ВДИ. – 1993. – № 4.-С.149-160
11. Узбекистан. Наследники шелкового пути. Каталог выставки. - Штутгарт, 1997. – С. 60.

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR RAHBARLIK
LAVOZIMLARIDA: STATISTIK TAHLIL (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)**

Bobobekova Nargiza Ismatullayeva

QarDU doktoranti

ismatullayeva88@mail.ru

ORCID ID 0009-0001-3055-1941

UDK 94(575.1):614.2"1991/2024"

Annotatsiya. Maqolada sog'lijni saqlash tizimida xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlari dagi ulushi, kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, ular duch kelgan to'siqlar, motivatsion omillar hamda jamiyat va tizim darajasidagi ta'sirlar haqida so'z boradi. Tadqiqot Jizzax viloyati sog'lijni saqlash muassalarida faoliyat olib borayotgan rahbarlar orasida olib borilib, ular ichida ayol rahbarlarning ulushi qanchaligi ko'rib chiqilgan. Ularning malaka toifasi, mutaxassisligi, fan doktori va fan nomzodlar qancha ekanligi tumanlar hamda viloyat tibbiyot muassasalarini kesimida o'rganildi. Jumladan, 1-rahbar ayollar, rahbar o'rinnbosari lavozimidagi xotin-qizlar, eng ko'p uchragan mutaxassisliklar va ularning tanloviga sabab bo'lgan omillar, rahbar ayollarning yosh darajasi, o'rtacha rahbarlikka tayinlangan yosh davrlari, sabablari tahlil etildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, gender stereotiplari va institutsional to'siqlar xotin-qizlarning rahbarlikka chiqish imkoniyatlarni cheklayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, individual kuchli motivatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muvaffaqiyatning asosiy omillari ekani ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: Sog'lijni saqlash tizimi, rahbarlik, rahbar xotin-qizlar, gender stereotiplar, motivatsion omillar

**WOMEN'S PARTICIPATION IN LEADERSHIP POSITIONS IN THE
HEALTHCARE SYSTEM: A STATISTICAL ANALYSIS (THE CASE OF JIZZAKH
REGION)**

Abstract. This study explores the representation of women in leadership positions within the healthcare sector, their professional development trajectories, encountered barriers, motivational factors, and the influence of societal and institutional dynamics. The research focuses on healthcare institutions in Jizzakh region, analyzing the proportion and roles of female leaders. It examines the levels of professional qualification, academic ranks such as Doctor of Science and PhD candidates, across district and regional healthcare institutions. Particular attention is given to the presence of women in first-tier and deputy leadership positions, the most prevalent specialties, and the determining factors behind their appointments. Furthermore, the study investigates the average age of women in leadership, the typical age of appointment, and the structural causes of gender disparities. The findings reveal that gender stereotypes and institutional constraints significantly limit women's access to leadership roles. However, the research also identifies strong individual motivation and social support systems as critical determinants of successful advancement in leadership careers.

Key words: healthcare, leadership, women in management, gender stereotypes, motivational factors, institutional barriers.

Kirish. Sog'lijni saqlash tizimida xotin-qizlar soha xodimlarining katta qismini tashkil qilsa-da, rahbarlik lavozimlari ularning ishtiroki ancha past. Bu nomutanosiblik gender stereotiplari, institutsional to'siqlar, shaxsiy hayotiy tajribalar va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Albatta, bu holat tizim samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot sog'lijni saqlash tizimida xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlari dagi ishtirokiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq o'rganish, mavjud to'siqlar va muvaffaqiyat strategiyalarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tarixiy, statistik va qiyosiy-tahlil, analiz hamda taqqoslama tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Jizzax viloyati sog'lijni saqlash soha faoliyatida mehnat qilayotgan rahbar ayollar obyekt sifatida olindi. Bugungi kunda yurtimizda yaratilayotgan tub o'zgarishlar, islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar bois o'zbek xotin-qizlari jamiyatning barcha jabhalarida o'z o'mni va mavqeyiga ega bo'lib borayotganligi sir emas. Xususan, rahbarlik lavozimida faoliyat olib borayotgan ayollar ulushi yildan yilga oshib bormoqda. 2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra Respublikamizda 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda. Ya'ni ularning ulushi — 33 foizni tashkil etmoqda [1].

Bugungi kunda Jizzax viloyati sog'lijni saqlash tizimida 21 ta viloyat, 13 ta shahar va tuman tibbiyot birlashmali mayjud bo'lib, viloyatning 1 mln 500 ming aholisiga xizmat qilib kelmoqda [2]. 2024-yil 2-yarim yillik statistik hisobotga ko'ra rahbarlik lavozimlari

jami 72 nafar shifokorlar faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ulardan 22 nafarini ayol shifokorlar tashkil etadi [3].

Tizimda faoliyat olib borayotgan jami xodimlar 23542 nafar[4], shu jumladan, 2351 nafar shifokor, ulardan 777 nafari ayol shifokorlardir[5]. Shuningdek, sohada 13 600 nafar o'rta tibbiyot xodimlari, 4800 nafar kichik tibbiyot xodimlari va 2791 nafar boshqa xodimlar [6] o'z vazifalarini ado etmoqda.

Natijalar va muhokama. Quyidagi jadval orqali ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan rahbar shifokorlarning Malaka toifasi, fan doktori va fan nomzodlarini hamda bu borada xotin-qizlarning ulushi qancha ekanligini tumanlar hamda viloyat tibbiyot muassasalarini kesimida tahlil etdik. (1-jadval)

№	Hududlar	Jami	Ayollar	Sog'liqni saqlash muassasalarining rahbarlari [7]							
				malaka toifasi bo'yicha mutaxassislar							
				olyi		birinchisi		ikkinchisi		Fan doktorlari	Fan nomzodlari
				soni	Jami vrachardagi ulushi %	soni	Jami vrachardagi ulushi %	soni	Jami vrachardagi ulushi %	soni	soni
	Jizzax viloyati	72	22	19	26,4	13	18,1	2	2,8	2	
1	Jizzax sh.	13	4	5	38,5	2	15,4				
2	Arnasoy	2	2	1	50,0						
3	Baxmal	1				1	100,0				
4	Gallaorol	1									
5	Sharof Rashidov	1		1	100,0						
6	Do'stlik	1									
7	Zomin	1		1	100,0						
8	Zarbgor	1									
9	Mirzacho'l	1	1								
10	Zafarobod	1									
11	Paxtakor	1									
12	Forish	2	2	2	100,0						
13	Yangiobod	1									
14	Viloyat muassasalarini	45	13	9	20,0	10	22,2	2	4,4	2	

Juda past ko'rsatkich bo'lsa-da 22 nafar (30,5%) shifokor ayol rahbarlar Jizzax viloyati sog'liqni saqlash tizimining turli lavozimlarida xizmat qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ulardan 7 nafari (jami 55 nafar) tibbiyot muassasasi va tashkilotlarining 1-rahbarlari bo'lib [8], jumladan, Abdusattorova M.A., Jabborova A., Alimova X., Adilova D.A., Asqarova N.I., Zuhurova G.N., Qarshiboyeva M.T. larning xizmatlari Jizzax viloyati Sog'liqni saqlash tizimi rivojida alohida ahamiyatga egadir.

Tahlil natijasiga ko'ra, tizim doirasida rahbarlik qiliyotgan xotin-qizlar ulushining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahri (18 %) va viloyat tibbiyot muassasalariga (59%) to'g'ri kelib, past ko'rsatkichi Arnasoy (9%), Mirzacho'l (4,5%), Forish (9%) tumanlarida ko'rinsa, qolgan tumanlarda hozircha umuman faoliyat olib bormayotganligi aks etgan. Bu holat viloyatimiz miqyosida sog'liqni saqlash tizimidagi hal qilinishi muhim bo'lgan vazifalardan biri ekanligini ifoda etadi.

Jizzax viloyati Sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasasi va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan 1-rahbar ayollar [9]

№	F.I.SH	Tug'ilgan sanasi	Mutaxassisligi	Lavozimi	Qachondan
1	Abdusattarova Muhabbat Atabekovna	06.03.1956 y	olyi, davolash ishi, jarroh	Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i	17.07.2023 y
2	Jabborova Adiba	07.05.1962 y	olyi, davolash ishi	Forish tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i	04.11.2021 y
3	Alimova Xalida Raufovna	17.05.1951 y	olyi, pediatr	Jizzax viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi rahbari	01.07.1987 y
4	Adilova Dildora Asrorovna	17.10.1981 y	olyi, davolash ishi, endokrinolog	Respublika ixtisoslashitirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax filiali rahbari	10.12.2024 y
5	Asqarova Nilufar Ilyushevna	01.06.1977 y.	olyi, umumiy epidemiolog	Jizzax viloyati OITSga qarshi kurashish markazi rahbari	16.08.2017 y
6	Zuxurova Gulzoda Nizomovna	25.08.1965 y	olyi, davolash ishi, pediatriya	Jizzax Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi direktori	03.09.2013 y
7	Qarshiboyeva Maqsuda Tugalovna	26.06.1967 y	olyi, davolash ishi, vrach terapevt	G'allaorol Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi direktori	25.02.2020 y

Manbalarga asosan rahbar ayollarimizning lavozimga kelish yoshi asosan 36 yoshdan 67 yosh oralig'i, mutaxassisliklarining umumiy tomonlari davolash ishi tashkil etadi. Lavozimga tayinlanish bosqichlari ham mustaqilligimizning 2000-yilgi islohotlardan so'nggi davrga to'g'ri kelyapti.

Viloyatimizda tibbiyot muassasasi va tashkilotlarida jami 81 nafar rahbar o'rribbosarlari sog'liqni saqlash tizimi faoliyatida ishtirok etib, ulardan 16 nafari xotin-qizlardir (15 nafari shifokor mutaxassisligiga ega). Statistik tahlil etsak. (2-jadval)

Jizzax viloyati tibbiyot muassasasi va tashkilotlari rahbar o'rribbosari lavozimida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar [10]					
Nº	F.I.SH	Tug'ilgan sanasi	Mutaxassisligi	Lavozimi	Qachondan
Jizzax viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi					
1	Xaydarova Go'zal Baxramovna	24.08.1954-y	oliy, pediatr	Boshqarma boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rribbosari	04.12.2024 y.
Baxmal tumani tibbiyot birlashmasi					
2	Aqmurodova Nortoji Sollyevna	20.02.1961-y	oliy, pediatriya ishi	Birlashma boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rribbosari	28.10.2011 y.
Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasi					
3	Mavlonova Shoira Asatovna	19.03.1967-y	oliy, akusherlik ishi	Birlashma boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rribbosari	16.08.2018 y.
Zomin tumani tibbiyot birlashmasi					
4	Xalilova Gulsara Buriboyevna	01.01.1952-y.	oliy, pediatr	Birlashma boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rribbosari	09.04.2012 y.
Forish tumani tibbiyot birlashmasi					
5	Qurbanova Nodira Atamuradovna	06.06.1962-y.	oliy, pediatr	Birlashma boshlig'ining davolash ishlari bo'yicha o'rribbosari	01.05.2024 y.
6	Mavlonova Dildora Rustamovna	29.02.1965-y	oliy, akusher-ginekolog	Birlashma boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rribbosari	01.02.2018 y.
Respublika tez tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filiali					
7	Djabbarova Durdona Sarabekovna	05.07.1986-y	Bolalar reanimatsiyasi va anestzeziologiyasi	Tezkor ishlarni taskillashtrish bo'yicha direktor o'rribbosari	01.01.2023 y
Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy amaliy tibbiyot markazi Jizzax filiali					
8	Ishmatova Nigora Irkinovna	1969-y.	Akusher-ginekolog	Davolash ishlari buyicha direktor urinbosari	09.03.2000 y.
9	Oripova Xabiba Anvarovna	1965-y	Neonatolog	Neonataloziya ishlari buyicha direktor	19.02.1992 y.
o'rribbosari					
10	Muminjanova Unsinxan	1955-y.	Akusher-ginekolog	Reproduksiya ishlari buyicha direktor o'rribbosari	03.10.2023 y.
Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali					
11	Xamrayeva Zulayxo Egamovna	01.01.1962-y.	Pediatr	O'quv ishlari buyicha direktor o'rribbosari	12.12.2023 y.
12	Kurbanova Feruza Irgashevna	22.10.1970-y	Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi	Ma'naviyat va ma'rifat ishlari buyicha direktor o'rribbosari	01.04.2005 y.
Jizzax Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi					
13	Primqulova Feruza Tog'ayevna	30.10.1968-y	Biologiya, Klinik laboratoriya diagnostika vrachi	Ishlab chiqarish talimi buyicha direktor o'rribbosari	01.05.2023 y
G'allaorol Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi					
14	Tajiboeva Baxriniso Xayrullayevna	24.10.1972-y	oliy ma'lumotli hamshira	Ishlab chiqarish talimi buyicha direktor o'rribbosari	06.09.2021 y
Zomin Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi					
15	Inoyatova Iroda Ne'matullayevna	12.03.1970-y	Vrach-stomatolog	Ishlab chiqarish talimi buyicha direktor o'rribbosari	02.09.2003 y.
Jizzax viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi					
16	Muxtidanova Minnigul Askarovna	24.06.1955-y	Oliy, sanitariya-gigiena va epidemiologiya	Jizzax viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'ining birinchisi o'rribbosari-epidemiolog vrach 20.11.2020 y.	20.11.2020 y.

Statistikaga ko'ra, rahbarlik o'rribbosari lavozimiga kirib kelgan xotin-qizlarning yosh oraliq davri 27 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Asosan ularning boshqaruvdagi faolligini 50 yoshdan so'ng ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu omil yillar mobaynida to'plagan kasbiy va hayotiy tajribalariga bog'liq. Shuningdek, mutaxassislik bo'yicha ham eng ko'p pediatriya, akusher-genikologiya sohalari tashkil etadi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadi, bu tanlov asosan oilaviy prinsplar negizida shakllangan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbarlikka chiqish jarayonida ko‘pchilik ayollar o‘z mehnati va shaxsiy sa’y-harakatlari orqali erishgan. Ammo mavjud to‘siqlar va muammolar sifatida quyidagilar aniqlandi:

- Oilaviy majburiyatlar va ish-hayot muvozanatining yo‘qligi;
- Jamiyatdagi “ayol rahbar zaif” degan stereotiplar;
- Ish joyida yuqori darajada ishonch bildirilmasligi;
- Institutsional yordam dasturlarining yetishmasligi.

Albatta, o‘z navbatida boshqaruv tizimida faollashayotganligining muvaffaqiyat omillari ham mavjud bo‘lib, bu borada shaxsiy motivatsiya, bilim va tayyorgarlik; ayollarga ixtisoslashtirilgan rahbarlik kurslari; oila va hamkasblar qo‘llab-quvvati; faol tarmoqlanish (networking) muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, viloyat (mahalliy) sog‘liqni saqlash tizimida xotin-qizlar o‘rtasida rahbarlikka intilishi kuchli bo‘lsa-da, tizimdaggi, jamiyatdagi madaniy va institutsional to‘siqlar ularni sekinlashtiradi. Bu to‘siqlar faqat shaxsiy sa’y bilan emas, balki davlat va jamiat tomonidan maqsadli dasturlar orqali yengillatilishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xotin-qizlar uchun rahbarlik bo‘yicha maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilishi zarur.

Sog‘liqni saqlash muassasalarida gender tengligi siyosatlari joriy etilishi lozim.

Ayol rahbarlar uchun tarmoq tuzish va tajriba almashish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa viloyatlarda ham monitoring o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Davlat boshqaruvidagi TOP-40 rahbar ayollar reytingi yangilandi // Yangi O‘zbekiston (<https://yuz.uz/news/davlat-boshqaruvidagi-top-40-rahbar-ayollar-reytingi-yangilandi>) 08.03.2023 yil

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy apparati yig‘ilishi bayoni. 162-son. 23.11.2024 yil

3. Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasiga qarashli tibbiyot muassasalarining xodimlari to‘g‘risida statistik to‘plam, 2024-yil yarim yillik./

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy apparati yig‘ilishi bayoni. 162-son. 23.11.2024-yil

5. Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasiga qarashli tibbiyot muassasalarining xodimlari to‘g‘risida statistik to‘plam, 2024-yil yarim yillik

6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy apparati yig‘ilishi bayoni. 162-son. 23.11.2024 yil

7. Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasiga qarashli tibbiyot muassasalarining xodimlari to‘g‘risida statistik to‘plam, 2024-yil yarim yillik

8. Tibbiyot muassasasi va tashkilotlarining birinchi rahbarlari to‘g‘risida ma’lumot. 16.12.2024 holatiga

10. Tibbiyot muassasasi va tashkilotlarining o‘rinbosarlari to‘g‘risida ma’lumot (16.12.2024 holatiga)

**O‘ZBEKISTON SSR XALQ XO‘JALIGI TO‘QQIZINCHI BESH YILLIKDA:
QISHLOQ XO‘JALIGI SEKTORINI RIVOJLANTIRISHNING YO‘NALISHLARI**

Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи dotsenti, tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

84rizayev@mail.ru

ORCID 0000-0002-1074-8149

UDK 338.43(575.1)"1971/1975"

Annotasiya. SSSRda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan sakkizinch besh yillik sovet hukumatini navbatdagi, to‘qqizinchi besh yillik dasturini ishonchli, yanada mukammal va keng qamrovli ishlab chiqishga undadi. Xususan, qishloq xo‘jaligi sektorida o‘tgan besh yillikda amalga oshirilgan islohholtari davomli, takomillashtagan hamda yangi yo‘nalishlar bilan tatbiq etilda. Mazkur besh yillikda bundan oldingilariga xos bo‘lgan bir xususiyat – paxta yakka hukmronligi saqlab qolindi. Shu bilan birga, chorvachilik, parrandachilik, qorako‘lchilik, sholichilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish belgilandi. Xususan, qishloq xo‘jaligi boshqaruvida kolxz va sovxozlarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish ishlari

jadallashdi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga texnik va servis xizmat ko‘rsatish tizimi takomillashi.

Ushbu maqolda O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi sektorida 1971-1975-yillar joriy etilgan islohotlar yo‘nalishi, o‘zarishlar, yutuqlar hamda natijalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: islohot, N.A.Kasigin, besh yillik, dastur, sovxozi, kolxoz, tarmoqlar.

THE NATIONAL ECONOMY OF THE UZBEK SSR DURING THE NINTH FIVE-YEAR PLAN: DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE AGRICULTURAL SECTOR

Abstract. The successful implementation of the Eighth Five-Year Plan in the USSR encouraged the Soviet government to develop the subsequent Ninth Five-Year Plan in a more comprehensive, advanced, and wide-ranging manner. In particular, reforms carried out in the agricultural sector during the previous plan were continued, improved, and introduced with new directions. A characteristic feature of this five-year period — the dominance of cotton — remained. At the same time, the development of livestock breeding, poultry farming, karakul sheep breeding, rice cultivation, and other sectors was planned. Notably, the transition of collective farms kolkhozes and state farms sovkhoz to economic accounting was accelerated. The system of technical and service support for agricultural producers was improved.

This article analyzes the directions of reforms, changes, achievements, and outcomes introduced in the agricultural sector of the Uzbek SSR during 1971–1975.

Keywords: reform, N.A. Kosygin, five-year plan, program, state farm sovkhoz, collective farm kolkhoz, sectors.

Kirish. SSSRda to‘qqizinchi besh yillik (1971-1975-yillar) xalq xo‘jaligi va madaniy qurilishning ulkan dasturi sifatida tatbiq etildi. Dastur kommunistik qurushlishning zamonaviy bosqichi, sovet jamiyatni ehtiyojlarini ilmiy asoslangan, mamlakat iqtisodiyoti hamda madaniyatini yuksaltirishga mo‘jallangan bosh yo‘nalishi edi. Xususan, O‘zbekiston SSR ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirishda so‘zsiz muhim ahamiyat kasb etishi kutilgandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. To‘qqizinchi besh yillik O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligida belgilangan vazifalar, ularni amalga oshirish mexanizmi va statistik monitoring tahlillar manbaviy asosini O‘zbekiston Millliy arxivni, viloyat davlat arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar tashkil etadi. O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishda sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan to‘plam (O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining majlislari stenogrammalari, KPSS syezdining materiallari, partiya va hukumatning xo‘jalik masalalariga oid qarorlari) laridan foydalanildi.

Natija va muhokama. To‘qizinchi besh yillik sakkizinchi besh yillikda belgilangan tadbirdarini rivojlantirish va takomillashtirishning mantiqiy davomi bo‘ldi. Masalan, qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarishni har tomonlama rivojlantirish, chunonchi, prinsipial va qat‘iy mexanizatsiyalash, paxta-beda almashlab ekish sxemasi, sug‘orish, moddiy-texnik resurslarni o‘zlashtirish asosida mehnat unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxini kamaytirishi ko‘zda tutildi. Paxta yakka hokimligi to‘qqizinchi besh yillikda ham saqlanib qoldi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, ayniqsa, chorvachilikda mavjud oqsoqlikni bartaraf etish, chorva, parranda boshi va mahsuldarligini oshirish, ishonchli ozuqa bazasini yaratish, chorvachilik fermalarini mexanizatsiyalash va salohiyatli kadrlar bilan ta’minalashga alohida e’tibor qaratildi[1].

To‘qizinchi besh yillik, undan oldin tatbiq etilgan besh yillik doirasida amalga oshirilayotgan kolxoz va sovxozlarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish tadbiri ko‘prigidan boshlandi. Xususan, 1968-yilda O‘zbekiston SSRda Qishloq xo‘jaligi ministrligining to‘la xo‘jalik hisobida faoliyat yuritgan 18 ta sovxozi davlatga paxta topshirish planini 109,6 foizga, don va go‘sht topshirish planlarini oshirib bajardi, har bir mehnatkash hisobiga yalpi mahsulot yetishtirish 1967-yilga nisbatan ko‘paydi. To‘la xo‘jalik hisobiga ko‘chirilgan sovxozi 1968-yilni rejadagi 18,1 million so‘m o‘rniga 22,7 so‘m foyda bilan yakunladilar, iqtisodiy rag‘batlantirish fondlariga 8 million so‘mdan ziyod mablag‘ topshirib qo‘ydilar [2, -B. 64]. Shu yilda, kolxoz, sovxozi, parrandachilik fabrikalari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarini tashkiliy-xo‘jalik faoliyatining besh yillik plani tuzib chiqildi. Unda xo‘jaliklarning mahalliy, tabiiy-iqtisodiy sharoitlari hamda ixtisoslashuvga mutanosibligaga alohida urg‘u berildi. Shu maqsadda bosh boshqarmalar, ilmiy muassasalar, sovxozi, “Uzglavkarakul”,

“Uzptiseprom”, KK ASSR qishloq xo‘jaligi ministrligi, oblast va rayon boshqarmalari, sovxozi trestlari tomonidan, dastlab har bir xo‘jalik tomonidan amalga oshirilajak tashkiliy-xo‘jalik faoliyati rejasiga obdon o‘rganilib, uning istiqbolda rivojlanish yo‘nalishi inobatga olingan holda plan tuzib chiqildi. Tashkiliy-xo‘jalik planini tuzishda: xo‘jalikning ixtisoslashuvi, kelajakda rivojlantirish ko‘zda tutilgan asosiy yo‘nalishi, tarmoqlari, xo‘jaliklararo aloqalari, shuningdek, aholi manzilgohining istiqboldagi proqnozi hamda xo‘jalik markazi hisobga olindi.

70-yillarda O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik hajmini 21-24 % ga ko‘paytirish reja qilindi, 1980-yilga borib paxta yetishtirish 5,8 million tonnaga yetadi. To‘qqizinchchi besh yillikda qishloq xo‘jaligi sohasiga 131 milliard so‘m, sakkizinchchi besh yillikdagiga nisbatan 49 milliard so‘m ko‘p kapital mablag‘ sarflandi. Tadbirlar Qarshi dashtida ingichka tolali paxta yetishtiradigan yangi, yirik rayon barpo etish va Jizzax dashtini o‘zlashtirish, Qoraqalpog‘iston SSRda sholichilik rayonini barpo ettirish bilan davom etdi, qo‘ychilik, jun va qorako‘l teri etishtirish tarmoqlari jonlandi.

Sug‘oriladigan va yangi o‘zlashtirilgan yerlarda makkajo‘xori, sholi, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva, uzum, beda urug‘i yetishtirish jadallahadi, natijalar tez orada ko‘zga tashlana boshladi. Yerlarning meliorativ holati yaxshilanib, 462 ming *ga* yerni sug‘orildi va 1,5 milion *ga* yaylovga suv chiqarildi[3, -B.308].

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va ximiyalashtirish, yerlarning melioratsiyalash ishlari davom etdi. Qishloq xo‘jaligi 1,7 million traktor, 1,1 milliondan ziyodroq yuk avtomobili, 15,8 milliard so‘mlik qishloq xo‘jaligi mashinalari va ko‘p miqdorda boshqa texnika oldi. Kolxoz va sovxozlarga 300 million tonnadan ko‘proq mineral o‘g‘itlar yetkazib berildi. 1971–1975-yillarda davlat va kolxoz mablag‘lari hisobiga 4,6 million hektar sug‘oriladigan yer ishga tushirildi va qishloq xo‘jaligiga yaroqli 4,4 million hektar yerning zaxi qochirildi[4, -B.7].

Jamg‘arishni ko‘paytirish, xalq iste’moli mahsulotlarini oshirish sohasida katta ko‘lamdagi vazifalarni kompleks hal etishga qaror qilindi. Bu vazifa fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish bilan ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish ehtiyojidan kelib chiqdi. Shu boisdan, energetikani yanada rivojlantirishning, yangi konstruksion, qurilish va boshqa materillar, yuksak samarali texnologiyani yaratishning ilmiy asoslarini, shu jumladan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish masalalarini ishlab chiqishga e’tibor qaratildi. Hosildor tuproqli qurg‘oqchilik rayonlarida sug‘orish ishlari keng miqyosida olib borildi[5, -B. 155].

Kolxozlarning jamoat xo‘jaligidan oladigan daromadlarini besh yil ichida 35-40 % oshirish ko‘zda tutildi. Shuningdek, shaxsiy yordamchi xo‘jalik aholi daromadiga qo‘sishma bo‘ladi. Kolxozlarda mehnat normasini belgilash, tashkil etish va haq to‘lash sovxozlarda mavjud bo‘lgan daraja va shakllarga tobora yaqinlashib bordi.

Islohotlar doirasida kolxoz va sovxozlarga mashina-traktor parklari imkoniyatidan unumli foydalanish maqsadida ko‘rsatilayotgan yordamni yanada kuchaytirish, kolxoz, sovxozi va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, tashkilotlardagi traktor, avtomobil, kombayn, paxta terish mashinalari, boshqa mashina va uskunlardan foydalanish, saqlash, hisobdan chiqarishlarini tizimli monitoring qilish uchun “Uzselxoztexnika” tasarrufida faoliyat yuritgan davlat texnika inispeksiysi O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligi ixtiyoriga berildi. Inspeksianing oblast va rayonlarda boshqarma hamda bo‘limlari tuzildi. Ko‘rilgan tadbirning ijobiy natijasi haqida fikr bildirilgan ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Sirdaryo oblasti “Uzselxoztexnika” birlashmasining Paxtaorol boshqarmasi boshlig‘i D.B. Grok rayon bo‘limi tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri kolxozlarga texnik xizmat ko‘rsatishning mazkur ilg‘or usul bir qator afzallikkarga ega ekanligini qayd etadi. Jumladan, yangi ilg‘or metod – texnikadan foydalanish darajasini yaxshilash, mashina-traktor parklarini muntazam texnik shay holatda bo‘lishini ta’minlash, texnika uchun sarflanayotgan mehnat va pul xarajatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tubdan yuksaltirish borasida partiya boshlagan yo‘l, – degan edi L.I. Brejnev KPSS XXV syezdida qilgan hisobot nutqida, – ishning asosiy yo‘nalishlari davomiyligini butun choralar bilan ta’minlash bilan birga, har bir besh yillikning

o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. Endi qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasi mustahkamlana borgan sayin uning samaradorligini oshirish hamda sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash vazifasi ko‘ndalang bo‘lib qolmoqda [7, -B.69]. Darhaqiqat, ushbu fikrlar 70-yillardan boshlab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish korxonalarini ixtisoslashtirish va joylashtirish kampaniyasi, undan so‘ng agrar – sanoat birlashmalari (1976-yil) tashkil etilishida o‘zining amaliy ifodasini topdi.

To‘qqizinchi besh yillik yakunlari A.N. Kasigin 1976-yil 1-mart Kommunistik partiyaning XXV syezdida qilgan nutqida ko‘rsatib berildi. Unda “qishloq xo‘jaligi moddiy-texnik bazasi mustakamlandi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishi ixtisoslashuvi chuqurlashdi” mazmunida hisobot berildi. Bu tadbirlarni amalga oshirish maqsadida davlat byudjetidan 131 milliard so‘m, butun xalq xo‘jaligi uchun ajratilgan mablag‘ning to‘rtadan biriga teng mablag‘ sarflandi. Besh yillikda qishloq 1 million 700 ming traktor, 449 ming g‘alla kambaynlari, 1 102 ming yuk mashinasi, avtomobil va boshqa texnikalarga ega bo‘ldi. 1975-yil qishloq xo‘jaligi 1965-yilga nisbatan 3,5 marta ko‘p elektrenergiya iste’mol qiladi. Qishloq xo‘jaligida traktor, kambayn va avtomobil umumiy dvigatel quvvati so‘nggi 10 yil ichida 80 foizga o‘sdi, qishloq xo‘jaligi bir ishchi hisobida 2 martadan ko‘proq oshdi[8, -B. 159].

KPSS XXV syezdi mazkur dasturni joriy etish vaqtin etilgani hamda islohotning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoy ahamiyati beqiyos ekanigi e’tirof etdi. Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash jarayoni ko‘p qirrali edi. SSSRda g‘alla, paxta, qand lavlagi, sabzavot, meva va uzum, choy, sitrus mevalar, sut, jun tovar mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik zonalar mavjud edi. 1976-yildan zonali ixtisoslashtirish yanada chuqurlashdi va rivojlantirildi. Birinchi bosqichida xo‘jaliklararo kooperatsiya negizida kolxoz va sovxozi mablag‘lari, moddiy-texnik va mehnat resurslari muvofiqlashtirilib, yirik kolxozi sovxozi, kolxozi-sovxozi, sovxozi-kolxozi va boshqa davlat-kolxozi korxonalarini va sanoat tipidagi: go‘sht, sut, tuxum, jun, chorva uchun ozuqa, naslchilik, urug‘chilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik, saqlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlash, agrokimiyo xizmatlari, texnikadan foydalanishdagi hamkorlik, transport, qurilish va meliorativ ishlar, o‘rmon xo‘jaligi, qurilish materiallari tayyorlash va boshqa yirik ixtisoslashgan xo‘jaliklar tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi[10, -S. 322].

O‘zbekistonda SSRda bu tizim yuqoridagi qaror qabul qilingunga qadar amaliyatga joriy qilingandi. Qishloq xo‘jaligi va sanoatni uyg‘unlashtirish 1963-yildan boshlanib, o‘sha yili bog‘dorchilik - uzumchilik sovxozi tizimida “Xalqabod” kombinati tashkil etildi. Keyinchalik kombinat U.Yusupov nomidagi agrar-sanoat birlashmasiga aylantirildi.

1974-yil 24-dekabr O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi “Chorvachilik ishlab chiqarishni markazlashtirish, ixtisoslashtirish va xo‘jaliklararo kooperatsiya asosida yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qaror qabul qilinishi bilan respublika chorvachilik tarmog‘ida yangi tizim joriy etildi. Ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash borasida yuqori natijalarga erishildi. Mavjud 1458 kolxozi va sovxozdan 1082 tasi paxtachilikka, 22 tasi sholichilikka, 144 tasi sabzavotchilik, kartoshkachilik, meva va uzumchilikka ixtisoslashtirildi.

Chorvachilik tarmog‘ida markazlashtirish natijasida 85 ta qo‘ychilik, 55 ta go‘sht chorvachiligi va yirik shoxli qoramol bo‘rdoqchilik, 22 tasi parrandachilik bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari cho‘chqachilik, yilqichilik, asalarichilik va boshqa tarmoqlarga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni ham qayd etish mumkin[11]. Yangi dastur L.I. Brejnev nomi bilan ilgari surilgan bo‘lishga qaramasdan, uning tuzilishi va ish mexanizmi Kasiginning kursi mantiqiy davomi ekanligini yaqqol ko‘rinib turadi. Zero, 1965-yil e’lon qilingan Kasigin kursi asosini tashkil etgan intensivlashtirish va kooperatsiya bazasida

ixtisoslashtirish va markazlashtirish maqsad qilingan edi. Qolaversa, V.I. Lenin tomonidan aytilgan “sanoat va qishloq xo‘jaligini ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalar hamda jamoaviy mehnat kombinatsiyasi asosida bog‘lash” nazariyasiga ham mos tushardi. Shu o‘rinda Lenining “kooperatsiya plani” nazariyasi N.A. Kasiginda sotsializmga bo‘lgan ilk qiziqishning uyg‘onishiga turki bo‘lganligini ta‘kidlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Kasigin dasturi doirasida avvalo xo‘jalik, xo‘jaliklararo va nihoyat hududiy (rayon, oblast, respublika) ixtisoslashuv bosqichma-bosqich amaliyatga tatbiq etildi. O‘zbekistonda sakkizinch va to‘qqizinch besh yilliklar mobaynida xo‘jaliklarni yiriklashtirish hisobiga 148 ta zamonaviy sovxoz tashkil qilindi. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy-iqlim va boshqa sharoitlarni nazarda tutib, respublikada 42 ta yangi qishloq rayoni va Jizzax oblasti tashkil qilindi. O‘zbekiston SSRda tajribada sinovdan o‘tgan dastur afzalliklari va erishilgan qator ijobjiy misollarni keltirish mumkin. Masalan, 1974-yili Pastdarg‘om rayonidagi 18 xo‘jalikning hammasida 71 hektar kartoshka ekildi, shundan 47 foizi “Leninizm” kolxozida edi, qolgan kolxozlarga esa 2,5 hektardan to‘g‘ri keladi. Natijada bu ekinning rayon bo‘yicha o‘rtacha hosildorligi 34 sentnerni tashkil etdi. Samarqand rayon Engels nomli kolxozda esa ahvol tamoman boshqacha – bu xo‘jalik hektar boshiga 47 sentnerdan sabzavot yetishtirdi. Shu oblastning Poyariq rayonidagi xo‘jaliklar esa 4,3 baravar kam hosil oldi va u 2,8 baravar qimmatga tushdi. Samarqand oblastida 13 rayon sabzavotchilik bilan shug‘ullanadi va ular jami 170 ming tonna chamasida sabzavot yetishtiradi, holbuki, birgina ixtisoslashtirilgan Samarqand rayonining o‘zi 103 ming tonna yoki jami sabzavotning 60 foizidan ko‘prog‘ini yetishtirgan[12].

Xulosa. N.A. Kasigin islohotlari ostida o‘tgan 1966–1970-yillar kapitalistik individualizm, sotsialistik jamoaviylik bilan uyg‘unlashgan holatda namoyon bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining qariyb barcha tarmoqlari yuksaldi, qishloq qiyofasi tanib bo‘lmas darajaga yetdi, aholi turmush darajasi yaxshilandi. Dehqon, chorvador va qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida kelajakka umid va ishonch tuyug‘ulari uyg‘ondi. Ammo N.A. Kasigin nufuzining xalqaro doiralar, sovet elitasi hamda xalq orasida ortib borishi uning raqiblarni jiddiy tashvishga sola boshladi. Hali, 1968 yoldayoq Yugoslaviyada kuzatilgan siyosiy inqiroz birinchi sekretar L.I. Brejnevni xalq xo‘jaligi boshqaruvida direktiv usulni qayta tiklash lozimligiga yana bir bor ishontirdi. Oqibatda “Kasigin islohotlari”da ilgari surgan moddiy manfaatdorlik, rag‘batlantirish va mustaqillik, sotsialistik ishlab chiqarish boshqaruvining asosiy dastaklaridan biri bo‘lgan direktuv usul bilan o‘rin almashdi.

80-yillardan keng xalq iste’moli mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda qator muammolar yuzaga keldi, iqtisodiy turg‘unlik yillari qishloq xo‘jaligi inqirozi yanada chuqurlashdi, keyinchalik sovet ittifоqining parchalanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 41-рўйхат, 4569-ийғма жилд, 456-варак
2. Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари. Бешинчи сессия. 1969 йил 5-6 июнь. Стенографик хисобот. –Т.: Ўзбекистон ССР Олий Советининг нашри, 1969. – 486 б.
3. КПСС XXV съездининг материаллари. –Т.: Ўзбекистон, 1976. –Б. 308.
4. 1976-1980 йилларда СССР халқ хўялигини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. –Т.: Ўзбекистон, 1976. –112 б.
5. КПСС XXIII съездининг материаллари. –Т.: Ўзбекистон, 1966. –Б.155
6. Ўзбекистон Миллий архиви 90-фонд, 10-рўйхат, 6541-ийғма жилд, 74-варак
7. КПСС XXV съездининг материаллари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1976, -Б. 69
8. Материалы XXV съезда КПСС. – М.: Политиздат, 1977. – С. 159
9. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам: Сб. док. Т. 11. Ноябрь 1975 г.-июнь 1977 г. - М.: Политиздат, 1977. - С. 321, 322.
10. Ўзбекистон Миллий Архиви 90-фонд, 10-рўйхат, 854-ийғма жилд, 74-варак
11. Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 654-ийғма жилд, 14-варак

SPORTS DIPLOMACY (A CASE STUDY OF THE GLOBAL ACHIEVEMENTS OF UZBEKISTANI YOUTH)

Xushmatova Gulnoza Norkulovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
gulnozanorqulovna@mail.ru

Lazizbek Xamdamov Shuxrat o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
 ORCID 0009-0009-4904-880X
 UDK 327.36:796(575.1)

Abstract. This article analyzes Uzbekistan's achievements in the international arena through sports diplomacy. In the 21st century, sports are becoming not only the basis of physical education and a healthy lifestyle, but also an important tool in international politics and diplomacy. In particular, sports diplomacy serves as an effective tool for building a positive image between states, strengthening international relations, cultural exchange and promoting the policy of "soft power". This study analyzes the theoretical foundations of sports diplomacy, its role in international relations and the results of this direction through youth sports in Uzbekistan. It is argued that the successes of Uzbek youth in international sports arenas - achievements in the Olympic Games, Asian and world championships - are shaping the country's positive image in the international arena.

Keywords: Sports diplomacy, international relations, Uzbek sports, international sports competitions, sports and politics, international image, sports organizations, regional cooperation, Uzbek sports achievements, soft power.

SPORT DIPLOMATIYASI (O‘ZBEKISTON YOSHLARINING GLOBAL MAYDONDAGI MUVAFFAQIYATLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning sport diplomatiyasi orqali xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari tahlil qilinadi. XXI asrda sport nafaqat jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzining asosi, balki xalqaro siyosat va diplomatiyada muhim vositaga aylanib bormoqda. Xususan, sport diplomatiyasi davlatlar o‘rtasidagi ijobjiy imijni shakllantirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, madaniy almashinuv va “yumshoq kuch” siyosatini ilgari surishda samaralari vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotda sport diplomatiyasining nazariy asoslari, uning xalqaro aloqalardagi roli va O‘zbekiston misolida yoshlар sporti orqali bu yo‘nalishning samaralari tahlil qilinadi. O‘zbekiston yoshlарining xalqaro sport maydonlaridagi muvaffaqiyatlari – Olimpiya o‘yinlari, Osiyo va jahon championatlaridagi yutuqlari orqali mamlakatning xalqaro maydondagi ijobjiy qiyofasi shakllanayotganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Sport diplomatiyasi, xalqaro munosabatlар, O‘zbekiston sporti, xalqaro sport musobaqlari, sport va siyosat, xalqaro imij, sport tashkilotlari, mintaqaviy hamkorlik, O‘zbekiston sport yutuqlari, yumshoq kuch.

Kirish. Globallashuv jarayonida sport nafaqat jismoniy tarbiya va raqobat maydoni, balki davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni mustahkamlash vositasiga ham aylangan. O‘zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqlardagi yutuqlari, sport hakamlarining global maydondagi obro‘sni va mamlakatimizning yirik sport tadbirlarini tashkil etishdagi ishtiroki sport diplomatiyasining samarali yo‘nalishlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sport orqali O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash jarayoniga e’tibor qaratiladi. Maqola sportning davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashdagi o‘rnini va O‘zbekiston tajribasini yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar sportni tashqi siyosatining muhim qismi sifatida ko‘rib, uni xalqaro imijini yaxshilash, madaniy almashinuvni rivojlantirish va davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llamoqda. O‘zbekiston ham sport diplomatiyasi orqali o‘zining global maydondagi mavqeyini mustahkamlab, xalqaro sport tadbirlarida faol ishtirok etmoqda.

Adabiyotlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, S. Mamadaliyev, N. Ruziqulovalarning “O‘zbekiston sport diplomatiyasi: global maydondagi muvaffaqiyatlari” mavzusidagi tadqiqot ishlarida mualliflar O‘zbekiston sportchilari ishtirok etgan yirik xalqaro musobaqlar misolida mamlakatning siyosiy imijini mustahkamlashda sportning tutgan o‘rnini ochib beradi. Bu ilmiy ishlar sport diplomatiyasining “yumshoq kuch” sifatidagi rolini tahlil qiladi [1].

G‘.E. G‘aniyev “Sport musobaqlari orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish omillari” mavzusidagi tadqiqot doirasida esa muallif sport musobaqlarining yoshlar

tarbiyasiga ijobjiy ta'sirini o'rganadi. Ayniqsa, milliy sport turlari orqali vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning rivojlanishi muhim omil sifatida ko'rsatilgan [2].

So'nggi yillarda o'zbekistonlik sportchilarning yirik xalqaro musobaqlardagi muvaffaqiyatlari, mamlakatimizda o'tkazilayotgan nufuzli sport turnirlari va taniqli sport hakamlarining xalqaro maydondagi obro'si sport diplomatiyasingin samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

- Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng xalqaro miqyosida tan olinishiga erishish uchun bir qator islohotlar amalga oshirdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqlarida sportning xalqaro miqyosida O'zbekistonning tan olinishi va obro'sini oshirilishidagi ahamiyatini ta'kidlagan. Milliy sport turlari, xususan, o'zbek kurashining xalqaro maydonga chiqishi mamlakatimizning dunyodagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek kurashining xalqaro miqyosda keng tan olinishi O'zbekistonning xalqaro aloqalarining yanada kengayishiga sabab bo'lmoqda. Olib borilgan keng islohotlar natijasida o'zbekistonlik sportchilar xalqaro musobaqlarda yuqori natijalarga erishib, mamlakatimizning sport salohiyatini namoyish etmoqda. Braziliyada "XXXI Olimpiya o'yinlari Rio-2016" va Fransiyada "XXXIII Olimpiya o'yinlari Parij-2024" dagi ko'plab g'alabalar buning isbotidir.

Sport har doim davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynab kelgan. Sport diplomatiyasi mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tarixda turli davlatlar sport orqali o'zaro aloqalarini yaxshilagan, hatto ayrim ziddiyatlarni yumshatishga erishgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlari davrida urushlar vaqtinchalik to'xtatilgan. Bu an'ana "Olimpiya tinchligi" yoki "ekeheiria" deb atalgan. Bu an'ana qadimgi Yunoniston shahardavlatlari o'rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Olimpiya o'yinlari orqali shahar-davlatlar o'zaro raqobatlashgan bo'lsa-da, bu musobaqlar tinchlik va birlik ramzi sifatida qabul qilingan. Bu an'ana zamonaviy davrda ham davom etib, 1992-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi barcha davlatlarni Olimpiya tinchligini hurmat qilishga chaqirgan. 1993-yildan beri Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Olimpiya sulhi g'oyasini va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining missiyasini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Har ikki yilda – har bir Olimpiya o'yinlari oldidan bir yil avval – "Sport va Olimpiya g'oyasi orqali tinch va yaxshiroq dunyo barpo etish" nomli rezolyutsiya qabul qilinadi [3]. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Olimpiya sulhi bo'yicha sa'y-harakatlari faqat Olimpiya o'yinlari davri bilan cheklanib qolmay, balki Milliy Olimpiya qo'mitalari orqali amalga oshiriladigan "Tinchlik uchun sport" loyihamini ham o'z ichiga oladi [4]. XX asrda AQSh va Xitoy o'rtasidagi "Ping-pong diplomatiyasi" ham bunga misol bo'la oladi. O'zbekiston ham sportni diplomatik vosita sifatida faol qo'llab, xalqaro maydonda o'z obro'sini oshirishga harakat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston bir qator xalqaro sport tashkilotlariga a'zo bo'lib, ular orqali mamlakat sportchilari xalqaro musobaqlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Masalan, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi 1992-yilda tashkil etilgan va 1993-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan rasman tan olingan. Shu tariqa, O'zbekiston 1996-yilgi Atlanta Olimpiadasidan boshlab mustaqil davlat sifatida Olimpiya o'yinlarida ishtirok eta boshladi. Shuningdek, turli sport turlari bo'yicha milliy federatsiyalar xalqaro federatsiyalarga a'zo bo'lib, bu xalqaro musobaqlarda ishtirok etish va tajriba almashish imkonini beradi.

O'zbekiston futboli xalqaro maydonda faol ishtirok etib, turli xalqaro futbol tashkilotlariga a'zolik orqali o'z mavqeyini mustahkamlab kelmoqda. Shu bilan birga, sport diplomatiyasi sohasida ham muhim qadamlar tashlanmoqda. O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi (O'FA) 1994-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1994-yilning 3-iyulida Xalqaro Futbol Assotsiatsiyalari Federatsiyasi (FIFA) va Osiyo Futbol Konfederatsiyasi (AFC)ga a'zo bo'lган. Bu a'zolik O'zbekiston milliy terma jamoasi va klublariga xalqaro musobaqlarda ishtirok etish imkonini berdi. O'FA mamlakatda futbolni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va ommalashtirish bilan shug'ullanadi [5].

O'zbekiston sport diplomatiyasi sohasida sezilarli yutuqlarga erishib, xalqaro maydonda

o‘z nufuzini oshirmoqda. Masalan, qирғизистонлик боксчи Munarbek Seyitbek o‘g‘lining Parij Olimpiadasidagi muvaffaqiyatlarida o‘zbekistonlik murabbiy Akmal Hasanovning hissasi katta bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston va Qирғизистон o‘rtasidagi sport aloqalari ikki mamlakat munosabatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu kabi hamkorliklar sport orqali davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. “So‘nggi paytlarda sport misolida xalq diplomatiyasining yurakdan chiqqan ishonchli qadamlarini ko‘p bora kuzatyapmiz. Biz amalda ikki qardosh xalqning tinchlik va hamjihatlikda yashash istagi va intilishining ro‘yobga chiqayotganiga guvoh bo‘lyapmiz”, deydi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti antropologiya va konfliktlogiya laboratoriyasi mudiri, sotsiologiya fanlari doktori Azamat Seitov Qирғизистон milliy axborot agentligi “Kabar”ga bergen so‘nggi intervyusida [6].

Sport tadbirlarini o‘tkazish davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni mustahkamlashning muhim vositalaridan biridir. 2025-yil fevral oyida O‘zbekiston, Tojikiston va Qирғизистон davlatlari 2031-yilgi Osiyo Kubogini birgalikda o‘tkazish uchun Osiyo Futbol Konfederatsiyasiga (OFK) qo‘shma ariza topshirdilar. Bu tashabbus Markaziy Osiyo mintaqasida futbolni rivojlantirish va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamdir. 2031-yilgi Osiyo Kubogi 20-marta o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, unda 24 ta terma jamoa ishtirok etadi. Turnir 1956-yildan buyon har to‘rt yilda bir marta tashkil etilib kelinmoqda. Hozirgacha Markaziy Osiyo davlatlari ushbu nufuzli musobaqaga mezbonlik qilmagan, shuning uchun bu qo‘shma ariza mintaqada uchun tarixiy ahamiyatga ega. Mazkur qo‘shma ariza nafaqat sport sohasida, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Agar ariza qabul qilinsa, bu mintaqada sport infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro miqyosda Markaziy Osiyoning nufuzini oshirish va davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini kuchaytirishga yordam beradi. O‘zbekiston, Tojikiston va Qирғизистонning qo‘shma arizasi mintaqada sport diplomatiyasini rivojlantirish va xalqaro maydonda hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim tashabbusdir. Bundan tashqari, “Yumshоq kuch” vositasi sifatida O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi raisligi vaqtlarida madaniy, turizm va sport diplomatiyasi keng rivojlantirgan. 2022-yilning 19–20-may kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Shanxay ruhi” doirasida ShHTga a’zo davlatlar madaniyat, turizm va sport masalalari bo‘yicha vazirlar darajasidagi yig‘ilishlari buning isbotidir [7]. So‘nggi yillarda mamlakat bir qator nufuzli sport musobaqalariga mezbonlik qildi. Jumladan, 2023-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan boks bo‘yicha jahon championati O‘zbekistonning jahon sport xaritasidagi mavqeyini yanada mustahkamladi. 2024-yilda esa O‘zbekiston futbol bo‘yicha Osiyo Kubogiga mezbonlik qildi, bu esa mintaqada sport hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligida “Sport diplomatiyasi O‘zbekiston tashqi siyosatining samarali vositasi” mavzusida davra suhbat o‘tkazildi [8]. Tadbirda sport orqali millatlararo hamjihatlik va xalqaro do‘stlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Ushbu tashabbuslar O‘zbekistonning sport siyosatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatning xalqaro sport maydonidagi ishtirokini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik yillarda sport sohasida katta yutuqlarga erishdi. Mamlakat sportchilari xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonib, O‘zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda. Shu bilan birga, sport diplomatiyasi ham rivojlanib, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston sportchilari turli xalqaro musobaqalar va Olimpiya o‘yinlarida yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Xususan, Rio – 2016 Olimpiadasida O‘zbekiston sportchilari 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, Markaziy Osiyodagi eng muvaffaqiyatli sport davlatlaridan biriga aylandi.

Tokio – 2020 Olimpiadasida esa O‘zbekiston delegatsiyasi 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, boks va dzyudo bo‘yicha erishilgan yutuqlar e’tiborga molik bo‘ldi. Osiyo miqyosida ham O‘zbekiston sportchilari yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. 2018-yil Jakarta shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Paralimpiya sportchilari ham katta natijalarga erishmoqda. Tokio – 2020 Paralimpiadasida O‘zbekiston vakillari 8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, mamlakatning sportdagi muvaffaqiyatlarini yana bir bor namoyon etdi [9]. 2024-yilda Fransianing Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida tarixiy yutuqlarga erishdilar. Mamlakatimizdan 90 nafar sportchi 19 ta sport turi bo‘yicha ishtirok etib, jami 13 ta medalni qo‘lga kiritdi: 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza. Ushbu natija bilan O‘zbekiston umumiyl medallar hisobida 206 davlat orasida 13-o‘rinni egalladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo, MDH, Islom birdamligi va Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar orasida 1-o‘rinni, Osiyo mamlakatlari orasida esa Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyadan keyin 4-o‘rinni qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston milliy terma jamoasi himoyachisi Abduqodir Husanov 2025-yil yanvar oyida Angliyaning “Manchester Siti” klub bilan 2029-yilgacha mo‘ljallangan shartnoma imzoladi. U shu tariqa Angliya Premyer-ligasida to‘p suradigan ilk o‘zbekistonlik futbolchiga aylandi. Husanovning “Manchester Siti”ga o‘tishi nafaqat uning shaxsiy faoliyati, balki o‘zbek futboli uchun ham katta ahamiyatga ega [10]. Uning Yevropaning top klubida o‘ynashi mamlakat futbolining xalqaro maydonidagi nufuzini oshiradi va yosh futbolchilarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu transfer O‘zbekiston futboli tarixida yangi sahifa ochib, mamlakat futbolchilarining xalqaro maydonidagi ishtirokini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Sport diplomatiyasi zamонави yalqaro munosabatlarda muhim vositalardan biri bo‘lib, O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishmoqda. O‘zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi g‘alabalari, mamlakatimizda o‘tkazilayotgan yirik sport tadbirlari va xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlik O‘zbekistonning xalqaro maydonidagi nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston mustaqillik yillarida Olimpiya va Osiyo o‘yinlarida yuqori natijalarga erishib, o‘z sport salohiyatini namoyish etdi. Xalqaro sport tashkilotlariga a’zolik, taniqli o‘zbekistonlik murabbiylarning chet el sportchilari tayyorgarligida ishtirok etishi, futbol va boshqa sport turlaridagi muvaffaqiyatlar mamlakatning sport diplomatiyasidagi yutuqlari hisoblanadi. Bundan tashqari, 2031-yilgi Osiyo Kubogini O‘zbekiston, Qирғизистон va Tojikiston bilan birgalikda o‘tkazish tashhabbusi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. O‘zbekiston sportni xalqaro imijni mustahkamlash va davlatlararo munosabatlarni yaxshilash vositasi sifatida faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Shu sababli, kelajakda ham sport diplomatiyasini rivojlantirish, nufuzli musobaqalarni tashkil qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanimgan adabiyotlar

- 1.G‘.E. G‘aniyev. Sport musobaqalari orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish omillari. – T.: Innovatsiya ziyo, 2021.
- 2.B. Ismoilov. O‘zbekiston sporti: taraqqiyot strategiyalari va xalqaro tajriba. – T.: TDIU, 2023.
- 3.International Olympic committee. Url: <https://search.app/vQcUQfCZCNxxkyhk7>
- 4.Bozorov M. (2022). *O‘zbekistonning sport diplomatiyasini rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlar.* // *Xalqaro munosabatlar va global jarayonlar jurnali.*
- 5.IAIS. Url: <https://www.iais.uz/uz/outputnew/strengthening-bonds-shared-values-and-sports-diplomacy-between-kyrgyzstan-and-uzbekistan>
- 6.GOV.UZ. Url: https://old.gov.uz/oz/news/view/34289?utm_source
- 7.Uza.uz. Url: https://uza.uz/oz/posts/fotoreportaj-sport-diplomatiyasi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-samarali-vositasi_255224
- 8.Nazarova Z. *Yoshlarning xalqaro sport maydonlaridagi ishtiroki va mamlakat imijini shakllantirishdagi o‘rni.* // *Sport va jamiyat fanlari bo‘yicha doktorlik ishi.* T:2021

QASHQADARYO VILOYATIDA MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARINI RIVOJLANТИРИЛШИ: YUTUQLARI VA ISTIQBOLLARI

Maxmanova Moxira Normuminovna

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

sevinchumir213@gmail.com

ORCID 0009-0004-2567-6792

UDK 94(575.1)

Anotatsiya. So'ngi o'tgan yillar davomida musiqa san'atiga ajratiladigan e'tibor juda rivojlanmoqda. Qashqadaryo viloyatidagi musiqa san'at maktablarini targ'ib qilishdir va musiqaga ko'proq e'tibor berishdir. Ushbu maqolada bolalar va yoshlar orasida musiqa san'atini rivojlanтирish va san'at maktablarini istiqbolli ravishda ko'paytirish kerakligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, har bir yoshlarimizning uchun kelajakda yaxshi sharoit va yaxshi bilim talab qilinadi. Biz 2008- yildan to 2014 yilgacha bo'lgan muddatdagi, musiqa san'ati bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni birma bir bayon qilamiz. Shu bilan birga, bizning bolalarimizga bu san'at qanchalik dolzarbli haqida fikrlar yuritamiz.

Kalit so'zlar: Musiqa san'ati, yoshlar va bolalar, san'at maktablari, rivojlanish sari, istiqbolli islohotlar, bilim va sharoit, 2008-2014 yillar, dolzurb masalalar, madaniyat va san'at, ta'slim va tarbiya.

РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ: ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. В последние годы внимание к музыкальному искусству значительно возросло. Одним из приоритетных направлений является продвижение школ музыкального искусства в Каракалпакской области и усиление внимания к данной сфере. В данной статье рассматривается необходимость развития музыкального искусства среди детей и молодежи, а также перспективное увеличение числа школ искусств.

Кроме того, каждому молодому человеку для успешного будущего необходимы хорошие условия и качественное образование. Мы подробно рассмотрим реформы, связанные с музыкальным искусством, которые проводились в период с 2008 по 2014 годы. Также будет проанализирована актуальность музыкального искусства для подрастающего поколения.

Ключевые слова: Музыкальное искусство, молодежь и дети, школы искусств, развитие, перспективные реформы, знания и условия, 2008-2014 годы, актуальные вопросы, культура и искусство, образование и воспитание.

Kirish. Vaqtlar o'tgani sayin yoshlarga e'tibor kuchaymoqda. Viloyatlar ichida ko'proq san'at sohasidagi yutuqlar erishgan Qashqadaryo viloyatida keng ko'lamlar ravishda e'tibor berildi. Buning asosiy sabablaridan biri, yurtbosimizning qo'shgan katta hissalari bo'lib, musiqa sohasida yurtimiz bo'ylab keng qamrovli targ'ibot o'tkazdilar. Musiqa sohasi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab qonunlar ham qabul qildilar. Jumladan, musiqa sohasidagi dastlabki dasturga yuqori qiziqish bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 7 yanvardagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-2908-sonli Farmoyishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-910-sonli qarorlarining qabul qilinishi soha mutaxassislari, san'atsevar yoshlar tomonidan mammuniyat bilan kutib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi qarorlariga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlanтиришга katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada viloyatda bir qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Viloyatimizda 18 ta bolalar musiqa va san'at maktabidan 9 tasida yangi bino qurilishi, 9 tasining kapital rekonstruksiya qilinishi rejalshtirilgan va davlat dasturiga kiritilgan. Bu dargohlarda 404 nafar ustoz-murabbiy 2270 nafar o'quvchi yoshga musiqa va san'at yo'nalişlari bo'yicha saboq berib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2008 yilda qabul qilingan qarorlar asosida Qashqadaryo viloyatida bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlanтириш bo'yicha keng ko'lamlar ishlar olib borildi. Ushbu islohotlarning samaradorligini o'rganish va tahlil qilish uchun bir qator muhim manbalar mayjud. Quyida ushbu mavzuga oid asosiy adabiyotlar tahlili keltirilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari

Musiqa va san’at mакtablarini rivojlantirishga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, 2008 yilda qabul qilingan qarorlar bolalar uchun zamонавиј ijodiy ta’lim muhitini yaratish, san’at va madaniyatni rivojlantirish, yangi binolar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish kabi chora-tadbirlarni belgilab berdi. Ushbu hujjatlar bolalar ta’lim tizimini yaxshilash va san’at mакtablarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

- Muhim hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi qarorlari

Madaniyat va san’at ta’limini rivojlantirishga oid Prezident farmonlari

- O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hisobotlari

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi har yili madaniyat sohasi bo‘yicha maxsus hisobotlar tayyorlaydi. Ushbu hisobotlarda Qashqadaryo viloyatidagi musiqa va san’at mакtablarining rivojlanishi, ularning moddiy-texnik bazasi, yangi binolar va rekonstruksiya qilingan maktablar haqida batafsil ma’lumotlar keltiriladi.

- Hisobotlardan olinadigan ma’lumotlar:

Viloyatdagi bolalar musiqa va san’at mакtablarining soni va holati

O‘qituvchi va o‘quvchilar soni, ta’lim sifati

Davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar va ularning sarflanishi

- Bolalar musiqa va san’at mакtablarini rivojlantirishga oid davlat dasturlari

Musiqa va san’at mакtablarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular doirasida:

Yangi mакtab binolarini qurish (masalan, Qarshi, Dehqonobod va Kitob tumanlarida)

Mavjud mакtablarni rekonstruksiya qilish (masalan, Yakkabog‘, Muborak va Nishon tumanlaridagi mакtablar)

Musiqa va san’at jihozlarini yangilash (yangi cholg‘u asboblari).

Tadqiqot metadalogiyasi. Ushbu tadqiqot Qashqadaryo viloyatida bolalar musiqa va san’at mакtablarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash, mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida bolalar musiqa va san’at mакtablarining moddiy-texnik bazasi, pedagogik jarayonlar va o‘quvchilarning ta’lim sifati chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Qashqadaryo viloyatida bolalar musiqa va san’at mакtablarining rivojlanish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud holatni baholash va ularning ta’lim sifati hamda moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun Qashqadaryo viloyatida musiqa va san’at ta’limi sohasida amalga oshirilgan davlat dasturlari o‘rganiladi, mavjud bolalar musiqa va san’at mакtablarining moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi baholanadi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim jarayoni to‘g‘risidagi fikrlari o‘rganiladi, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot davomida hujjatlarni tahlil qilish, empirik tadqiqot, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, intervju va so‘rovnomalar kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalilaniladi. Hujjatlarni tahlil qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Madaniyat vazirligi hisobotlari, davlat dasturlari va rasmiy statistik ma’lumotlar o‘rganiladi. Masalan, 2008 yilda qabul qilingan qaror asosida Qashqadaryo viloyatida jami 18 ta musiqa va san’at mакtabidan 9 tasi yangi binolarga ega bo‘ldi va 9 tasi kapital rekonstruksiya qilindi. Bu jarayonning qanday amalga oshirilgani, moliyaviy mablag‘lar qanday sarflangani va natijalar qanday bo‘lgani hujjatlar asosida tahlil qilinadi.

Empirik tadqiqot orqali joylarga borib, musiqa va san’at mакtablarining real holati o‘rganiladi. Masalan, Qarshi shahridagi 1-son bolalar musiqa va san’at mакtabida yangi tipdagи bino qurilishi natijasida ta’lim sifati qanday yaxshilangani, o‘quvchilarning musiqa asboblari bilan ta’minlanganligi va konsert zalining qulayliklari ko‘rib chiqiladi. Bundan

tashqari, Yakkabog' va Kitob tumanlaridagi maktablarda olib borilgan rekonstruksiya jarayonining ta'lif sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, musiqa va san'at maktabalarida o'qitilayotgan fanlarning holati, o'quv dasturlarining yangilanishi va metodik ta'minot darajasi baholanadi.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali musiqa va san'at maktabalarining soni, ulardagi o'qituvchi va o'quvchilar soni, ta'lif jarayoniga ajratilgan mablag'lar va ularning sarflanishi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Masalan, 2009 yilda Kitob tumanidagi 10-sod bolalar musiqa va san'at maktabida 391 million so'm mablag' evaziga kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan va 434 million so'm evaziga yangi jihozlar sotib olingan. Bunday o'zgarishlar o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini qanday yaxshilagani maxsus statistika yordamida o'rganiladi. Shuningdek, Qarshi va Dehqonobod tumanlaridagi yangi qurilgan musiqa maktablari o'quvchilar sonining oshishiga qanday ta'sir qilgani haqida tahlillar o'tkaziladi. Intervyu va so'rovnomalar orqali musiqa va san'at maktabalarida ishlayotgan pedagoglar hamda o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning fikrlari o'rganiladi. Masalan, Dehqonobod tumanidagi yangi 5-sod musiqa va san'at maktabida o'qituvchilar bilan suhbatda yangi binoning ta'lif jarayoniga ta'siri, mavjud qulayliklar va muammolar aniqlanadi. So'rovnomalar yordamida esa o'quvchilar o'z maktabalarida musiqa va san'atga oid bilim olishlari uchun yetarli sharoit mavjud yoki yo'qligini baholaydilar. Shu orqali infratuzilma va ta'lif jarayonini yanada rivojlantirish uchun qanday qo'shimcha ehtiyojlar borligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida Qashqadaryo viloyatidagi musiqa va san'at maktabalarini yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar musiqa va san'at ta'limining sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, davlat dasturlari va investitsiya loyihamarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo viloyatida ko'plab musiqa va san'at maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 2009 yilda Kitob tuman 10-bolalar musiqa va san'at maktabi qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Mazkur maktabda 391 million so'mlik kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va 434 million so'mlik jihoz hamda musiqa asboblari xarid qilindi[1]. 2010 yilda Yakkabog' tumanidagi 18-sod, Qarshi tumanidagi 7-sod bolalar musiqa va san'at maktablari kapital ta'mirlandi va Qarshi shahridagi 1-sod bolalar musiqa va san'at maktabi yangi 1-tip loyiha asosida qurilib, foydalanishga tumanidagi 17-sod maktablari binolari rekonstruksiya qilinib, yangi o'quv yilda foydalanishga topshirildi.

Dehqonobod tumanida yaqinda foydalanishga topshirilgan 5-sodli musiqa va san'at maktabi ham ana shunday ko'rak imoratlardan biridir. U bugun tuman markazi – Qorashina qorgoniga tom ma'noda ko'rak berib turibdi. Musiqa va san'at maktabimizni buniyod etish ishlari O'zbekiston Respublikasi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, qurilish ishlariiga 2 milliard 400 million so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Shu o'rinda 2-tipdagi 150 o'rinli zamonaviy musiqa va san'at maktabining qurilishida "Qarshi xo'jalik hisobidagi ta'mirlash korxonasi" MCHJ buniyodkorlari fidoyilik ko'rsatganlarini alohida e'tirof etish lozim. Maktabning o'quv xonalari, cholg'u, raqs sirlarini o'rganish uchun alohida-alohida, 250 o'rinli kontsert zali va boshqa ko'plab qulayliklar qurgan kishini ko'zini quvnatadi[2]. 2009-2014 yillarda viloyatdagi musiqa va san'at maktabalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida katta hajmdagi qurilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Xususan, 18 ta maktabdan 9 tasida yangi binolar qurildi, 9 tasi kapital rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, maktablar zamonaviy musiqa asboblari, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'mirlandi.

2013 yilga "Obod turmush yili" deb nom berilishi yurtimiz tomonidan katta mammnuniyat bilan qabul qilindi. 2013 yilda mamlakatimizda 756 ta ta'lif maskani, musiqa va san'at maktablari, bolalar sport obyektlari yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Zamonaviy kompyuter sinflari, o'quv laboratoriyalari, ustaxonalar

tashkil etilib, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi[3].

Yangi barpo etilgan bolalar musiqa va san'at maktablari ertamiz egalari bo'lgan yoshlarni go'zallik, barkamollik va nafosat sari yetaklab, iste'dodlari kamol topishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Yaqinda foydalanishga topshirilgan Qarshi shahridagi 9-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida ayni paytda 173 nafar o'g'il-qiz tahsil olmoqda. Maktab o'quvchilariga o'zbek xalq cholg'ulari, fortepiano, xoreografiya, skripka (torli-kamonli) va tasviriy san'at yo'nalihslarida saboq berib kelinmoqda[4]. Ta'lim sifatining oshishi: Musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi ta'lim sifatining oshishiga ham xizmat qilmoqda. Bugungi kunda viloyatdagi maktablarda 400 dan ortiq ustoz-murabbiylar 2270 nafar o'quvchi yoshga musiqa va san'at yo'nalihslarini bo'yicha saboq bermoqda.

2014 yilning 19 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo'ldi.

Davlat dasturida 60,1 mingta o'quv o'rniiga mo'ljallangan 380 ta umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, ularni kompyuter texnikasi, o'quv laboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar bilan ta'minlash belgilangan. Bundan tashqari, 161 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey, 48 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 110 ta bolalar sport obyektni qurish, rekonstruksiya qilish va tubdan ta'mirlash rejalashtirilgan.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, "Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-e'tirof ifodasi deb bilamiz. 'Sog'lom bola yili' davlat dasturi buning yana bir yorqin tasdig' idir."

Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirdirlarga 4509,2 milliard so'm va 302 million dollar miqdorida mablag' yo'naltiriladi. Mazkur dasturning bajarilishi mamlakatimiz uchun asosiy maqsadi inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'ladi[5].

Qamashi tumanidagi 6-bolalar musiqa va san'at maktabida 200 dan ortiq yoshlar xalq cholg'u asboblari, fortepiano, an'anaviy xonandalik, teatr san'ati, an'anaviy sozandalik, tasviriy va amaliy san'at sirlarini o'rganmoqda. O'quv xonalari, tasviriy san'at, zargarlik, haykaltaroshlik ustaxonalari hamda 200 o'rinci konsert zallari zamonaviy jihozlangan.

Maktabda 40 nafarga yaqin pedagog yoshlarning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun bilim va mahoratini ishga solmoqda. Ulardan biri – Hurshida Turakulova 2015 yili o'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida Prezidentimiz farmoniga muvofiq "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi[6]. Ta'kidlash joizki, 2009-2014 yillarga mo'ljallangan tegishli davlat dasturiga ko'ra, viloyatimizda 18 ta bolalar musiqa va san'at maktabi tashkil etildi. E'tiborli jihat shundaki, ulardan 9 tasining binosi yangidan bunyod qilindi.

Eng muhimmi, ularda musiqa va san'atdan ta'lim olgan yoshlar nafaqat yuksak did sohiblariga aylanmoqda, balki iste'dodini namoyish etib, kerak bo'lsa, dunyonni hayratga solmoqda.

Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek: "Eng muhimmi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda."

Xulosa va takliflar. Har bir sohada bizning yoshlarimizning salmoqli o'rni bordir. Aynan biz yoshlarimiz yuragini tagida urib turgan uchquni ko'rishimiz va uni chuqur his qilishimiz kerak. Islohatlarni boshlanishi, 2009-2014 yillarda O'zbekistonda musiqa va san'at maktablarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, yangi binolar qurildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Buning natijasida

ta’lim sifati oshdi, yosh avlodning madaniy va ijodiy rivojlanishiga mustahkam asos yaratildi, ustoz-murabbiylar soni ko‘paydi va ularning malakasi oshirildi, o‘quvchilar soni ortib, yosh iste’dodlar yetishib chiqди. San’at va madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Kelgusida musiqa va san’at ta’limini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamona viy texnologiyalar va raqamli resurslardan foydalanish, ta’lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida boyitish lozim. Musiqa va san’at maktablarining xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish, chet ellik mutaxassislarini jalb qilish va o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarur. Mahalliy iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida iqtidorli o‘quvchilar uchun grant va stipendiya dasturlarini kengaytirish, yosh ijodkorlar ishtirokida ko‘proq tanlov, festival va ko‘rgazmalar tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, hududlarda yangi san’at maktablarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish, maktablarni eng zamona viy musiqa asboblari va texnik jihozlar bilan ta’minlashni davom ettirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari. “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida, 2014 yil 19 fevral.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 08.07.2008 y.n PQ-910 Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida
- 4.B.Jonimov.Korashinadagi san’at koshonasi.Qashqadaryo gazetasi 2013 yil 29 oktyabr.
- 5.Amalga oshirilayotgan isloxoxtlarimizni yanada chuqurlashtirish va fufarolik jamiyatini qurish-yorug` kelajagimizning asosiy omilidir.Qashqadaryo gazetasi 2013 yil 10dekabr.
6. Qashqadaryo gazetasi 2014 yil 20 may №059
- 7.Qashqadaryo gazetasi 2014 yil 25 fevral №023
- 8.Iste’dodlar maskani Qashqadaryo gazetasi 2016 yil 16 aprel
- 9.Azizbek Norov. Viloyatimizda yana 13ta san’at koshonasi barpo etiladi.Qashqadaryo gazetasi.2016 yil 5 yanvar
10. Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san’at maktablarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash muammolari.Konferensiya materiallari.

SUN'iy INTELLEKT VA AXLOQIY QADRIYATLAR

Shaymanova Adiba Ergashevna

Falsafa fanlari doktori (DSc)

adiba_shaymanova@gmail.com

ORCID 0009-0002-3380-5246

UDK 004.8:17

Annotatsiya. Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda texnologiyaning eng muhim yutuqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi insoniyat hayotiga keng ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu texnologiyaning rivojlanishi bilan birga, axloqiy va etik masalalarda muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI)ning qaror qabul qilish jarayonida inson qadriyatlariga zid holatlar, diskriminatsiya, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va javobgarlik masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bu holat sun'iy intellektni yaratishda va qo'llashda axloqiy yondashuvni talab etmoqda. Shuningdek, insoniyatning sun'iy intellekt (SI)ga bo'lgan ishonchi va xavfsizlik kafolatini ta'minlash uchun qonunchilik, inson huquqlari va axloq normalariga asoslangan nazorat tizimlari joriy etilishi talab qilinadi.

Ushbu maqolada sun'iy intellektning axloqiy qadriyatlar bilan qanday moslashishi, uning axloqiy muammolari va insoniyat uchun qanday xavflar yaratishi tahlil qilinadi. Shuningdek maqolada, sun'iy intellektning jamiyatdagi o'rni, uning axloqiy dilemmalari va ularga yechimlari haqida so'z boradi.

Tayanch tushunchalar: sun'iy intellekt, axloqiy qadriyatlar, etik masalalar, texnologiya, sun'iy intellekt va axloq, axloqiy dilemmalar.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MORAL VALUES

Abstract. Artificial Intelligence (AI) is one of the most significant achievements of modern technology, and its development is having a profound impact on human life. However, alongside the advancement of this technology, ethical issues are also emerging. In particular, issues such as violations of human values, discrimination, personal data privacy, and accountability are becoming increasingly relevant in the decision-making processes of artificial intelligence (AI). This situation demands an ethical approach in the development and application of AI. Moreover, to ensure public trust in AI and guarantee safety, it is necessary to implement control systems based on legislation, human rights, and ethical standards.

This article will analyze how artificial intelligence aligns with moral values, its ethical problems, and the potential risks it poses to humanity. The article will also discuss the role of artificial intelligence in society, its ethical dilemmas, and potential solutions to these issues

Keywords: artificial intelligence, ethical values, ethical issues, technology, AI and ethics, moral dilemmas.

Kirish. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyasi tez sur'atlarda rivojlanib, turli sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, nanotexnologiyalarning rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalari shiddat bilan raqamlashtirilayotganli sababli mazkur mavzu tobora ilmiy va haqiqatga aylanib bormoqda. Bu texnologiya, bir tomonidan, insoniyatga turli afzalliklar yaratishda yordam bersa, boshqa tomonidan, axloqiy qadriyatlar va inson huquqlariga ta'sir ko'rsatish xavfini tug'dirmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga uning axloqiy jihatlari, masalan, inson hayotiga ta'sir ko'rsatish, xatarlardan himoya qilish, qarorlar qabul qilishda adolatni ta'minlash kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada sun'iy intellektning axloqiy qadriyatlar bilan muvofiqligini o'rganish maqsad qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt va axloqiy qadriyatlar haqida ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarini olib borgan. Xususan, Jon Mc Carthy tomonidan sun'iy intellektning rivojlanishi va uning axloqiy qadriyatlarga ta'siri haqida bir qator ishlar taqdim etilgan. Ayniqsa, olim o'z ishlarida sun'iy intellektning insoniyatga foydali bo'lishi uchun muayyan axloqiy me'yorlarga asoslanishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, mashhur olim Nick Bostrom sun'iy intellektning xavf va imkoniyatlari haqida o'z munosabatlarini bildiradi. U sun'iy intellektning xatarlari va uni boshqarish uchun axloqiy qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidlagan. Bostromning "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies" nomli asarida sun'iy intellektning imkoniyatlari va xavflari haqida batafsil fikr yuritiladi. Axloqiy qadriyatlar va etik masalalar bo'yicha esa, Immanuel Kantning deontologik etikasi, qarorlar qabul qilishda insonlarning axloqiy majburiyatlarini va mas'uliyatini tahlil qilgan bo'lib, bu prinsiplar sun'iy intellekt uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda deyish mumkin. Shuningdek, Turing testi sun'iy intellektning inson bilan muloqot qila olish qobiliyatini sinashda axloqiy muammolarni ko'rib chiqishda asosiy omil sifatida qabul qilinadi.

Sun'iy intellekt va axloqiy qadriyatlar mavzusi bo'yicha nafaqat xorijiy, balki O'zbekistonlik olimlar ham o'z ilmiy izlanishlarini olib bormoqdalar. Mazkur mavzuning dolzarbli sababli u ijtimoiy falsafa, axloqshunoslik, texnologiya va madaniyat sohalarida keng o'rganilmoqda. Xususan, Shoira Qubayeva va Guzel Musurmonova o'zlarining "Sun'iy intellekt va tafakkur teranligi: falsafiy-qiyosiy tahlil" nomli maqolasida sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlikni falsafiy jihatdan tahlil qilganlar [1, 8]. Ular inson tafakkurining intuitiv, ijodiy va axloqiy jihatlari sun'iy intellekt tomonidan to'liq takrorlana olmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Dilnura Mordayeva tomonidan tayyorlangan "Sun'iy intellekt xavfsizligi va axloqiy muammolari" nomli maqolada SI texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ortidan kelayotgan axloqiy tahdidlar haqida fikr yuritiladi [2, 9]. Unda SI tomonidan qabul qilinayotgan algoritmik qarorlar inson huquqlari, adolat va ijtimoiy tenglikka qanday ta'sir qilishi batafsil tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Xusnida Abdullayeva "Sun'iy intellektning san'at va madaniyatga ta'siri" nomli ilmiy maqolasida SI texnologiyalarining estetik qadriyatlarga, madaniy ijodga va ijodiy meyorlarga bo'lgan ta'sirini yoritgan [3, 10]. Yana bir muhim izlanish — Shaxboz Axmedov va Mushtariy Usmonova tomonidan yozilgan maqolada sun'iy intellektning ijtimoiy ta'siri, axloqiylik, ijtimoiy adolat va algoritmik javobgarlik masalalari ko'tarilgan [4, 11]. Ularning fikricha, texnologiya inson qadriyatlariga zid bo'lmasligi uchun u etik mezonlar asosida rivojlanishi zarur.

Tadqiqot usullari. Maqolani tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni turkimplashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida hamda rivojlangan mamlakatlarda mulkdorlar qatlamining o'rni, shuningdek, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyatini tahlil qilish, statistik, solishtirma, empirik, tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez, so'rov metodlaridan foydalanildi.

Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" [5: 1, 2, 3] asarida bayon qilingan konseptual g'oyalalar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimini konseptual isloh etish va vatanparvar, axloqiy qadriyatlarga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bag'ishlangan qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatimiz va xorijlik olimlarning qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, ushbu mavzuga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika masshtabida o'tkazilgan ilmiy amaliy konferensiylar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar asarlaridan foydalanildi. Ushbu sohaga tegishli bo'lgan qarashlarini umumlashtirish maqsadida, ushbu fenomen tadqiqiga bag'ishlangan, nufuzli jurnallarda e'lon qilingan maqolalar ilmiy manba sifatida olindi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinayotgan, manbalar o'zbekistonlik va xorijdagи olimlarning mulohazalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda sun'iy intellektning rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizga mintaqaviy "IT-Xab"ga aylanish vazifasi qo'yilgan bo'lib, bu maqsadga erishish uchun raqamli texnologiyalar bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Shuningdek, barcha hududlarda IT parklar tashkil etilib, aholining ushbu sohada o'qishi va ishlashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Internet tezligi va qamrovi sezilarli darajada oshdi, natijada 190 mingdan ortiq kishi ishga joylashdi. Sun'iy intellekt turli sohalarda faol qo'llanilayotgan bo'lib, bunga asoslangan 20 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Tarmoq va yirik korxonalar bo'yicha yana 70 ta yangi loyiha ishlab chiqildi. O'zbekiston sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha xalqaro indeksida 17 pog'onaga ko'tarildi [6, 4].

Sun'iy intellektning rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda, biroq bu jarayonning axloqiy jihatlari ko'plab savollarni tug'dirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, insoniyatning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatiga bo'lgan ta'siri tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Aynan bugungi kunga kelib, sun'iy intellektning yaratish imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog'liq ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. So'nggi yangiliklarga ko'ra, dunyoning taniqli olimlari va mutaxassislari, jumladan, Stiven Xoking, Ilon Mask va 1000 dan ortiq sun'iy intellekt va

robototexnika sohasidagi tadqiqotchilar, sun'iy intellektni rivojlantirish va uni turli sohalarda keng qo'llash borasida muhim ishlarga hissa qo'shib kelmoqdalar. [7, 7]. Albatta, sun'iy intellektning rivojlanishi robototexnika sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'y lab sun'iy intellektga asoslangan robotlar sinovlardan o'tkazilmoqda. Biroq sun'iy intellekt va robotlarning faoliyati bilan bog'liq huquqiy masalalar hali ham muhokama qilinmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va unga asoslangan robotlarning javobgarlik masalalari haqida bir qator bahslar mavjud.

Shu sababli, sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi, insoniyatning axloqiy me'yordi bilan qanday uyg'unlashishi kerakligi masalasi ilmiy muhokama markazida turibdi. Darhaqiqat, sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha insoniyatning axloqiy qadriyatlarini hisobga olmaydi. Masalan, avtomatik qaror qabul qilishda insonning individual holati, emotsiyonal holati yoki ijtimoiy konteksti e'tiborga olinmaydi. Bu esa axloqiy dilemmalarni keltirib chiqaradi. Donika (2023) tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning aksariyati sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy jihatlarini xavfli deb hisoblaydi, ayniqsa shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va insoniy munosabatlarning yo'qolishi masalalari bo'yicha xavotirlar mavjudligini ta'kidlaydi. Shu boisdan, bugungi kunda, sun'iy intellekt tizimlarida axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish muhim sanaladi.

O'rghanishlar natijasiga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlarida axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish uchun bir qator yondashuvlar mavjudligini ta'kidlash o'rinnlidir. Jumladan, Camilleri (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, sun'iy intellekt boshqaruvi va korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [8, 5]. Tadqiqotda sun'iy intellekt tizimlarining inson huquqlari va axloqiy tamoyillarga muvofiqligini ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi. Bundan kelib, chiqib aytish joizki, sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy qaror qabul qilishdagi roliga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Shu boisdan bugungi kunda, sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy qaror qabul qilishdagi roli hamda insoniyatning axloqiy qadriyatlariiga ta'siri masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada, 2024-yilda Iason Gabriel tomonidan yozilgan maqolada, sun'iy intellekt tizimlarining insoniyatning axloqiy qadriyatlariiga ta'siri va ularni qanday qilib axloqiy me'yordi moslashtirish mumkinligi tahlil qilingan [9, 6]. Tadqiqotda sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy qaror qabul qilishdagi roli va uning ijtimoiy ta'siri muhokama qilinganligini buning isbotidir. Shu boisdan, yuqoridaqilardan kelib chiqib, quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Birinchidan, sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liq etik muammolar, asosan, inson huquqlarining buzilishi,adolat va tenglik prinsiplaridagi ziddiyatlar, shuningdek, axloqiy qarorlar qabul qilishda mas'uliyatning aniq belgilanishi zarurligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt tizimlarining insoniyatga foydali bo'lishi uchun axloqiy qadriyatlarni qoidalar asosida rivojlanishi zarur. Uchinchidan, sun'iy intellektni boshqarish va axloqiy dilemmalarni hal qilish uchun yangi qonunlar va me'yoriy hujjatlar yaratish lozimligini ko'rsatadi.

Xulosa. Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga uning axloqiy jihatlari ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashushi va ularga mos ravishda boshqarilishi jamiyatning kelajagi uchun zarurdir. Shu boisdan, sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy me'yordi muvofiqligini ta'minlash uchun ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar zarur. Bu masalalar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ham sun'iy intellekt va axloqiy qadriyatlarni o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarning muhimligini ko'rsatadi. Shuning uchun, bu sohada axloqiy masalalar, qonuniy me'yordi va texnologik yutuqlarni uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlik va ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarur.

Foydalilanigan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 21 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-637-son. 23. 09. 2020-yil. <https://www.lex.uz>.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Рақамли технологияларни ривожлантириш режалари кўриб чиқилди. <https://president.uz/uz/lists/view/7792>.

5. The relationship between artificial intelligence governance and corporate social responsibility (CSR). Journal of Business Ethics, 180 (3), 527-547.
6. <https://arxiv.org/abs/2404.16244>;contentReference[oaicite:5]{index=5}.
7. "Artificial Intelligence and Robotics: Opportunities and Challenges", International Conference on AI and Robotics, 2023.
8. Qubayeva Sh., Musurmonova G. (2024). *Sun'iy intellekt va tafakkur teranligi: falsafiy-qiyosiy tahlil*. Scientific Journal of Theory and Practice, <https://scientific-jl.org/tad/article/view/10502>.
9. Mordayeva D. *Sun'iy intellekt xavfsizligi va axloqiy muammolari*. 2024. Scientific Research Journal, <https://scientific-jl.com/mod/article/view/3172>.
10. Abdullayeva X. *Sun'iy intellektning san'at va madaniyatga ta'siri*. 2024. International Academy Journal, <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/43047>.
11. Axmedov Sh., Usmonova M. *Sun'iy intellekt va uning ijtimoiy ta'sirini o'rGANISH*. 2024. IAIS ilmiy portalı, <https://www.iais.uz/uz/outputnew/suniy-intellekt-uning-ijtimoiy-tasirini-organish>.

TARBIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA TA'LIMIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Komil Haydarov

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori
falsafa fanlari doktori (DSc)

komilhaydar58@gmail.com

ORCID 0009-0000-0213-5548

UDK 37.035.5 N-19

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim mакtablarida tarbiya fani o'qitishning samaradorligini oshirish, ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, ta'limiylididaktik o'yinlardan o'rnli foydalanish, shu orqali ta'linda natijadorlikka erishishning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi va falsafiy xulosalar bayon qilinadi. Unda didaktik o'yinlarning kishini tarbiyalash, unga samarali ta'limg berish jarayonlariga qaratilganligi, ularning o'quvchilarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berishi hamda shu orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilishi haqida mushohada qilinadi.

Shuningdek, olib borilgan kuzatuv va tajribalardan kelib chiqib, didaktik-ta'limiyl o'yinlarning pedagogik ta'linda tutgan o'rni, ularning mazmun-mohiyati va boshqa o'yinlardan asosiy farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tarbiya fani mashg'ulotlarida bunday o'yinlarni oqilona foydalanishda o'qituvchining vazifalari belgilab beriladi, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. Tarbiya fani, ta'limg, samaradorlik, pedagogika, didaktika, ta'limiyl o'yinlar, tafakkur, o'quvchi, o'qituvchi, shaxs, ma'naviy fazilatlar, barkamol inson.

THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL GAMES IN MORAL EDUCATION LESSONS

Abstract. This article analyzes ways to enhance the effectiveness of teaching the subject of Moral Education in comprehensive schools, with a focus on the appropriate use of modern pedagogical technologies, particularly educational-didactic games. It explores the pedagogical aspects of achieving better learning outcomes through such methods and presents philosophical conclusions. The study discusses how didactic games contribute to the moral formation of individuals and support effective learning processes. These games aid in developing students' perception, sensory abilities, memory, thinking, and speech, and thereby contribute to their moral, intellectual, physical, and aesthetic development.

Furthermore, based on observations and experimental studies, the article examines the role of didactic-educational games in pedagogical instruction, their content and essence, and how they fundamentally differ from other types of games. It outlines the teacher's responsibilities in effectively utilizing these games during Moral Education lessons and proposes methodological recommendations aimed at fostering the development of students' personalities.

Keywords: Moral Education, teaching, effectiveness, pedagogy, didactics, educational games, thinking, student, teacher, personality, moral values, well-rounded individual.

Kirish. Hozirgi kunda uzlusiz ta'limg tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, o'qitishning eng zamonaviy metodlarini joriy qilish masalasiga alohida ye'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Ayniqsa maktab ta'linda pyedagogik o'yinlardan oqilona foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tarbiya fani mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlar g'oyat muhim o'rinn tutmoqda. Chunki ta'limg-tarbiyaning pirovard maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalash ekan, bunda tarbiya fani "o'ziga xos "katalizator" vazifasini bajarmog'i kerak" [8: 21].

Ma'lumki, tarbiya fani – didaktik fan. Didaktika esa pedagogikaning muayyan

tarmog‘i bo‘lib, “ta’lim-tarbiya nazariyasi, ya’ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlar, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi” [3: 92], unda o‘yinlar muhim o‘rin tutadi, ayniqsa hozirgi sharoitda ta’lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o‘yinlardan mashg‘ulotlar jarayonida keng foydalanilmoqda. Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shuning uchun ular “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘yin vaziyatlarining mavjud bo‘lishi didaktik o‘yinlarning boshqa o‘yinlardan farqli jihatidir. Albatta, bunday didaktik o‘yinlar bolalarning faolligini oshirish barobarida muayyan qoidalarga asoslanishi hamda baholashning qatiy tizimi mavjudligi bilan ajralib turadi. U boshqa ishchan o‘yinlardan “yechimlar zanjirining mavjud emasligi bilan farqlanadi” [4: 276].

Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, shu o‘yin asosida loyihalashtirish, rahbarning ishchan pochtasini tashkil qilish kabilar didaktik o‘yinlar sirasiga kiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotida g‘am muhim o‘rin egallay boshladi. Hozirgi davrda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hordiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. O‘yining mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtiroychida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minkaydi.

Tarbiya fani mashg‘ulotlarida didaktik o‘yinlar texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi o‘zining pedagogik vazifalarini maxsus ssenariyda aniq ifodalay olishi lozim. O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsnинг o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishdan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning qiziquvchanligini oshirishning qulay va eng samarali usullaridan biridir. Shu boisdan didaktik o‘yinlar g‘oyat murakkab va serqirra hodisa bo‘lib, o‘qitishning natijadorlikka olib boruvchi metodidir. Shundan kelib chiqib, didaktik o‘yinlar bir qator pedagogik vazifalarni ham bajaradi. “Ta’limiy – vazifasiga ko‘ra mazkur didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, ularning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil bilim olish layoqatini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Rivojlantiruvchi – ushbu vazifa o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, faollikka undash, o‘z fikrlarini bayon qilish layoqatini kengaytirish, ularning bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirishga hissa qo‘sadi. Tarbiyalovchi – bu o‘quvchilarni jamoaviylik ruhida tarbiyalash, sheriklariga nisbatan xayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bag‘rikenglik ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. Yo‘naltiruvchi – mazkur vazifa o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo’llash, tashabbuskorlik ko‘rsatish, mustaqillikni shakllantirish, jamoaviy hamkorlikka safarbar qilishga undaydi” [4: 277].

Didaktik o‘yinlar bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri bo‘lib, unda:

- maqsad o‘quvchilar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv jarayoni o‘yining avval belgilangan qoidalari bo‘ysundiriladi;
- o‘quv materialdan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv faoliyatining mazmunini didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi tashkil qiladi;

muvaqqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o‘yin natijasi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular orqali o‘quvchilar har xil vaziyatlardan o‘quv materialini tushunish, uning negizida ma’lum ko‘nikma, malaka va sifatni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori talablaridan kelib chiqib, mashg‘ulotlar mazmunini boyitishda eng zamonaviy tuxnologiyalar, xususan, didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi [2].

Natijalar va muhokama. Umuman, yangi metodikalar asosida o‘qitishda

qo‘yiladigan muhim talablardan biri – qisqa vaqtida yuqori natijalarga erishish. Bunda o‘quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarni baholashga alohida e’tibor beriladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni, ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan yangi pog‘onalarga ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama foydalanishni taqozo etadi.

Agar har bir pedagog o‘z ustida muntazam ishslashga, ijodiy izlanishga o‘rgansa, ilg‘or tajriba va metodlarni qo‘llagan holda faoliyatini olib borsagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Xususan, tarbiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o‘qitishning noan’anaviy usullarini keng qo‘llash g‘oyat muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, ta’limiy o‘yinli metodlarni keng qo‘llash Tarbiya fani mashg‘ulotlarini qiziqarli o‘tishini ta’minalash barobarida o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yordam beradi, ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi.

Bunday o‘yinlar o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhitni, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchiliklar, to‘sirlarni qanday yengishni o‘rgatadi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasi mualliflari fikricha, “Pedagogik o‘yining asosiy xususiyati – o‘quv-bilish faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo‘yilishidir. Pedagogik o‘yining vazifalari:

didaktik: bilim, ko‘nikma, malakalarni amaliyotda qo‘llash; yangi ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish;

tarbiyalovchi: mustaqillik, iroda, etik va estetik qarashlar, hamkorlik, jamoada tarbiyalash;

rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, taqqoslash, solishtirish, o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish;

ijtimoiylashtirish: qadriyat va an’analarni o‘zlashtirish, mavjud shart-sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish” [5: 23].

Umuman, pedagogik o‘yinlarning turlari ko‘p. Ayniqsa nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlari o‘quv jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladi. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarda kuzatish, hisoblash, o‘lchash, tahlil qilish, yasash, sinash, qiyoslash, xulosa chiqarish, mustaqil qaror chifarish, jamoa tarkibida ishslash, nutqni charxlash, til o‘rgatish, yangidan yangi bilimlar olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi, faoliyatiga mazmun va samara bag‘ishlaydi.

Bulardan tashqari, o‘yinlarning boshqa turlari (funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport, harbiy va b. o‘yinlar) ham bor. Odatda, ta’limda ko‘proq yuqoridagi kabi o‘yinlar qo‘llaniladi.

O‘yin turlari quyidagi mezonlarga mos ravishda tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

ishtirokchilarning tarkibiga qarab tanlash (o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun);

ularning soniga qarab tanlash (yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda);

o‘yining mazmuniga qarab tanlash (fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va b.);

vaqt me’yoriga qarab tanlash (dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan o‘yinlar).

O‘yining qaysi turi tanlanmasin, ulardan maqsadi – o‘quvchilarni aynan shu fanga, shu mavzuga qiziqishlarini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim. Didaktik o‘yinlarda o‘quvchilar erkin, mustaqil bo‘ladilar, darsga faolligi oshadi, ularga qo‘yilgan muammoga ijodiy yondashadilar, o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etadilar, boshqalar fikrini hurmat qilishga, o‘z fikrini asoslay olishga o‘rganadilar, bularning barchasi mashg‘ulotning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik o‘yinlar o‘quvchilarning muayyan mavzuni o‘zlashtirishlarida juda qo‘l keladi. Albatta, mavzuni o‘quvchilarga ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tushuntirgandan ko‘ra uni ko‘proq ta’limiy o‘yinlar orqali amaliy jihatdan o‘rgatsak, o‘quvchi mavzuni tez qabul qiladi va hayotida unutilmas xotira kabi saqlanib qoladi.

Pedagogik o‘yinlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. *Didaktik o‘yinlar* yuqorida ta’kidlanganidek, o‘rganilayotgan narsa, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyatini turi hisoblanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnat va ta’lim olishga moyillik ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o‘yinlar ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirot etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi.

2. *Syujetli o‘yinlar* – voqe-a-hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirot etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sirasiga kiradi. Bunda o‘yinlar, odatda, pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadlariga qaratiladi.

3. *Rolli o‘yinlar* – biror shaxsning burch va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatini, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan o‘yinlar. Rolli o‘yinlar ishtirotchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda muayyan hayotiy voqe-a-hodisalar jarayonida bevosita ishtirot etish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ishtirotchilar o‘quvchi, ota-onalari, pedagog xodim, rahbar, mahalla oqsoqoli kabi turli rollarni bajarish orqali jamoatchilikka pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi, hamkorlik faoliyatini samarali tashkil etishga ko‘maklashadi.

4. *Ishbilarmonlik o‘yinlari* – muayyan faoliyat, harakat yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona tashkil qilishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar. Bu turdag‘i o‘yinlar ta’lim oluvchilarda aniq faoliyat yo‘nalishida zarur BKM va sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Ishbilarmonlik o‘yinlari odatda ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatni modellashtirishni bildiradi. Ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning kasbga muhabbatini oshiradi, shu bilan birga ularning insoniy fazilatlarini ham tarbiyalaydi, ma’naviy kamol topishiga yordam beradi.

5. *Imitatcion o‘yinlar* – korxona va tashkilotlar, muassasalar, mehnat jamoalari xodimlari, davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatatsiyalash (ya‘ni, taqlid qilish, nusxa olish) orqali o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishga qaratilgan o‘yinlar. Imitatsion o‘yinlar jarayonida ta’lim oluvchilar muayyan operatsiyalarini, misol uchun, masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lishini bildiradi.

6. *Dramatik o‘yinlar* – psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar. Ular tashkil etilishi, metodik mazmuniga ko‘ra rolli yoki ishbilarmonlik o‘yinlariga yaqin. Odatda, ularni psixologik va ijtimoiy dramalar deb ham ataydilar. Dramatik o‘yinlar mehnat jamoasidagi muhitni yaxshilash, xodim o‘zaro munosabatining barqarorligiga erishish, muloqotga moyillik, jamoa a‘zolarini jipslashtirish, odamlarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash, qiyinchilikka duch kelgan kishilarga yordam ko‘rsatish hamda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida zarur shart-sharoit yaratishga qaratiladi.

Ta’limiy o‘yinlardan foydalanishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi:

- o‘yin ssenariysini tayyorlash;
- yo‘riqnomalar tuzish;
- sinfxonani o‘yining mazmuniga mos jihozlash.

Shuningdek, ta’limiy o‘yinlarning tuzilishi (strukturasi) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘yining maqsadi;
- o‘yining vazifasi;

o‘rganiladigan muammoning tafsiloti;
o‘yin vaziyatining tafsiloti;
ishtirokchilarni tasniflash.
Ta’limiy o‘yin texnologiyasini qo‘llash esa quyidagilarga asoslanadi:
guruhni shakllantirish;
mashg‘ulotning asosiy maqsadini ifodalash;
muammoli vaziyatni vujudga keltirish;
rollarni taqsimlash;
o‘yin reglamentiga rioya qilish;
materiallar, yo‘riqnomalar-qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish;
maslahat berish.

Nihoyat, quyidagilar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi:

o‘yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;
o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi;
o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;
o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;
ishtirokchilarning o‘yin jarayoniga qiziqishlari;
rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi;
jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari;
har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni his etishi;
barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi.
Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:
taqrizchilarning chiqishlari;
fikrlar almashinuvni;
ishtirokchilarning o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
o‘yinga yakun yasash.

Har bir ta’limiy o‘yin o‘zining ijodiy xususiyatlari bilan ajralib turishi kerak, u har bir ishtirokchiga ruhiy ko‘tarinkilik bag‘ishlashi lozim. Shu boisdan ta’limiy o‘yinlar o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘zaro raqobat esa o‘yinlarning yanada sermazmun va ta’sirchanligini oshiradi, ishtirokchilarning har birida g‘alabaga ishonch, ma’naviy qoniqish hosil qilishi shubhasiz.

Pedagogik o‘yinlarning tarbiyaviy maqsadi ham aslida o‘quvchilarda mustahkam irodani tarbiyalash, erkin tafakkur, qarashlar, nuqtayi nazarlar, ma’naviy va estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, jamoaviylik, kommunikativlik kabi ko‘nikmalarni tarbiyalashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta’limiy o‘yinlarning yana bir ahamiyatli jihatni shundaki, ular o‘quvchilarga aqlan hamda jismonan tetiklik va faollik bag‘ishlash bilan birga, ularda ruhiy barqarorlikni ham tarbiyalaydi: rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, faraz, qobiliyat, ijod, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bunday o‘yinlar milliy va ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga moyillik, muhitning ta’siriga moslashish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish, psixoterapiyani ham nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon” [1], degan ta’rif berilgan. Ana shu jarayonda “Tarbiya” fanining pedagogik imkoniyatlari beqiyos ekanligi o‘z-o‘zidan ravshan. Ammo gap ushbu fanni o‘qitish natijadorligiga bog‘liq, albatta.

“Tarbiya” fanidan dars beruvchi o‘qituvchi har jihatdan mahoratli bo‘lishi zarurligi haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas. Aslida u “ma’naviyatning chinakam timsoli bo‘lishi lozim” [7.213]. Tarbiya darslarida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish o‘qituvchining intellektual va ijodiy faolligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shunda uning mahorat qirralari

namoyon bo‘ladi.

Pedagogik o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo‘lib kamol topishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta’sir qudratiga ega. O‘yin timsolida bolalar jamaa bo‘lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o‘rganadilar, ularning ma’naviy-axloqiy sifatlari shakllanadi, jamiyatdaga burch va vazifalarini, mas’uliyatini ham teran anglay boradilar, intizomga o‘rganadilar. Ularning “maktab, institut, universitetdan keyin ham uzlusiz o‘z ustida ishlashiga, zamonaviy bilimlardan xabardor bo‘lib borishiga xizmat qiladi. Chunki bilimli jamiyatgina kuchli jamiyat bo‘la oladi” [6.298].

Pedagogik o‘yinlar o‘quvchi yoshlarda o‘zaro hurmat, do‘stlik, uyushqoqlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Ularning atrof-muhitga, tabiatga bo‘lgan estetik munosabati rivojlanadi, ekologik madaniyati shakllanadi, turli-tuman kasb-hunarlarga bo‘lgan qiziqishlari, umuman, hayotga mehr-muhabbati ortadi.

Xullas, pedagogik o‘yinlar asosan ta’lim jarayonini sifat jihatdan kuchaytirishga va boyitishga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab mashg‘ulotlarni samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma’lumot berishni yengillashtirishga, ta’limda ko‘rgazmalikni ta’minalashga, o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashi rivojlanishiga ko‘mak beradi.

Umuman, o‘quvchi shaxsini rivojlantrish, uning ma’naviy kamolotiga erishish uchun pedagogik o‘yinlarni tashkil etishda quyidagi tavsiyalarga alohida e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

pedagogik o‘yinlar orqali o‘quvchining bilim olishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishini orttirish zarur;

o‘quvchida muloqot madaniyati, kommunikativlik fazilatlarini shakllantirib borish lozim;

o‘quvchida aqliy salohiyatni shakllantirish, bilimi va o‘zligini namoyon etish xususiyatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish kerak;

o‘quvchida e’tiqod va hayotiy pozitsiya shakllantirish lozim, shu orqali unda hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklardan qo‘rmaslik, mardonavorlik va mustahkam iroda ko‘nikmalari tarkib topib boradi;

o‘quvchi o‘z-o‘ziga tanqidiy baho berish, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilishga intilish, ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash ko‘nikmalari shakllanadi;

o‘quvchi o‘zida insoniylik, mehr-oqibat, o‘zgalarni hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantirishiga zamin tayyorlanadi;

o‘quvchida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, bag‘rikenglik xususiyatlari qaror topadi;

yosh avlodda yangi O‘zbekistonning baxtli fuqarosiga xos vatanparvarlik fazilatlari rivojlanadi va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar

- “Ta’lim to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil 24 sentabr. 03/20/637/1313-son.
- Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantrish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024 y., 07/24/231/0445-son; 29.04.2025 y., 06/25/73/0389-son.
- Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004.
- Pedagogik ensiklopediya. 1-kitob. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
- Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021.
- Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
- Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2020.

8. Haydarov K. Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi. – Samarqand: “ACCESS SERVISE” nashriyoti, 2025.
9. Haydarov, Komil. "Master–student Relations, Importance of Reading Culture and Creative,m. Environment in the Development of Education." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 5, 2020, pp. 4-7, doi:10.31149/ijie.v3i5.367.
10. Donabaevich, Haydarov K. "The Role of Continuous Education in the Spiritual Development of the Person." *JournalNX*, 2020, pp. 920-922.
11. Donabayevich, Haydarov K. "Development of Pedagogical Skills is an Important Factor in the Formation of the Cognitive Characteristics of the Teacher." *JournalNX*, 2021, pp. 186-188.

ZAMONAVIY FAN FALSAFASINING ASOSIY MUAMMOLARI (MUAMMOLAR VA YECHIMLAR)

Usmonova Laylo Raxmatullayevna

SamDTU “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

laylo.usmonova89@gmail.com

ORCID-0000-0002-7269-9688

UDK 1(091)

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy falsafa chuqur anglash va tahlil qilishni talab qiladigan ko‘plab dolzARB muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida Postmodern tendensiyalar va globallashuv natijasida yuzaga kelgan inqiroz ajralib turadi, bu esa inson mavjudligining maqsadlari va qadriyatlarini yangitdan ko‘rib chiqishni va an’anaviy axloqiy me’yorlarga yangicha yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy falsafa nafaqat o‘tmish an’analarini davom ettiradi, balki insoniyat oldida turgan murakkab masalalarni hal qilish yo‘llarini topishga intilib, hozirgi muammolarga faol javob beradi. Mazkur maqolada keng tarqalgan falsafiy muammolar, bugungi kunda dunyoning falsafaga munosabati, zamonaviy falsafa va klassik falsafa o‘rtasidagi farqlar muhokama qilinadi. Shuningdek, globallashuv fenomeni madaniy va ma’rifiy jihatdan, zamonaviy falsafiy taqqoslashning imkoniyatlari va istiqbollari madaniyatning asosiy xususiyatlari sifatida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: muammo, zamonaviy falsafa, komparativistika, paradigm, rivojlanish, dunyoqarash, madaniyat, fan.

MAIN PROBLEMS OF MODERN PHILOSOPHY OF SCIENCE (PROBLEMS AND SOLUTIONS)

Abstract. Nowadays, modern philosophy is faced with many urgent problems that require deep understanding and analysis. Among them, postmodern trends and the crisis caused by globalization stand out, which requires a new revision of the goals and values of human existence and a new approach to traditional moral norms. Modern philosophy not only continues the traditions of the past, but also actively reacts to the problems of the present, seeking to find solutions to the complex problems facing humanity. This article discusses general philosophical issues, the attitude of the modern world to philosophy, and the differences between modern and classical philosophy. The phenomenon of globalization in the cultural and educational aspect is also analyzed, as well as the possibilities and prospects of modern philosophical comparison as the main characteristics of culture.

Keywords: problem, modern philosophy, comparative studies, paradigm, development, worldview, culture, science.

Kirish. Bugungi kunda falsafaning zamonaviy muammolarini hal qilish texnologik taraqqiyot va globallashuv sharoitida jamiyat oldida turgan qiyinchiliklarni hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda turli xil falsafiy an’analar o‘rtasidagi muloqot va gumanistik yondashuvlarni birlashtirish orqali yangi muammolarni qayta ko‘rib chiqish zarurati vujudga keladi, ya’ni madaniyat, fan va donishmandlikning asoslari zamonaviy qarashlar asosida ko‘rib chiqilishini taqozo etadi.

Fan, madaniyat, falsafa kabi so‘zlar polisemantik tushunchalardir. Ularning o‘ndan ortiq asosiy va yuzlab yordamchi ta’riflari mavjud. Har qanday davr madaniyatdagi muhitiga mos keladigan ta’riflarga e’tibor beradi va eng muhimmi, ular bilan o‘zaro ta’sirlarning noyob konstruksiyasini o‘rnatadi. Bunday kombinatsiyalar soni juda ko‘p, shuning uchun har qanday faylasuf va har qanday shaxs muammoga qarashda o‘z nuqtayi nazariga ega. Ba’zida bu nuqtayi nazar ma’lum sharoitlarda juda aniq bo‘lgan kosmik qonunga o‘xshaydi. Zamonaviy falsafa klassik falsafa shakllantirgan tushunchalarga nisbatan mutlaqo boshqacha tarzda ishlaydi. Zamonamiz faylasufi klassik davr faylasufidan farq qiladi. U bilimi kam odamlar bilan emas, balki yoshligidan keng dunyoqarash va ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lgan

jamiyat bilan shug‘ullanadi. Aynan ushbu dunyoqarash orqali falsafiy fikr shaxsn ni mustaqil fikrlashga va yashashga undash uchun rivojlanishi kerak.[1;152]

“XXI asr insoniyatdan fan-texnika taraqqiyotini yangicha sifat bosqichiga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bizningcha esa, mana shu talab doirasida yanada olg‘a bosishimiz uchun zarur bo‘lgan tafakkur islohotlarini jadallashtirishimiz va buning vositasida, avvalo, o‘zimizda sog‘lom ehtiyojlarni shakllantirishimiz lozim. Gap shundaki, har qanday rivojlanish mavjud holatdan qoniqmaslikdan paydo bo‘ladi. Ya’ni, mavjud holatdan qoniqish turg‘unlikni yuzaga keltiradi. Insonning o‘zida yangi ehtiyojning hosil bo‘lishi taraqqiyot manbaidir. Hozirgi davrda aqlan zukko, izlanuvchan, qat‘iyatlik bilan mustaqil mulohaza fikrlovchi yoshlarda zamonaviy jamiyatni ilmiy-texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch-quvvat bo‘lib, ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo‘lmoqda” [9;68].

Texnologiyaning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar jamiyat va shaxslar uchun bugungi kun qadriyatlarini hisobga oladigan yangi axloqiy asos va standartlarni yaratishni talab qiladi. Bunda yangi kashfiyotlarga moslasha oladigan va ilmiy paradigmalarning tanqidiy tahlilini taklif qiladigan fan falsafasini rivojlanirish muhimligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolari – bular barqarorlik, ilm-fandagi yangi yondashuvlar, yangi jamiyatning demokratik shakllarini takomillashtirish, fan va texnika yutuqlaridan odamlar manfaati uchun foydalanishdir. Ular har bir kishidan o‘z faoliyatiga chuqur mas‘uliyatni his qilishi, ongli munosabatni talab qiladi. Shu munosabat bilan axloqiy mas‘uliyat, tanlov erkinligi va har bir shaxsning zamonaviy tarixiy o‘zgarishlarda haqiqiy ishtiroki ahamiyati beqiyos darajada oshib bormoqda. K. Yaspers jamiyatining hozirgi holatini inqiroz deb ta’riflaydi. “Ming yillar davomida inson dunyosini tashkil etgan narsalar hozirgi paytda halokatga uchraganga o‘xshaydi... hamma narsa shubha ostida bo‘lib qoldi, hamma narsa xavf ostida” [8;334].

Inson muammolari har doim falsafa uchun muhim bo‘lgan. Hozirgi vaqtida ular shaxsni har tomonlama va uyg‘un tarbiyalashning amaliy vazifasi bilan bog‘liq holda, ayniqla, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish shaxsning ijtimoiy shakllanishi, uning individualizatsiyasi va ichki qonuniyatlarini jiddiy falsafiy va sotsiologik o‘rganishni talab qiladi.

Faylasuf V.S. Stepin ta’kidlaydiki: “Bugungi kunda ijtimoiy rivojlanishning jadal sur’atlari odamlar hayotida ko‘p narsani o‘zgartirmoqda. Texnogen sivilizatsiyaning bir qator asosiya qadriyatları muammoli bo‘lib, yangi qadriyatlarning o‘sish nuqtalari paydo bo‘lmoqda. O‘z navbatida ularni tahlil qilish, qanchalik hayotiyligini, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aniqlash kerak. Menimcha, ushbu dasturni amalga oshirish zamonaviy falsafiy tadqiqotlar va madaniyat fanlarining xilmaxilligi uchun eng istiqbolli vazifadir”.[2;274]

Insoniyat yana bir bor jahon tarixi paradigma sinining o‘zgarishini boshdan kechirmoqda. XXI asrning birinchi choragi globalashuv jarayonlarining kuchayishi bilan o‘zini namoyon qildi, bu esa o‘z navbatida madaniy va ijtimoiy hayotning bir nechta burilishlariga olib keldi. Politsentrik, ko‘p qutbli dunyo g‘oyasi faqat kategorik imperativ uslubida qoldi. Insoniyat mavjudligining yaqinlashib kelayotgan shakli, agar u ro‘y bersa, nafaqat sanoat sivilizatsiyasi davrida yo‘qolgan ma’noni odamlarga qaytarishi, balki xavfli axborot texnologiyalari va biotexnologiyalar birlashishi xavfining oldini oladi [6;22].

Zamonaviy falsafa nafaqat mavjud muammolarni tahlil qilishi, balki ularni hal qilishda faol ishtirok etishi, jamiyat va insonning uyg‘un rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yangi g‘oyalar va yondashuvlarni taklif qilishi kerak. Qiyosiy tadqiqotlar muammosi globalashuv va madaniy almashinuv sharoitida, ayniqla dolzarb bo‘lib qoladigan turli xil falsafiy an‘analar va fikrlash tizimlarini tushunish va taqqoslash zarurligidir. Taqqoslash falsafiy maktablar o‘rtasidagi umumiyl mavzular va farqlarni ochib beradi, bu esa mahalliy va universal masalalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu usul bir qator qiyinchiliklarga ham duch keladi, shu jumladan, soddalashtirish va stereotiplash xavfi, shuningdek, turli xil falsafiy g‘oyalar rivojlangan kontekstlarni yetarli darajada talqin qilish qiyinligi. Ma’nolarni buzmaslik va har bir an‘ananing o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun madaniy, tarixiy va

ijtimoiy jihatlarni hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmay va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy falsafa jamiyat, davlat, shaxsnинг destabilizatsiyasi, fan maqomidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq barcha jarayonlarni aks ettirdi. Bunga imperializmning ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklari, ommaviy jamiyatning paydo bo‘lishi, davlatdagi jarayonlarning mafkurasi, eski munosabatlar va sinf bo‘linmalarining buzilishi, kompyuter ishlab chiqarishining joriy etilishi, tabiatshunoslikka, ilmiy va texnologik inqiloblar, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, eski aloqa shakllarini almashtirish, “yangi o‘rta sinf” maydoniga kirish, fan va texnologiyaning kuchli rivojlanishini kiritish mumkin. Analitik va ratsional falsafa madaniyatning o‘zgargan ramzlarini va inson hayotining mazmunli masalalarini aks ettirish, talqin qilish, tushuntirishga qaratilgan ma’lum bir ijodga aylanadi [3].

Zamonaviy jamiyatda yangi ilmiy g‘oyalar jadal izlanmoqda, an’anaviy yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilmoqda, barcha sohalarda qadriyatli ustuvorliklarini aniqlash bo‘yicha fuqarolik tashabbusi rivojlanmoqda. Globallashuv va madaniy o‘ziga xoslik masalalarini hal qilish uchun multikulturalizm va madaniyatlararo muloqot g‘oyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu esa yanada keng qamrovli universal jamiyatni yaratishga imkon bermoqda.

Zamonaviy dunyoning murakkabliklari falsafiy bilimlarning differensiatsiyasiga olib keladi. Ko‘p sonli yondashuvlar, tushunchalar, nazariyalar, atrofdagi dunyo hodisalarini alohida anglash zarurati falsafada turli xil mustaqil sohalarning paydo bo‘lishini taqozo etmoqda: ta’lim falsafasi, texnologiya falsafasi, fan falsafasi, huquq falsafasi va boshqalar.[4;19].

Yangi texnologiyalarning jamiyatga ta’siri axloqiy dilemmalarga olib kelishi mumkin, masalan, ma’lumotlar maxfiyligi muammosi va sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihat. Ekologik muammolar ekologik inqirozni va insonning tabiatga bo‘lgan munosabati va uning oldidagi javobgarligining falsafiy jihatlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Madaniy o‘zgarishlar va bag‘rikenglik muammolari ham falsafiy jihatlarga ega. Tengsizlik, kamsitish va murosasizlik inklyuzivlikka erishish va farqlarga bardoshli va barqaror jamiyat yaratishga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy adolat va ijtimoiy tengsizlik muammolari bizning davrimizda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Daromadlar, resurslardan foydalanish va imkoniyatlarning tengsizligi sharoitida ba’zi odamlar ijtimoiy va iqtisodiy mavqeyi tufayli teng imkoniyatlardan mahrum bo‘lishlari mumkin. Ushbu muammolarning har biri o‘ziga xos falsafiy jihatlarga ega va jamiyatda jiddiy tashvish tug‘diradi. Ushbu muammolarni hal qilish nafaqat davlatning harakatlarini, balki har bir insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ham talab qilishini tushunish muhimdir. [5;131].

Falsafiy ta’limda falsafiy tafakkurning oziga xosligi muammoni ko‘rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o‘ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan, fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko‘maklashadi. Zero, aniq ta’riflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o‘z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo‘l qo‘ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o‘zining betakrorligini yo‘qotadi [9;71]. Darhaqiqat, falsafa nafaqat zamonaviy muammolarini tushunishga yordam beradi, balki ularni hal qilish yo‘llarini ham taklif qiladi. Doimiy o‘zgarishlar va qiyinchiliklar bor bo‘lgan sharoitda falsafa murakkab masalalarni tahlil qilish, tushunish va hal qilish uchun muhim vosita bo‘lib, muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy fikrlash va axloqiy ongni shakllantiradi.

Barcha zamonaviy mojarolar, shuningdek, muammolar natijasida inson hayotining ma’naviy manbalarining tanazzulga uchrashi muammosi mavjud. Bunda falsafiy komparativistikaga ekzistensial xarakterdagи vazifalar va masalalarni hal qilish roli berilgan.

XXI asr odamining qarashlari dunyoga yaxlit falsafiy qarashni talab qiladi. Zamonaviy global dunyo G‘arb va Sharq falsafasining tajribalarini mujassam etgan sintetik tuzilmalarga muhtojdir. Falsafiy yo‘nalishlarning xilmaxilligi bilan ularning umumiyligi va aniqligi tobora ko‘proq kuzatilmoque. Borgan sari tadqiqotchilar umumiy falsafiy madaniyat haqida gapirishmoqda. [6;23].

Agar inson hayoti davomida o‘zi, oilasi, qarindoshlari va do‘stlari, tanlangan faoliyat sohasi, Vatani, umuman insoniyat uchun, uning bir qismi bo‘lgan tabiat uchun nima qilishi kerakligi haqidagi savollarga javob beradigan qadriyatlar, maqsadlar va ideallar, xulq-atvor tamoyillari tizimini qurishni va izchil amalga oshirishni boshlasa, salbiy ta’sirlarga muvaffaqiyatli qarshi tura oladi. Inson o‘z farzandlariga, avlodlariga nimani qoldirishi kerakligi haqidagi savollarga javob beradigan tizimi qurish va o‘zida mujassam etishi zarurdir. Falsafaning fan sifatida va zamonaviy jamiyatda o‘quv sohasi sifatida tutgan o‘rni, avvalambor, odamlarga ushbu tizimni qurish va amalga oshirishda yordam berishdan iborat. [7;9].

Zamonaviy jamiyatda komparativistika dialogik va fanlararo yondashuvlar kabi yangi texnika va yondashuvlarni taklif etadi, bu esa falsafiy tizimlar o‘rtasidagi yanada samarali o‘zaro ta’sirga hissa qo‘sishi mumkin. Bu soha, shuningdek, turli falsafiy qarashlarni birlashtirish orqali ekologiya, axloq va ijtimoiyadolat kabi dolzarb global muammolarni hal qilish imkoniyatlarini ochadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy hayotimizdagi falsafiy muammolar va ularning yechimlarini topish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular hozirgi paytda mavjud qiyinchiliklar va muammolarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bir qator ijtimoiy-madaniy omillar ta’siri ostida, shuningdek, antropologik va uslubiy jihatlar birinchi o‘ringa chiqqan falsafiy muammolarni o‘zgartirish jarayonida falsafa zamonaviy madaniyatning maxsus sohasi – falsafiy madaniyat shaklida rivojlanadi. Karl Yaspers so‘zlariga ko‘ra, falsafaning muammolari doirasiga, avvalo quyidagilar kiradi: kategoriyalar va usullarni shakllantirish, falsafa tarixini o‘rganish, ontologik muammolarni ishlab chiqishdir [8;500]. Zamonaviy falsafadagi taqqoslash usuli dunyoqarashning xilmaxilligi sharoitida tushunish ufqlarini kengaytirish va yechimlarni topish uchun muhim vositalardan birdir. Umumbashariy ziddiyatlar va dunyoning bo‘linishi tahdidi sharoitida qiyosiy falsafaga murojaat qilish inson hayoti, birdamlik va insoniyatning ma’naviy birligi qadriyatiga asoslangan falsafiy dunyoqarashni yakuniy tasdiq topishiga yordam berishi kerak. Chunki zamonaviy, global dunyo madaniyatlarning muqarrar interpenetratsiyasi, madaniy hududlarning chegaralarini yo‘q qilish bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исмаилова Э.Р. Проблемы философии в современном мире // Скиф. 2018. №11 (27)
2. Степин В.С. Цивилизация и культура. – Санкт-Петербург 2011.
3. Мурадов Санжар Аслонович «Актуальные исследования» №44 (123), ноябрь 22
4. Козлова Т.А., Полякова Ю.О., Леонтьева Д.А. Актуальные проблемы философии образования в современную эпоху // КНЖ. 2020. №2 (31).
5. Шафигуллин В.А. Философские проблемы современного общества // Социология. 2023. №2.
6. Меджидова Н. Компаративный анализ современных философско антропологических концепций. Журнал «Metafizika», 2022, 5(4).
7. Арепьев Е.И. Роль философии в современном мире. Сборник статей по итогам научно-практической конференции с международным участием Проблемы философии: история и современность.- Курск, КГУ, 18–21 мая 2018.
8. Ясперс К. Смысл и назначение истории. - М., 1994.
9. To‘xtayev H.P. Yoshlar ma’naviy qadriyatini yuksaltirishda falsafiy tafakkurning o‘rni. // “Murakkab jarayonlarning zamonaviy metodologiyasi va tizimli tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.– Namangan, 2023.
10. Nugmanovna M. A. The role of social control in the legal socialization of the individual //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 712-721.

МЕЖПАРЛАМЕНТСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Азизов Ильдар Рафаэльевич

доцент кафедры «Управление бизнесом и предпринимательство»

PhD Высшей школы бизнеса и предпринимательства при

Кабинете Министров Республики Узбекистан

i.azizov@rgsbm.uz

ORCID 0009-0004-9726-9600

УДК 328 (543), А-35

Аннотация. В статье рассматривается роль межпарламентского сотрудничества в укреплении интеграционных процессов в Центральной Азии. Анализируются основные направления и динамика взаимодействия парламентов стран региона, а также их влияние на стабильность, экономическое партнерство и политическое доверие. Особое внимание уделяется развитию межпарламентских связей как важного инструмента для обсуждения и принятия совместных решений по актуальным региональным вопросам. В статье также освещены вопросы укрепления парламентской дипломатии в регионе в качестве эффективного механизма расширения диалога и повышения уровня взаимодействия между государствами. В заключении подчеркивается значимость дальнейшего развития межпарламентского сотрудничества в Центральной Азии.

Ключевые слова. Межпарламентские отношения, Центральная Азия, интеграционные процессы, парламентская дипломатия, региональное сотрудничество, законодательные органы, парламентский форум, политическое доверие, международное взаимодействие.

MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI ILGARI

SURISHDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda parlamentlararo hamkorlikning o'rni tahlil qilinadi. Hudud mamlakatlari parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'naliishlari va dinamikasi, shuningdek, ushbu munosabatlarning barqarorlik, iqtisodiy sheriklik va siyosiy ishonchga ko'rsatayotgan ta'siri ko'rib chiqiladi. Hamkorlikning bu shakli mintaqaviy ahamiyatiga ega masalalar yuzasidan umumiy qarorlarni muhokama qilish va qabul qilishda muhim vosita sifatida baholanadi. Maqolada, shuningdek, mintaqada parlament diplomatiyasini rivojlantirish masalalari ham yoritilgan bo'lib, uning davlatlar o'rtasidagi muloqotni kengaytirish va o'zaro hamkorlik darajasini oshirishda samarali mexanizm sifatida baholash mumkin. Xulosa o'rnidida esa, Markaziy Osiyoda parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirishning muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Parlamentlararo munosabatlari, Markaziy Osiyo, integratsiya jarayonlari, parlament diplomatiyası, mintaqaviy hamkorlik, qonun chiqaruvchi organlar, parlament forumi, siyosiy ishonch, xalqaro hamkorlik.

Введение. На современном этапе региональное сотрудничество в Центральной Азии приобретает новое качество и становится одной из ключевых составляющих стабильности, экономического роста и устойчивого развития региона. Трансформации, происходящие в Центральной Азии, указывают на формирование нового подхода к региональному взаимодействию, где ключевая роль отводится укреплению взаимного доверия, экономической интеграции и совместному решению общих вызовов.

После вступления в должность Президента Республики Узбекистан в 2016 году Ш.Мирзиёев обозначил Центральную Азию в качестве главного приоритета внешней политики страны, что стало принципиально новым этапом в региональном взаимодействии [1]. Новый подход Узбекистана к региональной политике во многом предопределил качественные изменения в структуре центральноазиатского взаимодействия, способствуя формированию атмосферы доверия и поиску совместных решений по вопросам, которые на протяжении длительного времени оставались нерешенными. Важной особенностью данной политики Узбекистана стало осознание того, что региональное сотрудничество необходимо рассматривать не как альтернативу двусторонним отношениям или внешнеполитическим связям с глобальными партнерами, а как стратегическую необходимость, обеспечивающую устойчивое развитие всех стран Центральной Азии. Это позволило Узбекистану предложить новый формат взаимодействия, основанный на комплексном подходе, при котором региональная кооперация становится не только инструментом экономического роста, но

и важным фактором обеспечения безопасности, политической стабильности и социальной устойчивости.

Лидеры стран Центральной Азии придают особое значение укреплению региональных связей. Политическая воля руководителей Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана стала ключевым фактором успешного развития сотрудничества, что проявляется в регулярных Консультативных встречах глав государств региона, инициированных Президентом Узбекистана Шавкатом Мирзиёевым в 2018 году [2]. Эти встречи стали важной платформой для обсуждения актуальных вопросов и реализации совместных инициатив, способствуя формированию общей региональной повестки. Поддержка этого формата со стороны всех лидеров региона демонстрирует стремление к укреплению единства и координации действий в решении общих задач.

С момента первой встречи, состоявшейся в 2018 году, было проведено шесть саммитов [3], каждый из которых стал значимым этапом в процессе развития межгосударственных отношений. Эти встречи позволили выработать комплексные подходы к решению стратегических вопросов, включая развитие торгово-экономических связей, совместное противодействие трансграничным вызовам и формирование единой региональной повестки. Седьмая Консультативная встреча глав государств Центральной Азии, которая состоится в 2025 году в Ташкенте [4], станет очередным важным этапом в развитии регионального сотрудничества. Ожидается, что предстоящая встреча будет сфокусирована на выработке совместных подходов к решению ключевых вызовов, стоящих перед Центральной Азией, и согласованию долгосрочной повестки сотрудничества.



Подписание «Договора о дружбе, добрососедстве и сотрудничестве в целях развития Центральной Азии в XXI веке» в ходе четвертого саммита глав государств региона в 2022 году стало важнейшей вехой в процессе формирования новой архитектуры регионального взаимодействия [5]. Впервые в новейшей истории Центральной Азии страны региона зафиксировали на договорной основе ключевые принципы взаимоотношений, ориентированные на укрепление взаимного доверия, политической стабильности и устойчивого развития. Более того Концепция развития региональной кооперации «Центральная Азия – 2040» [6], представляет собой стратегический документ, определяющий долгосрочные ориентиры взаимодействия стран региона. Ее принятие свидетельствует о переходе центральноазиатских государств к системному и институционально оформленному сотрудничеству, основанному на принципах равноправного партнерства, взаимной выгоды и коллективной ответственности. Концепция формирует комплексное видение будущего регионального сотрудничества, охватывая ключевые сферы экономического, политического, социального и экологического развития.

Центральная Азия, выстраивая собственную модель регионального взаимодействия, демонстрирует последовательность и ответственность в выработке региональных решений, направленных на достижение общего процветания и обеспечение устойчивого будущего для всех стран региона. Все это свидетельствует о возрастающем значении регионального сотрудничества как системного процесса,

формирующего устойчивые связи между странами Центральной Азии и создающего условия для их сбалансированного и взаимовыгодного развития.

В этих процессах важную роль играет поэтапное развитие межпарламентских отношений, которые в последние годы получают новую динамику и становятся одним из ключевых механизмов регионального взаимодействия. В современных условиях парламенты стран Центральной Азии играют все более значимую роль в развитии интеграционных процессов, что проявляется в расширении форматов сотрудничества, принятии совместных мер и подписании важных документов.

В этой связи актуальным является изучение процессов развития межпарламентских отношений в регионе, их влияния на интеграционные процессы в Центральной Азии, а также роли парламентской дипломатии в укреплении регионального сотрудничества.

Методы. В исследовании используются комплексный подход, включающий системный анализ для выявления взаимосвязей между парламентской дипломатией и региональной интеграцией, сравнительно-правовой метод для изучения национального законодательства стран Центральной Азии в сфере межпарламентского сотрудничества, а также исторический метод для анализа развития парламентских отношений в регионе.

Результаты и обсуждение. Одним из важных направлений регионального сотрудничества Узбекистана стало развитие конструктивных и взаимовыгодных отношений с соседними государствами. Взаимодействие со странами Центральной Азии стало более последовательным и устойчивым, что способствовало укреплению сотрудничества в экономической, политической, культурно-гуманитарной и других сферах. Благодаря активной дипломатии Узбекистана отношения с государствами региона приобрели статус стратегического партнерства, что отражает стремление к укреплению сотрудничества и развитию интеграционных процессов. Взаимодействие с Казахстаном и Таджикистаном достигло уровня союзнических отношений.

В этом контексте межпарламентское взаимодействие играет особую роль, выступая в качестве важного драйвера интеграционных процессов. Развитие межпарламентского сотрудничества в Центральной Азии приобретает особую значимость в контексте укрепления интеграционных процессов, которые сегодня формируют основу политического, экономического и социального взаимодействия региона.

Теоретические основы парламентской дипломатии и межпарламентского сотрудничества. Парламентская дипломатия представляет собой неотъемлемую часть общей дипломатической деятельности государств, выступая одним из ключевых инструментов реализации внешнеполитического курса. Она оказывает значительное влияние на содержание, динамику и перспективы развития международных отношений, способствуя укреплению взаимопонимания, формированию международных норм и продвижению национальных интересов в многостороннем и двустороннем форматах.

В соответствии с определением, данным Институтом культурной дипломатии США [7], парламентская дипломатия представляет собой инструмент установления устойчивого межпарламентского взаимодействия, посредством которого два и более законодательных органа участвуют в обсуждении актуальных международных проблем, вырабатывают согласованные подходы и способствуют укреплению политической, экономической и гуманитарной кооперации. Государственная Дума Федерального Собрания Российской Федерации рассматривает парламентскую дипломатию как неотъемлемый элемент внешнеполитической стратегии государства, обеспечивающий институциональную вовлеченность национальных парламентов в процессы парламентского сотрудничества [8]. При этом подчеркивается ее уникальная функция по созданию устойчивых и доверительных отношений между российскими и зарубежными парламентариями, что формирует дополнительный уровень дипломатического диалога.

В Узбекистане парламентская дипломатия представляет собой инструмент реализации международной деятельности Олий Мажлиса, направленный на

продвижение интересов Республики Узбекистан на международной арене, повышение ее международного авторитета, развитие двусторонних и многосторонних отношений с зарубежными странами, а также обмен опытом с парламентами других государств, международными парламентскими структурами и международными организациями [9].

В отличие от классической дипломатии, реализуемой органами исполнительной власти, парламентская дипломатия обладает устойчивым и гибким характером, позволяя выстраивать долгосрочные и содержательные формы сотрудничества. Более того, она дополняет традиционные механизмы международного взаимодействия, предлагая альтернативные пути урегулирования спорных вопросов, поддержания политического диалога и формирования международных норм на уровне парламентского сообщества.

Парламентская дипломатия занимает особое место в системе международных отношений, являясь важным инструментом, дополняющим традиционные механизмы дипломатического взаимодействия. Ее многоуровневый характер, гибкость и способность обеспечивать широкую вовлеченность различных акторов делают ее незаменимым элементом современной международной политики. В условиях возрастающей взаимозависимости государств парламентская дипломатия играет ключевую роль в выработке согласованных решений, обеспечении устойчивого развития и укреплении глобальной стабильности, что подчеркивает ее стратегическую значимость в XXI веке.

Исследователи уделяют значительное внимание изучению парламентской дипломатии, рассматривая ее как важный инструмент в системе международных отношений. Канадский ученый Р.Катлер подчеркивает [10], что парламентская дипломатия способствует укреплению взаимопонимания между государствами и играет ключевую роль в формировании глобальной политики. Он отмечает, что парламенты, благодаря своей способности к диалогу и обмену мнениями, могут эффективно решать сложные международные вопросы, дополняя традиционные дипломатические каналы. Исследователь М.Варлен акцентирует внимание на возрастающей роли парламентской дипломатии в многополярном мире [11]. Она утверждает, что в условиях изменения глобального баланса сил парламенты становятся важными акторами, способными влиять на принятие международных решений и продвигать инициативы, направленные на поддержание мира и безопасности. Варлен подчеркивает, что парламентская дипломатия способствует развитию многостороннего сотрудничества и укреплению демократических принципов в международных отношениях.


Межпарламентские отношения охватывают более широкий спектр взаимодействий между законодательными органами различных стран. В отличие от парламентской дипломатии, которая ориентирована преимущественно на внешнеполитическую деятельность, межпарламентские отношения включают в себя как дипломатические аспекты, так и сотрудничество в сфере законодательства, обмен опытом и реализацию совместных программ. Эти отношения могут быть как двусторонними, так и многосторонними, осуществляться в рамках международных парламентских организаций, таких как Межпарламентский союз, Парламентская ассамблея ОБСЕ, МПА СНГ и другие.

Практические аспекты развития межпарламентских отношений в Центральной Азии. На современном этапе региональная кооперация в Центральной Азии обладает значительным потенциалом для обеспечения стабильности, устойчивого развития и благополучия всех стран региона. Системные меры, предпринимаемые странами региона, охватывают практически все ключевые сферы — от экономики и торговли до безопасности и культурного взаимодействия.

Важным событием в контексте продвижения региональной кооперации стало принятие Генеральной Ассамблеей ООН резолюции «Укрепление регионального и международного сотрудничества для обеспечения мира, стабильности и устойчивого развития в регионе Центральной Азии» [12]. Этот документ, инициированный Узбекистаном в тесном взаимодействии с государствами региона, получил

единогласную поддержку со стороны всех членов ООН. Данная резолюция стала важным шагом в институционализации механизмов регионального сотрудничества, а также продемонстрировала возрастающее влияние Ташкента в международной дипломатии.

В этих процессах активную роль также играет системное развитие межпарламентских отношений, которое за последние годы стало важным инструментом укрепления доверия и консолидации усилий в реализации интеграционных проектов. Это, в свою очередь, создает прочную основу для долгосрочного сотрудничества и способствует повышению конкурентоспособности региона на международной арене. О системном развитии межпарламентских отношений свидетельствуют регулярные встречи парламентариев, активизация деятельности групп дружбы [13], а также взаимодействие в рамках таких международных межпарламентских организаций, как Межпарламентский союз и Межпарламентская ассамблея СНГ [14].



Следует подчеркнуть, что межпарламентские связи представляют собой неотъемлемую составляющую межгосударственных отношений, обладая значительным потенциалом воздействия на динамику региональных и глобальных политических процессов. Институт парламентской дипломатии, являясь важным инструментом внешнеполитической стратегии государств, способствует не только укреплению дружественных отношений между странами, но и формированию новых механизмов сотрудничества, направленных на углубление интеграции и институционализацию межпарламентского взаимодействия.

Узбекистан, исходя из принципов открытости активно развивает межпарламентское сотрудничество, выделяя концептуально новые инициативы, направленные на усиление его роли в региональных и международных процессах. Системное развитие парламентской дипломатии в Узбекистане нашло свое отражение в «Концепции парламентской дипломатии Республики Узбекистан», принятой в 2020 году [15]. Данный документ определяет приоритетные направления парламентского сотрудничества, механизмы реализации внешнеполитических инициатив через парламентские структуры, а также ключевые принципы, на которых базируется деятельность Олий Мажлиса в международных и региональных форматах. Концепция является важным документом, обеспечивающим системное развитие международного взаимодействия на парламентском уровне.

- 3.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг Қарори. "2020–2021- йилларда иқтисодий ўсишни тиклаш ва иқтисодиёт тармоқлари ҳамда соҳаларида тизимли таркибий ислохотларни давом эттириш чора-тадbirlari тўғрисида".// lex.uz/docs/4978202.
- 4.Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.– Т.:Ўзбекистон, 2021.– Б.127-128.
- 5.Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ўзаро манбаатли ҳамкорлик учун очиқdir // Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.294.
6. Каримов И.А. Истиқlol йўли: муаммолар ва режалар. // Ўзбекистон: миллий истиқlol, иқтисод, сиёsat, мафкура. 1-том. – Т.: Ўзбекистон, 1996.- Б.3.
- 7.Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида. // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-том. – Т.:Ўзбекистон, 1996. – Б.184.
- 8.Таджибаева Д. Проблемы и перспективы развития сельского хозяйства в Узбекистане.// Проблемы современной экономики, 2015, №3.- 303 с.
9. Кудратов З.Г. Основные тенденции развития сферы услуг в Узбекистане.// Молодой ученый, 2016, №11.- 791-793-с.
10. Природные условия и ресурсы Узбекистана.// spravochnick.ru.
- 11.Олмалиқ КМК жаҳон фонд бозорларига чиқади. // uz.tafsilar.info, 2021, 19 ноябрь.

**QISHLOQ XO'JALIGI TURIZM TERMINOLOGIYASI SOHASIGA HISSA
QO'SHGAN OLIMLAR VA ULARNING METODOLOGIK
YONDASHUVLARI**

Tojiyeva Gulbahor Namozovna

Filologiya fanlari doktori, professor

Xolmuratova Maxliyo Joniqul qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

kholmuratova0077@gmail.com

ORCID 0009-0006-6903-098X

UDK 63:796.5=20(014)(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi turizmi (agroturizm) terminologiyasi shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari orqali agroturizm terminlarini o'rganishning turli metodlari – tizimli, kognitiv-lingvistik hamda komparativ yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, o'zbek olimlarining agroturizm sohasidagi ilmiy izlanishlari va ularning milliy terminlogiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Maqola agroturizmni chuqurroq anglash va ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqolada agroturizmga oid ko'plab kitoblar yozgan olimlar va bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan agroturizm atamalari va lug'at kitoblari haqida ham fikr bildirib ketildi. Agroturizm sohasiga hissa qo'shgan o'zbek va chet el olimlarning bu sohaga doir qilgan buyuk ishlari katta e'tirofga sazovordir.

Kalit so'zlar: agroturizm, qishloq xo'jaligi turizmi, terminlogiya, metodologik yondashuv, tizimli tahlil, kognitiv lingvistika, komparativ tahlil, o'zbek tilshunosligi, xalqaro tajriba, ilmiy asos.

**SCIENTISTS WHO HAVE CONTRIBUTED TO THE FIELD OF
AGRICULTURAL TOURISM TERMINOLOGY AND THEIR METHODOLOGICAL
APPROACHES**

Abstract. This article analyzes the scientists who contributed to the formation of agricultural tourism (agrotourism) terminology and their methodological approaches. In particular, various methods of studying agrotourism terms - systematic, cognitive-linguistic and comparative approaches - are highlighted through the scientific works of foreign and domestic researchers. The scientific research of Uzbek scientists in the field of agrotourism and their contribution to the development of national terminology are also considered. The article serves to provide a deeper understanding of agrotourism and its scientific development. In addition, the article also discusses the terms and dictionaries of agrotourism studied by scientists who have written many books on agrotourism and several scholars. The great work of Uzbek and foreign scientists who have contributed to the field of agrotourism in this field deserves great recognition.

Keywords: agrotourism, agricultural tourism, terminology, methodological approach, systematic analysis, cognitive linguistics, comparative analysis, Uzbek linguistics, international experience, scientific basis.

Kirish. Global miqyosda turizm sanoatining diversifikatsiyalashuvi natijasida yangi turdag'i turizm yo'nalishlari paydo bo'lib, ularning orasida qishloq xo'jaligi turizmi (agroturizm) alohida o'rinnegallay boshladi. Agroturizm nafaqat qishloq hududlarini iqtisodiy rivojlantirish vositasi, balki mahalliy madaniyat, urf-odatlar va hayot tarzini saqlab qolish va targ'ib qilish imkoniyatini ham yaratadi. Bu turizm turi ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekiston sharoitida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Agroturizmning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, uni terminologik jihatdan aniqlash va tizimlashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari, ularning qo'llagan metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, terminlarning tizimli, kognitiv-lingvistik va komparativ tahlillari orqali ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga intilish asosiy maqsad qilib olingan. Agroturizm atamasi birinchi bor G'arbiy Evropa mamlakatlarida XX asrning oxirida keng qo'llanila boshlandi. Dastlab Italiya va Fransiyada bu soha "ferma turizmi" sifatida shakllangan. Ilk ilmiy asoslangan izlanishlar Bernard Lane (Buyuk Britaniya), Giovanni Belletti (Italiya), va Klaus Meyer-Cech (Avstriya) kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Ular agroturizmni quyidagicha ta'riflaganlar: "Qishloq hududida mahalliy resurslardan foydalanib, mahalliy hayotni namoyon etuvchi turizm shakli".

- “Fermer xo‘jaliklari asosida tashkil etilgan turizm, bu orqali qishloq hayoti va madaniyatini tajriba asosida o‘rganish imkoniyati yaratiladi.”

Terminologik tadqiqotlarda metodologik yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Quyida asosiy yondashuvlar va ularning mualliflari keltirilgan:

- Tizimli yondashuv – bu yondashuv terminlarni ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘rganadi. Bu metodga V.N. Teliya va S.V. Grinev kabi rus tilshunoslari asos solgan. Ushbu yondashuvda agroturizm terminlari qishloq xo‘jaligi, ekologiya, turizm, servis kabi sohalar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

- Kognitiv-lingvistik yondashuv – bu usul atamalarni inson ongida shakllanadigan tushunchalar orqali tahlil qiladi. Ingliz tilidagi izlanishlarda bu yondashuvni George Lakoff va Ronald Langacker asoslab bergen.

- Komparativ (taqqoslama) yondashuv – turli tillardagi terminlarni taqqoslab, umumiyligi va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metodologiyani O‘zbekiston tilshunoslari orasida G‘. Jo‘rayev, Sh. Yusupov, N. Kadirova kabi olimlar qo‘llagan.

Qishloq xo‘jaligi turizmi terminologiyasi – murakkab, ko‘p qirrali va interdissipliner sohaga mansub bo‘lib, uni chuqur ilmiy tadqiq qilish zamон talabi hisoblanadi. Turli metodologik yondashuvlar, xorijiy va milliy olimlarning ishlari orqali ushbu soha nazariy asoslanmoqda va amaliyotga tafsiq etilmoqda. Kelajakda ushbu terminologiyani xalqaro standartlarga moslashtirish, uni O‘zbekiston til muhitida rivojlantirish va turizm siyosatiga integratsiya qilish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda turizm sohasining barqaror rivojlanishi, uning yangi turlarini shakllantirish va ularni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, qishloq xo‘jaligi turizmi (agroturizm) nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki qishloq joylarda bandlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va milliy madaniyatni asrashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da turizm tarmoqlarini rivojlantirish, ayniqsa, ichki va ekologik turizm, shu jumladan, agroturizmni kengaytirish alohida vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mazkur soha terminologiyasini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Agroturizm atamalarining izchil, tushunarli va xalqaro standartlarga mos bo‘lishi, ularning tarjimasi va qo‘llanilishi bo‘yicha yagona yondashuvning mavjud emasligi ilmiy va amaliy jihatdan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ko‘p tarmoqli soha sifatida agroturizm terminlari qishloq xo‘jaligi, turizm, ekologiya, marketing, servis kabi fanlar kesishgan nuqtasida joylashgani bois, tizimli va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilishi lozim. Shu sababli, agroturizm terminologiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlarini o‘rganish, ularni taqqosiy asosda tahlil qilish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qishloq xo‘jaligi turizmi (agroturizm) terminologiyasini tizimli tahlil qilish, uning shakllanishida ishtirok etgan olimlarning metodologik yondashuvlarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) metodlar uyg‘unlashtirildi, bu esa terminologik birlıklarni chuqurroq anglash va tasniflash imkonini berdi. Agroturizm terminlari o‘zbek, rus, ingliz va italyan tillaridagi variantlari o‘zaro solishtirilib, ularning semantik farqlari, tarjima muammolari va kontekstual mosligi baholandi. Bu metod xorijiy tajriba va milliy yondashuvlarni taqqoslashda muhim vosita bo‘ldi. Turli manbalardagi (ilmiy maqolalar, qonunchilik hujjatlari, ommaviy axborot vositalari, turizm broshyuralari) matnlar orqali terminlarning amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi. Shuningdek, agroturizm terminlarining qanday ijtimoiy konnotatsiyaga ega ekani ham tahlil qilindi. Amaliyotchi mutaxassislar (turizm tashkilotchilari, tilshunoslar, fermer xo‘jaligi egalari) bilan suhbatlar va so‘rovnomalar asosida terminlardan foydalanishdagи mavjud muammolar va ehtiyojlar aniqlangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasiga oid qonun va qarorlari ham o‘rganilib, terminologik moslik baholandi. Ushbu metodologik asoslar orqali nafaqat mavjud terminlar tahlil qilindi, balki yangi termin birlıklarini yaratish, taklif qilish va tizimlashtirish imkoniyatlari ham shakllantirildi. Tadqiqot davomida interdisipliner

yondashuvga amal qilinib, tilshunoslik, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik va turizm sohalarining o‘zaro bog‘liqligi hisobga olindi.

Qishloq xo‘jaligi turizmi – terminologik jihatdan nisbatan yangi soha bo‘lib, uning ilmiy asoslari oxirgi o‘n yilliklarda shakllana boshlagan. Shu sababli, mazkur sohaning ilmiy tahlilini amalga oshirishda ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, agroturizm tushunchasining ilk shakllanishi Yevropa olimlari izlanishlarida kuzatiladi. Jumladan, Bernard Lane (1994) tomonidan agroturizm “qishloq hayotining autenlikligini tajriba qilishga asoslangan turizm turi” sifatida ta’riflanadi. U o‘z tadqiqotlarida turizmnинг barqaror shakllari, ayniqsa, ekologik va madaniy jihatdan bog‘liq turlari doirasida agroturizmni tahlil qilgan [1].

Italiyalik olim Giovanni Belletti esa agroturizmni “mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlovchi vosita” sifatida o‘rganib chiqadi [2]. U agroturizmni mintaqaviy rivojlanish siyosati bilan bog‘lab, bu yo‘nalishning marketing, servis va brendlash bilan aloqador jihatlariga urg‘u beradi. Tilshunoslik va terminologik jihatdan esa S.V. Grinev (2008) va V.N. Teliya (1996) tomonidan ishlab chiqilgan tizimli va kognitiv-lingvistik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega [3][4]. Grinev o‘z ishlarida terminlar tizimini ularning predmetlararo bog‘liqligi asosida o‘rganishni taklif qiladi, bu esa aynan agroturizm kabi ko‘p fanli sohalar uchun juda dolzarbdir.

Agroturizm atamalarining taqqoslama (komparativ) tahliliga oid tadqiqotlar ham ahamiyatlidir. M. J. Torres-Delgado va J. Saarinen (2014) o‘z izlanishlarida turizm atamalarining mintaqaviy farqlari va ularning barqarorlik siyosatidagi o‘rnini ko‘rsatib bergenlar [5]. O‘zbekistonlik olimlar orasida bu mavzuga e’tibor qaratganlardan biri — To‘lqin Fayziyev bo‘lib, u agroturizmni O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida o‘rganadi. Fayziyevning ta’kidlashicha, qishloq hayotiga asoslangan turizm turi nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy identitetni saqlash vositasi sifatida ham qaralishi lozim [6]. Tilshunoslik sohasida Z. Qodirova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa agroturizm terminlarini o‘zbek tilida standartlashtirish, ularni boshqa tillarga to‘g‘ri tarjima qilish, va o‘zaro bog‘liq sohalar bilan integratsiya qilish masalalariga qaratilgan [7]. U kognitiv yondashuv asosida terminlarning ichki mazmunini tahlil qilib, ularning semantik o‘zgarishlariga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, G. Jo‘rayev va Sh. Yusupov kabi olimlar tomonidan umumiyl terminologik muammolar, xususan, iqtisodiy va ekologik atamalarni taqqosiy o‘rganish metodlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning yondashuvlari agroturizm terminlari tahliliga tatbiq etilishi mumkin [8]. Mazkur adabiyotlar asosida ko‘rish mumkinki, agroturizm terminologiyasini o‘rganish faqatgina tilshunoslik doirasidagina emas, balki iqtisodiyot, ekoliya, madaniyatshunoslik va mintaqaviy siyosat bilan ham uzviy bog‘liq. Bu esa terminologik tadqiqotlarga kompleks metodologik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligi turizmi terminologiyasini chuqur o‘rganish natijasida bir qancha muhim xulosalarga kelindi. Bu natijalar nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki sohaning umumiyl metodologik va amaliy ahamiyatiga asoslangan holda tahlil qilindi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, agroturizm atamalari bir vaqtning o‘zida qishloq xo‘jaligi, ekoliya, turizm, marketing, madaniyatshunoslik va servis xizmatlari sohalari bilan bevosita bog‘langan. Shu sababli, terminlarning mazmun-mohiyatini tushunish ular kontekstda, ya’ni amaliyotda qanday ishlatalayotganiga alohida e’tibor qaratish zarur. Masalan, “ferma turizmi”, “eko-fermer”, “mahalliy mahsulotlar brendi” kabi atamalar bir necha sohaga bir vaqtning o‘zida taalluqli.

So‘rovnama va empirik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston turizm amaliyotida agroturizm terminlarining qo‘llanilishi tartibga solinmagan, terminlarning mazmuni bo‘yicha bir xillik mavjud emas. Turli tashkilotlar va manbalarda bir xil ma’noni ifodalovchi turli nomlanishlar uchraydi. Bu holat esa rasmiy hujjatlarda, turistik broshyuralarda va ilmiy adabiyotlarda chalkashliklar keltirib chiqaradi. Ingliz, italyan va rus tillaridagi terminlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, xorijiy adabiyotlarda agroturizm terminlari aniq tasniflangan va ularning semantik maydonlari keng. Masalan, ingliz tilida “farm stay”,

“organic tourism”, “green hospitality”, “rural experience” kabi terminlar mavjud bo‘lib, ular turli agroturizm shakllarini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa bunday tafovutlar hali to‘liq shakllanmagan.

Tadqiqot davomida kognitiv-lingvistik metod yordamida agroturizm terminlarining konseptual asoslari, ya’ni ularning qanday mental modellar orqali shakllanishi tahlil qilindi. Masalan, “ferma turizmi” atamasi nafaqat qishloqda yashash, balki agrar ish faoliyatida bevosita ishtirok etish, mahalliy an'analar bilan tanishish, sog‘lom ovqatlanish, ekologik muhitda dam olish kabi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa bitta atama ortida murakkab kontseptual tuzilma mavjudligini ko‘rsatadi. Agroturizm terminlarini milliy me'yoriy hujjatlar, o‘quv dasturlari va rasmiy axborot vositalarida yagona va izchil shaklda qo‘llash uchun ularni standartlashtirish, tasdiqlash va ilmiy jihatdan asoslash zarur. Bu jarayonda tilshunoslar, soha mutaxassislar va davlat organlari o‘rtasida hamkorlikda ishslash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligi turizmi terminologiyasi zamonaviy turizm va tilshunoslik fanlari kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab va ko‘p qirrali sohadir. Ushbu sohaning terminologik asoslarini o‘rganish va tizimlashtirish nafaqat ilmiy, balki amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Agroturizm terminologiyasi interdisipliner xarakterga ega bo‘lib, u turizm, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, iqtisodiyot va madaniyatshunoslik sohalari bilan uzviy bog‘liq. Xalqaro tajribada agroturizm terminlari boy va aniq tasniflangan bo‘lib, ularni o‘zbek tiliga to‘g‘ri va izchil tarjima qilish, lokal kontekstga moslashtirish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lane, B. (1994). *What is Rural Tourism?* Journal of Sustainable Tourism, 2(1), 7–21.
2. Belletti, G. (2004). *Agri-tourism, local food and rural development*. Firenze University Press.
3. Grinev, S.V. (2008). *Terminovedenie*. Moskva: Logos.
4. Teliya, V.N. (1996). *Kognitivnyy aspekt yazykovoy semantiki*. Moskva: Shkola “Yazyki russkoy kultury”.
5. Torres-Delgado, M. J., & Saarinen, J. (2014). *Using indicators to assess sustainable tourism development: a review*. Tourism Geographies, 16(1), 31–47.
6. Fayziyev, T. (2021). *Agroturizm: O‘zbekiston sharoitida rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim.
7. Qodirova, Z. (2020). *Agroturizm terminlarining o‘zbek tilidagi ifodasi va tarjima muammolari*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent.
8. Jo‘raev, G‘. (2018), Yusupov, Sh. (2019). *Terminologik tizimlar va ularning tarjimasi masalalari*. O‘zbek tilshunosligi jurnalida chop etilgan maqolalar to‘plami.
9. Sharipov N. – Agroturizm asoslari. – Toshkent, 2020.
10. Baranov A. A. – Agroturizm: teoriya i praktika. – Moskva: Akademiya, 2018.
11. Philip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. – A typology for defining agritourism. – Tourism Management, 2007.
12. Lane, B. – Rural tourism: An overview. – Journal of Sustainable Tourism.

DIPLOMATIK LEKSIK BIRLIKLARNING FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

(A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini leksik birliklari misolida)

Jumaniyozov Zoxid Otoboyevich, f.f.n., dots.

Urganch davlat universiteti

zoxid@urdu.uz

ORCID 0009-0000-5316-594X

UDK 81.81-115

Annotatsiya. Maqolada A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan sof diplomatik terminlar hamda mazkur diplomatik jarayonga aloqador bo‘lgan leksik birliklar tahlil qilingan. Asardagi diplomatik, siyosiy, huquqiy mazmunni aks ettirib kelgan rasmiy leksik birliklar, shu jumladan, diplomatik – lavozim va daraja, murojaat, hujjat, vakolatxona va millat nomlari ko‘plab kontekstual variantlarda uchrashi, ularning asliyatda ifodalinish shakllari, roman matning tarixiy va madaniy kontekstida leksik birliklarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, ya’ni zamonaviy adabiy tilga moslashish jarayonlari va yuzaga kelgan tavovutlar, ularning, orfografiyik, fonetik (“poshsho” – podshoh, “boshluq” – boshliq, “Toshkand” – Toshkent, “Xo‘qand” – Qo‘qon) o‘zgarishlarga yuz tutishi va morfologik (atoqli ot, turdosh ot, sifat, ravish,

fe'l bo'lib kelishi) xususiyatlari o'rganilgan.

Bundan tashqari maqolada diplomatik sohada, ayniqsa, xalqaro munosabatlarda, norasmiy uchrashuvlar, shaxsiy muloqotlar yoki diplomatik va siyosiy mazmundagi suhbatlarda, shuningdek, o'zaro hurmat va do'stlikni ifodalashda tilning turli ijtimoiy qatlamlarida ishlatish mumkin bo'lgan, biroq rasmiy ramkalardan tashqarida bo'lgan, diplomatik muloqot etiketi nuqtayi nazaridan rasmiy hujjatlar va yozishmalarda qo'llab bo'lmaydigan norasmiy leksik birliklar, shu jumladan, kishi nomlari, laqablar, shahar va joy nomlari, geografik nomlar, kasb-kor nomlari, milliy realiya nomlari ham tadqiqot obyekti sifatida taqdim qilingan.

Kalit so'zlar. Badiiy adabiyot, roman, diplomatik leksik birliklar, rasmiy, norasmiy leksik birliklar, fonetik xususiyatlari, morfologik xususiyatlari.

PHONETIC AND MORPHOLOGICAL FEATURES OF DIPLOMATIC LEXICAL UNITS

(On the example of lexical units from A. Kadiri's novel "Bygone Days")

Abstract. The article analyzes purely diplomatic terms used in A. Kadiri's novel "Bygone Days" and lexical units related to this diplomatic process. The official lexical units that reflect the diplomatic, political, and legal content of the work, including diplomatic - the names of positions and ranks, addresses, documents, missions, and nations, are found in many contextual variants, their forms of expression in the original, the changes of lexical units over time in the historical and cultural context of the novel's text, that is, the processes of adaptation to the modern literary language and the differences that have arisen, their orthographic, phonetic ("pashsho" - king, "bashluq" - chief, "Tashkand" - Tashkent, "Khoqand" - Kokand) changes, and morphological (pronoun, cognate noun, adjective, adverb, verb) features are studied.

In addition, the article presents as an object of research informal lexical units that can be used in the diplomatic sphere, especially in international relations, in informal meetings, personal conversations or conversations of a diplomatic and political nature, as well as in various social strata of the language to express mutual respect and friendship, but are outside the official framework and cannot be used in official documents and correspondence from the point of view of diplomatic communication etiquette, including personal names, nicknames, city and place names, geographical names, professional names, names of national realities.

Keywords: Fiction, novel, diplomatic lexical units, official, unofficial lexical units, phonetic features, morphological features.

Kirish. Ma'lumki, diplomatik leksik birliklar insoniyat tarixida davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim o'ringa ega bo'lgan va bugungi kunga kelib yanada ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, ushbu til birliklari nafaqat siyosiy-huquqiy mazmundagi maqsad va munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi, balki ular tilning fonetik va morfologik jihatdan shakllanishida ham o'ziga xoslikni ta'minlaydi. Xususan, badiiy adabiyotda diplomatik leksik birliklarning qo'llanilishi nafaqat badiiy asarning mazmunini boyitadi, balki o'quvchida tarixiy voqealar, siyosiy jarayonlar va madaniyatlararo muloqot haqidagi tushunchalarni shakllantirishga ko'mak beradi.

Badiiy adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, unda diplomatik leksik birliklar an'anaviy nutq shaklidan chiqib, kontekstual ma'no anglatishi bilan ajralib turadi. Bunday birliklarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rganish nafaqat lingvistik, balki ularning badiiy-funksional imkoniyatlarini ochib berish nuqtayi nazardan ham ahamiyatlidir.

Mazkur maqolada diplomatik leksik birliklarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi, ularning fonetik shakllanish xususiyatlari va morfologik qurilishi tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar orqali tilning boyligi va dinamikasi, shuningdek, o'tgan davrda adabiyotning jamiyatda diplomatik masalalarni yoritishdagi roli yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Diplomatik terminlarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rganishga doir bir qator manbalar mayjud bo'lib, quyida ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan ba'zi olimlar va ularning ishlari keltirilgan. J.Sh. Safarov "Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida diplomatik diskursda leksika qo'llashning stilistik-pragmatik aspektlari, funksional-semantik xususiyatlari, diplomatik tushunchani nomlash tiplari, usullari, konversiya, international leksika, diplomatik diskurs tizimida ibora yasalishi kabi masalalarni tadqiq qilgan.

A.Musayevning "Inglizcha-o'zbekcha diplomatiya terminlari: struktur-semantik

tahlili” nomli dissertatsiyasi ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatik terminlarning tarkibiy va semantik xususiyatlari, shuningdek, ularning morfologik va funksional-semantik turlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. P.Nishonov “Fransuz va o‘zbek tillarida diplomatik soha leksikasining shakllanishi” mavzusidagi ilmiy maqolasida fransuz va o‘zbek tillarida diplomatik soha leksikasini leksik va semantik jihatdan tahlil qilgan. U.Hamroyev “Diplomiya leksikasi lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” nomli maqolasida fransuz, ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatik va siyosiy leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan. S.Mavlyanovning “O‘zbek tili diplomatik terminlari” asari o‘zbek tilidagi diplomatik terminlarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. S.Nosirova “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili” nomli ishida xitoy tilidagi diplomatik terminlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini o‘rgangan. Ushbu olimlarning tadqiqotlari ma’lum va muayyan ma’noda diplomatik terminlarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohada muhim ilmiy manbalar hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida D.Lotte texnik terminlarning fonetik va morfologik xususiyatlari, **A.Reformatskiy** rus terminologiyasi va uning fonetik-morfologik jihatlari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar. Rus olimi **V.Vinogradov** esa umumiyligi terminshunoslilik va morfologiya bo‘yicha izlanishlari bilan mashhur. **T. Cabré Castellví** terminshunoslilikning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgangan va terminlarning morfologik tuzilishini tahlil qilgan. Bundan tashqari J.Skottning “Language of Diplomacy in Literature” nomli ishi diplomatik tilning badiiy adabiyotdagi ijtimoiy va madaniy ta’sirini ochib beradi. Mazkur tadqiqotda badiiy asarlarda qo‘llanilgan diplomatik terminlar xalqaro munosabatlar haqida umumiyligi tasavvurni shakllantirishga qanday xizmat qilishi haqida so‘z yuritiladi.

Yuqorida keltirilgan tilshunos olimlar, izlanuvchilar tadqiqotlaridagi ilmiy-nazariy qarashlar, xulosa va yechimlar hamda natijalar bizning tadqiqot ishimizda diplomatik leksik birliklarning fonetik va morfologik xususiyatlarini aniqlashda muayyan ma’noda dasturilamal bo‘ldi va tadqiqot metodologiyasi bosqichlarini aniqlashga zamin yaratdi.

1. **Nazariy tahlil usuli.** Diplomatik leksik birliklarning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish uchun mavjud ilmiy adabiyotlar, jumladan, lingvistika, badiiy adabiyotshunoslilik va diplomatik tilga oid monografiyalar, maqolalar va dissertatsiyalar tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida diplomatik leksik birliklarning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati haqida nazariy xulosalarga kelindi.

2. Kontekstual **tahlil usuli.** Badiiy adabiyotdagi diplomatik leksik birliklarni tahlil qilish uchun muayyan tarixiy mavzudagi badiiy asar, xususan, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi diplomatik munosabatlarni aks ettiruvchi matnlar olindi. Ushbu matnlardagi diplomatik leksik birliklar quyidagi jihatlarga ko‘ra tahlil qilindi: Diplomatik leksik birliklarning kontekst tarkibida berilishi, yozilishi; ularning fonetik xususiyatlari, jumladan, talaffuz va intonatsion imkoniyatlari; morfologik tuzilishi. Diplomatik terminlarning kontekstual ma’nosи alohida tadqiqot mavzusi bo‘lganligi bois, uni keyingi tadqiqotlarda o‘rganish maqsad qilib olindi.

3. **Lingvistik tadqiqot usuli.** Diplomatik leksik birliklarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganishda strukturaviy lingvistik tahlil qo‘llanildi. Ushbu usul yordamida diplomatik terminlarning tovush tizimidagi o‘ziga xosliklari, morfemik tarkibi va grammatik funksiyalari, xorijiy tillardan kirib kelgan birliklarning fonetik moslashuv jarayonlari o‘rganildi.

4. **Komparativ tahlil usuli.** Diplomatik leksik birliklarning asliyatdagi shakllari va ularning hozirgi kundagi o‘zbek tilida qo‘llanishi o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar qiyosiy tahlil qilindi.

5. Tadqiqotning empirik materiallar bazasi. Tadqiqot uchun empirik material sifatida diplomatik aloqalar mavjud bo‘lgan o‘zbek badiiy asari, tarixiy roman va uning nemis va rus tililariga tarjimalari hamda diplomatik tilga oid ilmiy-lingvistik manbalar va lug‘atlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza singari ko‘plab fonetik hodisalar, ya’ni tilning orfoepik

me'yorlari nuqtayi nazaridan bo'ladigan nutqiy o'zgarishlar badiiy uslub uchun ahamiyatlama. Poetik hamda tarixiy mavzularda yozilgan prozaik asarlar tilida uchraydigan ayrim fonetik o'zgarishlarga bu me'yorlarga muvofiq keladi.[1]

Orfografik va fonetik o'zgarishlarni biz o'zbek tilining hamda diplomatik terminlarning izohli lug'atlari asosida qiyoslab o'rgandik va quyidagi farqlarni aniqladik:

1. Sof diplomatik terminlar. 1) Diplomatik lavozimlar va darajalar: *poshsho* (15) – *podshoh*, *boshluq* (95) – *boshliq*, *shog 'ovulboshi* (108) – *shig 'ovul*;

2) Diplomatik hujjatlar: *yorlig'* (13) – *yorliq*;

3) Diplomatik vakolatxonalar: *biylik* (194) – *beklik*, *xonliq* (112) – *xonlik*;

4) Diplomatik murojaatlar: *sultoni salotin hazratlari* (109) – *sultoni Salohiddin hazratlari*, *tojdori musulmonon* – *tojdori musulmon*, *xoqon ibni xoqon shahanshohi navjuvon* – *hoqon ibn hoqon shahanshohi navjuvon* (269);

5) Millat nomlari: *o 'ris* (267) – *russ*.

2. Diplomatik jarayonga aloqador bo'lgan leksik birliklar. 1) Joy nomlari: *Toshkand* (4) – *Toshkent*, *Xo 'qand* (260) – *Kўқон*;

2) Daryo (suv) nomlari: *Chaqar*, *Bo 'z suv*, *Ko 'kcha arig'i*, *Shiblin* (275), *Salor* (275) – *Salar*, *Chirchiq* (262);

3) Kishi nomlari: *Homid* (5) – *Hamid*, *Gulsinbibi* (51) – *Gulsum bibi*, *Rayimboy* – *Rahimboy*, *Qo 'shdodqo* (120) – *Qo 'shdodxoh*, *Farfi* (215) – *Parpi*, *Mahinabonu* (300) – *Mohinabon*;

4) Laqablar: *oxund* (308);

5) Kasb-kor nomlari: *to 'qug 'uchilik* (180) – *to 'quvchilik*;

6) Milliy taom, oziq-ovqat va meva nomlari: *sho 'rba* (173) – *sho 'rva*;

7) Milliy ichimlik nomlari: *maviz* (180) – *may*;

8) Milliy idish-tovoq nomlari: *kuvacha* (206) – *ko 'zacha*, *choydish* (40) – *choy idish*;

9) Milliy uy jihozlari va xo'jalik mahsulotlari nomlari: *sabun* (186) – *sovun*;

10) Milliy kiyim-bosh va matoh nomlari: *poyavzal* (21) – *poyabzal*, *ro 'ymol* (56) – *ro 'mol*;

11) Milliy to'shov nomlari: *kiyiz* (167) – *kigiz*, *polos* (178) – *palos*;

12) Milliy qurol-aslaha va harbiy soha nomlari: *to 'fangcha* (77)

– *tufang*;

13) Diniy tushunchalar: *tasbih* (122) – *tasbeh*, *xuftan namozi* (142) – *hufton namozi*, *tarobih* (311) – *taroveh*.

Diplomatik terminlarning morfologik xususiyatlari:

Ot. 1) Atoqli otlar. Joy nomlari: *Toshkand* (4), *Marg 'ilon* (5), *Turkiston* (6), *Andijon* (10), *Kirovchi* (31), *Xo 'jand* (72), *Beshyog 'och* (103), *Sebzor* (103), *Xo 'qand* (260), *Ming o 'ruk* (274), *Oqmasjid* (199), *Chuqur* (*qishloq*) (205), *Qurama* (209), *Telov* (209), *Namangan* (260); daryo (suv) nomlari: *Chaqar*, *Bo 'z suv*, *Ko 'kcha arig'i*, *Shiblin* (275), *Salor* (275), *Chirchiq* (262); kishi nomlari: *Otabek* (4), *Homid* (5), *Hasanali* (5), *Mirzakarim* (10), *Kumushbibi* (26), *Alim* (184), *Yodgorbek* (364); laqablar: *Yusufbek xoji* (4), *Ziyo shohichi* (5), *Homid xotinboz* (5), *Musulmon cho 'loq* (12), *Normuhammad qushbegi* (30).

2) Turdosh otlar. *bek* (7), *xon* (10), *qutidor* (10), *mingboshi* (16), *hokim* (26), *qushbegi* (30), *qo 'rboshi* (60), *farmonbardor* (110), *mirza* (111), *mirzaboshi* (112), *chopar* (117), *shoh* (109), *shikoyatnama* (13), *yorlig'* (13), *maktub* (91), *xat* (96), *ariza* (108), *noma* (108), *saroy* (4), *xonlik* (12), *o 'rda* (24), *devon* (30), *bahs* (9), *muzokara* (13), *murosa* (325), *fuqaro* (33), *tashrif* (35), *vakolat* (54).

Fe'l (ibora): *amr bermoq* (309), *izn so 'ramoq* (330), *choy quymoq* (9), *dasturxon yozmoq* (13), *itoatdan bosh tortmoq* (13), *iltifotsiz qoldirmoq* (13), *gunohini so 'ramoq* (13), *taklif qilmoq* (10), *tashakkur aytmoq* (98).

Sifat: *amiri lashkar* (309), *huquqiy mamlakat* (61), *mustaqil hukmdor* (99), *mustaqil hukumat* (262).

Ravish: *takalluf bilan* (7), *janobi oliy* (113), *xon hazratlari* (119), *minnatdorlik* (136), *marhamat* (136), *samimiyat bilan* (40), *shohimiz jonobi xoqoni xavoqin* (109), *sultoni salotin hazratlari* (109), *amri oliylari* (270), *tojdori musulmonon*, *xoqon ibni xoqon shahanshohi navjuvon* (269), *mammuniyat bilan*.

Xulosa va takliflar. Badiiy adabiyotda diplomatik leksik birlıklarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Diplomatik leksik birlıklarning fonetik xususiyatlari, ularning kelib chiqish tiliga, talaffuzdagi o‘ziga xosliklari va adabiy tildagi moslashuv jarayonlariga bog‘liq. Xorijiy tillardan kirib kelgan diplomatik leksik birliklar o‘zbek tilida talaffuzga moslashgan holda qo‘llaniladi, biroq bu jarayonda ba’zi til birlıklarining asl talaffuzi va yozilishi saqlanib qoladi.

Diplomatik leksik birlıklarning morfologik tarkibi so‘z yasalishi va grammatic funkisiyalariga ko‘ra turlicha bo‘lib, ular badiiy matnda asosan kontekstga mos holda qo‘llaniladi. Bunday birliklar o‘zbek tilida qo‘sishma qo‘sish orqali yangi grammatic shakl va ma’noga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ularning badiiy matnda kontekstual ma’no yuklanishi yuqori darajada ahamiyat kasb etadi.

Diplomatik leksik birliklar badiiy adabiyotda voqelikni realistik tasvirlash, tarixiy va siyosiy jarayonlarni obrazli ifodalash hamda matnning stilistik ko‘rinishini boyitish vazifalarini bajaradi. Ular asarning mavzusi va maqsadiga ko‘ra o‘ziga xos semantik va stilistik ahamiyat kasb etadi.

Diplomatik leksik birliklar o‘zbek adabiy tilining boyishida va xorijiy til unsurlarining moslashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular tilning zamonaviy jarayonlarga moslashuvchanligini namoyish etadi.

Diplomatik leksik birlıklarning badiiy matnda qo‘llanilishi haqida ko‘proq va chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Bunda ularning boshqa tillardagi o‘xshash birliklar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish muhimdir.

Diplomatik leksik birlıklarning fonetik va morfologik xususiyatlarini badiiy adabiyotda o‘rganish bo‘yicha maxsus risola va monografiyalar yaratish tavsiya etiladi. Albatta, bu kelajakda tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun yangi ilmiy ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilidagi diplomatik leksik birliklar lug‘atini yanada boyitish va ulardagi fonetik hamda morfologik o‘ziga xosliklarni tasviflash muhim. Bu nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki o‘quv jarayonlarida ham foydalanish imkonini beradi.

Turli davr va janrlardagi badiiy asarlarda qo‘llanilgan diplomatik leksik birlıklarni tizimli o‘rganish orqali ularning til taraqqiyotiga ta’sirini aniqlash zarur.

Diplomatik leksik birlıklarning badiiy adabiyotda qo‘llanilishi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar tajribasini o‘rganish va uni o‘zbek tilshunosligiga moslashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева А.А. Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков). – Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2003. – 167 с.
2. Насер Фалих Мухсин Насер. Дипломатическая терминология русского языка и ее семантизация в учебном двуязычном словаре: Автoref. ... дисс.кан.фил.н. – Воронеж, 2013. – С. 24.
3. Саидов Х.А. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках: диссертация доктора филологических наук. Душанбе, 2013. – 366 с.
4. Сафаров Ж.Ш. Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка). Дисс....канд. филол. наук. – Т., 2000. – 175 с.
5. Ха Н.У. Дипломатик нутқ лексикаси. Филол.фан.бўйича фалс. док. (PhD) дисс. – Чирчик, 2021. – В.141.
6. Khamroyev U. Lexics of diplomacy as an object of linguistic research. International Scientific Journal “Science and Innovation”. 07.09.2022. – Series B. Volume 1 Issue 5. – P. 398 – 403.
7. Jumanova D. Badiiy uslubning lingvistik xususiyatlari. Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o‘rni. Anjuman materiallari. – T.: TMI, 2022. – B. 232.
8. Mavlyanov S. O‘zbek tili diplomatik terminlari. Filol.fan.bo‘yicha fals.dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B. 56.
9. Musayev A. Inglizcha-o‘zbekcha diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik tahlili. Filol.fan.bo‘yicha fals.dok. (PhD) diss. – Andijon, 2023. – B. 64.
10. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillarida diplomatik soha leksikasining shakllanishi / O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2021. – № 6 (41). – B. 69 – 84.
11. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – T.: Yangi Nashr, 2019. – B. 368.
12. Temirova D., Yuldasheva S. Badiiy adabiyotlar targ‘iboti va ularning inson hayotidagi o‘rni. – Farg‘ona, 2021. – B.192-202.

THE INFLUENCE OF MODERN LEXICOGRAPHIC TRENDS ON THE CREATION OF DICTIONARIES WITH IDIOMS: A FOCUS ON THE UZBEK LANGUAGE

Bektosh Tursunboyev Norbo‘tayevich

Teacher, Karshi state university

bektosh.tursunboev@gmail.com

ORCID 0000-0003-0227-3929

UDK 1751

Abstract. The modern landscape of lexicography has been dramatically transformed by technological advancements, corpus linguistics, and user-centered approaches. This study explores the influence of modern lexicographic trends on the creation of dictionaries, specifically those that compile idioms. Emphasis is placed on how these trends affect the representation, accessibility, and comprehensiveness of idiomatic expressions, with a special focus on Uzbek language idioms. By analyzing recent developments in digital lexicography, corpus-based research, and cross-linguistic comparisons, the article outlines both challenges and opportunities for lexicographers. The study concludes that modern lexicographic methods can greatly enhance the representation of idiomatic language in under-researched languages such as Uzbek, thereby contributing to improved cross-cultural communication and language preservation.

Keywords: corpus linguistics, idioms, compilation, user-centered approach, lexicography.

**ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIK TENDENSIYALARING IDIOMA
LUG‘ATLARI TUZISHGA TA’SIRI: O’ZBEK TILIGA E’TIBOR**

Annotatsiya. Leksikografiyaning zamonaviy landshafti texnologik taraqqiyot, korpus lingvistikasi va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlar tufayli keskin o‘zgardi. Ushbu tadqiqot zamonaviy leksikografik tendensiyalarning lug‘atlarni, xususan, idiomalarni tuzadigan lug‘atlarni yaratishga ta’sirini o‘rganadi. Bu tendensiyalarning idiomatik iboralarining ifodalanishi, foydalanish imkoniyati va keng qamrovliligiga qanday ta’sir ko‘rsatishiga alohida e’tibor qaratilib, o‘zbek tilidagi idiomalarga alohida e’tibor beriladi. Raqamli leksikografiya, korpus asosidagi tadqiqotlar va tillararo taqqoslashdagi so‘nggi o‘zgarishlarni tahlil qilib, maqolada leksikograflar uchun muammolar va imkoniyatlar ko‘rsatilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy leksikografik usullar o‘zbek tili kabi yetarlicha o‘rganilmagan tillarda idiomatik tilning ifodalanishini sezilarli darajada yaxshilaydi va shu orqali madaniyatlararo muloqot va tilni saqlashni yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: korpus lingvistikasi, idiomalar, kompilyatsiya, foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yondashuv, leksikografiya.

Introduction. Idioms are a vital part of every language, carrying rich cultural, historical, and semantic nuances that are often deeply rooted in the traditions of a community. For languages like Uzbek, idiomatic expressions not only reflect the linguistic heritage but also embody the cultural ethos of the society. Modern lexicography has increasingly embraced digital tools, corpus linguistics, and user-centric approaches to produce more dynamic, comprehensive, and accessible dictionaries. This article investigates how these contemporary trends influence the creation of dictionaries with a special emphasis on idioms and examines their impact on the representation of Uzbek language idioms.

Traditional lexicographic work often relied on manual compilation and static definitions that were sometimes out-of-date or insufficiently representative of actual language use. In contrast, modern lexicography integrates technological advancements—such as online corpora, advanced search algorithms, and user feedback systems—to create living dictionaries that can evolve with language use. Given that idioms are highly context-dependent and culturally loaded, their accurate representation requires methodologies that capture both linguistic form and socio-cultural context.

Uzbek, as a language with a rich oral and written tradition, presents a unique case. Historically, Uzbek idioms have been transmitted through folklore and literary texts, but many remain underrepresented in modern lexicons. This creates a gap between traditional usage and contemporary language resources. Therefore, the influence of modern lexicographic trends on the creation of idiom dictionaries has significant implications for the preservation and revitalization of Uzbek linguistic heritage.[8]

The primary objectives of this study are to: Explore the key modern lexicographic trends influencing dictionary creation. Assess the challenges and opportunities associated with

compiling idioms in contemporary dictionaries. Analyze the current state of Uzbek language idiom representation in lexicographic resources. Propose methodological approaches for integrating modern trends into Uzbek lexicography.

Literature Review. Recent decades have witnessed a paradigm shift in lexicography, driven by several factors: **Digital Transformation:** The advent of digital databases, online dictionaries, and mobile applications has revolutionized access to lexical information. This transition from print to digital has enabled continuous updates and interactive features that enhance user experience.

Recent studies, such as those by Sinclair and Biber emphasize that digital lexicography must not only document language as it is used but also adapt to rapid changes in language use. This is particularly relevant for idioms, whose meanings can shift over time and vary across cultural contexts. “Idioms pose unique challenges for lexicographers. Unlike single words, idiomatic expressions are often non-compositional; that is, their meaning cannot be deduced simply by analyzing their constituent parts. Moreover, idioms are heavily influenced by cultural and historical contexts, which makes them resistant to direct translation”.[2]

Uzbek language idioms are an integral component of the nation’s rich cultural fabric. Traditional Uzbek idioms reflect the agricultural lifestyle, local folklore, and historical interactions with neighboring cultures. However, the modernization of lexicographic resources in Uzbek has lagged behind that of major world languages. As a result, many contemporary dictionaries fail to fully capture the depth and diversity of Uzbek idiomatic expressions.[5]

Recent efforts in Uzbek lexicography have aimed at bridging this gap. Initiatives to develop comprehensive Uzbek corpora and digital dictionaries have begun to emerge, though there remains substantial room for improvement. Incorporating modern lexicographic trends into these initiatives can lead to a more vibrant and accurate representation of Uzbek idioms.

Methodology. The study draws on both primary and secondary sources. For primary data, several Uzbek idiom dictionaries and digital corpora were analyzed to assess the current state of lexicographic resources. Secondary sources included scholarly articles on modern lexicography, corpus linguistics, and idiom theory.

Digital Corpora: Online Uzbek language corpora and databases were examined to identify frequently used idioms and their contextual usage.

Lexicographic Resources: Existing print and digital dictionaries that focus on Uzbek idioms were evaluated. These include works by local linguists as well as collaborative projects within the Uzbek language community.

Comparative Analysis: The study also included a comparative analysis with English idiom dictionaries to highlight methodological differences and best practices.

A mixed-methods approach was used to analyze the data. Quantitative methods involved frequency counts and statistical analysis of idiom occurrences within digital corpora, while qualitative methods focused on content analysis of dictionary entries and their explanatory notes. The following steps were taken:

Identification and Extraction: Key idiomatic expressions were extracted from selected corpora and dictionaries.

Contextual Analysis: The usage context of each idiom was examined, emphasizing semantic nuances and cultural references.

Comparative Evaluation: Uzbek idiom entries were compared with their English counterparts to assess the influence of modern lexicographic trends.

Results. Modern lexicographic trends have greatly enhanced the accessibility of idiom dictionaries. Digital platforms allow for real-time updates and user contributions, ensuring that dictionaries remain current. In the context of Uzbek, the integration of digital technologies has started to bridge the gap between traditional print resources and the dynamic nature of contemporary language use.

For example, digital Uzbek dictionaries now offer multimedia components—such as audio pronunciations and usage examples—that enhance understanding and retention of idiomatic expressions. This is particularly valuable for language learners and educators, who can benefit from interactive content that goes beyond static definitions.

Corpus linguistics has provided new insights into the usage patterns of idioms. Quantitative analysis of digital Uzbek corpora revealed that many traditional idioms are experiencing shifts in frequency and context. Some idioms, once common in oral tradition, are now appearing primarily in literary texts, while newer expressions are emerging in digital communication.

This data-driven approach has allowed lexicographers to update entries more accurately. By using corpus data, dictionaries can provide information on the frequency of usage, common collocations, and the evolution of meanings over time. For instance, an idiom that originally described a local agricultural practice might acquire metaphorical meaning in modern contexts, and corpus evidence can help trace that semantic shift.[4]

Comparative analysis with English idiom dictionaries has shown that modern lexicographic trends—such as interactive design, semantic networks, and extensive use of corpora—are more advanced in English-language resources. These methods offer several advantages that could be applied to Uzbek lexicography, such as:

Enhanced Semantic Networks: English dictionaries increasingly employ semantic mapping to illustrate relationships between idioms and other lexical items. This approach could be adapted for Uzbek to better capture the interconnectedness of idiomatic expressions.

User Feedback Integration: Many English digital dictionaries actively incorporate user feedback to refine definitions and usage examples. A similar model for Uzbek could improve the quality and relevance of entries.

Multimedia Content: The inclusion of audio, video, and interactive examples in English dictionaries not only aids in comprehension but also preserves pronunciation and contextual usage, a feature that is still emerging in Uzbek lexicographic resources.

Despite the advantages, there are notable challenges in implementing modern lexicographic trends for Uzbek idioms:

Resource Constraints: Developing and maintaining digital corpora and interactive dictionaries requires significant investment in technology and expertise, which may be limited in some regions.

Cultural Nuances: The deep cultural roots of Uzbek idioms mean that simple translations or static definitions can never fully capture their meaning. Lexicographers must strive to include detailed cultural annotations and historical context.

Standardization Issues: With a rapidly evolving language and diverse dialects, achieving consistency in idiom representation is challenging. Modern lexicographic methods must address these variations while maintaining a standard reference framework.

Discussion. The incorporation of modern lexicographic trends into Uzbek dictionary compilation holds several promising implications. By adopting digital tools and corpus-based methodologies, Uzbek lexicographers can produce more comprehensive and user-friendly dictionaries. This approach not only preserves traditional idiomatic expressions but also adapts to contemporary usage patterns, thereby ensuring that the dictionaries remain relevant in a fast-changing linguistic landscape.

“One of the key benefits of modern lexicographic approaches is their ability to highlight the cultural dimensions of language. Uzbek idioms, with their rich folkloric and cultural references, benefit immensely from multimedia integration. For example, including audio recordings of native speakers and video explanations of historical or cultural contexts can significantly enrich dictionary entries. This multimedia approach helps in preserving the intangible cultural heritage embedded in idioms”.[4] Modern dictionaries are increasingly interactive, allowing users to contribute definitions, usage examples, and even cultural

anecdotes. For Uzbek, such user-generated content can be particularly valuable, as community contributions often capture regional variations and emerging idiomatic expressions that formal lexicographic work might overlook. Furthermore, the integration of machine learning algorithms in analyzing corpus data can automate part of the data collection and analysis process, making the lexicographic work more efficient.

Several avenues for future research emerge from this study:

Expanded Corpus Development: There is a need for larger, more representative Uzbek language corpora that include both formal and informal texts, oral traditions, and digital communication channels.

Cross-Cultural Lexicography: Comparative studies between Uzbek and other languages—especially those with rich idiomatic traditions—can provide deeper insights into the universality and specificity of idiomatic expressions.

User-Centric Design Studies: Investigating how different user groups (students, native speakers, language learners) interact with digital idiom dictionaries can inform the design of more intuitive and effective lexicographic tools.

Technological Innovations: Exploring the potential of artificial intelligence and natural language processing in real-time updating and semantic analysis of idioms is another promising direction.

Conclusion. Modern lexicographic trends have transformed the way dictionaries are created, making them more dynamic, accessible, and culturally rich. For idioms—expressions that encapsulate the cultural and historical essence of a language—the application of these trends is particularly critical. In the context of the Uzbek language, modern digital tools, corpus-based research, and interactive user interfaces offer a pathway to revitalize and preserve a vibrant tradition of idiomatic expression.

The study reveals that while challenges remain—such as resource constraints and the complexity of cultural nuances—the opportunities presented by modern lexicography are immense. By leveraging digital platforms and engaging with both academic and community-based research, lexicographers can create dictionaries that not only document but also celebrate the living, evolving nature of language.

In summary, the integration of modern lexicographic trends into the creation of idiom dictionaries is not just a technical or methodological enhancement. It represents a shift towards a more inclusive, dynamic, and culturally sensitive approach to language documentation. For Uzbek language idioms, this approach is particularly important as it supports the preservation of a unique linguistic heritage while adapting to the demands of the digital age.

References

1. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (2011). *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*. Cambridge University Press.
2. Sinclair, J. (2003). *Corpus, Concordance, Collocation*. Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Wiley-Blackwell.
4. Moon, R. (1998). *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press.
5. Local Uzbek Lexicographic Projects and Digital Corpora (various sources, 2015–2023).
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=PyTVK9oAAAAJ&citation_for_view=PyTVK9oAAAAJ:qjMakFHDy7sc
7. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=73162477273692638&btnI=1&hl=ru>
8. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17905788381005730617&btnI=1&hl=ru>
9. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=751352178159242025&btnI=1&hl=ru>
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=PyTVK9oAAAAJ&citation_for_view=PyTVK9oAAAAJ:IjCSPb-OGe4C

**“TESS D’URBERVILLES” VA “BONU” ROMANLARIDA TASVIRLANGAN
TARIXIY-IJTIMOIY MUHIT VA UNDA AYOLNING O’RNI**

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

hamzayevazebo1016@gmail.com

ORCID 0009-0006-6175-3358

UDK 159-9:396

Annotatsiya. Ushbu maqolada Thomas Hardyning “Tess D’Urbervilles” va Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlarida tasvirlangan tarixiy-ijtimoiy muhit hamda unda ayolning o’rni tahlil qilinadi. Har ikkala asar o’z davrining ijtimoiy va madaniy jarayonlarini aks ettirgan bo‘lib, ularda ayollarning jamiyatdagi mavqeyi, gender tengligi va ijtimoiy bosim muammolari asosiy mavzular sifatida yoritiladi. Hardy Viktorian Angliyasidagi patriarchal tuzum va uning ayollar hayotiga ta’sirini fosh etar ekan, Tess obrazini ijtimoiyadolatsizlik qurboni sifatida gavdalantiradi. Iqbol Mirzo esa “Bonu” romanida mustaqillikdan keyingi o‘zbek jamiyatida ayollarning huquqlari, mustaqillik sari intilishi va gender stereotiplari bilan kurashini ko‘rsatadi.

Maqolada ushbu ikki roman o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, tarixiy jarayonlarning ayol qahramonlar taqdiriga ta’siri hamda jamiyat va adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlarda tasvirlangan ayol obrazlari orqali mualliflarning jamiyatga nisbatan tanqidiy qarashlari va gender masalalariga bo‘lgan yondashuvi ochib beriladi. Maqola ayollarning jamiyatdagi o’rni va ular duch keladigan muammolarni badiiy adabiyot kontekstida o‘rganish orqali ijtimoiy o‘zgarishlarni anglashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: “Tess D’Urbervilles”, “Bonu”, tarixiy-ijtimoiy muhit, gender tengligi, ayol obrazi, Viktorian jamiyat, o‘zbek ayoli, patriarchal tuzum, ijtimoiy bosim, adabiy tahlil, feministik yondashuv, ijtimoiyadolatsizlik.

THE HISTORICAL AND SOCIAL ENVIRONMENT DESCRIBED IN THE NOVELS "TESS D'URBERVILLES" AND "BONU" AND THE ROLE OF WOMEN IN IT

Abstract. This article examines the historical and social contexts portrayed in Thomas Hardy's Tess of the d'Urbervilles and Iqbol Mirzo's Bonu, with a focus on the role of women in these settings. Both novels reflect the social and cultural dynamics of their respective eras, addressing themes such as gender equality, social oppression, and the status of women in patriarchal societies. Hardy analyzes the strict moral codes of Victorian England, depicting Tess as a victim of societal injustice. Meanwhile, Iqbol Mirzo explores the challenges faced by women in post-independence Uzbekistan, highlighting their quest for self-identity and defiance against gender norms.

The article compares the two works, underscoring how historical changes influence the experiences of female protagonists. It also examines the authors' critical views on social structures and their portrayal of gender issues through literature. By analyzing these texts, the study sheds light on the relationship between literature and social transformation, emphasizing the struggles women faced in different historical contexts.

Keywords: Tess d’Urbervilles, Bonu, historical and social environment, gender equality, female character, Victorian society, Uzbek women, patriarchal system, social oppression, literary analysis, feminist approach, social injustice.

Kirish. Adabiyot inson hayotining in’ikosidir. Har bir badiiy asar jamiyatdagi muayyan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarini ko‘rsatish barobarida, inson omilini yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ayollar mavqeini ochib beruvchi asarlar gender tengligi va patriarchal tuzumning shaxsiy hayotga ta’sirini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Thomas Hardyning “Tess D’Urbervilles” va Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari ana shunday insoniy muammolarni qalamga olgan asarlardandir.[1]

“Tess D’Urbervilles” asarida Viktorian Angliyasining qat’iy axloqiy me’yorlari va patriarchal tuzilishi inson hayotiga qanday ta’sir qilgani tasvirlanadi. Asar qahramoni Tess pokiza va sof qiz bo‘lsa-da, jamiyat tomonidan jazolanadi va ijtimoiyadolatsizlik qurboniga aylanadi. Hardy ushbu roman orqali inson taqdirining shafqatsiz muhitda qanday burilishlarga duchor bo‘lishini, shuningdek, gender tengsizligining shaxsiy hayotga qanday ta’sir qilishini yoritadi.

Xuddi shunday, “Bonu” romanı mustaqillikdan keyingi o‘zbek jamiyatida ayollarning mavqeyi, ularning huquqiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini insoniy

kechinmalar orqali ko'rsatadi. Iqbol Mirzo o'z asarida o'zbek ayolining ichki dunyosi, mustaqil qaror qabul qilishdagi kurashi va gender stereotiplari bilan to'qnashuvini tasvirlab, inson xarakteridagi jasorat va bardoshlilikni yoritadi.[2]

Ushbu maqolada har ikkala roman qahramonlari taqdirda inson omilining qanday namoyon bo'lishi, jamiyatdagi tarixiy-ijtimoiy muhitning inson hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Ayol obrazlari orqali yozuvchilar inson ruhiyatining murakkab jihatlarini, ijtimoiy bosim va tengsizlikning shaxsiy hayotga ko'rsatgan ta'sirini ochib beradilar. Bu ikki roman insoniy histuyg'ular, jamiyat va shaxs munosabatlarni tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot "Tess D'Urbervilles" va "Bonu" romanlaridagi tarixiy-ijtimoiy muhit hamda ayol qahramonlarning jamiyatdagi o'rmini o'rganish maqsadida taqqoslama-tahliliy, tarixiy, feministik, strukturaviy, va adabiy-komparativ metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi.

1. Taqqoslama-tahliliy metod – ushbu yondashuv orqali ikkala romandagi ayol qahramonlarning hayot yo'li, ijtimoiy bosim va gender tengligi bilan bog'liq muammolar taqqoslandi. Tess va Bonu obrazlari jamiyatning turli bosqichlaridagi ayollarning hayoti bilan bog'liq o'xhashlik va tafovutlarni aniqlash maqsadida tahlil qilindi.[3]

2. Tarixiy metod – har ikkala asarda tasvirlangan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari o'rganildi. Viktorian Angliya va mustaqillikdan keyingi O'zbekiston jamiyatlarining gender munosabatlari tahlil qilinib, asarlarning tarixiy kontekst bilan bog'liqligi ochib berildi.

3. Feministik metod – tadqiqot davomida patriarchal jamiyatlarda ayollar mavqeyining qanday tasvirlangani va mualliflarning gender masalalariga yondashuvi tahlil qilindi. Ayol qahramonlarning ijtimoiy cheklovlar, erkak hukmronligi va axloqiy me'yordarga qarshi kurashi feministik nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi.

4. Strukturaviy metod – romanlarning kompozitsion tuzilishi, syujet rivoji, qahramonlarning psixologik va ichki kechinmalari tahlil qilindi. Ayol qahramonlarning hayotidagi burilish nuqtalari va ularning shaxsiy rivojlanish jarayoni o'rganildi.[4]

5. Adabiy-komparativ metod – har ikkala romanning janr, mavzu va uslubiy xususiyatlari solishtirildi. Thomas Hardy va Iqbol Mirzoning badiiy uslubi, tasvirlash usullari va ijtimoiy tanqidga bo'lgan munosabati qiyosisi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida ushbu metodlar yordamida "Tess D'Urbervilles" va "Bonu" romanlarida aks etgan tarixiy-ijtimoiy muhit va ayol qahramonlarning jamiyatdagi o'mi haqida ilmiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Tess D'Urbervilles" va "Bonu" romanlari har xil tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda yaratilgan bo'lsa-da, ularda ayol qahramonlarning patriarchal jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy bosim bilan kurashi asosiy mavzu sifatida aks ettirilgan. Ikkala asar ham gender tengsizligi, ijtimoiy adolatsizlik va ayollarning shaxsiy erkinligi masalalariga mualliflarning tanqidiy munosabatini aks ettiradi.[5]

Feministik yondashuvning maqsadi: Feministik yondashuvning asosiy maqsadi ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tengligini ta'minlash hamda ayollarning ovozini adabiyot, san'at, siyosat va boshqa sohalarda eshitilishini ta'minlashdir.

U quyidagi savollarga javob izlaydi: Ayollar jamiyatda qanday tasvirlangan? Gender stereotiplari qaysi shakllarda namoyon bo'ladi? Ayollar huquqlari qanday cheklangan va bu adabiyotda qanday aks etgan? Erkak va ayol yozuvchilarning asarlari o'rtasida qanday farqlar bor?

Feministik yondashuvning asosiy tamoyillari a) Gender va jamiyat tahlili Feministik yondashuv erkaklar hukmronligidagi (patriarxal) jamiyatni tahlil qiladi va gender rollarining qanday shakllanganini o'rganadi. Ko'plab ijtimoiy tuzilmalar erkaklarning ustunligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ayollarni ikkinchi darajali mavqega tushirib qo'ygan.[6] Misol: Thomas Hardy romanlarida ayollar jamiyatning qat'iy me'yordari tomonidan cheklangan va qattiq jazolangan qahramonlar sifatida tasvirlanadi. "Tess D'Urbervilles" asarida Tess jamiyat tomonidan "axloqsiz" deb tamg'alanadi, garchi u begunoh bo'lsa ham.

b) Ayol ovozi va tajribasini tiklash. Ko'p asrlar davomida adabiyotda erkak mualliflar hukmronlik qilgan. Feministik yondashuv ayol yozuvchilarning asarlарини o'rganish, ularning tajribalarini tiklash va adabiyotdagi gender tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan. Misol:

O‘zbek adabiyotida Zulfiya, Uvaysiy va Nodira kabi shoiralar ayollarning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rnini va huquqlari haqida asarlar yozgan. Ularning ijodi feministlar tomonidan qayta o‘rganilib, ayol adabiyotining muhim qismi sifatida baholanmoqda.[7]

Natijalar va muhokama. Ayol qahramonlarning taqdiri va jamiyat ta’siri. “Tess D’Urbervilles” romanida Tess Viktorian jamiyatining qat’iy axloqiy me’yorlari va ayollarga nisbatan ikkiyuzlamachilik bilan yuzlashadi. U o‘z taqdirini o‘zgartirishga harakat qilgan bo‘lsa ham, jamiyatning qattiq qoidalari tufayli fojiali yakunga duch keladi. Thomas Hardy Tess obrazini ijtimoiy tizim qurboni sifatida gavdalantiradi. “Bonu” romanida esa bosh qahramon Bonu mustaqillikdan keyingi o‘zbek jamiyatida o‘z o‘rnini topish va mustaqil qaror qabul qilish uchun kurashadi. U gender stereotiplari va an’anaviy qadriyatlarga qarshi chiqib, zamonaviy ayol obrazini yaratadi. Iqbol Mirzo ayollarning jamiyatdagi roli va huquqlarini kengaytirish muhimligini ilgari suradi.[8]

Tahlilning zamonaviy ahamiyati. Tess va Bonu romanlaridagi ayol qahramonlarning hayoti va kechinmalari bugungi zamonaviy jamiyat uchun ham muhim dolzarb masalalarni o‘z ichiga oladi. Garchi ushbu romanlarda tasvirlangan voqealar turli tarixiy davrlarga tegishli bo‘lsa-da, ayollarning gender tengligi yo‘lidagi kurashi, ijtimoiy bosimlar va patriarchal tuzumga qarshi qiyinchiliklari bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda ayollar o‘z huquqlarini himoya qilishda ancha oldinga siljigan bo‘lsa-da, hali ham ayrim an’anaviy qarashlar, gender stereotiplari va ijtimoiy cheklovlar saqlanib qolgan. Tess obrazining o‘z taqdirini boshqarishga urinishlari va jamiyat tomonidan cheklanganligi bugungi kunda ham turli muhitlarda ayollarning duch keladigan muammolariga o‘xshashdir.[9] Xuddi shuningdek, Bonu obrazi esa zamonaviy ayollarning mustaqil qaror qabul qilishga intilishi va an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tendensiyalar o‘rtasida muvozanat topishiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ushbu asarlar bugungi jamiyat uchun quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

- **Gender tengligi va ayollar huquqlari** – Ayol qahramonlarning murakkab hayotiy sinovlari jamiyatda hali ham mayjud bo‘lgan tenglik muammolariga e’tiborni qaratadi.
- **An’anaviy va zamonaviy qadriyatlar to‘qnashushi** – Ayollar o‘z shaxsiy hayotida, oilada yoki jamiyatda mustaqil bo‘lish yo‘lida ba’zan ijtimoiy bosimlarga duch keladi.
- **Ayollar yetakchiligi va ijtimoiy faollik** – Bonu kabi qahramonlar zamonaviy ayollarga kuchli va faol pozitsiyada bo‘lish uchun ilhom beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Tess D’Urbervilles” va “Bonu” romanlari har xil tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda yaratilgan bo‘lsa-da, ularda ayol qahramonlarning patriarchal jamiyatdagi o‘rnini va ijtimoiy bosim bilan kurashi asosiy mavzu sifatida aks ettirilgan. Ikkala asar ham gender tengsizligi, ijtimoiy adolatsizlik va ayollarning shaxsiy erkinligi masalalariga mualliflarning tanqidiy munosabatini aks ettiradi.[10]

Tadqiqot natijalarini yanada aniqlashtirish: Xulosada Tess va Bonu obrazlari tahlilining asosiy xulosalari qisqacha va aniq berilgan. Biroq ularning farqli jihatlariga yana urg‘u berish maqsadga muvofiq. Masalan, Tess — qurbon sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Bonu — faol kurashuvchi sifatida namoyon bo‘lishi muhim tafovutdir. Bu orqali ayollarning o‘z jamiyatlaridagi roli yanada yaqqolroq ko‘rinadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: “Kelajakda adabiy tadqiqotlar davomida...” qismi juda muhim. Biroq bu fikrni yanada kuchaytirish uchun amaliy tavsiyalar berish foydali bo‘ladi. Masalan, ta’lim jarayonida Tess va Bonu obrazlari orqali gender masalalarini muhokama qilish uchun seminarlar, babs-munozaralar tashkil etish mumkinligi taklif etilishi mumkin.

Feministik tahlilning rolini kuchaytirish: Xulosada feministik yondashuvning mohiyati yaxshi ochib berilgan, lekin ushbu metodning tadqiqotga qo‘sghan yangiligi va hissasi yanada ta’kidlanishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbliji: Gender tengligi masalalarining bugungi kun uchun dolzarbligini qayd etib, bu mavzu jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda qanday ahamiyatga ega ekaniga ishora qilish maqolaning ta’sirchanligini oshiradi.[11]

Ushbu maqolada “Tess D’Urbervilles” va “Bonu” romanlarida tasvirlangan tarixiy-

ijtimoiy muhit hamda ayol qahramonlarning o'rni feministik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ikkala romanda ham ayollar jamiyatning qat'iy axloqiy me'yorlari, gender tengsizliklari va patriarchal tuzum ta'sirida qiyin sinovlarga duch keladi. Thomas Hardy ijodidagi Tess obrazi ijtimoiy tengsizlik qurban bo'lib, jamiyatning qattiq qoidalariga bo'ysunishga majbur bo'lgan ayol qiyofasini aks ettiradi. U o'z taqdirini boshqarishga urinsa ham, patriarchal tizim unga imkon bermaydi.[12] Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida esa bosh qahramon an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda faol kurashuvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Bu qahramon ayollarning o'z huquqlarini anglash va mustaqil qarorlar qabul qilish yo'lidagi harakatlarini ifodalaydi. Feministik yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, adabiyotda ayol obrazlarini o'rganish nafaqat ularning o'z davridagi o'rnini aniqlashga, balki jamiyatda gender tengligini anglashga ham xizmat qiladi. Ushbu romanlarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati har bir tarixiy bosqichda turlicha bo'lsa ham, asosiy muammolar o'xshashligicha qolmoqda. Kelajakda adabiy tadqiqotlar davomida feministik yondashuvni kengroq qo'llash, turli adabiy asarlardagi ayol qahramonlarning rivojlanishini chuqur tahlil qilish hamda gender tengligi masalalarini yanada keng yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hardy, T. (1891). *Tess of the d'Urbervilles*. London: James R. Osgood, McIlvaine & Co.
2. Mirzo, I. (2020). Bonu. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Showalter, E. (1977). *A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing*. Princeton: Princeton University Press.
4. Eagleton, T. (2005). *The English Novel: An Introduction*. Malden, MA: Blackwell Publishing.
5. Ahmadaliyeva, M. (2018). "O'zbek adabiyotida ayol qiyofasi va gender masalalari." O'zbek tili va adabiyoti, 3(78), 112–120.
6. Saidova, D. (2021). "Adabiyot va jamiyat: Gender stereotiplarning badiiy talqini." *Filologiya va madaniyat jurnali*, 2(45), 89–97.
7. Chodorow, N. (1978). *The Reproduction of Mothering: Psychoanalysis and the Sociology of Gender*. Berkeley: University of California Press.
8. Hamzayeva, Z. (2024, May). TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHNING ILG'OR USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 34-36).
9. Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN'S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY'S WORKS. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(57), 344-347.
10. Kurbonova, S. (2025). AN EXAMINATION OF DISCONTENT IDENTITY AND THE QUEST FOR MEANING IN POST-WAR LITERATURE OF THE LOST GENERATION. B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (T. 4, Выпуск 5, cc. 36–39).
11. Shukurova, S. (2025). THE CONTRIBUTIONS OF VICTOR HUGO (FRENCH NOVELIST) AND JULIA KRISTEVA (BULGARIAN-FRENCH PSYCHOANALYST) TO THE EXPLORATION OF DESPAIR AND SUICIDE IN LITERATURE. B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (T. 4, Выпуск 5, cc. 101–103).
12. Shukurova, S. (2025). THE INTERCONNECTION OF SOCIAL ISOLATION AND SUICIDE IN WORLD LITERATURE. B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (T. 4, Выпуск 5, cc. 95–100)

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA URF-ODATLARNING BADIY TALQINI

Jumanazarova Rayxon Jaloliddinovna

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

rayxonjumanazarova3@gmail.com

ORCID 0009-0007-8129-0239

UDK 894.375-1 (045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining iste'dodli vakili Halima Ahmedova ijodiy faoliyati tahlilga tortilgan. O'zbek xalqining milliy urf-odatlari va an'analarini she'riyatdagi aksi tahlil qilinadi. Jumladan, shoira Halima Ahmedova ijodida borliq rang-baranglik, yashillik, tinchlik, milliy an'analar orqali ifodalangani o'rganilgan. O'zbek xalqining boy adabiy merosi, urf-odatlari, qadriyatlarini she'riy asarlardagi ifodasi ko'rsatiladi. She'riy asarlarda ham xalqni tarbiyalsh, mehnat va do'stlik, milliy bayramlar va turli marosimlar kabi an'anaviy qadriyatlar ko'rinish topadi. Bu maqolada o'zbek she'riyatidagi milliy urf-odatlarning tasvirlanishi, ularga berilgan ma'no va ular orqali milliylik, shuningdek, adabiy ifoda vositalari ko'rib chiqiladi. Urf-odatlar va an'analarning she'riy asarlarda ishlatalishi o'zbek poeziyasining o'ziga xos xususiyatlarini, xalqning ruhiyati va madaniy merosini qanday saqlagani yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: milliy urf-odatlар, yashillik, o'zbek poeziysi, xalq ruhiyati, adabiy ifoda, she'riy asar, lapar, kashta, chanqovuz, milliylik, mehmondo'stlik, ishq, ko'ngil, mehnat va do'stlik.

POETIC RERRESENTATION OF UZBEK CUSTOMS AND TRADITIONS IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

Abstract. This article analyzes the creative activity of the talented representative of Uzbek poetry, Halima Ahmedova. In particular, it was studied that the work of the poet Halima Ahmedova expresses existence through color, greenery, peace, and national traditions. The reflection of the national customs and traditions of the Uzbek people in poetry is analyzed. The rich literary heritage, customs, and values of the Uzbek people are expressed in poetic works. Poetic works also reflect traditional values such as the upbringing of the people, labor and friendship, national holidays, and various ceremonies. This article examines the description of national customs in Uzbek poetry, the meaning given to them, and through them, nationalism, as well as the means of literary expression. The use of customs and traditions in poetic works highlights the unique features of Uzbek poetry, how it preserves the spirit and cultural heritage of the people.

Keywords: national traditions, greenery, Uzbek poetry, folk spirit, literary expression, poetic work, lapar, embroidery, chanqovuz, nationality, hospitality, love, heart, work and friendship.

Kirish. Milliy urf-odatlar – millatning turmush tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida o‘z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar ko‘rinishidir. Milliy urf-odatlar bizning xalqimizda o‘ziga xos o‘zbekona tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Milliy urf-odatlar alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi. Masalan, o‘zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supurib-sidirib, mehmonlarga alohida izzat-ikrom ko‘rsatish, bayram arafasida betob va qynalganlar, yordamga muhtojlar, qariyalar holidan xabar olish shular jumlasidandir.

Milliy urf-odatlar millatning, elat va etnik guruhlarning o‘ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyat. Masalan, millatimizga xos bo‘lgan qudachilik urf-odatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, beshik u bilan bog‘liq urf-odatlar milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan.

Mavzuga oid asarlar tahlili. Hozirga qadar adabiyotshunoslikda, yangi o‘zbek adabiyotida o‘zbek milliy urf-odatlari va an’analari, o‘zbek xalqining boy adabiy me’rosi, urf-odatlari, qadriyatları tahlil qilinadi. She’riy asarlarda ham xalqni tarbiyalash, mehnat va do’stlik, milliy bayramlar va turli marosimlar kabi an’anaviy qadriyatlar ko‘rinish topishi alohida urg‘u berilib kelingan. Yangi o‘zbek she’riyatidagi folklorizm va remenissensiya hodisalari adabiy ta’sirlanish omillarini tadqiq etish Halima Ahmedova she’riyatida ko‘pgina badiiy xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Zero, shoira she’riyatidagi remenissensiya hodisalarining yuzaga kelishi bir-biriga yaqinligi, ayni damda “Erk darichasi” va “Tiyramoh” she’riy kitoblariga nisbatan “Yashil” kitobida ham folklorizm va remenissensiya hodisalarining tarkibi an’anaviy yo‘sindagi ko‘rinishlari bilan ajralib turadi. Halima Ahmedova she’riyatida turli syujet tiplarining almashib kelishi, ba’zida muallifning syujet tiplaridan o‘z she’riyatida uyg‘un holda qo‘llash hodisasi ushbu nazariy tushuncha modifikatsiyasi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqlada ko‘tarilgan muammoni ochib berishda zamonaviy o‘zbek she’riyatida folklorizm va remenissensiya hodisalari borliq, rang-baranglik, yashillik, tinchlik, inson va tabiat uyg‘unligi, milliylik, urf-odatlar yashillik orqali ifodalangani yoritib beriladi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar, an’analari o‘zbek adabiyotida ko‘p uchraydi. Xususan, Halima Ahmedova ijodini kuzatar ekanmiz, shoira tilidan aytilgan har bir so‘zda o‘zgacha ma’no borligini his qilamiz. Shoira ijodi haqida filologiya fanlari doktori, professor No‘monjon Rahimjonov shunday yozadilar:

Boqaman to‘rt yonda sening nigohing,
Anjir gullariday sirli, maftunkor.
Aytgin, nima uchun, ne uchun axir
Ming yilki, jonimda erimaydi qor?

E’tibor bersak, ilohiy nigohdan yuzaga kelgan qadriyatlar (yorug‘lik, mehr, oqibat) go‘zalliklar bunyodkori sifatida voqe bo‘layotir. Go‘zallik estetik qadriyatlar shaklida zuhur topayotganligi uchun ham najib. Rangning ma’no jilvalari asl go‘zallik tusini olayotir. U esa,

o‘z navbatida haqiqatga aylanadi. Ya’ni haqiqatning hamisha haqligini tasdiqlayotir [1;13-bet].

Iqtidorli shoira Halima Ahmedovaning ijodiy izlanishlari, badiiy- estetik tajribasi fikr yuritish uchun keng imkoniyatlar beradi.

Kel, birga ko‘ngilning tomorqasida,
Undiraylik mehr degan maysalarni.

Ushbu satr ramziy va lirik obrazlarga boy. Shoira inson qalbini “tomorqa”ga, ya’ni hayotning quyuq va serhosil bir joyiga qiyos qiladi. Bu metafora ko‘ngilni parvarish qilish kerak bo‘lgan joy, mehr esa undan unib chiqadigan o‘simlik sifatida ifodalangan. “Ko‘nlimning tomorqasi” –bu yerda shoira o‘z qalbini tabiat bilan bog‘liq obraz orqali tasvirlaydi. Tomorqa – inson mehrini, e’tiborini talab qiladigan joy. Bu qalbning samimiyl, mehrga ochiq ekanini ko‘rsatadi. “Undiraylik mehr degan maysalarni” – “mehr” bu yerda maysa tarzida ifodalangan. Maysa – nozik, lekin yasharuvchi kuchga ega o‘simlik. Bu mehr-muhabbatning go‘zalligi, uni birgalikda parvarish qilish g‘oyasini ifodalaydi. “Undiraylik” fe’li orqali muallif birgalikda harakat qilish, hamkorlikda yurakdan joy ochish fikrini ilgari suradi. Shoira o‘zbek urf-odatlaridagi mehr-oqibat, hamjihatlik, ko‘ngilparvarlik kabi qadriyatlarni zamonaviy badiiy obrazlar orqali ifoda etgan. Yoki boshqa bir she’rida:

Endi ko‘zlaringga in qurmoq uchun,
Sendan izn so‘rar tanish qaldirg‘och.
Ko‘zlarnga kuylashni o‘rgansin undan,
Kipriging ustida bola ochsin shod.

Shoira bu yerda qalb ko‘zgusi sifatida “ko‘z” obrazini markazga olib chiqadi. Qaldirg‘och – o‘zbek adabiyotida odatda sadoqat, go‘zallik, muhabbat timsoli bo‘lib kelgan. Uning ko‘zlarda in qurmoqchi bo‘lishi – bu go‘zallik va muhabbatning qalbga yaqinlashishi, ruhiy poklikka intilishini bildiradi. “Sendan izn so‘rar” iborasi esa o‘zbek urf-odatlaridagi odob, rozilik olish, ya’ni hurmat va muomala madaniyatini eslatadi. “Kipriging ostida bola ochsin shod” ifodasi esa ona bag‘rining iliqligi, ko‘z qorachig‘idek asrash va o‘zbek madaniyatida bolaga bo‘lgan mehrning naqadar muqaddas ekanini ramziy tarzda ochib beradi.

Har yili erta bahorda har bir o‘zbek xonadoniga qaldirg‘ochlar uchib kelishi, in qurishi, bola ochishi tabiiy hol. Shu o‘rinda shoiraning qaldirg‘och bilan bog‘liq xotiralarini esga olamiz. Nazarimda, o‘shanda quyoshga juda yaqin edik. Bahor kela solib, bobom yashaydigan uyning tomiga qizg‘aldoq ekardi. Ko‘p o‘tmay qizg‘aldoqlar bir quchoq bo‘lib tom ustida alangalanardi.

Qizg‘aldoqlar qaldirg‘ochlarni chaqiradi, qizim, bilmasang, bilib ol!
Men esa gapning tagiga yetmaguncha qo‘ymasdim:
— Qaldirg‘ochlar kelsa, nima bo‘ladi?
Onam ko‘zlarida bahorning rangidan sachragan shodlik porlab ketardi:

— Qaldirg‘ochlarmi? Ular kelsa, rizq keladi, mehr keladi...

Onam qaldirg‘och so‘zini shunday muhabbat bilan aytardiki, bu onaning farzandiga bo‘lgan mehriga o‘xshab ketardi. Yozin-qishin uyimiz derazasining bir oynasi olingan turardi. Onamning aytishicha, qaldirg‘ochlar yopiq derazali uylarni xush ko‘rmas ekan. Hamma uyimizda qaldirg‘ochlarning uyasi bo‘lardi. Qish kunlari onam ularga tashna sog‘inch bilan qarab-qarab qo‘yardi.

Qaldirg‘ochu-qaldirg‘och,
Qanoting boshimga toj...

Bahorda qaldirg‘ochlar hovli ustida charx urgan kezlar dunyoda o‘sha hovli sohibasidan baxtiyor inson yo‘qdek tasvirlanadi. Nazarimizda, qaldirg‘ochlar ham shu uying egalarini yaxshi ko‘radi. Va ularning boshidan aylanib-aylanib uchadi. Insonlar esa xursandligidan baxshiga aylanadi.

U xokisor hamda o‘chmas alanga,
Nur sochishga kelgan xalqning diliga.
Har maysa yonida xayolga tolib,
Borliqqa o‘rgatar uning shevasin.

Xokisor va o‘chmas alanga sifatida yurtimiz uzra porlab turgan quyosh va uning zarrin

nuri aks ettiriladi. Quyosh nuri har bir o'zbek farzandining ko'ngliga nur bilan birga mehr urug'ini ham qadaydi. Bu mehr yurtga bo'lgan muhabbat mehridir. O'zbek millatining o'ziga xos shevasi orqali aytigan yalla-yu laparlarini, xalq og'zaki ijodini, o'lanlarini, maqollarini butun olamga, borliqqa tanitadi. Bu misralar orqali shoiraning jamiyat uchun qilgan ezguliklarini, qalb tozaligini, adabiyot ichra sa'y-harakatlarini, chinakam ijodkorlik mehnatini ko'rganday bo'lamiz.

Yo'laklarda asta-asta odimlab shodlik,
Jarchi bo'lib tarqatadi to'yning nomasin.
Daraxtlarga o'rgatadi mumtoz shamollar,
O'zbekcha kuy, ohang bilan baxt taronasin.[2;32-bet].

Bu satrlarda o'zbek xonadonida to'yning xabarini yetkazuvchi jarchi shodlik ulashuvchi ya'ni shodlik olib keliuvchi deya ta'rif beriladi. Ohista shamollar ila tebranayotgan shamollar esa o'zbek mumtoz kuyining chalg'uchilariga qiyos qilinadi. Kuydagi ohang qalbni larzaga soladi. Tinglash mobaynida inson kayfiyatida ba'zan hazinlik, goho jo'shqinlik seziladi. Shuning uchun ushbu satrlar orqali shoira kuyni, ohangni samolarga parvoz qiluvchi qushga, tinchlik elchisiga qiyos etadi.

Kelin bo'lib tushar omad har xonadonga,
Belbog'iga yangi kunning orzusin tugib,
Keksalari borishadi yayrab mehmonga.[3;32-bet].

Har bir xonadonning omadi, fayzi sifatida o'zbek qizlarining kelin bo'lib tushishi, o'zi bilan yangi orzular, umidlar bilan borishi, o'zbek xalqining mehmondo'stlik xususiyatini ko'rsata oladi.

Men tunlarning sig'mayapman bag'rige,
Yulduz kabi ketgum kelar ushalib.
Ona, yana qancha kunni o'tkazgum,
Yig'layotgan ko'zlarimni yashirib.

Ko'nglimda tiklangan manzaradan xushbaxtlanaman. Va hech kimga sezdirmay davrani tark etaman. Yo'l bo'yi osmonni to'ldirgan yulduzlar meni ta'qib qiladi. Ularning shiviri-shiviri juda yaqindan eshitiladi. Ammo ularga parvo qilmayman. Axir, men tongni kutishga ketayapman.

Yo'limni qandaydir qora, daydi mushuk kesib o'tadi. Taqqa to'xtayman. Irimga ishonmasam-da yo'lni aylanib o'tmoqchi bo'laman. Ammo oldinda tong borligi esimga tushib mardona qadam tashlayman...Cho'lpon yulduzi kiprigimga qo'nganda uyg'onaman. O'zbekcha tong onamga o'xshab ketadi. Onamning kashtali ko'ylagini kiyib keladi. Derazadan sirg'alib kiradi-yu ko'zlarimga sog'inch bilan tikiladi. Tongni to'yib-to'yib hidlayman. Undan vatanimning, vatanimdan esa onamning xushbo'y hidi keladi.[4;67-bet].

Qishlog'im yonimga qaytganday bo'lar,
Tonglar sibizg'asin chalayotgan payt[5;56-bet].

Ushbu satrlar orqali shoira qishloqning qadim an'analari, sibizg'a-yu, kuylari haqida ifoda etiladi. O'zbek xalqining urf-odatlari aks ettirladi. Ya'ni, bugunimizda ham qadim urf-odatlarimiz, lapar-u yallalarimiz ham tinchlik ramzi ekanligi ifodalanadi. Shoira o'z mahorati, so'z boyligi bilan qadim an'analarni bugungi zamonaviy she'riyatda ko'rsatib bera olgan.

Kel, birga ko'ngilning tomorqasida,
Undiraylik mehr degan maysani[6;42 bet].
O'zbek xalqining qadim an'analardan biri maysa o'stirib, sumalaklar tayyorlanishi, ushbu satrlarda o'z aksini topadi.

Bir kuni soatni aldayman,
Mehrobga tekkizib qoshimni.
O'tmishdan qaytarib olaman
Chiroyli o'n sakkiz yoshimni[7; 49 bet].

Shoira she'rlarida yana milliy urf odatlarmizdan qizlarning qoshlariga o'sma qo'yishlari, surmalari ham mana shu satrlar orqali ifodalanadi.

Esingdami, qishloq, bolalik....

Paxsa devorni

Ot qilib mingancha kuylardi har kun[8; 56 bet].

Qishloq hayotida bolalarning cho‘pdan ot qilib yugurishgani-yu, paxsa devorni ot qilib o‘ynashgan holatlar ham shoira she’rlarida o‘z aksini topgan.

...Mana, bolaligim kechgan hovli,

Sodiq daraxtlar,

Ertaklari o‘ynab oqqan suluv ariqcha...

Entikkancha salom deyman bari, bariga,

Non yopadi onam yozning saratonida[9; 84 bet].

Bolalikdagi yashagan hovli va hovlida necha yillardan buyon bo‘y cho‘zib o‘sayotgan daraxtlar esa sodiq va vafodor timsol sifatida gavdalantiriladi. Yozning issiq saratonida Ayolning tandir atrofida o‘ralashib, non yopish holati uning haqiqiy o‘zbek ayoliga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bera oladi.

Xulosa va takliflar. Insonning hayoti quvonch-u tashvishlardan iborat. Buni qalbdan his qilgan iste’dodli shoira Halima Ahmedova o‘z she’rlarida insonning ko‘ngil kechinmalariga murojaat etadi. Shoiraning she’rlari o‘zining ma’nodorligi, ohangdorligi, ravanligi va badiiy jihatidan mukammalligi bilan ajralib turadi. Shoira nafaqat o‘zining, balki ko‘pchilik she’riyat muxlislarining ko‘ngil mulkiga aylangan ijod namunalari uchun keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Olam sir-u sinoatga qanchalik boy bo‘lsa, odamzod ruhiy dunyosi ham shunchalik murakkab va chegarasiz. Mana shu murakkablik va cheksizlik manzaralari ham rangindir. Shuning uchun haqiqiy shoir o‘zini inson qalbi va ruhining muhofizi, musavviri deb his qiladi. Uni har qanday qo‘pol, tashqi ta’sirlardan himoya qilish uchun kurashadi. Inson ko‘ngli va ruhiy hayotini tadqiq etgan ijodkorlar, sirdan qaralganda, tashqi voqelikdan yiroqlashganday ko‘rinadi. Aslida esa, tashqi dunyoning ko‘p muammolarini inson farzandining qalbiga yo‘l topish, ruhini anglash orqali hal etiladi. Inson ruhiyati yechilmas jumboq. Hech qanday fan hali uni to‘liq tasvirlay olmagan. Badiiy ijodning o‘ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri – uning inson ichki olamidagi qorong‘u va mavhum tilsimlarni ochish qobiliyatidir. Halima Ahmedova ana shu jihatni yanada boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova H. Erk darichasi. Adabiyot va san’at, 1996,4-bet.
2. Ahmedova H. Tiyramoh. Adabiyot va san’at, 2005, 8-bet.
3. Ahmedova H. Tiyramoh. Adabiyot va san’at, 2011,56-bet.
4. “Kitob dunyosi” gazetasi veb-sahifasi.
5. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2014 yil 6-son, 6-bet.
6. Abdusalomova D. V. Halima Ahmedova she’rlarida tuyg‘ular isyonи va tabiat hodisalarining mutanosibligi. // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2016, 12-bet.
7. Abdusalomova Durdonaxon Valilullo qizi. Halima Ahmedova she’rlarida tabiat tasviri. – Toshkent, 2016. 7-bet.
8. Ahmedova H. Yashil. – T.:O‘zbekiston, 2016,137-bet.
9. “Kitob dunyosi” gazetasi veb-sahifasi.
10. Rahimjonov N. Badiiy kashfiyotlar tongi, (maqola) 2016, 7-bet.
11. Ahmedova H. Umid soyasi. – T.: Nihol, 2008, 68-bet.
12. Ahmedova H. Erk darichasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 6-bet.
13. 4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: 1994, 97-bet.
14. Salohiy D. Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili (g‘azallar matnlarining qiyosiy tahlili asosida). – fil.fanl.dokt... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2001,8-bet.
15. Ковалёв А. Психология литературного творчества. – Л.: Изд-во Ленинградского государственного университета, 1960. 136 с.; Цейтлин А.Г. Труд писателя. Вопросы психологии творчества, культуры и техники писательского труда. – М.: Советский писатель, 1962. – 43 с.

HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA SYUJET TRANSFORMATSIYASI
Sultonova Nilufar Narzullayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Qarshi davlat universiteti

sultonovanilufar14@gmail.com

ORCID 0009-0003-1007-9547

UDK 893.275:808(054)

Annotatsiya Mazkur maqola modifikatsiyaning badiiylik mezonlari, uning adabiyotimizdag'i o'ziga xosligini adabiy asarlar orqali tahlil etadi. Modifikatsiyaning keng ko'lamli estetik hodisa ekanligi va u adabiy ta'sir va an'analarga estetik munosabatdan kelib chiqishi, davr va shu davr o'quvchisining ehtiyojiga qarab an'anaviy shakllarining o'zgarishga uchrashini isbotlaydi. Modifikatsiya hodisasining yana bir sababi adabiy jarayondagi estetik mezonlarning o'zgarishi, ijodkorlarning adabiyotga boshqacha nuqtayi nazar bilan qaray boshlashini bunda shakl o'zgarishiga uchragan har bir badiiy komponent yoki bir butun adabiy janrning o'zi muallif ijodiy individualligining estetik belgisi sifatida voqe bo'lishini tahlil etadi. O'zbek adabiyotshunosligi va dunyo adabiyotida mavjud bo'lgan xronikal syujet, konsentrifik syujet, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet asosida Isajon Sulton romanlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: obraz, modus, modifikatsiya, ekzistensializm, absurd, qahramon, atribut, shaxs fojiasi.

THE TRANSFORMATION OF PLOT IN CONTEMPORARY UZBEK PROSE

Abstract. This article analyzes the artistic criteria of modification and its distinctiveness in our literature through literary works. It proves that modification is wide-ranging aesthetic phenomenon that arises from the aesthetic relationship to literary influence and traditions, and that the traditional forms undergo change according to the needs of the era and its readers. Another reason for the phenomenon of modification is the change in aesthetic criteria within the literary process, where creators begin to look at literature from a different perspective, and in this process, every artistic component or a whole literary genre, which undergoes a change in form, becomes a sign of the author's creative individuality as an aesthetic marker.

Keywords: image, modus, modification, existentialism, absurd, hero, attribute, personal tragedy.

Kirish. Har qanday epik asarda voqe-a-hodisalar bayoni va umuman, badiiy asar strukturasida syujet o'ziga xos o'rinn tutadi. Har bir davrda badiiy asar mazmuni nisbatan o'zgaruvchan bo'lsa ham, shakliy jihatlar syujet strukturasi nisbatan asta o'zgaradi. Ammo badiiy asar syujeti turlicha uslublarda berilishini tabiiy hol deb qarash kerak. Bu masalada ustoz adabiyotshunos Damin To'rayev: "Hozirgi o'zbek nasrida syujet poetikasi" tadqiqotida: "So'nggi yillard milliy nasrimiz taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri ijodiy jarayonda yuzaga kelgan erkinlik natijasida mavzular doirasining kengayganligi, badiiy asarlar syujeti xalqimizning turfa xil psixologik kechinmalar tasviridagi turlicha uslublarda berilayotganidadir" [1;24-b], deb juda o'rinni ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, ijoddagi erkinlik, mavzuga ham, uslub va syujetga ham o'z ijodiy ta'sirini o'tkazdi. Shunga ko'ra, romanlar syujeti tabiatini bugungi kunda yangicha nuqtayi nazardan tekshirishga zarurat bor.

Mavzuga oid asarlar tahlili. Hozirga qadar adabiyotshunoslikda alohida urg'u berilib kelingan syujet unsurlari asosida nasriy asarlarni o'rganish, syujetdagi modifikatsion hodisaga baho berish hamda adabiy ta'sirlanish omillarini tadqiq etish Isajon Sulton romanlarining ko'pgina badiiy xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Zero, adib romanlaridagi syujet qurilishi bir-biriga yaqinligi, ayni damda "Boqiy darbadar" va "Ozod" romanlariga nisbatan "Genetik" romanida syujet tarkibi aralash va an'anaviy yo'sindagi ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Isajon Sulton romanlarida turli syujet tiplarining almashib kelishi, ba'zida muallifning syujet tiplaridan o'z romanlarida uyg'un holda qo'llash hodisasi ushbu nazariy tushuncha modifikatsiyasi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ko'tarilgan muammoni ochib berishda zamonaviy nasriy asarlarda sotsioantropoligik dominantlik subyektning jamiyatdagi kurashuvchan va taniqli shaxslar, badiiy asarlardagi tipik obrazlar orasidan tanlangani, shuningdek, unda gender munosabatlar ifodalangani biografik, analitik, tarixiy-tipologik, psixanalitik usullardan foydalangan holda yoritib beriladi.

Natijalar va muhokama. Ma'lumki, o'zbek adabiyotshunoslari dunyo adabiyotida mavjud bo'lgan adabiy syujetlarni nazariy jihatdan muhokama qilib, ularning xronikal syujet,

konsentrik syujet, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet kabi turlarini alohida ta'kidlab ko'rsatganlar.[2;44-b] Xronikal syujet asosida yozilgan romanlarda voqealik ketma-ket, yil va sanalarning markaziy obraz hayotining o'tishiga mos ravishda bayon qilinadi. Bunga Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Oybekning "Navoiy", Pirimqul Qodirovning "Bobur" kabi romanlarini misol qilib keltirish o'rinnidir. Konsentrik syujet asosiga qurilgan romanlarda voqea-hodisalar o'zaro qandaydir ichki sabab va oqibat bilan bog'lanadi. Bunda hodisalar biri ikkinchisini talab qiladi. Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz", Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari bunga misol bo'la oladi. Agar nasriy asar syujetiga retrospeksiya asos bo'lsa, bunday romanlarda "chechinish", "ortga qaytish" yuz beradi. Bu tipdagi syujet asosida yozilgan romanlarga Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", Asqad Muxturning "Chinor", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Assotsiativ syujet tizimi bevosita ruhiy po'rtanalar bilan bog'liq bo'lib, bunday asarlarda beixtiyor xayolga tolish, nimanidir eslab qolish natijasida qahramonlar tabiatida yuz bergan ruhiy kechinmalar asosiy o'ringa chiqadi. Murod Muhammad Do'sting "Lolazor", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" kabi romanlari shu tipga misol bo'la oladi. Isajon Sulton romanlaridagi syujet modifikatsiyasi masalasi o'rganilar ekan, uning romanlarida syujet tiplarining o'zaro uyg'un kelishi ko'zga tashlanadi. Xususan, shu modifikatsion uyg'unlik e'tiboridan "Genetik" romani alohida ajralib turadi. Roman voqealarining bayonida roviy asarning syujet chizig'idagi hodisalarni xronikal tarzda hikoya qilayotgan bo'lsa ham, ora-orada chekinadi – retrospeksion yo'singa murojaat qiladi. Shunday vaziyatlar borki, birorta so'z yoki voqea munosabati bilan romanning syujet chig'izi assotsiatsiya ta'sirida boshqa yo'naliшgа buriladi. Roman matnida biror so'z, hodisa yoki ism vositasida assotsiatsiyaga berilish holatlariga juda asosli va o'rinni misollar uchraydi. Romanda Sofiya xola obrazining berilishi, shu ayolning taqdiri, kelinlik paytlari, hayot tashvishlariga ko'milgan pallalari, shuningdek, keksalikdagi hayoti ham tasvirlanadi. Yozuvchi shu obrazni voqealar orasiga olib kirishda syujetning xayolga berilish, ortga chekinishi – retrospeksiya va assotsiatsiya tipidan unumli foydalanadi. Adib o'z asarida Sofiya xolani tilga olishga hozirlik ko'rib tabiat unsuri – osmonda nur sochayotgan Oy xususida shunday yozadi: "U maskan uzra tunlari yog'dulangan Oymomo – faqat shu joylarning momosi. O'zga makonlarda Oy bunaqa ko'rinnmaydi, nomiyam momo emas, deydilar. Tog' orasidan qalqqan yoki adoqsiz sahrolarning Oyi butunlay boshqa ko'rinishga ega emish. Dov-daraxt isi anqigan kechalarda, tutlar-u teraklar ortidan havolangan o'zimizning oy juda aziz.

Tavba, Oy desam, xayolimda Sofiya xolam jonlanadi. Nihoyatda beozor, qalbi yorug'likka to'la mushtipar xotin edi. Sofiya xolam desam, yuksaklarda yog'du sochgan ajoyib Oymomo yodga keladi"[3;25-b]. Romanda Oymomo bilan Sofiya xola obraqi o'zaro yonma-yon parallel tasvirlanadi. Adib ba'zan o'z qahramonini nafosat va beg'uborlik ramziga uyg'un tasvirlashni istagan mahalda Oyni esga oladi va Oyga qiyoslaydi. Aslida, har bir adib o'ziga xos bir olam, o'z estetik qiyofasiga ega ijodkor boshqadan ta'sirlanishi mumkin, ammo uni takrorlamaydi. Roman tarkibidagi turli komponentlar ham shu ijodkorning adabiy-estetik tamoyillarini namoyish etadi. Adabiyotshunos olima Zulfiya Pardayeva romanga xos muhim bir masalaga juda o'rinni urg'u beradi: "Roman janrining yana bir e'tiborga molik jihatni shundaki, janrga xos bo'lgan badiiy komponentlar har bir romanda o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi".[4;9-b] Jumladan, Isajon Sulton romanlaridagi adabiy-nazariy komponentlar ham o'ziga xoslikka ega.

"Genetik" romanida "Sofiya xolam" degan sarlavhali maxsus bo'lim bor. Tabiiyki, roman syujet va kompozitsiyasidan o'rinni olgan, ayniqla, maxsus sarlavhaga chiqqan obraz yoki joy nomi roman strukturasida nisabatan kengroq tafsiloti bilan tasvirlanishi, asarning markaziga qo'yilgan masala bilan ham puxta bog'langan bo'lishi lozim. Bunday poetik usul, dunyo adabiyoti, o'zbek romanchiligi tarixida ham mavjud. Masalan, Mixail Bulgakov o'zining "Usta va Margarita" romanining birinchi qismida "Pontiy Pilat"ni, ikkinchi qismida "Margarita"ni ichkarida kichik sarlavhaga olib chiqadi. Romanda har ikki qahramonga yetarlicha tavsif beriladi. Shu bilan birga, voqealar o'sha qahramonlar ishtirokida yoki ularning ruhiy-psixologik muhitida yuz beradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "Otabek Yusufbek hoji o'g'li", "Yusufbek hoji" "Xushro'ybibi va Zaynab" kabi

fasllar bor. Bevosita fasllarning joy nomlari bilan atalganini Pirimqul Qodirovning “Yulduz tunlar” romanida “Quva”, “Samarqand”, “Kobul” tarzida berilishi va ular ham raqamlar bilan boblarga ajratilgan tarkibi kuzatiladi. Shunga mos ravishda “Genetik” romanida ma’lum bir bo‘limlar “Sofiya xolam”, “Ubay aka”, “Do’st”, “Ustoz” tarzida nomlanadi. Bunday unsurlar ustida fikrlaganda, Isajon Sultonning dunyo romanchiligi va ayniqsa, o‘zigacha bo‘lgan ustoz o‘zbek adiblarining romanchilikdagi tajribalarini puxta o‘rgangani ma’lum bo‘ladi. Aslida, har qanday sarlavhaga chiqqin kishi yoki joy nomlari roman syujetida qandaydir vazifani bajarishi shart. Shu e’tibordan roman syujetida asosiy o‘rinda turadigan Sofiya xola obrazi “Sofiya xolam” faslida ancha bat afsil beriladi: “Sofiya xolam – esini tanib-tanimasdan tur mushga chiqqan qishloq ayoli edi. Danakdayligidan onasining yoniga kirib mitti mushtchalari bilan xamir qorgan, hovli supurgan, tomorqada o‘t yulgan, sigir-ko‘ylarga qaragan, qishning sovuqlarida o‘tin ko‘tarib sandalga olov qalagan … shu mehnatlарaro bir kuni kelin bo‘lishni, keng-mo‘l, issiq uuda bolalarini katta qilishni orzulagan bo‘lsa ajabmas.

Men esimni taniganimda esa kap-katta xotinga aylangan, birinchi tur mushi buzilib, eri qiz tuqqani uchun haydab yuborgach, oradan qanchadir vaqt o‘tib, yoshi ancha katta boshqa bir odamga tur mushga chiqqan edi” (O’sha manba, 264-265-betlar). Romanga olib kirilgan har bir obraz o‘z qiyofasiga ega bo‘lishi, o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb etishi va umuman, ijodkorning g‘oyaviy pozitsiyasi uchun yordam berishi lozim bo‘ladi. “Genetik”da Sofiya xolaning tur mush tarzini bayon qilish, umr yo‘llariga bir sidra nazar solishdan maqsad o‘zbek ayolining yaqin o‘tmishda boshidan kechirgan tashvishlarini, bir xillikda o‘tgan umrini tasvirlashdir. Ayni damda bir inson umrining naqadar mehnat-mashaqqatlar bilan o‘tganini tasvirlash ham adib uchun muhim bo‘lgan. Roman qahramoni boshidan kechirganlarini eslab, bayon qilar ekan, ulg‘aygandan keyingi mahallarda ham Sofiya xolasini esidan chiqarmaydi. “Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga o‘xshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turg‘unniso, Xosiyat, Nazira, Ibot… bo‘lib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yo‘q, umrini dalada dehqonchilik bilan o‘tkazgan buvam qaydan topib qo‘ya qolgan ekan? Tabiiyki, ma’nosini ham bilmasdum. Ayol ismiga “oy” yoki “xon” qo‘sib aytligani uchun, xolamni hamma “Sofiyaxon” yoki “Sofiyaoy” deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon “Sapiya”ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga ko‘proq yoqqani uchun, tungi bulutlar orasidan ko‘ringan xayoliy to‘lin oy manzarasini yodimga soladi”[1;266-b]. Oy manzarasidan tashqari Sofiya xolasi allaqachonlardir tushida oyni ko‘rgan bo‘ladi. Darvoqe, birorta odam o‘z ismining ma’nosini bilmasa, unga ismining ma’nosini tushuntirilsa, ko‘zlarini quvnab, juda mammun bo‘ladi. Xo‘sh “Sofiya” nima ma’noni anglatadi? “Men ulg‘ayganimda xolam kampir bo‘lib qolgan edi. U nurni, u yuzlarni haligacha sog‘inaman. Goho tun-kechalarda birdaniga ko‘rgim kelib qoladi. Mayin jilmayishini, yuzidagi poklik va musaffolkni qo‘msayman.

Ulg‘aygach, u ismnинг mazmunidan xabar topdim. “Sofiya” – yunonchada “ilohiy donolik”, arabchada “musaffolik” degan ma’nolarni anglatishini bilganimda, “Albatta, xolamga aytaman, eshitib suyunadi” deb o‘ylaganman. U mahal xolamning menga mehri yanada ortgan, “polvon bolam” deb suyar edi” (O’sha manba, 267-bet). Bu ism muhokamasida adib Sofiya ismini Muhammad alayhissalomga borib taqalishini ilovadagi izohida “Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ayoli, Sofiya onamizga ishora” deb eslatib o‘tadi. O‘quvchining xayoli uzoq tarixga qarab ketadi. Shu o‘rinda adib voqelik genezisini yana ham uzoqqa olib borib bog‘laydi. Romanning “Genetik” deb nomlanishi, uning asosiy qahramoni shu soha mutaxassis bo‘lishi – bu alohida masala. Ammo Oymomo va Sofiya xola juftligi davomidan kelayotgan voqealar uzoq tarixga – Rasululloh (s.a.v.) zamonlariga va hatto undan ham uzoqroqqa borib taqaladi. Genetik – bu inson geni bilan mashg‘ul bo‘ladigan olim. Romanning syujet chizig‘ida Sofiya xolaning shu soha olimiga aloqador epizodlari bor. Olim jiyani Sofiya xolasining bir tola sochini maxsus laboratoriyyada tekshiradi. Natijada juda g‘aroyib bir kashfiyatga duch keladi, ya’ni “dunyo olimlarining aqlini shoshirib qo‘yadigan xazinaga – olam aro eng noyob, eng musaffo Momo Havo geniga ro‘para” keladi. Romanda olimning yoshlik chog‘laridagi voqealar sabab-natija kategoriyasiga mos ravishda asar matnida biri-birini taqozo qiladi. Qolaversa, romandan kuzatilgan asosiy maqsad o‘zbek xalqining geni juda qadimlarga borib taqalishini ta‘kidlash hamdir.

Adabiyotshunos olim Azimjon Rahimov roman janrining istiqboli to‘g‘risida juda o‘rinli mulohazalarни ilgari suradi: “Endilikda romandagi asosiy syujetni voqealar oqimi emas, qahramonning tashqi hodisalarga reaksiyasi, shu munosabat bilan uning qalbida tug‘ilgan kechinmalar, o‘y-xayollar, xotiralar tashkil etadi. Syujetning bu kabi shaxsning ichki dunyosiga ko‘chishi inson ruhiy olamiga qiziqishning kuchayganligi natijasi bo‘lib, roman ni lirizm, psixologizm bilan boyitdi, hikoyasi shaxsini faollashtirib yubordi”.[5;89-b] Darhaqiqat, bunday xususiyatlar ayniqsa, xotiraga berilishi hamda syujet voqeaları bayonida hikoyachi shaxsining faolligi Isajon Sulton romanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning romanları syujetida “lirizm, psixologizm bilan” boyitilgan o‘rinlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.

“Genetik” romanida syujet dinamikasida boshqa voqealar bayoni uchun ham qahramonning o‘yga cho‘mishi, xotiraga berilishi, allanimanidir eslashlari – bular orqaga chekinishga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Insonlarning qiyofalari ham ma‘lum voqealari-hodisalar bilan birlashib ketgan, kimni eslamay, qaysidir voqeaga bog‘liq holda jonlanadi. Ubay akani shamollar bilan birga tasavvur qilaman, Sofiya xolam oy manzarasi bilan uyqash, Dashti Qipchoqdan kelgan suluv qiz bol va asal hosil qiladi, onamni yalpiz, rayhon hamda gul ochgan chechaklar yonida, otamni qo‘lida bolta yoki arra, kesilgan daraxt shoxlari yoki yaxshilab ag‘darilib chiqilgan maydon o‘rtasida ko‘raman. O‘zimni mana shu manzaralar ichida uchib yurgan bol arisiday tasavvur qilaman, qay manzaraga yaqinlashsam, o‘sha kattalashib, mayda-chuydalarigacha namoyon bo‘ladi”[6;261-b]. Shu bilan birga, “Hukmi mutlaq” fasilda mumtoz shoirning barchaga tanish:

“Tole’ yo‘qi boshimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!

Tanidingizmi?! Ha, u – Zahiriddin Muhammad Bobur. Ulug‘larimni, beklarimni, tog‘alarimni, og‘a-inilarimni munda qo‘yib, o‘zim ketdim demoqda. Sind daryosini kechib o‘tib, Hind eliga yondashdim, davlat tuzib, Tangi dinini joriy qildim... Ammo sizlardan ayrildim, demoqda...”[7;245-b] Bunday liro-epik talqin roman syujeti tizimidagi voqealarda qatnashayotgan obrazlarni zamon va makonidan qat‘i nazar ajdodlari bilan muloqot qilishga yo‘naltiradi. Roman tarkibidagi oddiy bir qishloqdan boshlangan voqelik millatning yaqin va uzoq o‘tmishiga, asotirlari, xalq og‘zidan o‘tib kelayotgan hikoyat va rivoyatlar fonida ajib bir uyg‘unlik kasb etadi. Shuning uchun ham roman syujetida ba‘zan xalq qo‘shiqlariga, Bilga Hoqon bitiklariga murojaat qilinadi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy asarlari tilga olinadi. Alisher Navoiy, Boburning ijod namunalaridan misollar keltiriladi. Romanning:

“Tong ota boshladi,
so‘ng uning izidan yer yuzi yorishdi.
So‘ng quyosh chiqdi, hammayoq yorug‘ bo‘ldi.
Er yigit emaklab bordi, Tangriga yo‘liqdi...”[8;345-b],

degan so‘zlar bilan boshlangan epigrafi ham “Irq bitigi” dan olingan. Eng muhim, shu epigraf romanning oxirida biroz boyitilgan holda, xususan, “Yigit baxt tiladi, Tangri baxt berdi” kabi jumlalar qo‘shilgan tarzda takrorlanib keladi. Romanning butun syujeti uchun, voqealar rivoji va ayniqsa, syujet kulminatsiyasi uchun bu ko‘chirmaning ahamiyati katta. Zero, genetik ilm yo‘lida baxt, ezgulik, kashfiyotlar izlayotgan bir yigit edi. U baxt izladi va o‘z baxtini ilmdan topdi. O‘zligini izlagan odam, albatta, o‘zini topadi. Bunday falsafa I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari mazmunida, obrazlari tiynatiga ham xosdir.

Romanda “XXI asr. Kartaxena. Kolumbiya” degan faslda olimning o‘z ilmiy kashfiyoti uchun taqdirlanishi va uning ilm ahliga aytishga “Ezgu so‘z”i beriladi. Unda, jumladan, genetikaning quyidagi fikrlari bayon qilinadi: “Inson, shubhasiz, ulug‘dir. Hatto so‘nggi onini yashayotgan paytida, ajalning qirmizi shafaqlari oxirgi bor yallig‘langanida ham uning bir nafasi bor. U – “Meni kechir”, “Seni yaxshi ko‘raman” yoki “Mendan rozi bo‘lingiz” degan ezgu so‘zlarni ayta olish uchun qoldirilgan nafasdir. Ha, odamzod qalbi o‘lmas, ruhi hamdardlik va shafqat tuyg‘ulariga to‘la ekani bilan muqaddasdir. Shu sababli, barcha urinishlarimiz mana shu yo‘lga – uni ulug‘lashga, sharaflashga va e’zozlashga yo‘naltirilishi shart!”[9;376-b]

Bunday xulosalarni adib genetikaning turli narsalar ustida olib borgan mashaqqatli ilmiy izlanishlari natijasi sifatida taqdim etadi.

Isajon Sulton yaratgan syujet modifikatsiyasini dunyodagi boshqa adiblarning mahoratidan ta'sirlangani bilan mushtarak tahlil etish yaxshi samaralar berishi tabiiy. Zero, adib romanlarining poetik mazmunini, falsafiy mushohadalarni dunyo adabiyotidagi ayrim falsafiy oqimlar bilan taqqoslagan adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov yozadi: "Isajon Sulton bu – qip-qizil ekzintensializm!... Ekzintensializm yo'llari va falsafasiga shaydo bo'lgan Isajon Sultonning yuragi va ong tasavvuri shunday larzali kechinmalardan dunyo va tabiatning kelib chiqishiga nazar tashlamoqchi bo'ladi. Har narsaning ibtido manshaalariga qarashga urinadi"[7;19-b]. "Manshaa" so'zi asos degan ma'nonani anglatar ekan, demak, adabiyotshunos olim adib o'zi tasvirlayotgan har bir voqeа-hodisaning, narsalarning asos-negiziga diqqat qaratganiga urg'u beradi. Alber Kamyuning "Vabo" romanidagi ayrim jihatlar "Boqiy darbadar" romanida ham kuzatilishini adabiyotshunos olima M.Sheraliyeva shunday yozadi: "Har holda, og'irchilik damlarida vaziyatdan faqat o'zi uchun manfaat chiqargan kishilarning qilmishi zamonlar o'tsa ham unutilmadi, (shu yerda "Vabo" romanidagi vaboning ketishini xohlamagan, uni ma'qullagan odam esimga tushadi) ertami-kech ko'ringan narsalarni ham joy-joyiga qo'yishini yoddan chiqarmaslik kerak ekan..."[9;106-b]. Adibning global muammolarini tasvirlashda dunyo adabiyotining ulkan namoyandalari ijodidan qaysidir darajada ta'sirlangani ma'lum. Bu masalada Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani qahramoni Ziyo obraziga e'tibor bergen adabiyotshunos olima Shohsanam Davronova "Intellektual roman qahramoni ilm-fan yutuqlari va u orqali yuzaga kelayotgan ziddiyatlar ustida haddan ortiq bosh qotiradi. Aynan ana shu jarayonlarda uning xarakteri namoyon bo'ladi. "Oxir zamon nishonalari"da Rober Brok kitlar haqida o'ylaydimi, atrofidigilar to'g'risida fikr yuritadimi, qat'i nazar, fikrlari Filofey aytgan insoniyat fojialarining oldini olish choralar, muammolariga bog'lanaveradi. Aynan ana shunday xususiyatni "Boqiy darbadar" romanidagi professor Ziyo obrazi tasvirida ham ko'ramiz"[10;206-b]. Demak, I.Sulton romanidagi professor Ziyo obrazining Ch.Aytmatov qahramonlariga, ularning tabiatini, dunyo to'g'risidagi o'y-qarashlariga qaysidir tomondan yaqinligini anglash mumkin. Syujetni tashkillashtirishda bunday ta'sirlanuv omillari Isajon Sulton romanlarining estetik qiymatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlillardan kelib chiqib, Isajon Sulton romanlaridagi syujet modifikatsiyasida turli syujet tiplarining o'zaro mushtarak qo'llanishi kuzatiladi. Syujet dinamikasi uchun Isajon Sulton ba'zan psixologik va ba'zida lirik tasvirlarga o'z romanlarida ko'proq o'rinn ajratadiki, bu hol adabiy turlararo modifikatsiyani ko'rsatadi.

Isajon Sulton o'zbek romannavislari an'analarini yangilangan sharoitda o'ziga xos yo'sinda davom ettirdi, shu bilan birga, romanlari syujet qurilishida dunyo adabiyotining bir qator namoyandalarining tajribalarini ijodiy o'zlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Damin To'rayev. Hozirgi o'zbek nasrida syujet poetikasi/Rangin tasvirlar jilosi. – Toshkent: Akademnashr, 2014. 21-bet.
- 2.To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari – Toshkent: O'qituvchi, 2002. 217-bet
3. Z.Pardayeva. O'zbek romani poetikasi (Hozirgi o'zbek romanlarining tahlili misolida). – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. 9-bet.
4. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. Roman, qissa va hikoyalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 266-bet
5. Azimjon Rahimov. Roman san'ati.– Farg'ona: "Farg'ona" nashriyoti, 2015. 89-bet.
6. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. Roman, qissa va hikoyalari. – Farg'ona: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 261-bet.
7. Ibrohim G'afurov. "Yozuvchi, tabiat va tibbiyat"/ Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2017. 19-bet.
- 8.Mashhur Sheraliyeva. "Boqiy darbadar" haqida ba'zi mulohazalar./ Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: "Turon zamin ziyo"2017 yil, 211 bet.
9. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2018. 106-bet
- 10.Shohsanam Davronova. Intellektual romanda qahramon masalasi. "Boqiy darbadar" haqida ba'zi mulohazalar. / Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017 yil, 206-bet.

I VA II JAHON URUSHINING INGLIZ ADABIYOTIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI**Otamurodova Orzigul Musayevna**

Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

otamurodovaorzigul@gmail.com

ORCID 0009-0008-0115-4008

UDK 371.3:420(075) O 85

Annotatsiya. Maqola I va II jahon urushining ingliz adabiyotiga bo'lgan psixologik ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. I jahon urushi (1914-1918) va II jahon urushi (1939-1945) ingliz adabiyotida chuqur psixologik iz qoldirgan voqealar bo'ldi. Urushning kutilmagan va dahshatli oqibatlar, insonning ruhiy holati va ichki dunyosining o'zgarishi, adabiyotda yangi psixologik mavzular va yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Urush davrida yozilgan asarlarda insonning hayotga bo'lgan qarashlari, uning ruhiy iztirobi va hayotning ma'nosizligi haqida keng qamrovli tahlillar taqdim etilgan.

Uilfrid Ouen, Zigfrid Sassun kabi adiblari jahon urushining psixologik ta'sirlarini o'z asarlarida aks ettirgan bo'lsa, II jahon urushi davrida esa J.R.R. Tolkien, Jorj Oruell, Richard Oldington va Ian Fleming kabi adiblar insonning ruhiy iztiroblari va omon qolish instinktini o'rganishga qaratilgan asarlar yaratdilar. Ushbu adiblarning asarlari, urushning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini chuqur tasvirlab, o'quvchi ongida urushning nafaqat jismoni, balki ruhiy va ma'naviy zararlarini ham aks ettiradi.

Maqola, urushning psixologik ta'siri va uning ingliz adabiyotida qanday yangi psixologik yo'nalishlar, janrlar va mavzularni yuzaga keltirganini o'rganishga qaratilgan. Bu ta'sirlarning ingliz adabiyotining rivojiga qanday katta o'zgarishlar olib kelgani va o'sha davrda yashagan odamlarning ruhiy holatini qanday aks ettirganini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: ekspressionizm, realistik, glorifikatsiya, front, totalitarizm, diktatura, manipulyatsiya, personaj, pozitsiya, xandaq.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF WORLD WAR I AND WORLD WAR II ON ENGLISH LITERATURE

Abstract. This article is dedicated to studying the psychological impact of World War I and World War II on English literature. World War I (1914-1918) and World War II (1939-1945) left a deep psychological mark on English literature. The unexpected and horrific consequences of war, the changes in human psychological states and inner worlds, led to new psychological themes and approaches in literature. Works written during the war present comprehensive analyses of humans' views on life, their psychological suffering, and the meaninglessness of life.

Poets such as Wilfred Owen and Siegfried Sassoon reflected the psychological effects of World War I in their works. At the same time, during World War II, writers like J.R.R. Tolkien, George Orwell, Richard Aldington, and Ian Fleming created works focusing on human psychological anguish and survival instincts. The works of these authors deeply portray the social and psychological consequences of war, reflecting not only the physical but also the psychological and spiritual damages of war in the reader's mind.

This article focuses on examining the psychological impact of war and how it led to the emergence of new psychological directions, genres, and themes in English literature. It analyzes how these impacts brought about significant changes in the development of English literature and how they reflected the psychological state of people living during that time.

Keywords: expressionism, realistic, glorification, front, totalitarianism, dictatorship, manipulation, character, position, trench

Kirish. Ingliz adabiyoti I va II jahon urushi (1914-1918) davomida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Bu urushning samara va oqibatlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy tomonga emas, balki madaniyat va adabiyotga ham kuchli ta'sir ko'rsata oldi. Urush, shubhasiz, insoniyat tarixining eng katta yo'qotishi va iztirobli davrlaridan biri bo'lib, adabiyotda yangi uslublar, mavzular va ifoda shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonni ko'plab ingliz yozuvchilari va shoirlari o'z asarlari orqali aks ettirganlar. Urushdan oldin ingliz adabiyoti ko'proq romantik va idealistik uslubda bo'lsa, urushdan so'ng u realistik va ekspressionizmga tomon yo'naltirildi. Yozuvchilar va shoirlar urushning ta'siri ostida yangi mavzular va yondashuvlarni qo'lladilar.

Jahon urushlarining ta'siri nafaqat mavzularni, balki adabiy uslublar va shakllarni ham shakllantirdi. I va II jahon urushi ingliz adabiyotida yangi qarashlar va yondashuvlarni yuzaga keltirdi va bu yozuvchilarning ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

I jahon urushi ingliz adabiyotini qayta shakllantirdi. Urushning dahshatlar va insoniyatning iztiroblari yozuvchilarning ijodiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Urushdan oldin ingliz adabiyoti ko'proq romantik va idealistik uslubda bo'lsa, urushdan so'ng u realistik va

ekspressionizmga tomon yo'naltirdi. Yozuvchilar va shoirlar urushning ta'siri ostida yangi mavzular va yondashuvlarni qo'lladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini ishlab chiqishda kvalitativ tadqiqot metodidan foydalilanilgan. Bu metod, urushning ingliz adabiyotiga psixologik ta'sirini chuqur tahlil qilishni va adabiy asarlarda ifodalangan psixologik holatlarni aniqlashni maqsad qilgan. Tadqiqotda tekstual tahlil va psixologik tahlil metodlari asosiy usullar sifatida qo'llanilgan.

Tekstual tahlil orqali adabiy asarlar mazmuni va ularning strukturasiga chuqur kirib, urushning inson psixologiyasiga qanday ta'sir qilganligi o'rganildi. Shu bilan birga, psixologik tahlil metodida urushning individual va kollektiv psixologik holatlari, qo'rquv, stress va ruhiy iztirobning adabiyotdagi ifodalanishlari tahlil qilindi. Bu metod yordamida, urushdan avvalgi va keyingi adabiy asarlar orqali ijtimoiy va ruhiy o'zgarishlar, shuningdek, yozuvchilarning urushga bo'lgan munosabati o'rganildi.

Urushning dahshati va uning insonga bo'lgan salbiy ta'siri haqida eng mashhur asarlardan biri Uilfrid Ouenning "Dulce et Decorum Est" (1920), (Vatan uchun o'lish shirin va munosibdir) she'ri hisoblanadi. Ouen, urushning haqiqiy yuzini tasvirlaydigan shoirlardan biridir. Uning she'rida urushni glorifikatsiya qilishning noxushligi va yoshlarni urushga jo'natishdagi axloqiy muammolarni ko'targan. She'rning o'zi ham urushning haqiqiy obrazini yaratadi:

"*Dulce et decorum est Pro patria mori.*" (Bu so'zlar lotincha bo'lib, "Vatan uchun o'lish sharafiga sazovordir" degan ma'noni anglatadi.)

Biroq Ouen bu she'ri orqali urushning dahshatli tomonlarini ko'rsatib, yoshlarni urushga jo'natishning yolg'onligini ta'kidlaydi. She'rning oxirida urushda qimmatbaho hayotlarini yo'qtgan askarlarning qiyofalari tasvirlanadi, bu esa urushning haqiqiy qo'rquv va azoblarini ochib beradi.

Boshqa bir mashhur shoir, Zigfrid Sassun, o'zining "Suicide in the Trenches" (Ma'nosi: xandaqlarda o'z joniga qasd qilish), (1917), she'rida urushning yolg'on sharafiga qarshi chiqadi. U ham urushni glorifikatsiya qilishni qoralab, frontda o'lgan askarlarning azoblarini aks ettiradi. U asar va she'rlarida urushning ma'nosizligi va askarlarning chinakam azoblarini tasvirlaydi:

*You smug-faced crowds with kindling eye,
Who cheer when soldier lads march by,
Sneak home and pray you 'll never know,
The hell where youth and laughter go".*

Ma'nosi: sen, yuzida mag'rurlik bilan jilmaygan ko'z,
Harbiy yigitlar yurib o'tganda, olqishlaydiganlar,
Yoqib uyga qaytib, hech qachon bilmaslikni tilaysiz,
Ushbu yoshlik va kulgu yo'qolgan do'zaxni.

Sassunning she'ri urushning dahshatli tomonlarini yanada chuqurroq ifodalaydi, yoshlarni urushga jalb qilishni jiddiy qoralaydi.

II jahon urushi (1939-1945) ingliz adabiyotiga yanada kuchli ta'sir ko'rsatdi. Urushning o'zgaruvchan sharoitlari, qiyinchiliklari va insoniyatning yangi muammolariga qarshi kurashi yozuvchilarни yanada chuqurroq tasvirlar yaratishga undadi. II jahon urushi davrida ko'plab yozuvchilar urushning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini o'rgandilar.

Jorj Oruell "1984" asari II jahon urushidan keyin yaratilgan va u totalitarizm va diktaturaga qarshi kurashni tasvirlaydi. Oruellning asarida urush va uning sharoitlari butun jamiyatni to'liq nazoratga olishga imkon beruvchi vaziyatni yaratadi. Asarda tizimli tazyiq, manipulyatsiya va ongni nazorat qilish kabi masalalar ko'tariladi. Oruell jamiyatda urushning ijtimoiy va siyosiy ta'sirini ko'rsatadi: "War is peace. Freedom is slavery. Ignorance is strength." (Urush tinchlikdir. Ozodlik qullikdir. Beqarorlik kuchdir).

Bu jumlalar Oruellning totalitarizmni tanqid qilgan asaridagi asosiy g'oyalardan biridir. Urushning ta'siri Oruellning asarida shaxsiy erkinliklarni yo'q qilish, dunyoqarashni manipulyatsiya qilish va ma'naviy buzilishning bir qismi sifatida aks etadi.

Virjiniya Vulf II jahon urushi va undan keyingi davrni, xususan, urushning inson psixikasiga ta'sirini o'rganishda o'z asarlarini yaratdi. "Mrs. Dalloway" ("Missis Dallowey"),

(1925) asari, urushning boshida va keyingi davrda ayollarning pozitsiyasi va ularning ichki dunyosiga ta'sirini aks ettiради. Vulf asarida har bir personajning ichki fikrlarini va ruhiy holatini tasvirlash orqali urushning inson shaxsiga qanchalik chuqr ta'sir qilganini ko'rsatadi.

"For it is the prime condition of the human mind to have the imagination fired, to have one's mind in a turmoil of curiosity, a turmoil of excitement; to have one's mind possessed by a passion for knowledge and understanding". Ma'nosi: "Chunki inson aqlining asosiy sharti tasavvurni chaqirish, ongni qiziqish va hayajon bilan to'ldirish, bilim va tushuncha uchun ehtiros bilan ongni egallahdir".

Vulf o'zining asarida, urushning va ijtimoiy burilishlarning inson shaxsining shakllanishiga qanday ta'sir qilishini va uning ruhiyatidagi chuqr izlarni ko'rsatishga harakat qilgan.

Natijalar va muhokama. Uilfrid Ouenning va Zigfrid Sassun - I jahon urushi haqidagi o'z hissiyotlarini va psixologik o'zgarishlarini eng yaxshi aks ettirgan shoirlar hisoblanadi. Ularning she'rlari urushning dahshatli tasvirlari bilan to'la. Ouenning mashhur she'rlaridan biri, "Dulce et Decorum Est" da, u urushning romantik va qahramonlik tasvirlarini yengib, uning haqiqiy dahshatlarini ochib beradi. Ouen, urushning inson psixologiyasiga ta'siri, xususan, "shell shock" (hozirgi kunda "post-traumatik stress buzilishi" deb ataladi) va ruhiy zararlari haqida yozgan.

Zigfrid Sassun esa urushga bo'lgan salbiy qarashlarini ko'rsatib, uning psixologik natijalarini aks ettirgan. U o'zining asarlarida urushning mantiqsizligi va insoniyatga bo'lgan zarari haqida yozdi. Uning "The Hero" (ma'nosi: qahramon), she'rida urushni glorifikatsiya qilishning yolg'onligini tanqid qiladi va harbiy qahramonlikka shubha bilan qaraydi.

Virjinya Vulf ning asarlari, ayniqsa *Mrs. Dalloway* (1925) asarida, I jahon urushining psixologik ta'sirlari haqida chuqr fikrlar mavjud. Asarda, Clarissa Dallowayning kundalik hayotidagi hissiyotlari va o'tmish bilan bog'liq yodgorliklar, urushdan keyingi davrning psixologik bosiqligini aks ettiради. Vulfning uslubi, ichki monologlar va vaqtning o'zgarishi orqali, o'tmish va hozirgi vaqt o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Urush, asarda, psixologik qashshoqlikni, yakkalikni va aqliy holatni keltirib chiqaradi.

Mrs. Dallowayda, Septimus Warren Smith (Septimus Uorren Smit) ning xarakteri urushning psixologik ta'sirlarini yanada aniqroq ko'rsatadi. Septimus urushda jarohatlangan va uning ruhiy holati o'zgargan. U, o'zini dunyodan ajralgan va vahimali tasavvurlarni boshdan kechirayotgan inson sifatida tasvirlanadi. Vulf, bu xarakter orqali, urushning inson psixologiyasiga bo'lgan ta'sirini chuqr tasvirlaydi.

Jorj Oruellning asarlari, xususan "1984" va "*Animal Farm*", (ma'nosi: hayvonlar fermasi) urushning ijtimoiy va siyosiy natijalarini ko'rsatadi. Urush, Orwellning fikricha, jamiyatning manipulyatsiya qilinishi, odamlarning shaxsiy erkinliklarining cheklanishi va psixologik boshqarilishi bilan bog'liq. "1984"da, uning asosiy qahramoni Winston Smith (Vinston Smit), totalitarizmning va urushning ijtimoiy va psixologik zararlarini boshdan kechiradi. Urush va axborot boshqaruvi orqali, odamlar manipulyatsiya qilinadi va shaxsiyatlarini yo'qotadilar.

Animal Farm esa urush va inqiloblarning, hokimiyatga kelgan kishilar tomonidan qanday o'zgartirilishi va manipulyatsiya qilinishi haqidagi satira sifatida xizmat qiladi. Bu asar ham psixologik manipulyatsiyaning jamiyatga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. I va II jahon urushi ingliz adabiyotida sezilarli ta'sir qoldirdi. Yozuvchilar urushning dahshatlari, insoniyatning izardorlari, shuningdek, urushdan keyingi psixologik va ijtimoiy o'zgarishlarni o'z asarlarida ifodaladilar. Urushning ta'siri ingliz adabiyotida yangi uslublarning yuzaga kelishiga olib keldi, bu esa ingliz adabiyotining rivojlanishiga yangi turtki berdi. Uilfrid Ouen, Zigfrid Sassun, Jorj Oruell va Virjinya Vulf kabi yozuvchilar o'z asarlarida urushning ijtimoiy, ma'naviy va psixologik oqibatlarini yoritib, ingliz adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo'shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aldington, Richard, Death of a Hero (London: Heinemann, 1929), p. 215.
2. The Cambridge Companion to War Writing: 163, Cambridge University Press 2009; p. 95

3. Hynes, Samuel. *A War Imagined: The First World War and English Culture*. London: Bodley Head, 1990, p. 118.
4. Musaeva, D. (2021). ТОТАЛИТАРНАЯ СИСТЕМА В РОМАНЕ «1984» ДЖОРДЖА ОРУЭЛЛА. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3)
5. Orwell, George, 1984 (London: Secker & Warburg, 1949), p. 308.
6. Owen, Wilfred, “Dulce et Decorum Est” (1920), in *The Poems of Wilfred Owen*, ed. by Jon Stallworthy (London: Chatto & Windus, 1983), p. 39
7. Sassoon, Siegfried, “Suicide in the Trenches”, in *The War Poems of Siegfried Sassoon*, ed. by Rupert Hart-Davis (London: Faber & Faber, 1983), p. 24.
8. Sassoon, Siegfried, “The Hero”, in *The War Poems of Siegfried Sassoon*, ed. by Rupert Hart-Davis (London: Faber & Faber, 1983), p. 15.
9. Tolkien, J.R.R., *The Fellowship of the Ring* (London: George Allen & Unwin, 1954), p. 185.
10. Woolf, Virginia, Mrs. Dalloway (London: Harcourt, 1925), p. 58.

HUDKUSHLIK VA BILVOSITA SUITSID

Shukurova Sabohat Odilovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (IPU)

Rus tili va adabiyoti kafedrasи

shukurovasabohat6033@gmail.com

ORCID 0009-0009-9846-9790

UDK 82-1:159.9:179.7

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy badiiy adabiyot kontekstida hudkushlik fojasi va amalga oshmagan ijtimoiy-siyosiy orzular (saidian tip) fenomenini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot qahramonlarning shaxsiy psixologik iztiroblari, ichki konfliktlari va ma’naviy tanazzullari hamda jamiyat tomonidan belgilangan normativ va siyosiy cheklovlar orasidagi dialektik munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan. Metodologik yondashuv sifatida maqolada komparativ, psixologik, diskursiv va falsafiy-ekzistensial tahlillar qo‘llanilgan. Ushbu usullar orqali adabiy matnlardagi hudkushlik tushunchasi va saidian tipdagi amalga oshmagan orzularning o‘zaro bog‘liqligi, ularning qahramonlarning ruhiy dunyosidagi murakkablik va ijtimoiy cheklovlar bilan bog‘liqligiga oid aniq natijalar olinib, ilmiy asosli xulosalar chiqarildi. Tadqiqot davomida mavjud adabiy namunalar va zamonaviy adabiy tendensiyalar chuqur tahlil qilindi, natijalar esa hudkushlik tushunchasi va ijtimoiy-siyosiy orzularning qanday o‘zaro ta’sir o‘tkazishini va ularning individual shaxsiyat hamda jamiyat strukturasiga qanday aks etishini ko‘rsatdi. Ushbu ilmiy ish, nafaqat adabiy matnlar orqali inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini yoritadi, balki kelgusidagi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun yangi nazariy va metodologik yondashuvlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: hudkushlik, suitsid, ijtimoiy orzular, idealistik orzular, saidian tip, adabiy diskurs, psixologik iztirob, ekzistensial tanazzul.

Abstract. This article investigates the complex interplay between the tragedy of suicide and the phenomenon of unfulfilled socio-political dreams (Saidian type) in modern literature. Emphasizing both individual psychological traumas and the broader socio-political constraints, the study analyzes how literary figures manifest internal conflicts and emotional turmoil through their inability to actualize idealistic social and political aspirations. Employing a multifaceted methodological approach—including comparative, psychological, discursive, and philosophical-existential analyses—the research elucidates the dialectical tensions between personal suffering and the oppressive forces of societal norms. The findings reveal that literary representations of suicide not only mirror deep-seated personal anguish but also serve as critical commentaries on the limitations imposed by cultural and political systems. Consequently, the article proposes that future research should further explore these interrelations to develop innovative theoretical and methodological frameworks in literary and cultural studies.

Keywords: suicide, self-extinction, socio-political dreams, unfulfilled aspirations, literary discourse, psychological trauma, existential conflict

Kirish. Badiiy adabiyotda hudkushlik fojasi va suitsid jarayonlari inson ruhiyati va jamiyatning murakkab ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy mavzular qatoriga kiradi. Zamonaviy asarlarda qahramonlarning ichki iztiroblari, ruhiy qaramaqarshiliklari va idealistik orzu-havaslarining amalga oshmasligi orqali hudkushlik tushunchasi keng yoritilmoqda. Shu bilan birga, amalga oshmagan ijtimoiy-siyosiy orzular (saidian tip) fenomeni, ya’ni insonning idealistik orzulari bilan mayjud ijtimoiy-siyosiy realitet o‘rtasidagi ziddiyat, adabiy diskursda o‘ziga xos aks etadi. Maqolaning maqsadi – badiiy asarlarda hudkushlik fojasi va suitsid jarayonlarining psixologik, madaniy va siyosiy o‘lchovlarini

tahlil qilish, shuningdek, saidian tipdagи amalga oshmagan orzularning qahramonlar ruhiyatidagi o‘zaro integratsiyasini aniqlashdir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning obyekti badiiy asarlarda hudkushlik fojiasi va suitsid jarayonlari orqali ifodalangan shaxsiy iztiroblar, madaniy norma va siyosiy idealizmlar bilan yuzaga kelgan ziddiyatlar hamda saidian tipdagи amalga oshmagan orzularni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Komparativ tahlil: Turli davr va makonlardagi badiiy asarlar tahlil qilinib, hudkushlik tushunchasi va saidian tip ifodalarining o‘zaro o‘xshashliklari va farqlari aniqlanadi. Ushbu yondashuv orqali qahramonlarning psixologik portretlari va ijtimoiy kontekstdagi ifodalar solishtiriladi [2].

Psixologik analiz: Qahramonlarning ichki dunyosidagi stress, angor va emotsiyonal ziddiyatlar chuqur o‘rganilib, suitsid jarayonlarining psixologik ildizlari aniqlanadi. Bu usul yordamida shaxsiy iztiroblarning adabiy diskursdagi ifodalanishi tahlil qilinadi.

Diskursiv tahlil: Adabiy matnlarning til va stilistik qirralari o‘rganilib, hudkushlik va saidian tip tushunchalarining adabiy til, semantika va madaniy kontekstda qanday aks etishi aniqlanadi. Qahramonlarning dialog va monologlari, shuningdek, narrativ strukturalarning til ifodasidagi nozikliklari tahlil qilinadi [3].

Falsafiy-ekzistensial yondashuv: Qahramonlarning mavjudlik, hayot ma’nosи va o‘z-o‘zini inkor etish jarayonlari falsafiy nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali idealistik orzular va ularning erishilmaganligi orasidagi dialektik ziddiyatlar ochib beriladi [4].

Ushbu metodlarning sintezi adabiy diskursdagi murakkab psixologik va ijtimoiy jarayonlarni aniqlashga, shuningdek, saidian tipdagи amalga oshmagan orzular fenomenining qahramonlar ruhiyatidagi o‘zaro o‘rnini puxta yoritishga imkon yaratdi.

Natijalar va muhokama. Tahliliy jarayonda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Ichki konflikt va psixologik iztiroblar: Badiiy asarlarda hudkushlik fojiasi qahramonlarning ichki qarama-qarshiliklari va emotsiyonal iztiroblari orqali namoyon bo‘ladi. Qahramonlarning o‘z-o‘zini inkor etish tendensiyalari, shaxsiy tajribalaridagi ruhiy tanazzul va mavjudlikka bo‘lgan munosabatlar suitsid jarayonining psixologik ildizlarini tashkil etadi. Bu jarayon adabiy matnlar orqali insonning ichki dunyosidagi murakkablikni chuqur aks ettiradi [5].

Madaniy va ijtimoiy omillar: Adabiy diskursda hudkushlik tushunchasi jamiyat tomonidan belgilangan norma, qadriyat va siyosiy idealizmlar bilan yuzaga kelgan ziddiyatlarni aks ettiradi. Qahramonlarning ijtimoiy o‘zlikka bo‘lgan intilishi va amalga oshmagan orzular, ya’ni saidian tip, madaniy va siyosiy realitetning cheklovlarini ochib beradi. Natijaviy tahlil shuni ko‘rsatadi, adabiy asarlarda ijtimoiy va siyosiy omillar qahramonlarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [6].

Terminologik aniqlik va til ifodasi: Adabiy matnlarda hudkushlik fojiasi va suitsid jarayonlari til va stil orqali nozik va puxta aks ettiriladi. Stilistik noziklik, metaforik ifodalar va allegoriyalar yordamida qahramonlarning ruhiy holati va ichki tanazzul jarayonlari aniq ko‘rsatiladi. Bu esa adabiy diskursning estetik va ma’naviy asoslarini yanada boyitadi [7].

Tahliliy natijalar shuni ko‘rsatadi, badiiy asarlarda qahramonlarning ichki konfliktlari va amalga oshmagan ijtimoiy-siyosiy orzular, idealistik orzular hamda mavjud realitet o‘rtasidagi keskin dialektik munosabatlar chuqur aks etadi. Bu holatlar adabiy diskursning ko‘p qirrali mazmunini shakllantirib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi nazariy konsepsiylar va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot hudkushlik tushunchasi kontekstida bilvosita suitsid fenomenining murakkabligini, qahramonlarning ichki iztiroblari va madaniy cheklovlar bilan o‘zaro aloqalarini keng qamrovli tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, hudkushlik va bilvosita suitsid tushunchalari nafaqat individual psixologik jarayonlar doirasida, balki jamiyat, madaniyat, til va estetik ifoda orqali boyitilgan ko‘p qirrali tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar asosida aniqlangan ichki konfliktlar, qahramonlarning ruhiy qarama-qarshiliklari va ma’naviy iztiroblari, ularning o‘z-o‘zini inkor etish

tendensiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon hudkushlik tushunchasining psixologik ildizlarini olib beradi. Adabiy diskursdagi til ifodasi va stilistik nozikliklar orqali namoyon bo‘ladigan bu murakkablik, qahramonlarning shaxsiy dunyosidagi dinamika va madaniy cheklolvar bilan yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni puxta aks ettiradi. Kelgusida ushbu fenomenning keng qamrovli psixologik, falsafiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganish, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi nazariy yondashuvlar va innovatsion metodlarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelajakdagи ilmiy izlanishlarda qahramonlarning ichki dunyosidagi konfliktlar, madaniy identitet va ijtimoiy normativlarning yanada kengroq tahlilini talab etadi, bu esa inson psixologiyasi, madaniyat va adabiy diskursning murakkab qatlamlarini yanada chuqurroq yoritishga turki beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf, M. O‘zbek adabiyoti nazariysi: qahramon obrazlari va psixologik tahlil. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2015.
2. Islomov, A. Adabiy realizm va ekzistensializm: Hudkushlik tushunchasining teoretik asoslari. – Samarqand: Ilmiy nashriyot, 2017.
3. Rahmonov, S. Suidsid fenomeni va adabiy qahramonlar: Zamonaviy yondashuv. Buxoro: Madaniyat va san’at noshirligi, 2018.
4. Karimov, N. Farhod va Otabek tili: Adabiy til va obraz talqini. –Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti markazi nashriyoti, 2019.
5. Toshpulatov, R. Qahramon obrazining madaniy-konseptual tahlili. – Namangan: Ilm-fan va madaniyat nashriyoti, 2020.
6. Yuldashev, Z. Psixologik realizm va hudkushlik: Qahramon ichki konfliktlarining tahlili. – Farg‘ona: Fan va texnika nashriyoti, 2021.
7. Muminov, U. Estetik ifoda va adabiy diskurs: Suidsid tushunchasining zamonaviy talqini. (2021). –Toshkent: O‘zbekiston ilmiy adabiyoti nashriyoti, 2022.
8. Ergashev, D. (2023). Adabiy til va stilistika: Hudkush qahramon obrazining tiliy ifodalishi. Qashqadaryo: Fanlar akademiyasi nashriyoti.
9. Nodirov, P. Madaniy va ijtimoiy omillar kontekstida suidsid va hudkushlik tushunchalari. – Toshkent: Zamonaviy ilm-fan nashriyoti, 2023.
10. Xudoyberdiyev, M. Qahramon ichki dunyosi: Suidsid va hudkushlik fenomeni. – Samarqand: Ilmiy tadqiqotlar markazi nashriyoti, 2024.
11. G‘ulomov, F. (2024). Adabiy tahlil metodologiyasi: Hudkush qahramon obrazining tahliliy yondashuvi. – Toshkent: Fanlar va texnika nashriyoti.
12. Nematov, H. Falsafiy ekzistensializm va adabiyot: Suidsid tushunchasining izlanishi.– Buxoro: Ilm-fan va madaniyat nashriyoti, 2024.
13. Shayxmatov, K. Adabiyot va psixologiya: Hudkushlik obrazining estetik va ma’naviy tahlili. – Namangan: Ilmiy tajriba nashriyoti, 2024.
14. Bekmurodov, Q. Qahramon obrazlari va zamonaviy adabiyot: Suidsid va hudkushlik fenomenining chuqur tahlili. –Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2024.

YENGILMAS QAHRAMON OBRAZI TALQINI: ERNEST XEMINGUEY VA XURSHID DO‘STMUHAMMAD ASARLARI MISOLIDA

Rizayeva Shaxnozabonu Shuxrat qizi

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Alfraganus universiteti Xorijiy filologiya kafedrasи o‘qituvchisi

s.rizayeva@afu.uz

ORCID 0009-0004-7375-5508

UDK 821.0(091)

Annotatsiya. Ushbu maqola Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” hamda Xurshid Do‘stmuhhammadning “Donishmand Sizif” asarlarda yengilmas qahramon obrazining talqinini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mualliflarning ushbu obrazni yaratishda qo‘llagan motivlari, personajlari, obrazlari va metodologiyalari batafsil yoritiladi. Maqlada asarlarda yengilmas qahramon obrazini yaratishda muhim rol o‘ynagan asosiy motivlar, jumladan, kurash motivi, iroda kuchi motivi, o‘zlikni saqlash motivi va hayotga muhabbat motivi tahlil etiladi. Shuningdek, Xemingueyning Santyago va Do‘stmuhhammadning Sizif obrazlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Asarlardagi asosiy obrazlar, jumladan, dengiz (tabiatning qudrati, hayotning sinovlari), ulkan baliq (maqsad, raqib, sinov), tosh (taqdir, yuk, ma’nosizlik), va falsafiy izlanishlar (haqiqatni izlash, ma’noni anglash)ning yengilmaslikni ifodalashdagi roli olib

beriladi. Maqolada adabiyotshunoslikning turli metodologiyalaridan, jumladan, qiyosiy tahlil, ekzistensial tahlil, mifologik tahlil va badiiy tahlildan foydalanildi. Ushbu metodologiyalar asarlarning chuqur va har tomonlama tahlilini ta'minlaydi va yengilmas qahramon obrazining mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Maqola yakunida Ernest Xeminguey va Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida yengilmas qahramon obrazini yaratish orqali insonning matonati, iroda kuchi, hayotga muhabbatni va o'zligini saqlashga intilishi kabi muhim mavzularni ko'targanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yengilmas qahramon, qiyosiy tahlil, iroda, matonat, ekzistensializm, absurd, badiiy obrazqiyosiy tahlil, ekzistensializm, absurd, mifologik obraz, iroda, o'zlik.

THE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE INVINCIBLE HERO: THE EXAMPLES OF THE WORKS OF ERNEST HEMINGWAY AND KHURSHID DOSTMUHAMMAD

Abstract. This article is devoted to a comparative analysis of motives, characters, images and methodologies used in the creation of the image of an invincible hero in Ernest Hemingway's "The Old Man and the Sea" and Khurshid Dostmuhammad's "The Wise Sisyphus". The characters' invincibility, internal and external struggles, and striving for self-preservation are studied from an existential point of view. Also, the authors' skill of creating a hero, methodological features in revealing the essence of invincibility in their works will be highlighted in a comparative manner. During the research, through the image of an invincible hero, human willpower, love for life, loyalty to one's values and the desire for constant search are artistically analyzed.

Keywords: invincible hero, comparative analysis, will, perseverance, existentialism, absurd, artistic image comparative analysis, existentialism, absurd, mythological image, will, self.

Kirish. Adabiyot insonning ichki va tashqi dunyosini aks ettiruvchi muhim vosita bo'lib, unda qahramon obrazi alohida o'rinni tutadi. Yengilmas qahramon obrazi insoniyatning matonati, iroda kuchi va hayotga bo'lgan ishonchining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ernest Xeminguey va Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida yengilmas qahramon obrazini yaratish orqali insonning murakkab ichki dunyosini, uning hayotdagini o'rni va ma'nosini izlashga intilishini badiiy aks ettiradilar. Ushbu maqolada "Chol va Dengiz" hamda "Donishmand Sizif" asarlaridagi yengilmas qahramon obrazlarining qiyosiy tahlili orqali mualliflarning badiiy mahorati, asarlarning g'oyaviy-badiiy qimmati hamda adabiyotda yengimaslik tushunchasining talqini ochib beriladi. Maqolada asarlardagi asosiy motivlar, personajlar, obrazlar va qo'llanilgan metodologiyalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola tadqiqotida adabiyotshunoslikning turli metodologiyalaridan foydalanildi, ular asarlarning chuqur va har tomonlama tahlilini ta'minladi.

Birinchidan, qiyosiy tahlil metodidan foydalanilgan bo'lib, bu metod "Chol va Dengiz" va "Donishmand Sizif" asarlaridagi yengilmas qahramon obrazlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga yordam berdi. Qiyosiy tahlil orqali qahramonlarning xarakteridagi umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari, ularning kurash uslublari, dunyoqarashlari va yengimaslikka erishish yo'llari aniqlandi.

Ikkinchidan, ekzistensial tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod qahramonlarning hayotdagini o'rni, erkinligi, mas'uliyati va o'zligini anglashga bo'lgan intilishlarini o'rganishga imkon berdi. Ekzistensial nuqtayi nazardan qahramonlarning ichki dunyosi, shaxsiy iztiroblari, hayotning ma'nosini izlashga urinishlari va absurdlikka qarshi kurashlari tahlil qilindi.

Uchinchidan, Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asari tahlilida mifologik tahlil metodidan foydalanildi. Bu metod asardagi Sizif afsonasining ramziy ma'nosini ochishga, uning falsafiy g'oyalarini tushunishga yordam berdi. Mifologik tahlil orqali Sizifning abadiy takrorlanuvchi harakati inson hayotining ramzi sifatida talqin etildi va uning mazmunini izlashga intilishi o'rganildi. To'rtinchidan, asarlarning badiiy tahlili amalga oshirildi. Bu metod asarlarning til xususiyatlari, badiiy uslubi, obrazlar yaratish mahorati va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilishga imkon berdi. Badiiy tahlil orqali mualliflarning uslubiy o'ziga xosligi, ularning yengilmas qahramon obrazini yaratishdagi mahorati, asarlarning badiiy-estetik qimmati aniqlandi.

Ushbu metodologiyalarning qo'llanilishi maqolada "Chol va Dengiz" hamda "Donishmand Sizif" asarlaridagi yengilmas qahramon obrazlarining chuqur va har tomonlama

tahlilini ta'minladi hamda mualliflarning badiiy mahorati va asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini ochib berdi.

Natijalar va muhokama. Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” asarida yengilmas qahramon obrazi. “Chol va Dengiz” asaridagi Santyago obrazi yengilmas qahramonning yorqin namunasidir. Santyago – keksa, omadsiz baliqchi, lekin u hech qachon taslim bo‘lmaydi. U o‘zining baliqchilik mahoratiga, iroda kuchiga va o‘z qadriga ishonadi. Santyagoning yengilmasligi nafaqat jismoniy kuchida, balki ma’naviy matonatida ham namoyon bo‘ladi. U ulkan baliq bilan kurashar ekan, ochlikka, chanqoqlikka va og‘riqqa chidaydi. Akulalar uning o‘ljasini o‘g‘irlashga urinadi, lekin Santyago o‘z narsasini himoya qilish uchun oxirigacha kurashadi.[1]

Santyagoning yengilmasligi uning mag‘lubiyatni qabul qila olishida ham ko‘rinadi. U baliqni yo‘qotadi, lekin o‘zining qadrini saqlab qoladi. Santyago uchun muhimi – kurashda ishtirot etish, taslim bo‘lmaslik va o‘z qadriyatlarini uchun kurashishdir.

Xurshid Do‘stmuhhammadning “Donishmand Sizif” asarida yengilmas qahramon obrazi. “Donishmand Sizif” asaridagi Sizif obrazi ham yengilmas qahramonning timsolidir. Sizif – afsonaviy qahramon, xudolar tomonidan abadiy toshni tepaga itarishga mahkum etilgan. Sizifning taqdiri – bu insonning hayotdagi ma’nosizdek ko‘ringan harakatlarining ramzi. Sizifning yengilmasligi uning o‘z taqdiriga qarshi isyonida namoyon bo‘ladi. U toshni tepaga itarar ekan, o‘zining erkinligini, o‘z hayotiga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi. Sizif o‘z taqdirining absurdligini anglaydi, lekin shunga qaramay yashashga, yaratishga va o‘z qadriyatlarini yaratishga intiladi. Sizifning yengilmasligi uning falsafiy izlanishlarida ham ko‘rinadi. U haqiqatni izlashga, adolatni topishga va hayotning ma’nosini anglashga harakat qiladi. Sizifning izlanishlari uning o‘zligini anglashga, o‘z o‘rnini topishga va o‘z hayotini mazmunli qilishga yordam beradi.[2]

“Chol va Dengiz” va “Donishmand Sizif” asarlarida yengilmas qahramon obrazining qiyosiy tahlili. Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” romani va Xurshid Do‘stmuhhammadning “Donishmand Sizif” romani adabiyotning turli janrlariga mansub bo‘lishiga qaramay, ularni yengilmas qahramon obrazi birlashtirib turadi. Ikkala asarda ham qahramonlar hayot sinovlariga duch keladi va o‘z iroda kuchi, matonati va o‘z qadriyatlariga sodiqligi orqali yengilmaslikni namoyon etadi. Shunga qaramay, yengilmas qahramon obrazi ikki asarda turlicha shakkarda talqin qilinadi.[3]

“Chol va Dengiz” romanida Santyago – real hayotdagi qahramon, keksa va omadsiz baliqchi. Uning yengilmasligi tashqi dunyo bilan, tabiat bilan bo‘lgan kurashida namoyon bo‘ladi. Santyago ulkan baliqni tutishga intiladi va bu orqali o‘zining mahoratini isbotlamoqchi bo‘ladi. U dengizning shafqatsizligiga, akulalarning hujumiga va o‘zining jismoniy zaifligiga qaramay, taslim bo‘lmaydi. Santyagoning kurashi – bu insonning tabiatga qarshi kurashi, o‘z maqsadiga erishish yo‘lidagi fidoyiligi va o‘z qadrini saqlab qolishga intilishidir. Santyago o‘zining yengilmasligini aniq va real harakatlarda, tabiatga bo‘lgan hurmatida va o‘z qadriga ishonishida ko‘rsatadi.[4]

“Donishmand Sizif” romanida esa Sizif – afsonaviy qahramon. U xudolar tomonidan abadiy toshni tepaga itarishga mahkum etilgan. Sizifning yengilmasligi ichki dunyo, tafakkur bilan kechadigan kurashda namoyon bo‘ladi. Sizif o‘z taqdirining absurdligini anglaydi, lekin shunga qaramay yashashga, yaratishga va o‘z qadriyatlarini yaratishga intiladi.[5] Uning kurashi – bu insonning o‘z taqdiriga qarshi isyon, hayotning ma’nosini izlashga intilishi va o‘z erkinligini saqlab qolishga urinishidir. Sizif o‘zining yengilmasligini falsafiy izlanishlarida, o‘ziga xos dunyoqarashida va hayotga bo‘lgan muhabbatida namoyon etadi. Uning yengilmasligi konkret harakatlardan ko‘ra, uning ichki kechinmalarida, fikrlash tarzida va o‘z taqdiriga munosabatida aks etadi.

Santyagoning kurashi real, konkret, tashqi dunyoga qaratilgan bo‘lsa, Sizifning kurashi afsonaviy, ichki, tafakkurga yo‘naltirilgandir. Santyago dengizning shafqatsizligiga qarshi kurashadi, baliqni tutishga intiladi va akulalardan o‘ljasini himoya qiladi. Sizif esa o‘z taqdirining absurdligiga qarshi kurashadi, hayotning ma’nosini izlaydi va o‘z erkinligini saqlab qolishga harakat qiladi. Santyago o‘zining yengilmasligini jismoniy kuchida, mahoratida va sabr-toqatida ko‘rsatsa, Sizif o‘zining yengilmasligini falsafiy donoligida, o‘z

taqdiriga bo‘lgan munosabatida va o‘z erkinligini saqlab qolishga intilishida namoyon etadi.[6]

Shunday qilib, “Chol va Dengiz” va “Donishmand Sizif” asarlarida yengilmashahramon obrazı har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Santyago real hayotdagi, Sizif esa afsonaviy qahramon bo‘lib, ularning kurashi tashqi va ichki dunyoga yo‘naltirilgan. Shunga qaramay, ikkala qahramon ham o‘z iroda kuchi, matonati va o‘z qadriyatlariga sodiqligi orqali yengilmashlikni namoyon etadi va o‘quvchiga hayotning qiyinchiliklariga bardosh berishga, o‘z maqsadlariga erishishga va o‘z qadrini saqlab qolishga ilhom beradi.

- Iroda kuchi: Santyago ham, Sizif ham kuchli irodaga ega. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday qiyinchilikka tayyor.

- Matonat: Santyago ham, Sizif ham hayot sinovlariga bardosh bera oladi. Ular mag‘lubiyatga uchrasa ham, taslim bo‘lmaydi.

- O‘z qadriyatlariga sodiqlik: Santyago ham, Sizif ham o‘z qadriyatlarini qadrlaydi. Ular o‘z qadriyatlar uchun kurashadi va ularni hayotining ma’nosini deb biladi.[7]

Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” va Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” asarlarida yengilmashahramon obrazining talqinida quyidagi motivlar asosiy o‘rin tutadi:

- Kurash motivi: Ikkala asarda ham kurash – qahramonning yengilmashlik xususiyatini namoyon etuvchi dominant motivdir. “Chol va Dengiz”da bu motiv insonning tabiat bilan kurashida, o‘z mahoratini isbotlashga intilishida aks etadi. Santyagoning ulkan baliq bilan olib borgan jangida iroda, sabr-toqat va o‘z qadriga ishonch kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi. “Donishmand Sizif”da esa kurash ichki xarakterga ega bo‘lib, qahramonning tafakkuri, e’tiqodlari va mavjudlik mohiyatini anglashga urinishi bilan bog‘liqidir. Sizifning toshni tepaga itarish harakati hayotning absurdligi, doimiy takrorlanishi va ma’noni izlashha intilishning ramzi sifatida talqin etiladi.[8]

- Iroda motivi: Iroda - qahramonlarning yengilmashligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Santyago baliq bilan olib borgan kurashda og‘riqqa, ochlikka va charchoqqa qaramay taslim bo‘lmaydi. U o‘z maqsadiga erishish uchun bor kuchini sarflaydi va oxirigacha kurashadi. Sizif ham xudolar tomonidan berilgan azobli taqdirga bo‘ysunmasdan, toshni tepaga itarishni davom ettiradi. Uning bu harakati o‘z taqdiriga qarshi isyon, hayotga muhabbat va erkinlikka intilishning ifodasi sifatida talqin etiladi.[9]

- O‘zlikni saqlash motivi: Qahramonlarning o‘z qadrini, o‘z insoniyligini saqlab qolishga intilishi ularning yengilmashligining muhim jihatidir. Santyago baliqni yo‘qotgan taqdirda ham o‘z sha’nini saqlab qoladi va o‘zini mag‘lubiyatga uchragan deb hisoblamaydi. U uchun muhimi – kurashda ishtirok etish va o‘z qadriyatlarini himoya qilishdir. Sizif ham o‘z taqdirining absurdligini anglagan holda o‘zligini saqlab qolishga harakat qiladi. U falsafiy izlanishlar orqali o‘z savollariga javob topishga, hayotning ma’nosini anglashga va o‘z qadriyatlarini yaratishga intiladi.

II. Asosiy personajlar va ularning yengilmashlik xususiyatlari

Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” asarida Santyago yengilmashahramonning yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Santyago – keksa, omadsiz baliqchi bo‘lib, ko‘p yillar davomida birorta ham katta o‘lja tuta olmagan. Shunga qaramay, u o‘zining boy tajribasi, cheksiz sabr-toqati va mustahkam iroda kuchi bilan ajralib turadi.[10] Uning yengilmashlik xususiyatlari quyidagi jihatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- Ulkan baliq bilan kurashda chidamlilik va qat’iyatlilik ko‘rsatishi: Santyago ulkan baliq bilan kurashda bir necha kun davomida ochlik, chanqoqlik va og‘riqqa chidaydi. U o‘zining jismoniy va ruhiy kuchini oxirigacha ishga solib, taslim bo‘imaslikka harakat qiladi.

Akulalar hujumiga qarshi kurashda o‘z mol-mulkini himoya qilishga urinishi: Santyago tutgan baliqni akulalar yeb ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qo‘lidan kelgan barcha choralarini ko‘radi. U akulalarga qarshi kurashda nayza, pichoq va hatto eshkaklardan ham foydalanadi.

Mag‘lubiyatni qabul qila olish va o‘z qadrini saqlab qolish qobiliyati: Santyago baliqni yo‘qotgan taqdirda ham o‘zini mag‘lubiyatga uchragan deb hisoblamaydi. U o‘zining kuchini sinab ko‘rganini, kurashda ishtirok etganini va o‘z sha’nini saqlab qolganini tushunadi.

- Tabiatga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va uning qonunlariga bo‘ysunish: Santyago dengizning qudratini tan oladi va unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. U dengizning qonunlariga rioya qiladi va uning shafqatsizligiga tayyor turadi.

Xurshid Do‘stmuhhammadning “Donishmand Sizif” asarida esa Sizif afsonaviy qahramon sifatida yengilmaslik xususiyatlarini namoyon etadi. Sizif xudolar tomonidan abadiy toshni tepaga itarishga mahkum etilgan. Uning yengilmaslik xususiyatlari quyidagi jihatlarda aks etadi:

- Abadiy toshni itarishda sabr-toqat va qat’iyatlilik namoyon etishi: Sizif har kuni toshni tepaga itaradi, lekin u har doim pastga dumalab tushadi. Shunga qaramay, Sizif o‘z ishini davom ettiradi va taslim bo‘lmaydi. Uning bu harakati insonning hayotdagि qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatining ramzi hisoblanadi.

O‘z taqdiriga rozi bo‘lmaslik va unga qarshi isyon ko‘tarishi: Sizif xudolar tomonidan berilgan taqdirga bo‘ysunmaydi va unga qarshi isyon ko‘taradi. U toshni itarish orqali o‘z erkinligini, o‘z hayotiga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi.

Falsafiy izlanishlar orqali haqiqatni anglashga intilishi: Sizif o‘z hayotining ma’nosini anglash uchun falsafiy izlanishlar olib boradi. U donishmandlar bilan suhbatlashadi, kitoblar o‘qyidi va o‘z savollariga javob topishga harakat qiladi.

Hayotning absurdligiga qaramay yashashga va yaratishga intilishi: Sizif o‘z taqdirining absurdligini anglagan holda ham yashashga va yaratishga intiladi. U o‘z hayotining ma’nosini topishga harakat qiladi va o‘z qadriyatlarini yaratadi.[11]

Shunday qilib, Santyago va Sizif turli xil sharoitlarda yashaydigan va turli xil vazifalarni bajaradigan qahramonlar bo‘lishiga qaramay, ularning har ikkalasi ham yengilmaslik xususiyatlariga ega. ularning iroda kuchi, sabr-toqati, matonati va o‘z qadriyatlariga sodiqligi ularni yengilmas qahramonlar sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Asosiy Obrazlar va ularning yengilmaslikni ifodalashi

Dengiz (“Chol va Dengiz”): Dengiz – tabiatning qudrati, hayotning sinovlari, insonning o‘ziga ishonchi va matonatining ramzi. Santyago dengizning shafqatsizligiga qaramay, unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va unda o‘z kuchini sinaydi. Dengiz, ayni paytda Santyagoning kurash maydoni bo‘lib, u o‘zining yengilmasligini aynan shu maydonda namoyon etadi.

Ulkan baliq (“Chol va Dengiz”): Ulkan baliq – Santyago uchun sinov, raqib va maqsad timsoli. Santyago baliq bilan kurashda o‘z qadrini isbotlaydi, o‘z mahoratini namoyon etadi va o‘z maqsadiga erishishga intiladi. Baliqning yo‘qolishi Santyagoning mag‘lubiyati emas, balki uning kuchini, matonatining isbotidir.

- Tosh (“Donishmand Sizif”): Tosh – hayotning ma’nosizligi, takrorlanuvchanligi, insonning og‘ir yuki va azob-uqubatlarining ramzi. Sizifning toshni itarishi – hayotning absurdligiga qaramay yashashga intilish, o‘z taqdiriga qarshi isyon qilish, erkinlik va ma’noni izlashning metaforasidir.

Xulosa. Ernest Xeminguey va Xurshid Do‘stmuhammad o‘z asarlarida yengilmas qahramon obrazini yaratish orqali insonning matonati, iroda kuchi va hayotga muhabbatini aks ettiradilar. “Chol va Dengiz” asarida Santyagoning tabiat bilan kurashi, “Donishmand Sizif” asarida Sizifning o‘z taqdiriga qarshi isyonini insonning yengilmasligining yorqin namunalaridir. Mualliflar qo‘llagan motivlar, personajlar, obrazlar va metodologiyalar asarlarning badiiy qimmatini oshiradi va o‘quvchini chuqur falsafiy mulohazalarga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xeminguey, Ernest. Chol va dengiz. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2017.
2. Do‘stmuhhammad, Xurshid. Donishmand Sizif. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Abrams, M.H. A Glossary of Literary Terms. Boston: Thomson Wadsworth, 2005.
4. Eagleton, Terry. Literary Theory: An Introduction. Minneapolis: University of Minnesota Press, 2008.
5. Wellek, René; Warren, Austin. Theory of Literature. New York: Harcourt, Brace & World, 1956.
6. Sartre, Jean-Paul. Being and Nothingness. London: Routledge, 2003.
7. Camus, Albert. The Myth of Sisyphus. London: Penguin Classics, 2005.
8. Baker, Carlos. Hemingway: The Writer as Artist. Princeton: Princeton University Press, 1972.

-
9. Young, Philip. Ernest Hemingway. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1959.
 10. Benson, Jackson J. The Short Stories of Ernest Hemingway: Critical Essays. Durham: Duke University Press, 1990.
 11. Quronov, Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Nurafshon biznes, 2019.

F. SCOTT FITZGERALDNING BUYUK GATSBY ASARIDA YO'QOTILGAN AVLOD TUSHUNCHASI: MADANIY INQIROZ VA SHAXSIY IDENTITETNING FRAGMENTATSIYASI

Qurbanova Shahlo Shuxrat qizi
 Toshkent davlat yuridik universiteti
 Xorijiy tillar kaferdasi katta o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)
shakhloqurbanova15@gmail.com
 ORCID 0009-0008-7057-7119
 UDK 82-94:159.9:316.7

Annotatsiya. Ushbu maqola, F. Scott Fitzgeraldning *Buyuk Gatsby* asarida aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasini psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatdan puxta tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot asaridagi markaziy motivlar – an'anaviy qadriyatlarining parchalanishi, shaxsiy identitetning fragmentatsiyasi va posturush davridagi madaniy inqiroz – chuqur o'rganiladi. Maqolada yo'qotilgan avlod tushunchasi insonlarning shaxsiy iztiroblari, ichki konfliktlari va madaniy tanazzul orqali ifodalanishi hamda jamiyatning normativ strukturasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq murakkab dialektik munosabatlar kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy diskurs, stilistika, semiotika va ekzistensial nazariyalar asosida interdisipliner yondashuv qo'llanilgan. Ushbu tadqiqot kelgusidagi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi nazariy va metodologik yondashuvlar asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yo'qotilgan avlod, madaniy inqiroz, identitet fragmentatsiyasi, posturush davri, adabiy diskurs, psixologik tahlil, semiotika, ekzistensial nazariya.

THE CONCEPT OF THE LOST GENERATION IN F. SCOTT FITZGERALD'S THE GREAT GATSBY: CULTURAL CRISIS AND FRAGMENTATION OF PERSONAL IDENTITY

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the concept of the lost generation as depicted in F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby*. Focusing on the disintegration of traditional values, the fragmentation of personal identity, and the cultural crisis that emerged in post-war America, the study examines how these themes are represented through the novel's narrative. Employing an interdisciplinary approach that integrates literary discourse analysis, stylistic evaluation, semiotic interpretation, and existential theories, the article reveals the complex interplay between individual experiences and socio-cultural realities. The findings indicate that the lost generation concept in *The Great Gatsby* serves as a critical commentary on the erosion of established norms and the formation of a new, ambiguous cultural identity. This research contributes to the development of theoretical and methodological frameworks in literary and cultural studies, offering new insights into the multifaceted dimensions of modern identity crisis.

Keywords: lost generation, cultural crisis, identity fragmentation, post-war period, literary discourse, psychological analysis, semiotics, existential theory

Kirish. F. Scott Fitzgerald tomonidan yaratilgan *Buyuk Gatsby* asari Amerikaning birinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqirozlarni aks ettiruvchi eng muhim adabiy asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda yo'qotilgan avlod tushunchasi orqali avlodning an'anaviy qadriyatlarining parchalanishi, shaxsiy identitetning fragmentatsiyasi va madaniy inqirozning yuzaga kelishi chuqur ifodalanadi. Maqola doirasida, asardagi markaziy motiv – yo'qotilgan avlod tushunchasi – insonlarning shaxsiy iztiroblari, jamiyatning normativ strukturalari va posturush davrining madaniy realitetlari bilan yuzaga kelgan murakkab dialektik munosabatlar orqali o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, asarda aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasining adabiy diskursdagi ifodalanishini, shaxsiy va kollektiv identitetning parchalanishi hamda yangi normativlarning shakllanishini aniqlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning obyekti – *Buyuk Gatsby* asarida ifodalangan yo'qotilgan avlod tushunchasi, uning psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlari, shaxsiy iztiroblar va an'anaviy qadriyatlarining parchalanishi bo'lgan. Tadqiqotda quyidagi

metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Komparativ tahlil: Asardagi asosiy motivlar va ularning ifodalaniши, турли madaniy kontekstlar va tarixiy sharoitlar asosida solishtirib o'рганилди. Bu yondashuv orqali, yo'qotilgan avlod tushunchasining qahramon obrazlari orqali aks etishidagi umumiyyat va o'ziga xos xususiyatlар aniqlanib, o'рганилди.

Psixologik analiz: Qahramonlarning ichki dunyosidagi psixologik konfliktlar, shaxsiy iztiroblar va identitetning fragmentatsiyasi chuqr o'рганилди, asarda aks etayotgan shaxsiy krisisning asosiy elementlari aniqlandi.

Diskursiv tahlil: Asardagi til, stil va semantik ifodalarning nozikligi tahlil qilinib, yo'qotilgan avlod tushunchasining adabiy diskursdagi o'mini va uning ijtimoiy-siyosiy kontekst bilan aloqasini ochib berish uchun lingistik va stilistik usullar qo'llanildi.

Falsafiy ekzistensial yondashuv: Mavjudlik, erkinlik va madaniy tanazzul masalalari, ekzistensial nazariyalar doirasida kontekstualizatsiya qilinib, asardagi yo'qotilgan avlod tushunchasining shaxsiy va kollektiv identitetning parchalanishi bilan bog'liq murakkabligini yoritdi.

Ushbu yondashuvlarning sintezi, asarning murakkab psixologik va ijtimoiy qatlamlarini puxta yoritishga va yo'qotilgan avlod tushunchasining adabiy diskursdagi o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Tahliliy jarayonda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Shaxsiy identitet fragmentatsiyasi va madaniy inqiroz: Asarda qahramonlarning shaxsiy iztiroblari va ichki konfliktlari orqali, avlodning an'anaviy qadriyatlarining parchalanishi hamda yangi, noaniq madaniy normativlarning shakllanishi aks etadi. Ushbu jarayon, posturush davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy realitetlaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Adabiy diskurs va stilistik ifodalar: Asardagi til va stilistik vositalar, metaforalar, allegoriyalar va ramziy ifodalar yordamida, yo'qotilgan avlod tushunchasining murakkab qatlamlari puxta yoritildi. Bu elementlar qahramonlarning ichki dunyosidagi dinamika va jamiyatning qadriyatlarini orasidagi ziddiyatlarni chuqr aks ettiradi.

Kollektiv identitet inqirozi: Asarda yo'qotilgan avlod tushunchasi, nafaqat shaxsiy iztiroblar, balki kollektiv identitetning inqirozini ham aks ettiradi. Bu tushuncha jamiyatning o'ziga xos madaniy-siyosiy strukturasining parchalanishi va yangi normativlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq murakkab dialektik munosabatlarni ifodalaydi.

Natijaviy tahlil, asarda aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasining inson psixologiyasi va madaniyatining murakkab qatlamlarini ochib berishini, shuningdek, bu tushuncha orqali posturush davri ijtimoiy-siyosiy inqirozini aniq ifodalashini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqola *Buyuk Gatsby* asarida aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasining psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlarini chuqr tahlil qilgan holda, inson ruhiyati va jamiyatning murakkab dialektik munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asarda aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasi, qahramonlarning shaxsiy iztiroblari va identitet fragmentatsiyasi orqali, posturush davr madaniyatining inqirozini aks ettiradi. Bu tushuncha insonning shaxsiy va kollektiv identitetining parchalanishi, ijtimoiy normativlarning o'zgarishi va madaniy tanazzul bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq qamrovda o'rganish uchun tavsiya etiladi:

- Adabiy asarlardagi yo'qotilgan avlod tushunchasining ramziy va stilistik ifodalarini yanada chuqurroq tahlil qilish;
- Psixologik va ijtimoiy omillarni birlashtiruvchi interdisipliner yondashuvlarni rivojlantirish;
- Turli madaniy kontekstlarda yo'qotilgan avlod tushunchasining qanday aks etishini taqqosiy tahlil asosida o'rganish.

Ushbu tadqiqot, kelgusidagi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi nazariy va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf, M. (2015). *O'zbek adabiyoti nazariyasi: Qahramon obrazlari va psixologik tahlil*. Toshkent, O'zbekiston: Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Islomov, A. (2017). *Adabiy realizm va ekzistensializm: Hudkushlik tushunchasining teoretik asoslari*. Samarqand, O'zbekiston: Ilmiy Nashriyot.
3. Rahmonov, S. (2018). *Suidsid fenomeni va adabiy qahramonlar: Zam'onaviy yondashuv*. Buxoro, O'zbekiston: Madaniyat va san'at noshirligi.
4. Fitzgerald, F. S. (1925). *Buyuk Gatsby*. New York, NY: Charles Scribner's Sons.
5. Camus, A. (1942). *Sisif afsonasi* (M. Gilbert tarjima qilgan). New York, NY: Vintage Books. (Asl asar 1942 yilda chop etilgan)
6. Sartre, J.-P. (1943). *Borlik va yo'qotish*. New York, NY: Washington Square Press.
7. Baker, C. (2003). *Hemingwayning "Qari odam va dengiz" asari: Klassik asarni o'rganish*. London, UK: Routledge.
8. Johnson, P. (2018). *Zam'onaviy adabiyotda ramzlar: Absurdizmning taqqosiy o'rganilishi*. Oxford, UK: Oxford University Press.
9. Miller, L. (2007). *Absurdlik va inson holati: Adabiyotdagi ekzistensial mavzular tahlili*. New York, NY: Palgrave Macmillan.
10. Davis, S. (2015). *Zam'onaviy badiiy asarlarda narrativ texnikalar*. London, UK: Routledge.
11. Wilson, T. (2012). *Zam'onaviy adabiyotga psixoanalitik yondashuvlar*. New York, NY: Springer.
12. Green, R. (2010). *Madaniy tanqid va adabiy tahlil: O'zaro bog'liqlikni o'rganish*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
13. Jones, H. (2016). *Modernizm estetikasi: 20-asrdagi ramz va absurdlik*. Chicago, IL: University of Chicago Press.
14. Brown, L. (2019). *Adabiyotda yo'qotilgan avlod: Urushdan keyingi identitet va umidsizlik*. New York, NY: Routledge.

XILVATIYNING “MAVLUDI SHARIF” ASARIDAGI G’AZALLARNING BADIY XUSUSIYATLARI

Nizomjonova Zarina Nizomjon qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti

nizomjonovazarina039@gmail.com

UDK 82-94:82-3:82-1

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xilvatiy qalamiga mansub “Mavludi Sharif” asarining tarkibiy tuzilmasi, xususan, unda uchraydigan g‘azal janridagi she’rlar matnshunoslik va adabiy tahlil nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Asarda keltirilgan ikki g‘azalning poetik shakli, mazmuniy yondashuvi va diniytasavvufiy g‘oyalari tahlil qilinib, ularning mavlud janri doirasidagi badiiy vazifasi ochib beriladi. G‘azallarning Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam siyemosini madh etish, uning oliv fazilatlarini tasvirlash hamda Allohga yaqinlikni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu she’riy parchalar orqali muallifning ruhiy holati, tasavvufiy dunyoqarashi va adabiy mahorati tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida matnshunoslik, tarixiy-filologik va badiiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqola Xilvatiyning diniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ijodini yoritishga xizmat qiladi hamda mumtoz adabiyotda g‘azal janrining mavlud asarlaridagi tutgan o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Mavludi Sharif, Xilvatiy, g‘azal, matnshunoslik, adabiy tahlil, diniy-mistik ma’no, tasavvuf, badiiy xususiyatlari.

THE GHAZAL GENRE AND ITS ARTISTIC FEATURES IN KHILVATIY'S “MAWLUDI SHARIF”

Abstract. This article explores the structure of “Mawlid Sharif,” a literary work attributed to Hilvatiy, with a specific focus on the ghazals embedded in the text, analyzed through textual and literary lenses. The poetic form, thematic content, and religious-Sufi symbolism of the two ghazals included in the work are thoroughly examined. The role of these ghazals in praising the Prophet Muhammad (peace be upon him), depicting his noble qualities, and expressing spiritual closeness to God is highlighted. The analysis also reveals the author’s spiritual worldview, Sufi inclinations, and literary mastery. The study employs methods of textual criticism, historical-philological analysis, and literary interpretation. This article contributes to the understanding of Hilvatiy’s religious and didactic literary heritage and clarifies the place of the ghazal genre within the structure of mawlid literature.

Keywords: Mawlid Sharif, Xilvatiy, ghazal, textual studies, literary analysis, religious-mystical meaning, Sufism, artistic features.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan va o‘z davri mumtoz adabiyotining namoyandasini bo‘lgan Mulla Yo‘ldosh To‘raboy o‘g‘li Xilvatiy zullisonayn shoir, asarlarini turkiy va forsiyda yozgan. Shoir asarlarida Bedil, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy an'analarini davom ettirib, ularga nazira, tatabbu’ va muxammaslar bog‘l44441agan.

Xilvatiydan bizgacha shoir o‘z qo‘li bilan yozgan ikkita (dastxat) qo‘lyozma devon yetib kelgan. Birinchi devoniga o‘zbek tilidagi 6886 bayt va fors tilidagi 770 baytdan iborat 53 ta she‘r jamlangan. Ikkinci devoniga esa o‘zbek va fors tillaridagi jami 4540 bayt she‘r kiritilgan. Devonda 239 baytdan iborat o‘zbek va fors tillarida yozilgan boshqa shoirlarning she‘rlari ham uchraydi. Xilvatiy shaxsan o‘zi tartib bergan “Devoni Xilvatiy” asari qo‘lyozmasining bir nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondida, ikkinchi nusxasi esa shoirning jiyani Abdulla Yo‘ldoshev qo‘lida saqlanadi[1:7-8-b]. Ayniqsa, uning “Mavludi Sharif” asari o‘z davri va keyingi asrlarda keng tarqalib, xalq orasida diniy marosimlar, ma‘rifiy tadbirlar davomida o‘qib o‘rganilgan. Turkiy adabiyotda Mavlud janri diniy-ma‘rifiy ruhda yaratilgan asarlar ichida muhim o‘rin tutadi. Bu janr Muhammad alayhissalomning tavallud topgan kunini madh etish, u zotning go‘zal axloq va fazilatlarini ulug‘lash orqali musulmonlarda muhabbat, e’tiqod va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xilvatiy qalamiga mansub “Mavludi Sharif” asari ham o‘zbek diniy-ma‘rifiy adabiyotining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar, ayniqsa, Muhammad alayhissalomning siyratini sharaflash, u zotning tug‘ilishlari, hayot yo‘llari va bashoratl maqomlarini tarannum etish orqali diniy-ma‘rifiy tarbiyani keng targ‘ib qiladi. “Mavludi Sharif” asari nafaqt diniy mazmun bilan, balki badiiy tasvir vositalarining xilmaxilligi bilan ham e’tiborli. Asarda muallif didaktik rivoyatlar, tarjimayi hol parchalari bilan bir qatorda lirik she‘r shakllaridan, jumladan, g‘azal janridan ham keng foydalangan.

G‘azal – Sharq she‘riyati, xususan, turkiy adabiyotda eng ko‘p tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, uning diniy-didaktik asarlarda ishlatalishi maxsus poetik vazifa bajaradi. “Mavludi Sharif”dagi g‘azallar esa o‘ziga xos diniy-falsafiy ruh, sof ilohiy ishq va payg‘ambarona muhabbat bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ular asarning umumiy badiiy tuzilmasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu g‘azallar orqali muallif faqatgina g‘azal janrining shakliy imkoniyatlarini emas, balki uning g‘oyaviy-estetik salohiyatini ham chuqur ochib bera olgan.

Ushbu g‘azallar vositasida shoirning badiiy niyati, ruhiy kechinmalari, Rasulullohga bo‘lgan cheksiz ehtirom va muhabbati tasvirini matnshunoslik nuqtayi nazaridan yoritish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Asardan o‘rin olgan g‘azallar mazkur janrning diniy-tasavvufiy yo‘nalishidagi yorqin namunalaridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xilvatiyning “Mavludi Sharif” asarini ilmiy tadqiq etishda dastlab bu janrdagi asarlar, xususan, Sulaymon Chalabiyning “Vasilat-un-najot” asari bilan o‘xhash va farqli jihatlarni qiyoslash muhim bo‘ladi. Negaki Xilvatiy asarining tuzilishi, undagi she‘riy shakllarning joylashuvi hamda diniy-ma‘rifiy yo‘nalishi mazkur klassik namunalardan ilhomlanganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, V. Rahmonov, A. Hojiahemov, A. Hayitmetov kabi adabiyotshunoslarning turkiy she‘riyat, diniy-didaktik asarlar hamda g‘azal janri bo‘yicha yozilgan tahliliy maqola va monografiyalarida keltirilgan uslubiy yondashuvlar mazkur tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, A. Hayitmetovning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” nomli kitobi orqali mavludlardagi diniy ramz va tasavvufiy g‘oyalarini tahlil qilish imkoniyati ochiladi.

Xilvatiy g‘azallarining badiiy tahlilida esa Begali Qosimov, Husniddin Eshonqulov, Obidjon Karimovlarning badiiyatga doir qarashlari asos bo‘ldi. Ushbu adabiyotlar va tadqiqotlar g‘azal janrining “Mavludi Sharif” tarkibida qanday badiiy va g‘oyaviy vazifa bajarishini tahlil qilishda mustahkam ilmiy tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda adabiy matnni o‘rganishning matnshunoslik va adabiyotshunoslilik usullari asos qilib olindi. Matnshunoslik yondashuvi orqali g‘azallarning asardagi o‘rni, vazifasi va tarkibiy strukturasiga e’tibor qaratildi. Ayniqsa, g‘azal baytlaridagi diniy-tasavvufiy ramzlar, Qur‘oniy ishoratlar va hadisi shariflar tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida tarixiy-filologik metod asosida asarning yozilgan davri, muallif shaxsiyati va uning adabiy-madaniy muhiti kontekstida g‘azallar mazmuni sharhlab borildi. Shuningdek, tahlilda kontekstual yondashuvdan ham foydalаниlib, g‘azal baytlari asar umumiy g‘oyasi bilan bog‘liq holda izohlandi. Fikrlar zamонави илмиy qarashlar, ilgari

yozilgan maqolalar va fundamental asarlar asosida asoslab berildi.

Natijalar va muhokama. Xilvatiyning “Mavludi Sharif” asarida ikkita g‘azal keltirilgan. Ulardan birinchisi quyidagi “**Marhabo, ey Sarvari har du jahon...**” deb boshlanuvchi g‘azaldir:

Marhabo, ey Sarvari har du jahon
Sayyidi olam, Rasuli insu jon.
Marhabo, ey Podshohi koinot,
Masnadoroyi zaminu osmon.
Marhabo, ey Rostini(sirdosh) qurbi Haq,
Mahrami ishratsaroyi lomakon.
Marhabo, ey “Rahmatan lil-olamin”,
Shoffi’i ahli gunohu osiyon...
Marhabo, ey sadqai xoki rahing,
Huru g‘ilmonu bihishti jovidon.
Yo Rasululloh, qasdi Xilvatiy
Shulki, bergay yo‘lungizda xasta jon.[1:104-105-b]

Na’t mazmunidagi ushbu g‘azal 12 baytdan iborat bo‘lib, Muhammad alayhissalomning ulug‘ maqomi, fazilatlari va insoniyat uchun rahmat bo‘lgan zot sifatidagi siyoshi tasvirlanadi.

Har baytning “Marhabo” xitobi bilan boshlanishi g‘azalga o‘ziga xos ohang va musiqiylik baxsh etadi. Bu uslub mavludiy g‘azal janrining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bu uslubiy takror orqali muallif nafaqat payg‘ambarni madh etadi, balki o‘quvchida botiniy ehtirom, ixlos va muhabbat tuyg‘usini uyg‘otadi. Har bir bayt Muhammad alayhissalomning muayyan sifatini ochib beradi.

Ayniqsa, to‘rtinchi bayt u zotning islom dinidagi oliy maqomi va butun insoniyatga rahmat qilib yuborilganini madh etishga qaratilgan. Bu o‘rinda Qur’oni karimning “Anbiyo” surasining 107-oyatiga dalolat mavjud:

وَمَا أَرْسَلْنَا إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ

Mazmuni: *Biz seni faqat olamlarga rahmat qilib yubordik.*

“Shoffi’i ahli gunoh” iborasida esa Muhammad alayhissalomning Qiyomat kunida ummatlarga shafoatchilik maqomi yuksak darajada ulug‘lanadi. U nafaqat gunohkorlar, balki osiylar – ya’ni og‘ir gunoh sohiblari uchun ham shafoatchi bo‘lishi umid bilan tilga olinadi. Bu ifoda islom aqidasi doirasida Rasulullohning qiyomat kunidagi eng ulug‘ maqom – “maqom-i mahmud” egasi sifatidagi o‘rni bilan bog‘liq.

Baytdagi badiiy san‘atlardan biri bu “tazod” san‘atidir. “Rahmat” hamda “gunoh va osiylik” orqali shoir ilohiy rahmatning cheksizligini, hatto eng gunohkor kishilarga ham shafoat yetishini badiiy shaklda ifodalaydi.

Shu bilan birga, ushbu g‘azalda Xilvatiy o‘ziga xos badiiy tasvir vositalari orqali Rasulullohning siyosini yanada ulug‘vor tasvirda gavdalantiradi. Masalan, “Podshohi koinot”, “Masnadoroyi zaminu osmon” tashbehlari vositasida Muhammad alayhissalomning butun borliq ustidagi hukmron maqomi ta’riflanadi. Ayniqsa, “Mahrami ishratsaroyi lomakon” kabi ifodalar orqali istiora san‘ati vositasida u zotning ilohiy haqiqatga yaqinligi, abadiy mavjudot sirlari bilan oshno ekani poetik tasvirda beriladi.

Shuningdek, g‘azalda Xilvatiy Rasulullohni Alloh huzuriga eng yaqin, lomakondagi “ishrat saroyi”ga maxfiy sherik, ya’ni haqiqatga bevosita bog‘langan zot sifatida tasvirlaydi. Bu esa g‘azalning diniy-ma’rifiy ohangda yozilganidan dalolat beradi.

Xilvatiy bu g‘azalda samimiy va hassos ohangda murojaat qiladi:

Yo Rasululloh, qasdi Xilvatiy,

Shulki, bergay yo‘lungizda xasta jon – misralari orqali u o‘zini butunlay Rasululloh yo‘liga bag‘ishlagan, jonini ham fido qilishga tayyor bandasi sifatida namoyon qiladi.

Xilvatiy “Mavludi Sharif”idagi ikkinchi she’riy asar “G‘azali Digar”da sarlavhasi bilan berilgan. Unda Muhammad alayhissalomning dunyoga kelishlari insoniyat uchun ulkan sharaf va nurli mo‘jiza sifatida ulug‘lanadi. Bu g‘azalning har bir bayti “Xush keldingiz”

radifi bilan yakunlanib, mazmunan qasida va madhiyaga yaqin turadi. Unda samoviy tasvirlar, ilohiy nurlar va nabaviy fazilatlar o‘zining badiiy ifodasini topgan:

Bu fano dayr ichra, ey Nuri Xudo, xush keldingiz
 Mabdai nuru ziyo, koni safo, xush keldingiz!
 Shu’lai sham’i risolat partavi xurshidi qurb
 Axtari burji nubuvvat Ahmado xush keldingiz!
 Laylatul-me’ rojda qilmoq uchun sizga Buroq,
 Qudsylarning diydasiga to‘tiyo xush keldingiz!...
 Sayyidi avlod Odam Hotami payg‘ambaron,
 Podshohi barchai xalqi Xudo, xush keldingiz!
 Xilvaliydek ro‘siyohlarni shafoat qilg‘ali
 Ro‘zi mahshar dashtida, yo Sayyido, xush keldingiz![1:106-107-b]

G‘azalning birinchi baytidayoq “Bu fano dayr ichra, ey Nuri Xudo, xush keldingiz” misrasi bilan Rasulullohning dunyoga kelishi “foniy dunyo”ni nur va saodatga to‘ldirgani ta’kidlanadi. Bu g‘azal sadoqat, sajda va hayrat ohangida yozilgan bo‘lib, muallif har baytda biror ilohiy fazilat yoki tarixiy-ma’naviy hodisa orqali u zotning yuksak maqomini madh qiladi.

“Mabdai nuru ziyo, koni safo” misrasi orqali u zot nur va safo (soflik) manbai sifatida ta’riflanadi.

Uchinchi baytda Muhammad alayhissalom bilan bog‘liq mo‘jizalardan biri – Me’roj kechasi tilga olinib, u zotga alohida ilohiy e’tibor bo‘lgani eslatiladi. Shuningdek, g‘azalda ko‘plab Qur’oni va tasavvufiy obrazlar – Buroq Laylatul-me’roj, shafqat, shafoat, peshvo, muqtado, mahshar kabi iboralar ishtirot etadi. Bu esa g‘azalning diniy-ma’rifiy mohiyatini yuksak darajaga olib chiqadi. Muallif Payg‘ambarni “axtari burji nubuvvat”, “mehri anvari arzu samo”, “la’li purbaho” deya sifatlab, ilohiy fazilatlarning timsoli sifatida ko‘rsatadi. G‘azalda har bir bayt mustaqil obraz va chuqur tasavvufiy ma’no bilan to‘ldirilgan bo‘lib, Xilvaliy bu orqali o‘zining Rasulullohga bo‘lgan ehtiromini har bir so‘zda ifodalaydi.

	Muallif	G‘azal nomi	G‘oyaviy-badiiy mazmuni	G‘azal tuzilishi
1.	Xilvaliy	“Marhabo, ey Sarvari har du jahon...”	Payg‘ambarga muhabbat, nur, ulug‘lash.	12 bayt. Ramali musaddasi mahsuf vaznida.
2.	Xilvaliy	“G‘azali Digar”	Risolat sharafi, shafoat, hidoyat.	10 bayt. Ramali musaddasi mahsuf vaznida.

Muallif ushbu g‘azalda ham ko‘plab badiiy san’atlarni ustalik bilan qo‘llaydi: Tashbeh san’ati orqali “Charxi safvat avjida shamsuz-zuho” deya Payg‘ambarning nuri quyosh nuridan ham yuksakligi tasvirlanadi. “Mash’ali shomi zamin”, “sham’i fonusi falak” baytda istiora san’ati mohirona qo‘llanib, Muhammad alayhissalom insoniyat zulmatini yorituvchi mash’ala va sham’ sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, “Xush keldingiz” iborasining takrori g‘azal mohiyatini ochishga xizmat qilganini e’tirof etish lozim. So‘nggi baytda esa Rasulullohning shafoatchilik sifatlariga urg‘u beriladi:

Xilvaliydek ro‘siyohlarni shafoat qilgali,
 Ro‘zi mahshar dashtida, yo Sayyido xush keldingiz.

Bu holat g‘azalga tavba, muhabbat va ehtirom ruhini olib kiradi. Ijodkorning shaxsiy tuyg‘ulari g‘azal ichida ilohiy mavzu bilan uyg‘unlashgan.

Xulosa va takliflar. “Mavludi Sharif” asari janr jihatidan mavlud bo‘lishi bilan birga, turli janrlar, jumladan, g‘azal janrini ham qamrab olgan bo‘lib, ular asarning umumiy badiiy va ma’naviy salmog‘ini oshirgan. Har ikki g‘azalda ham Muhammad alayhissalom shaxsi ulug‘ bir nur, haqiqat, rahmat va shafoat manbai sifatida tasvirlanadi. Shoir bu g‘azallarda nafaqat ilohiy muhabbatni ifodalaydi, balki o‘zining ichki ruhiy holatini, tavba va iltijoga to‘la ichki kechinmalarini ham she’riy ifoda bilan bayon etadi.

G‘azallarda islomiy tarix, Qur’oni karim ramzları, hadislar va tasavvufiy qarashlar badiiy yo‘sinda ifodalangan. Ayniqsa “Laylatul-me’roj”, “Ro‘zi mahshar”, “sham’i fonusi

falak”, “Shohsuvori borgohi Kibriyo” kabi ifodalar orqali muallif nabaviy nur, Payg‘ambar shafoati, olamlar sarvari maqomi kabi tushunchalarni o‘ziga xos, badiiy talqinda tasvirlaydi.

G‘azallarda qo‘llangan tashbeh, istiora, tazod, tajnis kabi badiiy san‘at vositalari nafaqat g‘azallar mazmunini kuchaytiradi, balki ularni estetik jihatdan ham mukammal qiladi. “Xush keldingiz” radifi esa har bir baytda ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Bu esa Xilvatiyning badiiy mahorati va diniy-ilmiy dunyoqarashini namoyon qiladi.

Xulosa shuki, “Mavludi Sharif”dagi g‘azallar Xilvatiyning badiiy tafakkuri, diniy-ma’rifiy bilimlari va ilohiy ishqidan kelib chiqqan ichki ruhiyatini aks ettiradi. Bu g‘azallar orqali shoir Muhammad alayhissalom siymosini yuksak maqomda ulug‘laydi. Shu bilan birga, o‘quvchini ham shu ruhiy holatga olib kirishga erishadi. Xilvatiy ijodining bu qismi turkiy adabiy merosimizda diniy she’riyatning badiiy va falsafiy imkoniyatlarini namoyish etuvchi yuksak namunalar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Xilvatiy g‘azallari va ularning matnshunoslik jihatdan tadqiqi kelgusida yana kengroq ilmiy izlanishlar olib borish, ayniqsa, g‘azallardagi Qur’oniylar tashbehlari, diniy-axloqiy tushunchalarni zamonaviy talqinda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mulla Yo‘ldosh Xilvatiy. Mavludi Sharif. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 174 b.
2. Mavlid kitobi. – Toshkent: Book Media Nashr, 2024. – 139b.
3. Boltayeva O. Xilvatiy ijodini o‘rganishda qiyosiy-tipologik tadqiq metodidan foydalanish. 2023. 23-noyabr.
4. Hojiahmedov A. She’riy san‘atlari va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. - 156 b.
5. Rahmonov V. She’r san‘atlari. – Toshkent: Sharq, 2020. – 74 b.
6. Erkinov A. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari (qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, 2019.
7. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSHI, 2012. – 182 b.
8. Karimov O. Mumtoz she’riyat janrlari (uslubiy qo‘llanma).–Toshkent:“Namangan” nashriyoti, 2015. – 84 b.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 309 b.
10. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2022. – 252 b.

SAVDO LEKSIKASINING YOZMA MANBALARDA AKS ETISHI

To‘raliyev Baxodir Erali o‘g‘li

Termiz davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

bturaliyev996@gmail.com

ORCID 0009-0006-4439-3151

UDK 81’374.2:930.85

Annotatsiya. Maqlada savdo leksikasining turkiy yozma manbalarda aks etishi tadqiq etilgan. Qadimiy turkiy tillardagi savdo terminologiyasi IX–XIV asr adabiy yodgorliklari, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lugotit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarlari va o‘rta asr lug‘atlari asosida tahlil qilinadi. Kamoliddin Shamsiddin izlanishlariga ko‘ra, savdo sohasiga oid 160 ga yaqin leksema, shu jumladan savdo, sotish, bozor, pul va karvon atamalari aniqlangan. S. Mutallibovning tematik guruhalshirish usuli qo‘llanilib, leksemalarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati o‘rganilgan. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida savdo va savdogarlikka oid terminlarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Ushbu leksemalarning rus va boshqa tillarga o‘zlashishi, ularning jonli nutqdagi variantlari va tarixiy evolyutsiyasi o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarbligi ko‘rsatiladi. Tadqiqot yozma manbalardagi savdo leksikasining rivojlanish traektoriyasini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: savdo, pul, yozma manba, turkiy leksemalar, o‘zlashma so‘zlar.

REFLECTION OF TRADE VOCABULARY IN WRITTEN SOURCES

Annotation: The article examines the representation of trade-related vocabulary in Turkic written sources. The trade terminology of ancient Turkic languages is analyzed based on literary monuments from the 9th to 14th centuries, particularly Mahmud Kashgari’s “Devoni lugotit-turk”, Yusuf Khos Hojib’s “Qutadgu bilig”, Ahmad Yugnaki’s “Hibbat ul-haqoyiq” and medieval dictionaries. According to Kamoliddin Shamsiddin’s research, approximately 160 trade-related lexemes, including terms for trade, sale, market, money, and caravan, have been identified. S. Mutallibov’s thematic grouping method is applied to study the socio-spiritual significance of these lexemes. The use of trade and commerce-related terms in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur is analyzed. The assimilation of these lexemes into Russian and other languages, their variants in living speech, and their historical evolution are highlighted as significant for Uzbek linguistics. The study elucidates the developmental trajectory of trade vocabulary in written sources.

Keywords: trade, money, written source, Turkic lexemes, loanwords.

Kirish. Ma'lumki, har bir soha leksikasi lisoniy nuqtayi nazaridan o'z tasnifiga ega hamda bugungi kunda boshqa sohalar kabi savdo leksikasi ham shakllanib ulgurdi. Hozirda ushbu leksikani har tomonlama tahlil qilish, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, soha leksemalarining umumlug'atda va manbalarda qanday aks etishini tahlil va tadqiq etish, bu guruh leksemalarining jonli nutqdagi variantlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi va ortologiyasi uchun dolzarb hisoblanadi. Savdo sohasi qadim davrlardan yaxshi shakllangan. Bu sohaning o'ziga xos leksikasi va terminlari bo'lgan.

Savdo leksikasining qadimgi turk davrida juda yaxshi rivojlangan sohalardan biri bo'lganligini, turkiy qabilalar savdo sohasida juda yaxshi tajribaga ega bo'lganligini professor Kamoliddin Shamsiddin aniq faktlar asosida dalillagan. Olim "Qadimgi turklarda savdo" nomli tadqiqotida savdo sohasining tarixiy jarayonini hamda savdo bilan bog'liq leksikaning eski davrdagi variantlarini tahlil qildi. Olim bunday tahlil uchun kerakli manbalar sifatida "...IX – XII asrlarga oid o'rta asr turk adabiyoti yodgorliklaridir, masalan, Qur'onning turkcha tarjimasi (X – XII asrlar), Yusuf Xos Hojib al-Bolosag'uniyning "Qutadg'u bilig" (XI asr), Ahmad al-Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" (IX yoki XI asr), al-Hakim at-Termiziyyining "Irshod at-tolibin" (IX asr), Ahmad Yassaviyining "Devon-i Hikmat" (XII asr) va boshqalar. Manbalarning asosiyalaridan biri XI – XIV asrlarga oid o'rta asr turk lug'atlaridir. Ularning eng muhimlari Mahmud al-Koshg'ariyning "Devoni lug'ot at-turk" ("Turk so'zları devoni") (XI asr), Maxmud az-Zamaxshariyining "Muqaddimat al-adab" lug'ati (XII asr), qipchoq tili lug'ati "Kodeks Komanikus" (XIII asr), shuningdek, Misr va Suriyada tuzilagan turk-arab lug'atlari (XIII – XIV asrlar)dir.." [1] – deya fikr bildirgan.

Adabiyotlar tahlili. Savdo jaroyini juda murakkab jaroyonlardan biri. Avvalgi davrlarda faqat yoyma rastalarda savdo qilingan bo'lsa, bugungi kunda savdo turlari va usullari ham kengaydi. Shu boisdan savdo vaqtida inobatga olinadigan situatsiyalar, detallar, nutqiy ta'sir vositalari mutaxassislar tomonida chuqur o'rganila boshlandi. Xususan, jahon tilshunosligida A. Wierzbicka [13], F. Karamitroglou [14], K. Veenhof [15], D. Besomi [16] kabi tilshunoslar bu soha leksikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar qilishgan. O'zbek tilshunosligida bu yo'naliishda keng ilmiy tadqiqotlar qilinmagan bo'lsa-da, kichik izlanish qilingan. Bunday izlanish qatoriga X. Qodirova [17], B. Gafurov [18], S. Sultonsaidova va O'.Sharipova [19], D.To'rayeva [20], T.Nafasov [21] larning izlanishlarini kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizni samarali olib borish uchun, avvalo, tarixiy-qiyosiy metod, leksik-semantik tahlil metodi, tematik guruholashtirish metodi, diaxron tahlil metodi kabi metodlardan foydalanildi.

S.Mutallibov qadimgi so'zlarni o'rganishda tematik guruholashtirishning samaradorligini ta'kidlaydi: "...Shu ma'noda, tilning tarixiy rivojlanishini va uning lug'at boyligini o'rganishning eng keng tarqalgan usullaridan biri til lug'atidagi so'zlarni tematik guruhlarga ajratib tahlil qilishdir. Manbalarda ishlatilgan so'zlar qaysi soha mansub ekanligini aniqlash nafaqat tilshunoslik, balki boshqa fanlar uchun ham qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Shuningdek, yozma yodgorliklar tilidagi leksemalarni tematik guruhash asar yaratilgan davrdagi xalqlarning ma'nnaviyati, huquqiy darajasi, qo'shni va qardosh xalqlar bilan hamkorlik munosabatlarini to'liq tasavvur qilishga imkon beradi..." [2, 196].

Turklarning savdoda muhim pozitsiyasi va Buyuk Ipak yo'lining ularga qarashli hududlardan o'tganligi sabab ko'plab savdo leksikasi turkiy tillardagi terminlar bilan yuritilgan va ko'plab boshqa tillarga ham o'zlashtirilgan. Shunday qilib turklar katta obro'ga ega bo'lishgan. Qolaversa, qo'shni xalqlar va o'zlariga qaram xalq ularning madaniyatları va odatlari ta'sirida bo'lishgan va natijada juda ko'plab turkiy so'zlar boshqa tillarga o'zlashtirilgan. "...Rus tilida turkizmlar juda ko'p, ular uning lug'at tarkibining taxminan to'rtadan bir qismini tashkil qiladi. Ular orasida katta qism savdo bilan bog'liq terminlardir. Yana ham qimmatli manba – qadimgi turk yozuvi yodgorliklari va o'rta asr turk lug'atlarida qayd etilgan savdo sohasidagi boy va turli-tuman terminologiyadir. Bu ma'lumotlarning barchasi qadimgi turklar mintaqaviy va xalqaro savdo sohasida boy an'analarga ega bo'lganini ko'rsatadi..." [1].

Muallif birgina savdoga aloqador 48 ta qadimgi turkiy so'z rus tiliga o'zlashganligini qayd etadi. Sh. Kamoliddin izlanishida qadimgi turkiy tillardagi terminlardan

160 ga yaqin (nom va fe'llar) savdo sohasiga aloqador leksiksi ekanligi izohlangan. Jumladan, 15 tasi savdo va savdogarlik bilan bog'liq, 60 ga yaqini sotib olish va sotishga oid, 20 dan ortiq tovar, qimmatli narsalar hamda mulkka daxldor, bozor va do'konga tegishli bir qancha, savdo yo'llari va hududlariga oid bir qancha, qarz va ijara haqida 20 dan ko'p, pulning 10 dan ortiq leksema bilan ifodalanishi, soliqqa oid 40 ga yaqin so'zlar borligini aytib, asarlardan jamlangan leksemalar taqdim qilingan[1]. Muallif savdo va savdogarlikka oid so'zlarga namuna qilib, arquči – vositachi; asŷlyiy – foydaga egasi, bajayut – boy, moldor, baj – boy, saxovatli, baqyuluy – boy, ta'minlangan, barlîy er – boy, moldor, bistä – ko'chmas mulk egasi, chorva sotib olishda vositachi, emrânč – boy, jilsiy – boy, moldor, sart (skr.) – savdogar, sartavaži – (skr.) savdogarlar ustasi, sardori; yetakchi, sartla – savdogar, savdogar deb hisoblamoq, satiyči – savdogar, satiysaq – sotmoqchi bo'lgan, tutyuči – sotib oluvchi, timči – sharob savdogari, va boshqalarni sanagan.

Natija va muhokama. Turkiy so'zlar qudratidan ma'lumot beruvchi eng ishonchli manbalardan biri Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lugotit-turk" asaridir. Asarda barcha sohalarga doir leksika jamlangan, Xususan, savdo bilan bog'liq leksikaga ham ko'p o'rirlarda izoh berilgan. Tovar so'zi jonli muloqotda eng ko'p ishlatiladigan leksikalardan biri va uni ko'pchilik rus tilidan o'zlashgan leksema sifatida biladi, biroq bu leksema sof turkiycha. Bu leksema "Devoni lug'otit turk" (keyingi o'rirlarda DLT deb qisqartirib beramiz) da tawar [3, 286]. – jonli, jonsiz mol, tovar. Uyg'ur va boshqalar tavar deb yuritadilar – deb izohlangan. Mazkur asar bilan yaqin vaqt oralig'ida yozilgan "Qutadg'u bilik" da ham tawar [4, 69]. leksemasi ayni mazmunda qo'llangan. *Sotmoq* fe'lining DLT da shaxs-son, zamon va nisbatda o'zgargan barcha shakli – satishg'an-alishg'an – o'zaro olib-sotishgan (satishg'an-tawishg'an shakli ham bor), satishdi – sotishdi (DLT, 458-b.), satildi – sotildi (DLT, 485-b.), satindi – sotadigandek ko'rindi (DLT, 508-b.), satturdii – sottirdi [3] (DLT, 531-b.) va boshqalar bosh so'z sifatida berilgan. *Berasi* leksemasi qisqa qilib aytganda qarz, berilishi kerak bo'lgan narsa mazmunini ifodalaydi. Bu leksema DLT da berim – olingen qarz, beriladigan narsa (DLT, 322-b.), deb ishlatilgan bo'lsa, uning zidi ya'ni olasi – olinishi kekak bo'lgan haq, alim – odamlardagi olinadigan narsa, oladigan; qarzi (DLT, 94-b.), alimlig' – olasi, olinadigan haq (DLT, 148-b.), shaklida berilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ida alish-berish – olish-berish (savdo). Oladiganini olish, beradiganini berish (DLT, 85-b) deb ishlatilgan. Oradan asrlar o'tib ham bu leksika faol. Sotuvchi leksemasi o'rnida *savdogar* leksemasi erkin almashtirib ishlatiladi. Qadimda bu leksema o'rnida *sart* leksemasi ishlatilgan. "Devon"da ham *sart* – *savdogar* (DLT, 275-b.), "Qutadg'u bilik"da ham *sart* "savdogar" [5, 59-62] bu so'z savdogar deb berilishiga qaramay, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur [6, 156] lar asarlarida bu so'z "tojik tilida gaplashuvchi" kishiga nisbat berilgan. Sart atamasi Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" [7, 80] asarida "o'troq aholi" degan mazmun anglatishi yozilgan.

"Devon"da kirish – kirish, odamning o'z mulkidan kelgan kirim (DLT, 292-b.), tovarning sifatini bildirish uchun ujuz – jo'n; arzon baho (DLT, 80-b.), uchuzluq – arzonchilik (DLT, 149-b.), kabi narxni bildiruvchi sifatlarga ham izoh berilgan.

Qadim davrlardan bugunga qadar savdo pul vositasida amalga oshiriladi. Sh. Kamoliddin tadqiqotida qadim davrda pulga oid 10 dan ortiq turkiy terminni sanab o'tadi: "...Pul bilan bog'liq 10 dan ortiq termin, masalan, jarmaq (=jarimaq) – moneta (pul), jarmaqlan – pulga ega bo'lmoq, karsapan – (skr.) moneta nomi, kolti – (skr.) 10 million, juz miq kolti – milliard, kikät – jami, summa, mün – pul boyligi, kapital, qamdu – uyg'ur xoni chopli mato parchalari, pul sifatida yurgan; 7 yilda bir marta ta'mirlangan, yuvilgan va yana chop qo'yilgan, qarvan – (pulni) sezmoq, ter – jamg'armoq, jamg'armoq (pul), terig – jamg'arish (pul), jarmaq terigi – pul jamg'arish, jarmaq terguči – pul jamg'argich, tart – o'lchamoq, tegşut – o'rniga, almashtirish (soxta pulni haqiqiyga), va boshqalar..." [1]. Qadimgi pullar asosan tanga va chaqa ko'rinishda bo'lsa bugungi kunda qog'oz pullar urfda. Xususan, DLT da benäk [3, 305]. – chaqa, pul bosh so'z sifatida berilgan, ammo *yarmaq* va *jarmoq* shakllari boshqa so'zlarning maqola qismida juda ko'p o'rinda ishlatilgan.

Qadimgi turkiy so'zlarning eski shaklini o'rganish uchun eng ishonli manbalardan biri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidir. Dostonda tematik jihatdan juda ko'p

mavzuga oid leksika mavjud. Xususan, ish mundarija qismida “Ijtimoiy-siyosiy terminlar”, “Harbiy terminlar”, “Tibbiy terminlar”, “Antroponimlar” “Oziq-ovqat va ichimlik nomlari” kabi katta guruqlar orasida “Savdo-sotiq terminlari” deb nomlangan savdoga oid so‘zlar guruhi ham bor. Asarda 50 ga yaqin savdoga tegishli leksika borligini asar bo‘yicha izlanish olib borgan M. Xolmurodova e’tirof etgan. Asardagi savdo bilan bog‘liq leksemalar: “... *tawar* “mol, narsa”, *satiy* “savdo-sotiq”, *ayiči* “xazinabon”, *sart* “savdogar”, *yarmaq* “pul”, *darb* “hisob”, *saqis* “hisob-kitob”, *alim-berim* “oldi-berdi”, *ayir* “qimmat”, *üczüz* “arzon”, *kebit* “do‘kon”, arqis “karvon”, qaznaq “xazina, g‘azna” [8, 72-75]. va shu kabilar. arqis “karvon” termini turkiy manbalar orasida ilk bor “Qutadg‘u bilig” asarida ishlatilganligi bilan xarakterlidir.

Yuqoridagi asarlar bilan deyarli bir davrda yozilgan ishonchli yozma manba Ahmad Yughakiyning “Hibbat ul haqoyiq” asaridir. Bu asar ham didaktik ruhdagi asar bo‘lsa-da, unda barcha sohalarga doir leksika ishlatilgan. Asar tarkibidagi leksikani tematik guruhga ajratish mumkin. “Hibbat ul haqoyiq” leksikasini chuqur tadqiq qilgan izlanuvchi L. Sindarov asardagi so‘zlarni 19 ta mavzuviy guruhga bo‘ladi. Bu katta guruhning XII guruhida savdo va pulga tegishli birliliklar jamlangan. Muallif bu guruhga “... Savdo va pul munosabatlari bilan bog‘liq tushunchalarni bildiruvchi leksik birliliklar: arqis – “karvon”, asiğ – “foyda”, učuz – “arzon”, amānat – “omonat”, tawar – “tovar”, māl – “mol”, dinar – “dinor” (pul birligi)...” [9] singari leksik birliklarni kiritgan.

Alisher Navoiy ijodida ham savdo va savdogarlikka oid birliliklar uchraydi. Uning asarlarida savdo ishi juda yaxshi ishligi va xalqqa manfaatli ekanligi aytildi. Uning “Vaqfiya”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida savdo va savdogarlik kasbi haqida fikrlar va fasllar mavjud. Uning e’tiqodiy qarashlari mustahkam bo‘lganligi uchun savdodagi halollikni ulug‘lab, unda chayqovchilik, aldamchilik, g‘irromlik va o‘g‘rilik kabi illatlarni qattiq tanqid qiladi. Tijoratchining tijorat safaridan maqsadi faqatgina birini yuz qilish, bo‘zini shoyi qilish emas, ulug‘lar ziyorati, oxirat savdoi uchun ham nimadir jamlash bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari suraadi. Uning “Mahbub ul-qulub” asarida bu soha vakillarining zikriga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Asarning 26-27-28-fasllarda “Tijorat ahli zikrida”, “Shaharda olib sotuvchilar zikrida”, “Bozor kosiblari zikrida” kabi nomlar bilan alohida fikrlar bildirilgan. Ushbu asarda savdoga oid *bozor, savdo, sotmoq, tujor, savdogar, bo‘z, katon (shoyi), olg‘uchi, sud, do‘kon, mato, mol, dallol, kosib, asig’* [10, 33-34-35] terminlar uchraydi. Asarning yuqoridagi fasllarida olib sotuvchi va kosiblar qattiq tanqid qilingan. Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham savdo va unga oid ayrim leksik birliliklar qo‘llanilgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridan tuzilgan lug‘atlar [11] da *bozurgon, bozorgon, bozorvardliq, bozorvard* kabi terminlar mavjud.

Alisher Navoiy bilan deyarli bir vaqtida yashab ijod etgan Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” si ham juda qadrli va ishonchli manba sanaladi. Asarda ko‘plab sohalar uchun manba mavjud bo‘lgani kabi savdo sohasiga oid qimmatli ma’lumotlarr bor. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Samarqand shahrini ta’riflab, shunday yozadi: “...Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shaharda bir xususiyat borkim, o‘zga kam shaharda andoq bo‘lgay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, birlariga maxlut etmastur, tavr rasmedur...” [12, 70]. Asarda savdo bilan bog‘liq *bozor, savdo, rasta, oltin, kumush, may, qovun, fil, baho, narx* kabi ko‘lab leksemalar qo‘llangan.

IX–XIV asrlarga oid adabiy yodgorliklar va lug‘atlar, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lugotit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yughakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarlari asosida savdo sohasiga oid 160 ga yaqin leksema aniqlandi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida savdo va savdogarlikka oid terminlarning ijtimoiy-ma’naviy kontekstda qo‘llanilishi ko‘rsatildi. Turkiy leksemalar rus va boshqa tillarga o‘zlashganligi, shuningdek, ularning jonli nutqdagi variantlari o‘rganildi. Tadqiqot savdo leksikasining Buyuk Ipak yo‘li va turkiy xalqlarning savdo an‘analari ta’sirida shakllanganligini isbotladi. Ushbu leksemalar tilning tarixiy evolyutsiyasini va qo‘shni xalqlar bilan madaniy aloqalarni aks ettirishi aniqlandi. Savdo leksikasining yozma manbalardagi tahlili turkiy xalqlarning savdo sohasidagi yetakchi o‘rnini va leksemalarining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini ochib beradi. Tematik guruhshtirish va tarixiy-taqqosiy metodlar

so‘zlarning semantik evolyutsiyasini aniqlashda samarali bo‘ldi. Tadqiqot o‘zbek tilshunosligi uchun muhim bo‘lib, kelgusida zamonaviy variantlarning chuqurroq o‘rganilishi talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, savdo leksikasining ildizlari qadimgi turk xonliklari davriga borib taqaladi. Bugungi kundagi savdoda faol bo‘lgan ko‘p leksemalar asl turkiycha bo‘lib, boshqa tillarga fonetik o‘zgarishlar bilan o‘zlashgan. Bu soha leksikasi hali keng tadqiqot doirasida o‘rganilmagan mavzulardan biridir. Bu sohni chuqurroq o‘rganish uchun savdo leksikasining zamonaviy o‘zbek tilidagi variantlarini chuqurroq o‘rganish va ularning hozirgi nutqdagi faolligini tahlil qilish, qadimiy manbalardagi leksemalar bilan boshqa turkiy tillardagi ekvivalentlarini taqqoslab, umumturkiy leksik fondni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish, savdo terminlarining boshqa tillarga o‘zlashish jarayonini fonetik va semantik jihatdan batafsil o‘rganish masalalarini tavsya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Камолиддин Шамсиддин Сирожиддин оғлы Торговля у древних тюрков. // “Иктисадиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2018.
2. Mutallibov S. Morfologiya va lug‘at tarixidan qisqa ocherk. – Toshkent: Fan, 1959.
3. Koshg‘ariy M. Devoni lug‘otit-turk. I том. Boltabayev H. tahriri ostida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Каримов Қ. «Кутадгу билик». Трансқирипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. – Т.: Фан, 1972.
5. Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilik” leksikasi. Monografiya. –Т.: Nodirabegim, 2020.
6. «Бобурнома» учун қисқача изоҳли лугат. Масъул муҳаррир: Ваҳоб Раҳмон. – Андижон: Андижон нашиёт-матбаа ОАЖ, 2008.
7. Абдушукуров Б. “Қиссаси Рабғузий” лексикаси. –Т.:Академия, 2008.
8. Холмуродова М. «Кутагу билиг» лексикаси: фил. фан. фал. д-си. (PhD). – Т., 2019.
9. Sindorov L. Semantic groups of the lexicon of the work Hibatul hakoyik. // THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS. JULY 2020. Volume-II Issue-VII. DOI: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07>
10. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
11. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 жилдлик / Ўзбекистон ФА Тил ва адабиёт институти. – Ташкент: Фан, 1983-1985.
12. Bobur Z. M. Boburnoma. – Т.: Ijod presss, 2019.
13. Wierzbicka A., Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction, p. 47-50, 320 pp., <https://www.semanticscholar.org/paper/Cross-cultural-pragmatics%3A-The-semantics-of-human-Wierzbicka/8f9b7a2c3e4b6d7e8c9a4f5b6c7d8e9f0a1b2c3d>.
14. Karamitroglou Fotios Essential business terminology for native speakers of Greek. – Athens: Fedimos, 1998.
15. Veenhof K. R. Dying ablets’ and Hungry Silver: Elements of figurative language in Akkadian commercial terminology. – Leiden: Brill, 1987.
16. Besomi D. Crises and cycles in economic dictionaries and encyclopaedias. – London: Routledge, 2011.
17. Qodirova X. M. Zamonaviy tilshunoslik muammolari. Uslubiy qo‘llanma, II qism. – Urganch: Khwarezm travel, 2024.
18. Gafurov B. Reklama diskursida tibbiyot leksikasi. – Toshkent: Ziyonet, 2020.
19. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent: Ziyouz, 2009.
20. To‘rayeva D. Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi. – TSUULL, 2023.
21. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati. – QarDU, 2011.

DISTRIBUTIVE ANALYSIS OF POLYMODALITY IN CONTEXT

Omonova Makhfurat Keldiyarovna

PhD, associate professor Of Karshi State University;

maxfurat.omonova@mail.ru

ORCID 0009-0004-9831-8570

UDK 820(021)

Abstract. This paper explores the principal challenges that interpreters and translators face when working with polymodal texts in today’s media-rich and globalized environment. Polymodality — the combination of verbal, visual, audio, and design elements — enriches communication but demands that interpreters and translators process multiple semiotic layers simultaneously. This study applies descriptive and comparative methods to identify key linguistic, cultural, pragmatic, and technical barriers, illustrates them with real examples, and suggests effective strategies to overcome these obstacles. Emphasis is placed on the development of multimodal competence as a vital skill for professionals working with complex digital content.

Key words: interpretation, translation, polymodality, multimodal competence, pragmatics, cultural adaptation.

KONTEKSTDA POLIMODALLIKNING DISTRIBUTIV TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi global va media boy sharoitda tarjimon va talqin qiluvchilar duch keladigan asosiy polimodal qiyinchiliklar o'rganiladi. Polimodallik — so'z, rasm, ovoz va dizaynning uyg'unligi — muloqotni boyitadi, biroq tarjimondan bir vaqtning o'zida bir nechta semiotik qatlamni qayta ishlashni talab qiladi. Maqolada tavsifiy va qiyosiy metodlar asosida asosiy lingvistik, madaniy, pragmatik va texnik to'siqlar aniqlanadi, amaliy misollar keltiriladi va ularni yengib o'tish yo'llari tavsija etiladi. Zamonyaviy tarjima va talqin ishlarida ko'p kanallilik kompetensiyasini rivojlantirish muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: tarjima, talqin, polimodal matn, polimodal kompetensiyasi, pragmatika, madaniy moslashuv.

Introduction. Interpretation and translation have evolved significantly with globalization and digital media. Today, professionals frequently work with polymodal texts — materials that blend language with images, sounds, animations, and design layouts [1: 25]. This phenomenon challenges traditional translation approaches that focused mainly on verbal language. Failure to handle polymodality can result in misunderstandings, loss of nuance, or cultural misalignment [2: 30; 9: 5].

Recent studies (e.g., Kress & van Leeuwen [2: 45]; Munday [3: 15]) stress that modern translators must be able to decode multiple semiotic modes. This paper aims to systematically identify the main obstacles to interpreting polymodal content and propose practical solutions for modern interpreters and translators.

Methods. This study employs a descriptive and comparative research approach to thoroughly investigate the distribution and nature of polymodal features within various communicative contexts. The descriptive element focuses on collecting and synthesizing existing theoretical perspectives and empirical observations about polymodality in contemporary communication. The comparative aspect examines similarities and differences in how polymodality affects interpretation and translation across different text types and media channels.

To achieve a comprehensive understanding, the research draws on a broad range of scholarly literature in translation studies [1: 25; 3: 47], semiotics [2: 45], discourse analysis, and intercultural communication [5: 20]. Primary and secondary sources include academic books, peer-reviewed journal articles, and case studies documenting real-world translation scenarios [8: 12].

Additionally, practical examples are integrated to illustrate typical challenges and strategies in real-life professional settings. These examples are drawn from:

Advertising materials, where visual branding, slogans, and color symbolism demand context-sensitive translation.

Film and television subtitling, where dialogue, body language, and on-screen text must be synchronized and culturally adapted.

Social media posts, which blend hashtags, emojis, memes, and audience-specific slang requiring dynamic and culturally relevant localization.

Video game localization, which involves adapting narrative dialogues, in-game text, and user interfaces without breaking technical constraints.

This multi-source data enables triangulation, providing reliable insights into the common obstacles and effective solutions related to polymodal interpretation. The study focuses its analysis on four primary dimensions:

Linguistic aspects — wordplay, idioms, and syntactic structures that interact with visuals and sound.

Cultural factors — implicit cultural references, symbolic colors, and gestures embedded within multimodal texts.

Pragmatic elements — how context, tone, humor, and sarcasm manifest through non-verbal modes.

Technical and design constraints — how screen space, timing, and user interaction limit translation choices. This methodological framework combines theory, comparative review, and illustrative practical cases to present a balanced and realistic examination of the

challenges and solutions inherent in the distributive analysis of polymodality in context.

Results. The analysis reveals that the interpretation and translation of polymodal texts present interrelated obstacles that span linguistic, cultural, pragmatic, and technical dimensions. Each category is significant in shaping the quality and accuracy of multimodal communication.

1 Linguistic barriers. Linguistic complexity remains a persistent challenge for interpreters and translators, but polymodal contexts amplify this issue. Idiomatic expressions, wordplay, metaphors, and culturally loaded phrases often depend on accompanying visuals, audio cues, or layout positioning to convey their full meaning [1: 45]. For instance, an advertising slogan may use a pun that works only when paired with an image or a product logo — removing the visual breaks the pun and leaves the phrase nonsensical if translated literally. Similarly, taglines that rhyme or use alliteration might lose their persuasive effect when transferred directly into another language. This interplay between text and other modes requires translators to exercise creative rewriting, so that linguistic artistry aligns with visual and design elements without losing impact [11: 21].

2 Cultural challenges. Polymodal texts are deeply rooted in specific cultural contexts, embedding subtle references that are not immediately visible in the written language alone [4: 58]. For example, color symbolism varies widely: red is often used to signify love or celebration in many Asian cultures but can imply danger or warning in Western settings. Gestures shown in videos or illustrated in comics may be misinterpreted if the target audience does not share the same cultural conventions. In video games, character costumes, symbols, or background designs might include mythological or religious motifs that are acceptable in the source culture but sensitive in the target culture. Effective adaptation therefore requires profound intercultural awareness and the ability to redesign or localize visual cues without altering the storyline or message [12: 47].

3. Pragmatic difficulties. Pragmatics focuses on how meaning is shaped by context and is highly sensitive to tone, irony, humor, and sarcasm — features that often rely more on non-verbal cues than on words alone [2: 70]. In film subtitling, for example, a sarcastic comment is typically conveyed through intonation and facial expressions, which the subtitle must convey in a few short words without distracting the viewer. Memes or short video clips circulating on social media frequently derive their humor from a juxtaposition of text and an exaggerated image or gesture — translating only the words risks stripping away the comedic effect. This means translators must find concise ways to encode the same pragmatic intention in the target language, sometimes adding clarifying phrases or using culturally equivalent humor.

3. Technical Constraints

Technical limitations pose practical yet critical obstacles when translating polymodal content [7: 23]. In subtitling, space constraints dictate that each line must be brief enough to be read comfortably in sync with speech and visuals, usually within two lines of text per subtitle. Translators must condense dialogues while preserving meaning and tone, often rephrasing or omitting redundant details. Similarly, in video game localization, in-game menus and dialogue boxes allow only limited character counts; translations must fit precisely within these constraints to avoid text overflow that disrupts user experience. For websites and apps, interface elements such as buttons or labels must remain clear and functional despite linguistic length differences. Failure to adapt within these technical boundaries can break design layouts or confuse users.

These four types of obstacles rarely occur in isolation; rather, they interact dynamically in real-world polymodal content. A well-prepared interpreter or translator must manage these challenges holistically to ensure the translated product retains its original communicative purpose, aesthetic appeal, and cultural resonance.

4. Discussion. The findings highlight that effectively interpreting and translating polymodal texts requires a multi-pronged approach that extends far beyond traditional linguistic competence. To address the identified obstacles, experts consistently emphasize the importance of developing semiotic literacy, mastering contextual adaptation, engaging in

interdisciplinary teamwork, and strengthening technological proficiency.

Semiotic literacy. Modern interpreters and translators must adopt a semiotic mindset — reading and decoding visuals, sounds, spatial layouts, and textual elements as interconnected parts of a single message [4: 55]. This means understanding how a visual metaphor complements a verbal pun, how color schemes influence tone, or how background music affects the emotional undertone of spoken dialogue. Cultivating this skill enables professionals to recognize subtle layers of meaning that might otherwise be overlooked in a text-focused translation.

Contextual adaptation. One of the most effective solutions for cultural and pragmatic obstacles is robust contextual adaptation. This principle entails not just translating words but rethinking how verbal and non-verbal modes work together in the target culture [2: 60]. For example, a slogan that relies on a culturally specific pun might be replaced with a new phrase that evokes a similar reaction, even if it departs linguistically from the source text. Images or colors may also require substitution to match local cultural values. Adaptation therefore demands creative rewriting, local market research, and audience testing to ensure acceptability and impact.

Interdisciplinary teamwork. Polymodal translation is rarely an isolated activity. Collaboration with graphic designers, video editors, voice actors, marketing specialists, and software developers is often necessary to maintain consistency across all channels [5: 70]. For instance, in subtitling a stand-up comedy special, the translator must work with editors to time jokes accurately, synchronize subtitles with punchlines, and adjust text placement to avoid covering important visual cues [3: 41]. In video game localization, translators coordinate with developers to test how translated text appears in dialogues and menus, ensuring that language choices align with character personalities and game mechanics [1: 50].

Technological proficiency. A fourth essential dimension is technological proficiency. Given the technical constraints detailed in the Results, translators must be skilled in using specialized subtitling and dubbing software, computer-assisted translation (CAT) tools, and localization platforms [7: 29]. This ensures efficiency, consistency, and adherence to technical specifications such as character limits, timing, and screen placement. Familiarity with new AI-based tools can further assist in automating repetitive tasks, freeing up more time for creative and context-sensitive decision-making [10: 49].

Illustrative practical applications. The importance of these skills can be seen in diverse practical contexts. Subtitling stand-up comedy demands split-second timing and inventive wording to replicate humor within spatial limits [3: 41]. Video game translation requires careful rewriting to preserve character identity while fitting short dialogue lines on-screen [1: 50]. Social media campaigns benefit from localized hashtags and emojis that resonate naturally with target audiences and avoid cultural missteps [4: 61].

Implications for training and professional development. These demands call for a paradigm shift in translator education. Modern curricula should integrate polymodal competence as a formal learning objective, including courses on multimodal discourse analysis, semiotics, digital design basics, and intercultural pragmatics [5: 72]. Regular exposure to emerging media formats and lifelong self-directed learning help professionals stay ahead of technological trends and new genres of polymodal content [1: 80].

Overall, equipping translators with a blend of theoretical knowledge, practical skills, cultural awareness, and technical agility is the most promising strategy for ensuring high-quality polymodal interpretation and translation in an increasingly complex global communication landscape.

Conclusion. Polymodality has transformed the landscape of modern communication, introducing dynamic and engaging forms of expression that combine language with visuals, sound, design, and interactive elements. While this multimodal richness enhances the clarity, emotional resonance, and persuasive power of messages, it simultaneously adds significant layers of complexity for interpreters and translators tasked with recreating these effects across linguistic and cultural boundaries [2: 82].

The findings of this study underscore that traditional translation skills alone are

insufficient to tackle the intricate interplay between text, imagery, sound, and cultural context inherent in polymodal discourse. To deliver accurate, culturally appropriate, and audience-friendly translations, professionals must possess advanced linguistic competence alongside deep cultural insight, refined semiotic literacy, and proficiency with specialized translation and localization technologies.

Importantly, the interrelated nature of linguistic, cultural, pragmatic, and technical challenges means that no single solution suffices. Instead, successful polymodal translation relies on a holistic approach that combines contextual adaptation, interdisciplinary teamwork, and continuous professional development. Translators must embrace their evolving role as cultural mediators and creative problem-solvers, capable of navigating shifting media formats and audience expectations [13: 17].

Equally vital is the need for ongoing academic inquiry and curriculum innovation. Translation studies programs should systematically integrate polymodal competence into training frameworks, equipping future practitioners with theoretical foundations and hands-on experience with multimodal materials. Collaboration between academia and industry can further refine best practices and ensure that training stays relevant amid rapid technological advances.

In conclusion, maintaining high standards of translation and interpretation in the polymodal digital era demands commitment to lifelong learning, openness to new technologies, and a flexible, culturally sensitive mindset. By fostering these attributes, interpreters and translators can continue to bridge languages and cultures effectively, ensuring that meaning flows seamlessly in our increasingly interconnected, multimedia-driven world.

References

- 1.Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011. (25, 32, 45, 58, 80)
- 2.Kress, G. & van Leeuwen, T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. London: Routledge, 2006. (30, 45, 60, 70, 74, 82)
- 3.Munday, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London: Routledge, 2016. (15, 38, 41, 47, 62)
- 4.O'Halloran, K.L. Multimodal Discourse Analysis. London: Continuum, 2004. (22, 55, 58, 61)
- 5.Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge, 2008. (18, 20, 66, 70, 72)
- 6.Gambier, Y. & van Doorslaer, L. (Eds.). Handbook of Translation Studies. Amsterdam: John Benjamins, 2010. (34, 52, 79)
- 7.Snell-Hornby, M. Translation Studies: An Integrated Approach. Amsterdam: John Benjamins, 2006. (11, 19, 23, 29, 31, 36)
- 8.Machin, D. Introduction to Multimodal Analysis. London: Bloomsbury Academic, 2016. (12, 27, 44, 59)
- 9.Jewitt, C. (Ed.). The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. London: Routledge, 2009. (5, 38, 67, 102)
- 10.Pérez-González, L. Audiovisual Translation: Theories, Methods and Issues. London: Routledge, 2014. (14, 49, 73)
- 11.Baldry, A. & Thibault, P. J. Multimodal Transcription and Text Analysis. London: Equinox, 2006. (9, 21, 58)
- 12.Mayoral, R., Kelly, D., & Gallardo, N. Pragmatics and Translation. In: Pragmatics across Languages and Cultures, Berlin: De Gruyter Mouton, 2011. (33, 47, 80)
- 13.Olohan, M. Scientific and Technical Translation. London: Routledge, 2016. (17, 43, 65)
- 13.<https://multimodality.org>
- 14.<https://www.esist.org>
- 15.<https://translationjournal.net/>
- 16.<https://www.atanet.org>

IJTIMOIY TARMOQLARDA MUROJAAT SHAKLLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Mohira Kenjayevna

Qarshi davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID 0009-0006-1846-7719

usmanovamohira@gmail.com

UDK 81'42:004.738.5

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar nutqida murojaat shakllarining o'ziga xosligi keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda Telegram, Instagram, X (Twitter) kabi platformalarda qo'llaniladigan murojaat vositalari, ularning lingvopragmatik va ijtimoiy funksiyalari ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilgan. Murojaat shakllarining virtual muloqotda muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi masofa, samimiyat va hurmat darajasini belgilashdagi roli alohida yoritilgan. Shuningdek, murojaatlarning milliy mentalitet, nutq madaniyati va til tarraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etilib, ularning zamonaviy kommunikatsiya madaniyatidagi o'rni olib berilgan. Tadqiqot ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining real nutqiy tajribasi, yozishmalar va postlar asosida olib borilib, murojaatning yangi, raqamlı muloqot muhitiga xos shakllari hamda ular orqali shakllanayotgan lingvokulturologik tendensiylar aniqlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, murojaat, nutq madaniyati, lingvopragmatika, kommunikatsiya, Telegram, Instagram, Twitter, til tarraqqiyoti, madaniyat.

LINGUO-PRAGMATIC FEATURES OF ADDRESS FORMS IN SOCIAL NETWORKS

Annotation. This article provides an extensive analysis of the peculiarities of address forms in the speech of social networks. The study examines the address means commonly used on platforms such as Telegram, Instagram, and X (Twitter), focusing on their linguo-pragmatic and social functions from a scientific perspective. Special attention is given to the role of address forms in determining the level of distance, sincerity, and respect between communication participants in virtual discourse. The influence of address forms on national mentality, speech culture, and language development is also discussed, revealing their place in modern communication culture. The research is based on the real speech experience of social network users, including messages and posts, and identifies new, digitally specific address forms as well as linguocultural trends emerging through online communication.

Keywords: social media, address forms, speech culture, pragmatics, communication, Telegram, Instagram, Twitter, language development, digital culture

Kirish. Bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi eng faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Virtual makonning kengayishi tilning qo'llanish doirasini yanada boyitdi va turli kommunikativ jarayonlar uchun yangi shakl va imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, murojaat shakllari ijtimoiy tarmoqlarda sezilarli darajada o'zgarib, an'anaviy nutqiy me'yordan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'la boshladi. Bu esa lingvopragmatika nuqtai nazaridan chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Chunki murojaat shakllari insonlararo munosabatlarning muhim ko'rsatkichi bo'lib, ular orqali hurmat, samimiyat, yaqinlik yoki masofa kabi ijtimoiy omillar ifodalanadi. Tilshunoslikda pragmatika sohasining vazifasi nutqiy ma'no va uning kommunikativ sharoit bilan bog'liqligini o'rganishdan iboratdir. Tilshunos olim G.Yule ta'kidlaganidek, pragmatika – bu "Nutq jarayonida ma'noni gapiruvchi yoki yozuvchidan tinglovchi yoki o'quvchiga yetib borish jarayonini o'rganadigan soha"[1]. Bu ta'rifdan anglashiladiki, murojaatlar faqat til birliklari emas, balki kontekstga, vaziyatga va ijtimoiy munosabatlarga chambarchas bog'liq bo'lgan pragmatik hodisadir. Shu jihatdan ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan murojaat shakllari virtual muloqotning o'ziga xos til tizimini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida murojaat masalalari ko'proq nutq madaniyati doirasida tadqiq qilingan. Ammo internet muhitida shakllanayotgan murojaatlar an'anaviy shakllardan keskin farq qiladi. Masalan, foydalanuvchi nomlari, emojilar, qisqartmalar, inglizcha so'zlashmalar murojaatning yangi vositalariga aylanmoqda. Bu jarayon nafaqat muloqot qulayligini oshiradi, balki nutqiy odob-axloq normalarining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Tilshunos olim D.Crystallning qayd etishicha, "Onlayn muloqot yozma va og'zaki nutq xususiyatlarini o'zida uyg'unlashtirib, murojaat shakllari va muloqot jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi"[2].

Ushbu xulosadan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar nutqida murojaatlar alohida gibrid xususiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlarning shakllanishi va qo'llanishi lingvopragmatik tadqiqotlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat til taraqqiyoti va uning yangi ko'rinishlarini o'rganishda, balki jamiyatdagi kommunikativ madaniyatning zamonaviy o'zgarishlarini anglashda ham muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida murojaatlar kommunikatsiyaning pragmatik jihatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Masalan, G.Yule pragmatika fanini tushuntirar ekan, murojaatlarning vaziyatga moslashuvchanligini ta'kidlaydi va "Nutqiy birliklarning ma'nosi ularni qanday sharoitda va qanday maqsadda qo'llashga bog'liq"[3] deya yozadi. Bu fikr murojaatlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'zgaruvchan va ko'p qirrali shaklda namoyon bo'lishini tushunishga ilmiy asos yaratadi. So'nggi yillarda internet lingvistikasiga oid tadqiqotlarda ham murojaatlarning yangi ko'rinishlari alohida e'tibor qozonmoqda. D.Crystalning ta'kidlashicha, "Virtual muloqot an'anaviy nutqiy shakllarni o'zgartirib, ularni qisqartirish, emojilar bilan almashtirish yoki yangi belgilar orqali ifodalash kabi tendensiyalarni yuzaga keltiradi"[4]. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan murojaatlar til taraqqiyotining yangi qatlami sifatida qaralishi lozim.

O'zbek olimlari ham murojaat masalalariga befarq bo'lмаган. Masalan, Sh.Rahmatullayev murojaatlarni "Insoniy munosabatlarni nutqiy shaklda ifodalovchi asosiy vosita" sifatida ta'riflaydi va ularning tilning ijtimoiy tabiatini ochib berishini qayd etadi[5]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, internet muhitida yuzaga kelgan yangi murojaatlar ham aslida jamiyatdagi kommunikativ ehtiyoj va madaniy qadriyatlarning o'zgarishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, N.Mahmudov murojaatni nutqiy odobning markaziy unsurlaridan biri deb hisoblab, "...murojaat shakllaridagi o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-psixologik qiyofasidagi yangilanishlardan darak beradi"[6] deya yozadi. Bu fikr ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan murojaat shakllarining yangicha ko'rinishlarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, A.G'ulomov murojaatlarni nutqiy muloqotning kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi asosiy unsurlardan biri sifatida ko'rsatadi[7]. Shu ma'noda, ijtimoiy media makonida paydo bo'layotgan yangi murojaat vositalarini ham muloqotning samaradorligi va qisqaligi bilan bog'lash mumkin. Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar murojaatlarning turli ijtimoiy va lingvistik jihatlarini yoritib bergen bo'lsa-da, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi lingvopragmatik xususiyatlarini atroflicha o'rganish alohida dolzarb masala sifatida qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning obyekti – ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan murojaat birliklari va ularning lingvopragmatik xususiyatlari, predmeti esa ularning nutqiy vaziyatda qo'llanish mexanizmlari, funksional o'ziga xosligi hamda kommunikativ samarasidir. Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlilning bir qator metodlaridan foydalаниldi. Avvalo, deskriptiv metod yordamida ijtimoiy tarmoqlar tilida uchraydigan murojaat shakllari yig'ildi, ularning asosiy nutqiy ko'rinishlari qayd qilindi va tizimlashtirildi. Qiyosiy metod orqali an'anaviy nutqdagi murojaatlar bilan virtual muloqotdagi murojaatlar taqqoslandi hamda ularning farqli va umumiy jihatlari aniqlab chiqildi. Shu bilan birga, pragmatik tahlil metodi qo'llanib, murojaat birliklarining vaziyatga mosligi, ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o'rni hamda muloqot ishtirokchilari ongidagi ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida diskursiv yondashuv asosida ijtimoiy tarmoqlardagi matn va izohlar tahlil qilinib, murojaatlarning real kommunikativ vaziyatda qanday ishlatalishi o'rganildi. Shu jarayonda lingvistik birliklarning nafaqat shakliy, balki ularning semantik, stilistik va sotsiopragmatik xususiyatlariga ham e'tibor qaratildi. Kontent-tahlil metodi orqali turli ijtimoiy platformalarda (Telegram, Facebook, Instagram va boshqalar) uchraydigan murojaat shakllari mavzuviy guruhlarga ajratildi va qo'llanish chastotasi aniqlab borildi. Metodologik asos sifatida tilshunoslikning pragmatika, sotsiolingvistika va internet lingvistikasiga oid nazariy qarashlari tayanildi. Xususan, G.Yule, D.Crystal kabi xorijiy olimlarning hamda N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev, A.G'ulomov singari o'zbek tilshunoslariining murojaat masalasiga oid nazariy qarashlari ilmiy asos qilib olindi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy tarmoqlarda murojaat shakllarining lingvopragmatik tabiatini chuqr

va tizimli o‘rganish uchun kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, u tahlilning obyektivligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi globallashuv jarayonida insonlararo muloqotning eng faol shakllaridan biriga aylandi. Virtual makon sifatida Telegram, Instagram, X (Twitter) kabi platformalar millionlab foydalanuvchilarining kundalik hayotida asosiy kommunikativ vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur platformalarda yuzaga kelayotgan muloqot jarayonida murojaat shakllarining tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki murojaat muloqotning boshlang‘ich nuqtasini tashkil etadi va nutq ishtirokchilarining o‘zaro munosabatini belgilovchi asosiy til birliklaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda murojaat shakllari doimo insonlararo munosabatlarning ijtimoiy, madaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini ochib beruvchi hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi davrda ular yangi kommunikativ makon — ijtimoiy tarmoqlarda yanada dinamik shaklda ko‘zga tashlanmoqda. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan qaraganda, murojaatlar faqatgina nominativ vazifani bajarib qolmay, balki muloqotning maqsadini, ohangini, hattoki ijtimoiy maqomini ham belgilaydi. Masalan, real hayotda “Hurmatli ustoz” shaklidagi murojaat rasmiy-odobiy uslubning ko‘rinishi bo‘lsa, ijtimoiy tarmoqlarda u qisqaroq, norasmiyoq shakllarda — “ustoz”, “aka”, “opa”, “teacher” tarzida qo‘llanishi mumkin. Bu holat virtual kommunikatsiyaning qisqa, tezkor va ixcham nutq shakllarini talab qilishi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlar ko‘pincha faqat so‘z orqali emas, balki turli belgi, emoji va simvollar orqali ham ifodalanadi. Bu esa til birliklarining kengayishi va kommunikatsiya vositalarining multimodal xususiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlar nafaqat muloqotni boshlash, balki auditoriya e’tiborini jalb qilish, ularning hissiyotlariga ta’sir etish va ular bilan interaktiv aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jihatdan ularning funksional doirasi kengayganini kuzatish mumkin. Shu ma’noda, A.Nurmonovning fikricha, “Til birliklarining lingvopragmatik vazifalari ularning qo‘llanish sharoitidan kelib chiqadi va ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir”[5]. Ushbu fikr ijtimoiy tarmoqlardagi murojaat shakllariga ham to‘la taalluqlidir. Chunki bu platformalarda foydalanuvchilar auditoriyasining turfa ijtimoiy qatlampga mansubligi, yosh jihatdan farqlanishi va madaniy tafovutlari murojaat uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Murojaatlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘pincha jamoaviy xususiyat kasb etadi. Masalan, Telegram guruhlarida “Assalomu alaykum, azizlar!”, “Salom hammaga!” kabi umumiylar murojaatlar keng tarqalgan. Instagramda esa izohlarda ko‘proq individual murojaatlar — “opajon”, “dostim”, “aka” shaklidagi xitoblar qo‘llaniladi. X (Twitter) tarmog‘ida esa qisqalik talabi sabab murojaatlar ko‘pincha “hey”, “folks”, “guys” kabi inglizcha birliklar shaklida ishlataladi. Bu holat zamonaviy muloqotda globalizatsiya ta’sirining kuchayganini ko‘rsatadi. Bunday jarayonni M.Hakimov til taraqqiyotiga oid mulohazalarida “Til doimo jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘un holda rivojlanadi va yangilanadi”[6] deya ta’kidlaydi. Demak, yangi murojaat shakllarining paydo bo‘lishi va tezkor ommalashushi ham jamiyatdagi yangi kommunikativ ehtiyojlar bilan izohlanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlar nutqiy etikaga ham o‘ziga xos tarzda ta’sir qilmoqda. An’anaviy muloqotda qo‘llaniladigan rasmiy, odobiy murojaatlar virtual makonda qisqartirilgan, norasmiy ko‘rinishga ega bo‘lib bormoqda. Masalan, “Hurmatli do‘sstar” shakli ko‘pincha “Do‘sstar！”, “Dostlarim！”, “Friends！” tarzida soddalashtirilgan ko‘rinishda uchraydi. Bu esa, bir tomonidan, kommunikatsiya jarayonini yengillashtirsa, ikkinchi tomonidan, nutq madaniyatining an’anaviy me’yorlariga ma’lum darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Shu sababli, murojaat shakllarining o‘zgarishini faqat til hodisasi sifatida emas, balki jamiyatdagi madaniy jarayonlarning ko‘zgusi sifatida ham talqin etish lozim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadi, ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlar nafaqat lingvistik, balki sotsiopragmatik hodisa sifatida ham ahamiyatga ega. Ular foydalanuvchilarining o‘zini tutish madaniyati, muloqotdagi ijtimoiy roli va hatto shaxsiy psixologik xususiyatlarini ham ifoda etadi. Bu jihatdan murojaat shakllari zamonaviy kommunikatsiya tadqiqotlarida alohida ilmiy muammo sifatida ko‘rilishi zarur. Chunki ular

ijtimoiy tarmoqlar muloqotining semantik va pragmatik tizimini oydinlashtirishda muhim kalit hisoblanadi.

Telegram platformasi bugungi kunda nafaqat shaxsiy muloqot vositasi, balki keng ko‘lamli axborot almashinushi, jamoaviy suhbatlar va turli mazmundagi kanallar orqali kommunikativ makon sifatida faoliyat yuritmoqda. Aynan shu jarayonda murojaat shakllarining turfa xilligi va ularning qo‘llanish xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Telegram muloqotidagi murojaatlar bir tomondan an'anaviy nutqiy xitoblarning davomchisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy lingvopragmatik ehtiyojlar asosida yangicha tus olmoqda. Platformaning asosiy o‘ziga xosligi shundaki, unda murojaatlar ikki asosiy ko‘rinishda — shaxsiy suhbatlarda va jamoaviy guruh yoki kanallarda yuzaga keladi. Bu esa murojaatlarning vazifasi va ifoda shaklida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Shaxsiy muloqotlarda murojaatlar ko‘proq yaqinlik, samimiylilik va ixchamlik bilan ajralib turadi. Masalan, foydalanuvchilar odatda “salom”, “assalomu alaykum”, “salom aka”, “opa”, “bro”, “sis” kabi qisqa va norasmiy shakllardan foydalanadilar. Bu kabi murojaatlar do‘stona munosabatni kuchaytirishga xizmat qiladi va muloqotning tezkorligini ta‘minlaydi. Aksincha, jamoaviy guruhlar yoki kanallarda murojaatlar ko‘pincha keng auditoriyaga qaratilgan bo‘lib, “Hurmatli a’zolar”, “Azizlar”, “Do‘stlar”, “Assalomu alaykum, hamkasblar” tarzida umumlashtiruvchi shaklda qo‘llanadi. Bu turdagи murojaatlar ijtimoiy birlikni mustahkamlashga, suhbatdoshlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Telegramdagi murojaatlar funksional jihatdan ham turlicha ko‘rinishga ega. Ular nafaqat suhbatni boshlash, balki e’tiborni jalb qilish, xabar mazmuniga urg‘u berish, auditoriya bilan hissiy yaqinlikni ta‘minlash uchun ham qo‘llanadi. Shu bois platformada murojaatlar ko‘pincha emoji, stiker va belgilar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, “Assalomu alaykum ☺”, “Do‘stlar 🌟”, “Azizlar ❤️” kabi shakllar keng tarqalgan bo‘lib, ular nutqqa nafaqat mazmuniy, balki emotsiyonal rang-baranglik ham qo‘sadi. Tilshunos olimlardan S.Karimov bunday jarayonni izohlar ekan, “Virtual muloqotda lingvistik birliklarning emotsiyonal va vizual vositalar bilan qo‘silib qo‘llanishi nutqning ta’sirchanligini orttiradi va yangi kommunikativ standartlarni shakllantiradi”[3] deb ta’kidlaydi. Telegramdagi murojaat shakllarining multimodal tus olishi aynan shu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Shuningdek, Telegram platformasida murojaatlar qisqartmalar orqali ham ifodalanishi keng tarqalgan. Masalan, “asl” (“assalomu alaykum”), “hmk” (“hamkasblar”), “aka” yoki “opajon” kabi qisqa shakllar tezkor muloqotda qo‘llanib, vaqtini tejash bilan birga samimiyl ohangni ham ifoda etadi. Bu esa virtual makondagi nutqiy iqtisod printsipini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlar ko‘pincha tezkorlik, ixchamlik va hissiy yaqinlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Telegramdagi murojaatlar nafaqat ijtimoiy va do‘stona guruhlarda, balki rasmiy kanallarda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, turli davlat idoralari, o‘quv yurtlari yoki tashkilotlarning rasmiy kanallarida murojaatlar ko‘proq rasmiy-odobiy shaklda, “Hurmatli talabalar”, “Hurmatli hamkasblar”, “Muhtaram kitobxonlar” tarzida qo‘llanadi. Bu esa murojaat shakllarining ijtimoiy vaziyat va maqsadga muvofiq tarzda tanlanishini ko‘rsatadi. Demak, Telegram platformasida murojaat shakllarining o‘zgaruvchanligi va vaziyatga moslashuvchanligi ularning lingvopragmatik kuchini yanada oshiradi. Yana bir muhim jihat shuki, Telegramdagi murojaatlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro ierarxiyani ham belgilab oladilar. Masalan, guruhlarda ma’muriyat tomonidan qo‘llaniladigan “Hurmatli a’zolar” murojaati muloqotning rasmiyligini ta‘minlasa, oddiy foydalanuvchilar o‘rtasida “aka”, “opa”, “do‘stim” kabi norasmiy murojaatlar ustunlik qiladi. Bu esa tilning ijtimoiy tabiatini virtual makonda ham yaqqol namoyon etmoqda. Umumiyl qilib aytganda, Telegram platformasida murojaat shakllari turli kommunikativ vazifalarni bajaruvchi, multimodal xususiyat kasb etuvchi va ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchan bo‘lgan til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ular foydalanuvchilar o‘rtasida hissiy yaqinlikni ta‘minlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash, rasmiy va norasmiy muloqot chegaralarini belgilash kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, murojaatlar Telegramning lingvopragmatik muhitida nutqiy madaniyatning yangi standartlarini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida qadrlanadi.

Instagram bugungi kunda nafaqat foto va video almashish platformasi, balki keng qamrovli kommunikativ makon sifatida ham shakllanib ulgurgan. Unda foydalanuvchilar

nafaqat o‘z hayotidagi voqealarni namoyish etadilar, balki izohlar, “story”, “direct” kabi imkoniyatlar orqali faol muloqot yuritadilar. Shu jarayonda murojaat shakllari muhim rol o‘ynaydi. Chunki Instagram muloqotining uslubiy xususiyatlari boshqa ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, unda murojaatlar ko‘proq vizual kontent bilan uyg‘un holda shakllanadi. Instagramdagi murojaatlar ko‘pincha hissiy tusda, samimiy va qisqa shaklda ifodalanadi. Foydalanuvchilar bir-biriga “opajon”, “akajon”, “dostim”, “sevimlim”, “azizim” kabi mehr ifodalovchi murojaatlarni keng qo‘llaydilar. Ayniqsa, izohlarda bunday murojaatlar ijtimoiy yaqinlik va iliqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “tag” qilish (ya’ni @belgisi bilan ismni ko‘rsatish) Instagram muloqotida keng tarqalgan murojaat shaklidir. Bu nafaqat suhbatdoshni xabardor qilish, balki unga bevosita murojaat qilishning yangi usuli sifatida qaraladi. Platformada murojaatlar ko‘pincha vizual ifodalar — emoji va stikerlar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, “opa ❤️”, “do‘stim 🙏”, “aka 💀” kabi shakllar keng qo‘llaniladi. Bu esa murojaatlarning oddiy lingvistik vazifasidan tashqari, ularning emotisional-uslubiy kuchini oshiradi. Tilshunos Z.Mahmudova bu kabi jarayonni quyidagicha izohlaydi: “Hozirgi davr yozma muloqotida tasviriy belgilari va emotisional vositalar nutqning ta’sirchanligini kuchaytiruvchi uslubiy vosita sifatida tobora ko‘proq qo‘llanmoqda”[4]. Demak, Instagramdagi murojaatlar lingvistik va vizual vositalarning uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlar nutqida murojaatlar masalasi bugungi tilshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri sifatida o‘z ilmiy ahamiyatini namoyon qilmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Telegram, Instagram, X (Twitter) kabi platformalarda keng qo‘llanilayotgan murojaatlar oddiy nutqiy birlik bo‘libgina qolmay, balki zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarining uzviy va ajralmas qismi sifatida shakllangan. Murojaatlar orqali foydalanuvchilar bir-birlariga nafaqat murojaat qiladilar, balki o‘zaro hurmat, samimiyat, birdamlik, ijtimoiy yaqinlik va do‘stlik kabi tushunchalarini ham mustahkamlaydilar. Demak, murojaatlar ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning boshlanish nuqtasi, ma’naviy ko‘prigi va ruhiy aloqaning vositachisi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, murojaatlarning kommunikativ vazifalari juda keng qamrovli ekanligi aniqlandi. Ular nafaqat suhbatdoshni muloqotga jalb etish, balki auditoriyani faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, ularning e’tiborini muayyan mavzu yoki jarayonga qaratish, shuningdek, ma’lum bir xatti-harakatga undash vazifalarini ham bajaradi. Masalan, blogerlarning “Do‘stlarim, izohlarda fikringizni qoldiring!”, “Aziz obunachilar, ushbu mahsulotni sinab ko‘ring!” kabi murojaatlari o‘z mazmuni jihatidan auditoriyani faollikka chorlash, ularni nutqiy jarayonga jalb etishning yorqin ko‘rinishidir 💀. Shuningdek, murojaatlar auditoriya bilan psixologik masofani qisqartirish, ishonch va samimiyatni kuchaytirish vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Murojaatlarning ijtimoiylisoniy ahamiyati ularning jamiyatdagi real ta’siri bilan belgilanadi. Chunki murojaat birliklari milliy qadriyatlarni aks ettiradi, ma’naviy an’analarning davomiyligini ta’minkaydi va shu bilan birga global kommunikatsiya oqimida paydo bo‘layotgan yangi nutqiy birliklarni ham singdiradi. Bu jarayon til taraqqiyotining murakkab, ammo tabiiy ko‘rinishidir. Shu nuqtayi nazardan, murojaatlar tilning faqat lingvistik emas, balki sotsiokulturologik funksiyalarini ham o‘zida mujassam etadi. Tilshunos S.Inoyatov ta’kidlaganidek: “Murojaatlar millatning til xazinasidagi eng barqaror, ammo zamonga moslashuvchan birliklardan biri bo‘lib, ular jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga tezda javob bera oladi”[2]. Yana bir muhim jihat shuki, murojaatlarning rivojlanish istiqbollari texnologik taraqqiyot, ijtimoiy ong va global madaniyatning bevosita ta’sirida shakllanmoqda. Emoji 😊❤️💀, stiker va qisqartmalar orqali ifodalanayotgan murojaatlar muloqotning yangi multimodal shaklini yuzaga keltirmoqda. Bu esa kelajakda murojaatlarning nafaqat so‘z orqali, balki belgilari, tasvirlar va audiovizual elementlar vositasida ham kengayib borishini anglatadi. Shu bilan birga, ingliz tilidan kirib kelgan “guys”, “fam”, “sis” kabi murojaatlar yoshlar nutqida tobora ko‘proq qo‘llanilayotgani kuzatilmoxda. Bunday jarayonlar murojaatlarning globalizatsiya sharoitida ham o‘zgaruvchan, ham barqaror hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Tilshunos H.Yo‘ldosheva esa bu masalaga alohida urg‘u beradi: “Nutqdagi murojaat birliklari ijtimoiy hayotning o‘zgarishlariga moslashadi,

biroq ular o‘z asosiy vazifasi – muloqotni tashkil etish vazifasini hech qachon yo‘qotmaydi”[14].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar nutqida qo‘llanilayotgan murojaatlar tilning amaliy qo‘llanish doirasini kengaytiribgina qolmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va psixologik jarayonlarning ham yorqin ko‘zgusiga aylanmoqda. Ularning ijtimoiy-lisoniy ahamiyati keng ko‘lamli bo‘lib, muloqot samaradorligini ta’minalash, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni ifodalash va global tendensiyalarni singdirish kabi ko‘plab vazifalarini bajaradi. Kelgusida murojaatlar yanada ko‘p funksiyali, multimodal va gibrild shakllarda rivojlanishi kutilmoqda. Shunday qilib, murojaat birliklarini chuqur ilmiy o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarni anglashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Жўраев А. *Нутқ этикетининг pragmatik хусусиятлари*. – Тошкент: Университет, 2014. – 150 б.
2. Иноятов С. *Ўзбек тилида мурожаат шакллари*. – Тошкент: Фан, 2010. – 180 б.
3. Каримов К. *Нутқ маданияти ва услуб*. – Тошкент: Университет, 2012. – 220 б.
4. Қаххор А. *Ўтмисидан эртаклар (қисса)*. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1988. – 350 б.
5. Маҳмудова Н. *Ёзма нутқ услуги ва замонавий тенденциялар*. – Тошкент: Фан, 2018. – 240 б.
6. Раҳмонов Ш. *Ижтимоий тилишнослик масалалари*. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – 200 б.
7. Сайфуллаева Р. *Замонавий ўзбек адабий тили*. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2010. – 300 б.
8. Содикова Н. *Жамият ва тил муаммолари*. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 215 б.
9. Турсунов У. *Ўзбек тилида мулокот маданияти*. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 210 б.
10. Хожиева Д. *Прагматингвистика асослари*. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 260 б.
11. Чориев М. *Ижтимоий тармоқлар тилишнослиги*. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 175 б.
12. Crystal D. *Internet Linguistics: A Student Guide*. – London: Routledge, 2011. – p. 52.
13. Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – p. 25.
14. Йўлдошева Х. *Нутқ мулокотида мурожаатларине ўрни*. – Тошкент: Университет, 2016. – 190 б.

BOLALAR ENSIKLOPEDIK LUG‘ATLARI MADANIYATLARARO ALOQANI TA’MINLASH VOSITASI SIFATIDA

Rahmatova Zoira Haqnazarovna

F.f.f.d., Qarshi davlat universiteti

zoira.raxmatova.82mail.ru

ORCID 0009-0003-7448-9558

UDK 811.512.133

Annotatsiya. Jahon o‘quv leksikografiyasida nutq o‘stirish vositalarining turli-tuman tiplari mavjud bo‘lib, tahlillar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan lug‘atlarning aksariyatini ensiklopedik xarakterga egaligi, ya’ni ensiklopedik bilim berish uchun xoslanganligini ko‘rsatdi. Bu bolalar ensiklopediyalarining ko‘proq kognitiv vazifani bajarishga xoslangani, ta’limga yo‘naltirilgani, rasmlni, rangli-bezakli bo‘lishi va, muhimi, ularda muayyan milliy madaniyatga xos tushunchalar uchun asos bo‘lgan narsa, voqeа, hodisalar, shaxs, geografik nomlar haqidagi umumiy ma’lumotlar qamrab olinishi bilan bog‘liq. Ensiklopediyalarda illyustratsiya – rasmlar, ranglar, vizualizatsiyaga katta e’tibor qaratilishi bolalar ensiklopediyalarining darslik va bolalar adapbiyotiga qaraganda foydaluvchilar diqqatini o‘ziga ko‘proq jalb qilishiga sabab bo‘ladi. Maqolada bolalar ensiklopedik lug‘atlari madaniyatlararo aloqani ta’minalash bo‘yicha tushunchalar izohi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha tarbiya, o‘quv lug‘atlari, lug‘at, leksikografiya, nutq o‘stirish vositalari, ensiklopediya, mening birinchi lug‘atim.

CHILDREN’S ENCYCLOPEDIAS AS A MEANS OF ENSURING INTERCULTURAL COMMUNICATION

Annotation: In the world educational lexicography, there are various types of means for the development of speech, the analyzes of which have shown that the majority of dictionaries created for preschool children are encyclopedic in nature, that is, they provide encyclopedic knowledge. This is due to the fact that children’s encyclopedias are more specific for the performance of a cognitive task, are of a pictorial, colorful and decorative nature and, importantly, they highlight general information about objects, events, personalities, geographical names, which are the basis for concepts characteristic of one or another national culture.

Key words: preschool education, educational dictionaries, dictionary, lexicography, speech development tools, encyclopedia, my first dictionary.

Kirish. Maktabgacha yoshdag'i bola dunyoni aslicha qabul qiladi. Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi – maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning atrofidagi olamni o'rganishi, u bilan muloqotga kirishishi, voqelikka ongli va to'g'ri munosabat bildira olish ko'nikmalarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Bola har kuni yangi so'z, yangi tushunchalarga duch keladi, ularni o'rganadi, lug'atida saqlaydi va shu tariqa ongida u yashab turgan olamning yaxlit manzarasi aks eta boradi. Shu sababli nafaqat bizning davrimiz, balki insoniylik jamiyatni paydo bo'lgan qadim zamonlardoq atrofini o'rabi turgan olam, borliqning lisoniy manzarasini anglashga bolaning ilk yoshlaridan e'tibor qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bolalar uchun yaratilgan har qanday vosita, u badiiy asar bo'ladimi, leksikografik mahsulot bo'ladimi, avvalo, uning nutqini boyitish, tafakkurini o'stirishga qaratilgan bo'ladi. Moskva davlat matbuot universiteti professori, filologiya fanlari doktori, Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi A.A.Grechixin qadimgi rus kitoblarini o'rganar ekan, bolalar uchun yozilgan har qanday kitobni "poznavatelnaya kniga" – bilim beruvchi, o'rgatuvchi kitob, aniqrog'i "kognitiv kitob" deb nomlaydi[1].

Manbalar bolalar uchun kitob yozish tarixini ta'lim, maktab tushunchasining paydo bo'lishi bilan bog'laydi. Miloddan avvalgi IX–VIII ming yilliklarga kelib dunyoning bir qator mintaqalari, xususan, Kichik Osiyo, O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda aholi o'rtasida ijtimoiy kelib chiqish, mavqe, mol-mulkiga ko'ra tabaqlanish yuz bera boshladi. Ishlab chiqarish, sanoatning rivojlanishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi va aholining hukmron tabaqalarining (dindorlar, amaldorlar, qabila oqsoqollar) paydo bo'lishi jismoniy va aqliy mehnatni ajratishga olib keldi. Jismoniy mehnat quyi tabaqa vakillari, aqliy mehnat jamiyatning yuqori qatlamlari qo'lida to'planib, ularning eng katta imtiyoziga aylanadi. Aqliy va jismoniy mehnatni ajratish yangi mutaxassisliklar, jumladan o'qituvchi tushunchasining paydo bo'lishiga turki bo'ldi[2]. Bu esa turli tabaqa vakillarining ta'lim egallashdagi sezilarli farqlarini oolib berdi. Ibtidoiy jamiyatning parchalanishi davrida monogam oila asosiy ijtimoiy birlikka aylanadi. Oila va oilaviy tarbiyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda bola tarbiyasiga ham e'tibor sezilarli darajada oshdi. Odatdagidek hayotning birinchi yillarda bola bilan shug'ullanish, uni parvarish qilish onaga topshirilgan. Bolaning ulg'ayib borishi bilan uning tarbiyasi ustida maqsadli ishlash masalasi kun tartibiga chiqo boshladi. Jamiyatda ma'lum darajada to'plangan bilimlarni saqlash, boshqalarga uzatish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan yozuvni o'rgatish, diniy va dunyoviy bilim berish talabi maxsus ijtimoiy institut – maktablarning yuzaga kelishiga turki bo'ldi. Ilk maktablarda besh yoshdan 16-17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar o'qitilib, ular uchun asosiy darslik vazifasini lug'at-grammatikalar, adabiyot kitoblari bajargan[3].

Bola tarbiyasiga erta kirishish, komil shaxs tarbiyasida nutqning o'rni masalasi Sharqda ham, G'arbda ham antik davrlardoq dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Biroq zamonaviy ta'limda aynan maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini o'stirish vositasi bo'lgan maxsus lug'atlarni yaratish tarixi u qadar uzoq emas. Ilk ildizlari miloddan avvalgi to'rt minginchi yilliklarga borib taqalishi e'tirof etilayotgan o'quv lug'atchiligi an'anralari shakllangan XX asr boshlarida ham hali ta'limning ilk bosqichi – maktabgacha ta'lim uchun lug'atlar yaratish masalasi kun tartibiga olib chiqilmagan edi.

To'g'ri, ayrim Yevropa mamlakatlari, shuningdek, Rossiyada bolalar uchun kitob yozish harakatlari birmuncha ilgariroq boshlangan. Bu borada izlanishlar olib borgan I.A.Antipova XVIII asrning ikkinchi yarmini dunyo miqyosida bolalar uchun kitob nashr etish tarixida tom ma'nodagi eng muhim davr deb ataydi. Uning ma'lumot berishicha, jahon miqyosida aynan shu vaqtidan boshlab aynan kichik yoshdag'i bolalar uchun kitob yozish an'anasi to'la shakllanadi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi ushbu davrga kelib Rossiyada bolalar adabiyoti o'ziga xos maqsad va vazifalarini belgilab olib, mustaqil yo'nalishga tushib oldi, bolalar nashriyotlari paydo bo'la boshladi. Bolalarga mo'ljallangan ilk kitoblar Rossiyada XVI – XVII asrlardan kuzatilib, muntazam taraqqiy etib boradi. XVIII asrning oxiriga kelib poliografik texnologiyalarning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda bolalar kitoblarini yozish va ularni nashr etish eng yuqori cho'qqiga ko'tariladi. Bu rus matbaachiligi tarixida bolalar uchun maxsus nashrlarning paydo bo'lishiga olib keladi[4].

Mutaxassislar aynan bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan ilk kitob sifatida Dmitriy Gerasimovning 1491 yilda qo'lida yozilgan lotin tili darsligi "Donatus"ni ko'rsatadilar. "Donatus" lotin tilini o'rgatishga bag'ishlangan ikkita grammatikasi – qisqacha boshlang'ich kurs sifatidagi "Kichik grammatika" ("Ars minor") va kengqamrovli darslik "Katta grammatika"si ("Ars maior") bilan tanilgan mashhur rimlik grammatik va notiq Eliy Donat (320-380) nomi bilan bog'liq. D.Gerasimov lotin tilining mazkur klassik antik grammatikasining analogi – ruscha versiyasini ishlab chiqadi. U darslikni yaratishda shunchaki tarjima yo'lidan bormay, grammatik terminologiya, shuningdek, lotin grammatik kategoriyalari analoglarini taklif qiladi, XVI asr jonli tiliga mansub so'zlar semantikasi bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlarni jamlaydi. "Donata"ning (Eliy Donat grammatikasi "Donata" nomi bilan ham tanilgan – B.B.) lotin-nemis tilidagi ko'plab nashrlari D.Gerasimov uchun namuna bo'lib xizmat qilgan, sababi darslikda lotincha matn nemis tiliga tarjima bilan parallel ravishda bosilgan. Ehtimol, grammatikaning yaratilishi lotin tilini o'rganish zarurati bilan bog'liq bo'lgan[5].

Bolalar uchun yozilgan navbatdagi klassik nashr 1596 yilda rus tilshunosi, yozuvchi, tarjimon, pedagog va ilohiyotchi Lavrentiy Zizaniyga mansub universal-ensiklopedik izohli lug'at – "Leksis" ("Azbuka") hisoblanadi. U rus tilida yaratilgan birinchi lug'at bo'lib, slavyan tilida yozilgan muqaddas kitoblardagi ma'nosi tushunarsiz so'zlar izohiga bag'ishlangan. Kerakli ma'lumotni tez va qulay topish maqsadida so'zlik alifbo tartibida joylashtirilgan va shu sababli lug'at "Alifbo" nomi bilan mashhur bo'lgan. Lug'atda chap tomonda cherkov slavyan (hozirgi ruscha) so'zleri keltirilib, o'ng tomonda uning jonli rus (hozirgi ukrain) tilidagi ma'nosi berilgan. Kitob boshlovchilar – kichik yoshdag'i foydalanuvchilarga mo'ljallangani bois, qadimgi cherkov kitoblarida juda kam uchraydigan so'z va iboralarni qamrab olmagan[6].

Bolalalar nutqini o'stirish vositalari tarixida Yan Amos Komenskiy asarlarining roli muhim o'ringa ega. Y.A.Komenskiy (1592-1670) mashhur chek pedagogi, yozuvchi, davlat arbobi, ilmiy pedagogika asoschisi bo'lib, uning bola tarbiyasi, umuman, pedagogikaga bag'ishlangan bir necha bebafo va o'lmas darsliklari bizgacha yetib kelgan. Ular ichida ikkitasi – "Tillarning ochiq eshiklari" yoki "Eshik ortidan" ("Jania linguarum et ilmiyarum omnium reserata") hamda "Tushunchalar olami rasmlarda"[7] ("Orbis Sensualium Pictus") ensiklopediyasi bevosita lingvodidaktik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Olimning, xususan, 1658 yilda yozilgan mashhur "Tushunchalar olami rasmlarda" yoki "Olam rasmlarda" deb nomlangan ensiklopediyasi lug'at-darslik xarakteriga ega bo'lib, hozirga qadar maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini o'stirish vositalari qatorida muhim o'ringa egaligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilida Y.A.Komenskiyning mazkur lug'at-darsligi boshqa asarlari kabi faqat pedagogik aspektida o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida bola nutqini o'stirish vositalarini yaratishning lingvistik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmaganligi sababli "Tushunchalar olami rasmlarda" ensiklopediyasi xususida ma'lumotlar uchramaydi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida keng ommalashgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasining asl negizlari Komenskiyning "Tushunchalar olami rasmlarda" ensiklopediyasiga borib taqaladi desak, xato qilmaymiz. Aniqrog'i, ushbu lug'atida muallif ta'lim oluvchining ilk yoshlarida atrofidagi olamda mayjud eng zaruriy tushunchalar – jonli va jonsiz tabiat, hayvonot olami, o'simliklar, hodisalar, oziq-ovqatlar, jihozlar, umuman, barcha tushunchalarni rasmlar vositasida izohlashi, olamning lisoniy tasviri bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

"Olam rasmlarda" ensiklopediyasida so'zlik alifbo tartibida joylashtirilgan bo'lib, u "jonli alifbo" yoki "ramziy alfavit" deb ham nomlanadi. Muallif kitobning "Foydalanuvchi uchun ko'rsatma" qismida alifbodagi harflardan kelib chiqib lug'atga rasmlar tanlagani, mashqlar, topshiriqlar, misollar ilova qilganini aytadi. O'quv lug'atini xarakterlaydigan ushbu belgilar XX asr o'rtalariga kelib o'quv leksikografiyasini nazariyasida o'z ifodasini topadi.

Komenskiyning ushbu ensiklopediyasi ta'sirida bir qancha tillarda aynan shu nomli lug'atlar, uning analoglari yuzaga keldi. Jumladan, o'tgan asr boshlaridayoq rus tilida "Mir

chuvstvennix veshey v kartinkax” umumiy nomi ostida bolalar lug‘atining bir necha nashrlari yaratildi. Aynan maktabgacha ta’lim tizimi uchun qozoq tilida A.Rauandina va B.O.Salixovalarning 2009 yilda yaratilgan “Suretti qazaq tili” (Qozoq tili rasmlarda”), F.Bruksning 2014 yilda yaratilgan “Curetti səzdigi” (“Rasmli lug‘at”), S.V.Trofimovaning 2015 yilda yaratilgan “Men tyratin yy. Suretti səzdik” (“Men yashaydigan uy. Rasmli lug‘at”), “Men jaqsi kəretin əlem. Suretti səzdik” (“Men yaxshi ko‘rgan el. Rasmli lug‘at”) kabi lug‘atlarini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Yuzqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kungacha yaratilgan kichik yoshdagι bolalarning intellektual taraqqiyoti, nutqini o‘stirish bilan bog‘liq vositalarning, asosan, ikki toifasini ajratish mumkin:

lug‘atlar (illyustrativ ensiklopediyalar, lug‘at-grammatikalar, lug‘at-darsliklar va boshq.);

badiiy asarlar – ertak, hikoya va boshq.

Jahon o‘quv leksikografiyasida o‘quv lug‘atlarining turli-tuman tiplari mavjud. Biroq kuzatuvlardan ma’lum bo‘ladiki, maktabgacha yoshdagι bolalar uchun yaratiladigan lug‘atlarining aksariyati ensiklopedik xarakterga ega, ya’ni ensiklopedik bilim berish uchun xoslangan bo‘ladi.

Ensiklopedik lug‘atlar, odatda, alfavit tartibida tuzilib, ularda so‘z emas, balki shu so‘zdan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo‘lgan narsa, tarixiy voqeа, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma’lumot beriladi, lug‘at maqolasi lug‘at yozilgan tilni tushunuvchi keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan bo‘ladi[8]. Bolalar lug‘atlarining ushbu toifaga mansub bo‘lishi, birinchidan, lug‘at so‘zligining muayyan yoshdagι keng foydalanuvchilar ommasi uchun mo‘ljallanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, narsa, tushuncha, hodisaga umumiy tarzda izoh berish, imkon darajasida izohni rasmlar vositasida yetkazish zarurati bilan bog‘liq.

Ensiklopedik lug‘at ta’limning turli bo‘g‘inlarida o‘quvchining kerakli ma’lumotlarni mustaqil o‘zlashtirishi, boshlang‘ich bilimlarni uyda o‘zlashtirishiga imkon beradi. Zero, “ensiklopediya” (“encyclopaedia”) yunoncha ἐνκύκλιος – “doira”, παιδεία – “ta’lim” “yaxlit doirada umumiy bilim, ma’lumot berish” ma’nolarini anglatadi[9].

Birinchi bolalar ensiklopediyalari aynan “yaxlit umumiy bilim berish” g‘oyasi bilan maorifchilarning ommani ma’rifatlari qilishga doir “tuyg‘ular va ongni shakllantirish” maqsadi bilan tutashib ketdi. Bu, o‘z navbatida, jahon o‘quv leksikografiyasida “bolalar ensiklopediyasi” deb atalgan maxsus janrni yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. XVIII asrdayoq bu janrda yaratilgan ensiklopediyalar katta yoshli foydalanuvchilarga mo‘ljallangan umumiy ensiklopediyalardan tezkor ma’lumot berishga emas, balki ko‘proq kognitiv vazifani bajarishga xoslangani, ta’limga yo‘naltirilgani, rangli-bezakli bo‘lishi bilan ajralib turishini o‘zida namoyon qildi. Bu belgi “bolalar ensiklopediyasi”ni ta’lim jarayoniga yaqinlashtirdi, hatto ko‘pgina mamlakatlarda uni o‘qitish vositasini sifatida tan olinishiga sabab bo‘ldi.

XVIII asr oxirlariga kelib Yevropa mamlakatlarda nemis, ingliz, fransuz, ispan tillarida yaratilgan bolalar lug‘atlari ta’sirida rus tilida dastlabki bolalar ensiklopediyalari paydo bo‘la boshladi. I.A.Antipova birinchi bolalar ensiklopediyalari mualliflari o‘qituvchi va murabbiylar (I.B.Bazedov (1699-1773), N.G.Kurganov (1725-1796), X.G.Volke (1741-1825), F.Y.Bertux (1747-1822), D.V.Nexachin (1769-1804) va I.V.Nexachin (1771-1811) va boshq.) bo‘lganini uning darslik vazifasini bajargani bilan asoslaydi. Ular ensiklopediyalarni universal o‘quv-didaktik qo‘llanma deb bilishgan[10]. Tadqiqotchi Yevropada tom ma’noda darslik vazifasini bajaruvchi bolalar ensiklopediyalari taraqqiyoti XVIII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, bolalar adabiyoti sohasining “sinishi”ga, oqsashiga sabab bo‘lgani, shuningdek, geografiya, tarix, etnografiya, zoologiya va psixologiyaga qiziqishning ortib borishi 1780-90 yillarda bu fanlarga doir bilimlarning ham bolalar ensiklopediyalarida qamrab olinishiga olib kelganini ta’kidlaydi[11].

Ensiklopediyalarda illyustratsiya – rasmlar, ranglar, vizualizatsiyaga katta e’tibor qaratilishi bolalar ensiklopediyalarining darslik va bolalar adabiyotiga qaraganda foydalanuvchilar diqqatini o‘ziga ko‘proq jalb qilishiga sabab bo‘ldi. Bolalar ensiklopediyalari nashriyotlar uchun katta daromad keltiradigan sohaga aylandi.

O‘zbek tilida kichik yoshli bolalarga mo‘ljallab kitob yozish tarixi u qadar uzoqqa borib taqalmaydi. XX asr boshlarida rus tilida yaratilgan nutq o‘stirish vositalari ta’sirida o‘zbek tilida ham bolalar uchun dastlabki kitoblar – lug‘at-qo‘llanmalar, adabiyotlar paydo bo‘la boshladi. Bunda o‘z davrining ma‘rifatparvarlari – Abdulla Avloniy, Hamza, Sadriddin Ayniy, bolalar yozuvchilari Zafar Diyor, Hakim Nazir, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Qudrat Hikmat, Sulton Jo‘ra, Shukur Sa’dulla, shuningdek, G‘ayratiy, G‘afur G‘ulom, Oybeklarning roli katta bo‘ldi.

XX asr oxirlariga kelib o‘zbek tilida bolalarga mo‘ljallangan ilk ensiklopediya “U kim. Bu nima” nomi bilan chop etildi. Uch qismidan iborat ushbu kitob o‘z davrida maktabgacha yoshdagagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari intellektual taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. 1998 yilda “O‘zbekiston” nashriyotida uch jildli “Mo‘jiza kitob” nomli bolalar ensiklopediyasining nashr etilishi o‘zbek tilida ensiklopedik lug‘atlarning maxsus janrining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda o‘zbek tilida ham maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini o‘stirish vositalarining yangi avlod – xorijiy lug‘atchilik an’analari asosida yaratilgan qator zamonaviy lug‘atlar va ularning elektron versiyalari yuzaga kelganini ta’kidlab o‘tish o‘rinli. 2010 yilda “Cho‘lpón” nashriyotida V.V.Aristova va boshqalarining rus tilida yaratilgan “Mening eng birinchi ensiklopediyam” deb nomlangan lug‘ati o‘zbekcha tarjima bilan nashr etildi. Lug‘at kichik yoshli bolalarning o‘zini qurshab turgan olam bilan tanisha boshlagan davrida kattalarga beradigan turli-tuman savollariga javob berishda ota-onalar, tarbiyachilarga muhim yordamchi vazifasini o‘taydi. Kitob “Hammasi odam haqida”, “Atrofimizdagi texnika”, “San’at olami” kabi qismlardan tashkil topgan bo‘lib, bolaning butun koinot haqida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lishi, hayvonot olami bilan tanishishi, odam tanasi qismlari nomini va ma’nosini bilishi, shuningdek, o‘z yoshi doirasida texnika, san’at olami haqida zarur bo‘lgan tushunchalarga ega bo‘lishida amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur lug‘atni XXI asrda o‘zbek tilida maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun yaratilgan zamonaviy ensiklopediyaning ilk namunasi deb baholash mumkin, biroq rus tilida yaratilgan lug‘atning aynan tarjimasi bo‘lganligi bois, uni o‘quv lug‘atlari talabi darajasida yaratilgan lug‘at deb bo‘lmaydi. Qomusdagi ma’lumotlar boshqa millat hayoti, turmush tarziga xos tushunchalarini qamrab olgan, hatto unga chizilgan suratlarda ham milliy ruh sezilmaydi.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 2016 yilda Miraziz A’zamning “Ming bir so‘zni bilaman” deb nomlangan rangli-bezakli lug‘ati va uning elektron varianti, 2018 yilda “Mening birinchi ensiklopediyam” turkumida belgilangan 50 nomdagagi bolalar ensiklopediyasining 10 tasi nashr etildi (“Texnika olamiga sayohat”, “Bu juda qiziq”, “Kapalaklar olami”, “Koinotga sayohat”, “Dunyo bo‘ylab sayohat”, “Baliqlar olamiga sayohat”, “Hayvonot olamiga sayohat”, “O‘simliklar olamiga sayohat”, “Tarixga sayohat”, “Yosh bilimdon”) va ularning elektron versiyalari yaratildi. Har bir ensiklopediya o‘zi ixtisoslashgan sohaga oid so‘zlarni qisqa va lo‘nda shaklda, bolaning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda izohini o‘zida jamlagan.

Mamlakatimizda aynan maktabgacha yoshdagagi bolalarning tafakkurini o‘stirish, nutq boyligini oshirish, muloqot madaniyatini egallashlari uchun muhim maxsus lingvodidaktik vositalarni yaratish harakatlari yaqindan boshlandi. 2019 yilda o‘zbek tilida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi” hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida o‘quv lug‘atchiliginining dunyoning bir qancha tillarida mavjud bo‘lgan an’anaviy “Mening birinchi lug‘atim” janrida o‘nga yaqin rangli-bezakli o‘quv izohli lug‘at-qo‘llanma nashr etildi. Aytish mumkinki, ushbu seriyada nashr etilgan lug‘atlar o‘zbek tilida o‘quv lug‘atlari mezonlari asosida yaratilgan birmuncha mukammal lug‘atlardir. “Olam mening nigohimda”, “Rangin olam”, “Meva va sabzavotlar”, “Hayvonot olami”, “Kiyim-kechaklar”, “Bayramlarimiz”, “Komillik sari ilk qadam”, “So‘zdan so‘zni farqlaymiz”, “Mening oilam”[12] kabi nomlar bilan aynan maktabgacha ta’lim tizimi uchun yaratilgan mazkur o‘quv vositalari ilk yoshlaridan boshlab bola ongida olamning milliy lisoniy manzarasi haqida tasavvur hosil qilish, so‘z boyligini oshirish, o‘zi yashab turgan joy tabiatini, iqlimi,

turmush tarziga aloqador narsa, tushuncha, harakat, belgilarni tanish, ularning nomini to‘g‘ri qo‘llay bilish ko‘nikmasini o‘sirish, milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar. Ushbu lug‘atlarning barchasini uzlucksiz ta’limning ilk bo‘g‘inida ta’lim oluvchilarning nutqiy zahirasini to‘ldirish, o‘zini qurshab turgan olamning milliy lisoniy manzarasini anglashiga ko‘mak berish, eng zaruriy ma’lumotlarni qisqa va sodda shaklda taqdim qilish xususiyati umumlashtiradi. Maktabgacha yoshda o‘z fikrini erkin bayon eta olgan, nutqiy qurshovida so‘z topishga qiyalmagan bola kelajakda har qanday holatda munosabatga kirisha oladi. Ertangi kunimizning egasi bo‘lgan bolajonlarning ana shu muhim davrida o‘z ona tili, qolaversa, boshqa tillarni o‘zlashtirishi uchun ko‘mak beruvchi maxsus nutq o‘sirish vositalari – o‘quv lug‘atlarini yaratish va undan samarali foydalanish hozirgi davrning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гречихин А.А. Общая библиография: Учебник для вузов. М.: Изд-во МГУП, 2000. 588с. – С.265
2. Джуринский А.Н. История педагогики. ВЛАДОС. 2000., -432 с. – С.4.
3. Кулганов В.А., Николаева Е.И., Юнацкевич П. История педагогики и образования. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. СПБ.: Питер, 2016. 256 с. – С.16
4. Антипова И.А.Образовательная книга для детей в России во второй половине XVIII в.: вопросы издания и типологии. Автореф.... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2002. –23с.
5. Дмитрий_Герасимов. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
6. Зизаний, Лаврентий_Иванович. http://aksinfos.ru/pagebook/alfavit_zizania.html; <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
7. Я.А.Коменский. Мир чувственных вещей в картинках, или изображение и наименование всех главнейших предметов в мире и действий в жизни. М., 1941., Т.III., –С.330 <http://pedagogic.ru/books/item/f00/s00/z0000054/st014.shtml>
8. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Т., “Fan va texnologiya”, 2009. – 416b. – В.133.
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A8%D0%BD%D0%BE%D0%BA%D1%8D%D0%BF%D0%B5%D1%87%D0%BD%D0%BE%D0%B9%D0%BE%D1%80%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC>
10. Антипова И.А.Образовательная книга для детей в России во второй половине XVIII в.: вопросы издания и типологии. Автореф.... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2002. 23с. – С.19
11. Антипова И.А. Первые детские энциклопедии в России // Проблемы культуры и искусства: Тез.Рос. аспирантской конф. В 2-х ч. - СПб. 2000. - Ч.И. -С. 318-324.
12. Bahreddinova B.M., Rahmatova Z. Mening birinchi lug‘atim. Olam mening nigohimda. Rangli-bezakli o‘quv lug‘at. 5-7 yoshli bolalar uchun. “Nasaf”, Qarshi, 2019. 56 b.;

“QORAQUYUN” ROMANIDA INSON VA TABIAT MUAMMOSINING POETIK TASVIRI

Fayzullayev Xolmo‘min

Qarshi davlat universiteti dotsenti,
fayzullayevxolmumin@gmail.com

ORCID 0009-0005-6512-4498]

UDK 894.375-31(045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “inson va tabiat muammozi” haqida fikr yuritilgan. Bunday azaliy va abadiy muammoning dunyo adabiyoti uchun xosligi, o‘zbek adabiyotiga ham begona emasligi qayd etilgan. Maqolada N.Norqobilovning “Qoraquyun” romani inson va tabiat muammozi nuqtai nazaridan o‘rganilgan, romanda ayni muammoning poetik aks ettirilishi, badiiy falsafiy qamrovi, milliy o‘ziga xosligi, yozuvchi matn ostida tabiat hodisalari botinida yashirin qonuniyatga ishora qilganligi haqida fikr yuritilgan. Asardagi syujet voqeligidan kelib chiqilib, obrazlar tizimi haqidagi fikrlar keltirilgan. Romanda “inson va tabiat” muammozi, “jilovlovchi yo‘riq”, tabiat “yo‘rig‘i” tushunchalari asarning badiiy-falsafiy konsepsiysi sifatida talqin etilgan. Ijtimoiy va tabiat qonunlarini badiiy zidlash, qiyoslash asnosida maydonga kelgan roman falsafasi bir nechta muhim epizodlar tahlili orqali yoritib berilgan.

Yozuvchi Normurod Norqobilovning “Qoraquyun” romani tahlili asosida o‘zbek nasri inson va tabiat munosabatlarini izchil tarzda poetik aks ettirishda davom etayotgani haqidagi xulosalar olg‘a surilgan.

Kalit so‘zlar: roman, syujet, obraz, detal, xarakter, portret, epik tasvir, badiiy nutq, muallif nurqi, badiiy zamon, badiiy makon, ramz, majoziy obraz, badiiy kontrast, inson va tabiat muammozi, nabotot, jamodot, hayvonot, fojaviylik, dramatiklik.

THE POETIC DEPICTION OF THE HUMAN AND NATURE PROBLEM IN THE NOVEL “QORAQUYUN”

Abstract. This article discusses the issue of "the relationship between human and nature." It emphasizes that this eternal and timeless problem is common to world literature and is not alien to Uzbek literature either. The article analyzes N. Norqobilov's novel "Qoraquyun" from the perspective of the human and nature problem, exploring how this issue is poetically reflected in the novel, its artistic-philosophical scope, and its unique national character. The author also points out that through the events of the novel, the writer hints at the hidden laws within the phenomena of nature. Based on the plot of the work, the article also presents reflections on the system of characters.

In the novel, the problem of "human and nature," the concepts of the "guiding instruction" and "instruction of nature" are interpreted as the artistic-philosophical conception of the work. The philosophy of the novel, which emerges through the artistic contrast and comparison of social and natural laws, is revealed through the analysis of several important episodes.

Based on the analysis of Normurod Norqobilov's novel "Qoraquyun," the article puts forward the conclusion that Uzbek prose continues to consistently poetically reflect the relationship between human and nature.

Keywords: novel, plot, character, detail, personality, portrait, epic depiction, artistic speech, author's perspective, artistic time, artistic space, symbol, metaphorical image, artistic contrast, human and nature problem, flora, fauna, inanimate nature, tragedy, drama.

Kirish. O‘z avlodni vakillari orasida nufuzli o‘rin egallaydigan, inson va tabiat muammosini turli badiiy rakurslarda tasvirlab kelayotgan yozuvchi Normurod Norqobilov asarlarida ko‘p ijodkorlarning e’tiboriga tushmagan, jaydari, shu bilan birgalikda, tabiat, hayvonot, jamodotga xos teran falsafa ohanglariga guvoh bo‘lamiz. Mag‘zida inson va tabiat muammosi aks etgan bunday falsafiy xulosalarni biz yozuvchining ilk to‘plami “Zangori ko‘l”dan (1987) boshlab, “Unutilgan qo‘sish” (1990), “Yuzma-yuz” (1993), “Sariq gul” (1996), “Paxmoq” (1997), “Temur g‘ori” (1999), “Arazchi chumchuq” (1999), “Bekatdagi oq uycha” (2000), “Ovul oralagan bo‘ri” (2005), “Jo‘sinqin daryo” (2005), “Bo‘ron qo‘pgan kun” (2007), “Tog‘dagi yolg‘iz odam” (2011), “Chetdagi odam” (2018) singari qissa va hikoyalar to‘plamlari, “Dashtu dalalarda” (2009), “Qoraquyun” (2016) romanlarigacha izchil tarzda kuzatishimiz mumkin.

N.Norqobilov ijodidagi bunday jihat uning xalq ijodiyoti, qishloqlarimiz odamlari turmush tarzi, Vatanimiz tabiatini, qolaversa, jahon adabiyotining L.Tolstoy, J.London, Ch.Aytmatov, S.Tompson ijodiy an‘analarini chuqur bilishi bilan bog‘liq. Uzoq yillar O‘zbekiston teleradiokompaniyasida olib borgan ilmiy ekspeditsiya ishlari, tabiat bilan tillashadigan ko‘plab vatandoshlarimiz bilan olib borgan suhbatlari, tabiat sirlarini jamiyat va tabiat bilan uyg‘un kuzatishlari, dashtu dalalarda kechgan bolaligi, o‘smirlilik hayoti yozuvchining ona tabiat haqida shunday original asarlar yozishiga sabab bo‘lgan, deb o‘ylaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Normurod Norqobilov qajiodi mahsuli “Qoraquyun” romani misolida “inson va tabiat muammosi” haqida ilgari surilgan masalalar mohiyatini ochib berishda qiyoslash, kuzatish, analiz va sentiz, umumlashtirish va nazariy, badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Normurod Norqobilov asarlari o‘zining ilk namunalaridan boshlaboq, adabiyotshunosligimiz e’tiborini tortib keladi. Ustoz adabiyotshunoslari U.Normatov, A.Rasulov, D.To‘rayev, Y.Solijonov, Q.Yo‘ldoshevlarining qator tadqiqot va maqolalarida N.Norqobilov roman, qissa va hikoyalari haqida salmoqli fikrlar aytilgan. Nisbatan keyingi avlod adabiyotshunoslari ishlarida yozuvchi asarlarini aniq ilmiy muammo yuzasidan, monografik o‘rganishga urinishlar ko‘zga tashlanadi. U.Rasulova, D.Xoldorov, K.Hamroyev kabi tadqiqotchilarning yozuvchi qissa va hikoyalari borasidagi ishlari shunday ilmiy urinishlardan bo‘lib hisoblanadi. Ammo yirik olimlarimizning ba’zi bir qaydlarini mustasno etganda N.Norqobilov asarlari inson va tabiat, tabiat falsafasi muammosi asosida maxsus o‘rganilmagan.

Shu boisdan ushbu muxtasar maqolada biz yozuvchining “Qoraquyun” romanida uchraydigan bir epizod, tabiat falsafasiga doir nozik bir nuqta haqida fikr yuritishga jazm etdik.

Professor A.Rasulov o‘zining “Badiiylik – bezavol yangilik” nomli kitobida N.Norqobilov ijodi haqida to‘xtalib shunday yozadi: “Yozuvchi Normurod Norqobilov XX asrning so‘nggi o‘n yilligidan boshlab barakali ijod qilayotganlardan biri. Uning asarlarida tog‘ va tog‘oldi tabiat, odamlari aks ettirilgan. *Ularni tahlil va talqin qilish joiz*” [8;134] (ta’kid bizniki, X.F.). Aynan mana shu tog‘ odamlari, tog‘lar, tog‘ va tog‘ atrofida yashaydigan jonivorlar, qush-parrandalar, hatto qurt-qumursqa, hashoratlarga cha N.Norqobilov ijodining obyekti hisoblanadi. Muhimi shuki, N.Norqobilov ustoz A.Rasulov aytganlaridek, tabiat, hayvonot, jamodot tasvirining o‘zi bilangina shug‘ullanmaydi, balki bu xususda o‘z xulosalarini asar matniga singdirib yuboradi. Shu muhitda yashaydigan odam, jonivor, hatto tosh-tuproqlar, dala-dashtlar vositasida tabiat falsafasini anglash va anglatishga urg‘u beradi. Inson va tabiat uyg‘unligi, bunday o‘ziga xos uyg‘unlikning vayron etilish nuqtalarini badiiy talqin etadi. A.Rasulov yozuvchining “Qoyalarni ham yig‘laydi” qissasidagi ota (Ernazar polvon) va o‘g‘il (O‘sar) obrazlari o‘rtasidagi psixologik-parapsixologik holatlarni tahlil etadi. O‘g‘li O‘sarning noqobilligidan ranjigan otaning dardu dunyosi qorong‘u bo‘lgani, jahl ustida tog‘da turgan kalladek toshni olib pastga uloqtirgandagi holati haqida yozar ekan, “Hurmatli o‘quvchi, dard-dunyosi qorong‘i bo‘lib, yuragiga qil ham sig‘may turganida Ernazar povon jon-jahdi bilan uloqtirgan kalladay toshni yodingizda saqlab qoling” [8;135] deya alohida ta’kidlaydi. Asardagi ota obrazi ko‘nglidagi dramatizm kuchayib, ota-o‘g‘il o‘rtasidagi konflikt avj nuqtasiga yetadi. Otaning tergashlari, pand-nasihatlaridan bezor bo‘lgan noqobil o‘g‘il o‘ta og‘ir gunohga qo‘l uradi. Otasiga qo‘l ko‘taradi. Qilgan ishidan va otasidan dovdirashla tog‘ning etagi bo‘ylab qochib borayotgan O‘sarni bexosdan dumalab qolgan kalladek tosh urib yiqitadi. Undan kattaroq xarsang esa o‘z zalvori bilan yanchib tashlaydi. Shu o‘rinda ustoz olimning mazkur noyob hodisa haqidagi xulosasini keltirish o‘rinli bo‘lardi: “Mening nazarimda,-deb yozadi olim,-O‘sarni urib yiqitgan tosh boyaga g‘azab alangasida qovrilib, yurak-bag‘ri o‘rtanib turganida *Ernazar polvon jon-jahdi bilan pastga uloqtirgan “kalladay tosh” bo‘lib tuyulaveradi*” (Ta’kid bizniki, X.F.). [8;135] Olimning fikrlariga yuz foiz qo‘shilish bilan birga, uni qisman davom ham ettirish mumkin. Chunki bu hodisa shunchaki tasodif emas. Uning ostida donishmand millatimizning juda katta falsafasi yotibdi. Zotan, tabiatning yuragi o‘zini ardoqlagan odamlar bilan uyg‘un holatda urib turadi. Bunday tog‘ va daryolardek pokiza odamlarni xafa qilganlardan tabiatning o‘zi o‘ch oladi. Shuning bilan birgalikda, xalqimiz orasida “Otaning qarg‘ishi – o‘q” degan hikmatli so‘z yuradi. Ammo bunday nozik holat-hodisalarni fan tushuntirib bera olmaydi. Hatto aynan shu jihatlarni o‘rganishga qaratilgan parapsixologiya ham bu borada faqat tahmin qiladi.

N.Norqobilovning “Qoraquyun” romanida bunday nozik holatlar tasviri ko‘plab kuzatiladi. Bularning hammasi inson va tabiat uyg‘unligi, nouyg‘unlik muammosini anglashimizga xizmat qiladi. Quyidagi epizodda keladigan falsafani esa haligacha biron tabiat tasviri bilan shug‘ullangan yozuvchi aytmagan bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz.

Bu romanning bosh qahramoni, unda ko‘plab odamlar obrazi ishtirok etishiga qaramasdan odam emas, balki Qoraquyun nomli it. Muallif asardagi barcha katta-kichik epizodlarni shu obraz atrofiga jamlaydi. Romanning bosh va oxirgi jumlalarini ham shu it tasviriga quradi. Birinchi jumla: “G‘uldagi it – Qoraquyun yarim tunga yaqin tin olmay, uzluksiz bir alfozda g‘azabkor irillary boshladi”,[3;3] deb boshlansa, oxirgi jumla: “Bu paytda qibla shamoli qo‘zg‘algan bo‘lib, nihoyat ozodlikka erishgan Qoraquyun shuvoq bo‘yiga betlangancha, olis-olisdagi kenglik sari yeldek uchib borardi” jumlalari bilan tugaydi. [3;214] Shu ikki jumlaning o‘ziyoq asarning erk va tutqunlik falsafasi kontrastiga qurilganini ko‘rsatadi.

Qoraquyun – Erman tomonidan o‘z dushmani Itolmasni yo‘q qilish uchun g‘ul (mustahkam qafas)ga solib boqilayotgan bir bahaybat it. Uning tug‘ilish manzili, hayotining ilk davrini ham erkinlikka sira aloqasi yo‘q. Erman bu itni hali ko‘zi ochilmagan paytda, akasi Qalaybeknikidan olib keladi. Uni qotil qilib tarbiyalash uchun ikkita egizini tiriklayin ko‘mib, nobud qiladi. Itning yanada vahshiyroq bo‘lishi uchun uni bo‘ri eti berib boqadi. Bu bilan itda o‘zidan o‘zga butun mavjudotga nisbatan nafrat hissini tarbiyalamoqchi bo‘ladi. Itni sira ham erkinlikka chiqarmaydi. Dushmani kelib, undan o‘ch oladigan kunni kutadi. Payt poylaydi.

Ammo itni, garchand uni tug‘ilganidan beri g‘ulda saqlab kelishayotgan bo‘lsa ham, ajdodlar geni orqali vujudiga kirib kelgan erk tuyg‘usi sira tark etmaydi. It g‘ul ichida ulg‘ayar ekan, vaqtı-vaqtı bilan erkinlikda yashagan bobokaloni – Olarit tuygan shuvoq hidini tuyadi. Unda qotillikdan ko‘ra erk tuyg‘usi kuchliroq shakllanadi. Shu tuyg‘u uni odamzotning tor miqyosdagi o‘ch, hasad kabi istaklarini amalga oshiruvchi bir qul emas, tabiatning ulkan va adolatli qonunlari tomon intiluvchi erksevarga aylantiradi. Chunki bunday buyuk qonuniyat va adolat hissi g‘ul itining bobosi, bo‘ri avlod – Olaritda mujassam edi.

Olarit shunday bir vajohatlari itki, uning ovozini eshitgan bo‘rilar zir titraydi. Kunlardan bir kuni Olarit boshliq itlar to‘dasi qo‘riqplayotgan otar atrofiga bo‘rilar oralaydi. Olarit to‘dasi ularni ta’qib qiladi. Ammo yetay-yetay degan masofada Olarit ta’qibni to‘xtatadi. Holbuki, yana bir necha daqiqalik shijoat sabab bo‘rilar to‘dasi tor-mor qilinishi mumkin edi. Yozuvchi xuddi shu joyda, oddiy kitobxon yoki tabiatdan uzoq odam tushunishi qiyin bo‘lgan borliq falsafasini kashf etadi.

Xo‘sish, Olarit ta’qibni to‘xtatishining sababi nima edi? Qo‘rroqlikmi, charchoqmi? Yoki bo‘rilar bilan kelishuv, orani buzmaslikka urinishmi?

Ayni savollar, bizningcha, oddiy kitobxon yoki tabiatni teran kuzata bilmagan kimsalarga tegishli. Chunki ular bu jumboqqa shundan o‘zga izoh topishga qiynaladilar. Shu bois muallif tabiatning bunday jaydari, ayni damda murakkab falsafasini quyidagicha izohlaydi: “Buning boisi shundaki, jonivorlar botinida andishaga o‘xhash g‘aroyib bir yo‘riq mavjud bo‘lib, bu yo‘riqning tartibi hamda ichki mohiyatini inson bolasi ikki dunyoda ham idrok eta olmaydi. Idrok etolmagani sababli, u hamisha buzuvchi obyekt rolini o‘ynab keladi... Ha, u chindan-da mavjud. U yer yuzida jonivorlar paydo bo‘lgan kezlardayoq yuzaga kelgan va shu damgacha ular botinida imi-jimida yashab keladi”. [3;130]

Yuqoriroqda biz “Qoyalari ham yig‘laydi” qissasidagi bir epizod misolida “o‘ch oluvchi tabiat” falsafasiga diqqat qaratgan edik. Olarit bilan kuzatilgan noyob hodisa ham shunga yaqin. Bunda ham shu kabi borliq-tabiatning botini haqidagi falsafa aks etgan.

Yozuvchi masalani yanada oydinlashtirish maqsadida o‘z falsafasiga misol keltiradi: “Buning uchun biror mushukni jon-jahdi bilan quvlab borayotgan ko‘ppakning barcha hattiharakatini sinchkovlik bilan kuzatishning o‘zi kifoya: bir qarashda it shu qadar yovuzlashganki, mobodo mushuk uning changaliga tushgudek bo‘lsa, tirik qolishi gumondek tuyuladi. Xuddi kuzatilganidek (Olarit voqeasi nazarda tutilmoqda. X.F.), ana, quturgan it mushukka yetay deb qoldi. Agar u yana jindek zo‘r bersa, tamom – sho‘rlik mushukning kuni bitdi deyavering. Biroq so‘nggi soniyada voqealari rivoji keskin o‘zgaradi – it eng oxirgi lahzada mushukning chap bermog‘iga atay imkon yaratadi va shu bilan mushuk muqarrar o‘limdan qutulib qoladi... Buning sababi g‘oyatda jo‘n – it mushukni odatiga xos tarzda quvlagan esa-da, ammo avvalida undan biror yomonlik ko‘rmagani bois, o‘zi sezmagan holda beixtiyor botiniyo yo‘riqqa itoat etgan, mushukning qutulib ketmog‘iga izn bergandi... itni favqulodda shafqat hissi emas, balki ona tabiat tomonidan jismi-joniga singdirilgan muqaddas qoida – yo‘riq jilovlaydi” (ta’kid bizniki. X.F.). [3;131]

Bizningcha, tabiatning nozik botiniy falsafasi mana shu – jilovlaydigan yo‘riq tushunchasida mujassam. Odatda hayvonot, jonivorlar dunyosi instinct bilan yashaydi degan gaplarni ko‘p aytamiz. Biroq yozuvchi qayd etgan it va mushuk yoki Olarit va bo‘rilar munosabatida instinctdan ko‘ra teranroq qonuniyat aks etgan. Nega deganimizda, instinct itni quvish, burdalash, mahv etishga chorlaydi. U o‘z instinctiga ko‘ra to‘q, kuchli va g‘olib bo‘lishni istaydi. “Jilovlovchi yo‘riq” esa uning barcha instinctga xos istaklaridan ustun turadi. Tabiat “yo‘rig‘i”ning buzilmasligini nazorat qiladi. Natijada ulkan Yer sharida davom etayotgan tabiat ishlarida adolat hukm suradi.

Xulosa. Xullas, yozuvchi N.Norqobilov kichik va bizga arzimasdek tuyuladigan badiiy lavha orqali o‘z o‘quvchisiga tabiatning mana shunday ulkan falsafasini anglatgan. Matn ostida tabiat hodisalari botinida yashirin qonuniyatga ishora qilgan. Ayni paytda, nafsi bilan yashaydigan jonivor yoki yirtqich azaliv “yo‘riq”ni buzmay, adolat muhitida kun kechirishi, aql-idrok berilgan inson esa, o‘zini maxluqotning sharifi hisoblagani holda, adolat chegaralarini buzishi haqidagi umumbashariy falsafani ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batxin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. (Rus tilidan U. Jo'raqulov tarjimasi). Toshkent, "Akademnashr" nashriyoti, 2015.
2. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Toshkent: G'afur G'ulom NNMIU, 2015.
3. Norqobilov N. Qoraquyun. Roman. – Toshkent: O`zbekiston, 2016. -B.3-214
4. Norqobilov N. Bekatdagi oq uycha. Hikoyalar va qissalar. Toshkent: "Sharq" NMKBT, 2000.
5. Norqobilov N. Ovul oralagan bo'ri. Qissalar. Toshkent: "Sharq" NMAKBT, 2005.
6. Norqobilov N. Chetdagi odam. Hikoyalar. Toshkent: Cho'lpion nomidagi NMIU, 2019.
7. Norqobilov N. Tog'dagi yolg'iz odam. Qissalar, hikoyalar. Toshkent: "O'zbekiston", 2011.
8. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. Toshkent: Sharq NMAKBT, 2007.-B.
9. To'rayev D. Rangin tasvirlar jilosi. Toshkent: "Akademnashr", 2014.
10. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. Toshkent "Universitet" 2001.

ROMAN POETIKASIDA MUALLIF NUTQI VA QAHRAMONLAR NUTQINING ICHKI ALOQALARI

Gulchehra Imomova

QarshiDU. Filologiya fanlari doktori

imomovagulchehra1960@gmail.com

ORCID 0009-0003-9290-5631

UDK 821.512.133

Annotatsiya. O'zbek adabiy tili badiiy mukammallikka, milliy xarakterlar yaratishdagi o'ziga xoslikka osonlikcha erishgani yo'q. U birlamchi mumtoz o'zbek adabiy tili va xalq jonli so'zlashuv tili zaminida vujudga keldi. Badiiy asar tili shakl va mazmunning mosligini talab qiladi, individuallashtirish qonunlariga bo'yunsadi, shuningdek, o'zining badiiy estetik sifati bilan adabiy til va jonli so'zlashuv tilining barcha ko'rinishlarini qamrab oladi.

Badiiy nutq insoniy taqdirlar mazmunini, davrning haqqoniy kartinasini yoritib beruvchi nурdir. Bu burning zarrachalarida qiyofalarning qirralari, odamlarning ruhiyatlar, vaziyat, holat, joy, muhit va tabiat tasviri bilan qo'shilib jilolanadi. Shu nur — badiiy nutq asarda ravshan bo'lmasa, yozuvchi o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Badiiy nutq — voqelikning ko'zgusi bo'lib, prozaik bayonda tarixiy sharoit va muhit belgilari bilan qahramonlar nutqida tasvirlanayotgan davr xususiyatlarini aks ettiradi.

Shu nuqtai nazardan mazkur maqlolada roman poetikasidagi muallif nutqi bilan qahramonlar nutqining ichki aloqalarini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: Roman, poetika, muallif nutqi, qahramon nutqi, voqelik, adabiy til, asar tili, estetik ideal, muhit, tipik, xarakter, ijodkor, yozuvchi, obraz, milliylik, ruhiyat, mahorat, uslub, aloqa, portret.

Abstract. The Uzbek literary language did not achieve artistic perfection and originality in creating national characters easily. It emerged on the basis of the primary classical Uzbek literary language and the living colloquial language of the people. The language of a work of art requires the correspondence of form and content, obeys the laws of individualization, and also, with its artistic and aesthetic quality, encompasses all manifestations of literary language and colloquial speech.

Artistic speech is a light that illuminates the content of human destinies, a true picture of the era. In the particles of this light, the facets of images, the psyche of people, the situation, the state, the place, the environment, and the image of nature merge and shimmer. If this light - artistic speech - is not clear in the work, the writer will not be able to achieve his goal.

Artistic speech is a mirror of reality, reflecting the characteristics of the period depicted in the speech of the characters with signs of historical conditions and environment in the prose narrative.

From this point of view, in this article, we analyzed the internal connections between the author's speech and the speech of the characters in the poetics of the novel.

Keywords: Novel, poetics, author's speech, hero's speech, reality, literary language, language of the work, aesthetic ideal, environment, typical, character, creator, writer, image, nationality, psyche, skill, style, communication, portrait.

Kirish. O'zbek romanchiligi so'nggi 30-40 yillar ichida ko'pgina o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Eng yaxshi romanlarda inson ruhiyatining tahlili, uni tasvirlash mahorati teranlashib bordi.

Yozuvchining mahorati shunda ko'rindiki, u o'zi mansub bo'lgan xalqning hayotini milliy til vositasida tasvirlayotganda tarixiy hodisalar orqali milliy qahramon va milliy urf-odatlarni bir-biriga uyg'unlashtirib yuboradi. "Albatta, badiiy mahorat chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili va qayg'uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan

zarur so‘zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir”.[9;411] Binobarin, adabiy asarlardagi personajlar ma’lum inson shaxsining ifodasi bo‘lib, ularning o‘zлari ham izhor etib berolmaydigan murakkab ruhiy holatlari muallif nutqi yordamida tasvir etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Roman poetikasida badiiy nutqning o‘rnii qahramon va muallif nutqi mushtarakligi bilan bog’liq holda kechadi. Maqlada ilgari surilgan masalalar mohiyatini ochib berishda analiz va sintez, umumlashtirish, germenevtik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Haqqoniy badiiy asarlarda shoir va yozuvchilarning shaxsi, o‘ziga xos ichki dunyosi, tabiat, yashagan muhiti aks etib turadi. Shu nuqtayi nazardan yozuvchining o‘zi ham asarda individuallashgan tipik xarakterlar singari namoyon bo‘ladi. “Jumladan, O.Balzak “Odamizod komediyasi”da 2000 obraz yaratdi, deylik. Demakki, Balzak qalbi, hayoti, fikrlari turmush va insonlar haqidagi tushunchasi ana shu 2000 obrazga taqsimlanib, har bir obraz o‘z hayoti bilan yashadi, o‘z fikrlari bilan o‘yladi, o‘z tilida so‘zladi. Buning ustiga, shu 2000 obrazni “Odamizod komediyasi”ga jamlashtirgan, ular faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirgan ikki ming birinchi obraz mavjudki, busiz Balzak hayotini, xarakterini, qalbini, dunyoqarashini, iste’dodini, uslubini mukammalligicha anglash mumkin emas. Bu ikki ming birinchi obraz barcha obrazlar ustidan mutloq hokimlikka ega bo‘lgan, har birining hayot faoliyatini ko‘rsatib turgan, ularni harakatlantirgan kuch avtor obrazidir”[11;109-110]. Muallifning asarda qahramonlar singari namoyon bo‘lishida uning nutqi muhimdir. Muallif nutqi yozuvchi mahoratining oynasi bo‘lib, asarda qiyofalar, ularning portretlari, ichki dunyosi, tabiat manzaralari, hamma-hammasini yozuvchining tili va dilidan bayon qiluvchi “hokim”likka ega nutqidir. Hokim nutq badiiy asarinig g‘oyaviy yo‘nalishi va qahramonlar xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Biz badiiy asarlarda muallif nutqining ahamiyatini o‘rganar ekanmiz, o‘zbek milliy romanchiligi asoschisi A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida muallif nutqining juda antiqa bir shakliga duch keldik.

“Kumushbibi uyqudan turib favqulodda bir holga uchraydi: bir kechada hammaning tushiga “to‘y” kirib chiqqan.

To‘y uchun yangi ko‘rpalar qoplamoqchi bo‘ladilar, par to‘saklar olmoqchi bo‘ladilar, kuyov uchun qanday kiyim yarashmog‘i ham bahs qilinar, Oftob oyim eriga oltin kamar olmoqqa buyuradir... Tavba, demay chora yo‘q: Oftob oyimning kuyovlari kim, qaysi qizlarini erga beradilar, ularning Kumushbibidan ham boshqa qizlari bormi? Ularning qizlari yolg‘iz, demak, Kumush erga beriladir...

Tushunarli gap emas:

- Erga kim tegadir?
- Kumush.
- Kumushbibi kuyovni yoqtiradimi, yo‘qmi? Bu to‘g‘rida uning fikrini bilish kerakmi, emasmi?
- So‘zlashish ham kerak emas, bildirish ham.
- Nega?
- Chunki odad shul? Kumush ota-onha yoqtirgan kishiga rozi bo‘lish uchun majbur” (47-bet).

Mazkur badiiy nutq bayonini o‘qigan kitobxon, albatta, ikki qahramon so‘zlashayotgan dialog bo‘lsa kerak, deyishi mumkin. Sinchiklab e’tibor bersangiz, bu nutqda hech qanday qahramonlar ishtirot etmayapti. Qizig‘i shundaki, yuqoridagi ko‘chirmani yozuvchi qahramonlar nutqiga ham yuklashi mumkin edi. Ammo Kumushbibining uyqudan uyg‘onishi, bir kechada hammaning tushiga to‘y kirib chiqishi, to‘y uchun yangi ko‘rpalar-u par to‘saklarni tayyorlash kabi badiiy tasvirlari faqatgina hokim nutq izohlab berishi mumkin. Izohdan anglashiladiki, muallif nutqining milliyligi har bir so‘z va iboralarda yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Sharq xotin-qizlarining iffati, nafosati, go‘zalligi, hatto kuyovni yoqtirish yoqtirmasligi haqida u bilan so‘zlashish kerak emasligi, balki odad shul ekanligi muallif nutqida badiiy ishonarli qilib berilgan.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim I.Sultonning...badiiy asardagi muallif nutqi dastavval axborot xarakteriga egadir" [1;199] degan fikriga qo'shilgan holda, o'z qarashlarimizni ham aytib o'tsak. Bizningcha, muallifning nutqi "axborot xarakteridan" iborat bo'lsa, asarining badiiy ta'sirchanligiga putur yetadi. Shunday ekan, yozuvchi muallif nutqida qahramonlarning ma'lum bir vaziyatdagi holati, milliy sharoit ta'sirida qahramon ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni badiiy tasvirlaydi.

Inson shunday noyob mavjudotki, uning qalbida nimalar bo'layotganini anglab, tushunish juda qiyin. Ayniqsa, yozuvchi uchun tarixiy qahramonlarining xarakterini hayotiy ishonarli qilib tasvirlashi mushkul vazifadir. U bu vazifani bajarishda ko'proq muallif nutqiga tayanadi.

Tarixiy romanlarda muallif nutqi inson xarakterining turli-tuman ko'rinishlarini faqat umumlashtirib berish bilan cheklanmaydi, balki ularni ziddiyatli g'oyalar kurashi ichida tirik insonlardek jonlantirib ko'rsatadi.

Yoinki tarixiy romanlarda muallif nutqi qahramon ma'naviy dunyosini (kitobxon tarixiy qahramon ruhiyatini to'la tasavvur qilishi uchun), faoliyatini, ongini, gap so'zi-yu, o'y-fikrini, sodir bo'layotgan voqealarning ishonchliligini badiiy tilda oydinlashtiradi.

Umuman, tarixiy romanning butunligi, g'oyaning birligi, qatnashuvchi shaxslarning ishlanganligi kabilardan iborat emas, balki butun asarga singdirilgan muallifning voqelikka bo'lgan o'z munosabatining ravshanligi va aniqligidan iboratdir.

Yozuvchi Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanida Ulug'bek kutubxonasi bugun millat merosi ekanligi, uning uchun kurash, ko'z qorachig'iday asrash vorislik timsoli ekanligi, shoh va olim Ulug'bek umrining fojiali daqiqalaridagi afsus va ilojsizlik holatlarini muallif nutqi orqali dalillab ko'rsatadi.

"Mirzo Ulug'bek otining boshini burarkan, beixtiyor ko'ziga yosh oldi. U hozir birinchi marta chindan ham ojiz bir banda ekanini tushundi. Endigina hokimiyatdan judo bo'lgan shoh, umrbod darbadarlikka mahkum etilgan bir faqir ekanini his etdi...." (136-bet).

"...Sayyid Abbas bilan mo'g'ulbashara suvoriy Mirzo Ulug'bekning qo'llarini orqasiga qayirib, hovliga sudrab chiqishadi.

Poymol bo'lgan g'urur va haqorat tuyg'usidan larzaga tushgan Ulug'bek lablarini tishlab ingrab yubordi" (155-bet).

Tarixiy romanlari muallif nutqining kuchiga qarangki, kitobxon go'yo Ulug'bek bilan baravar azob chekayotgandek ingrab yuboradi.

Yozuvchi Ulug'bekning chorasizligini, darbadarlikka mahkum etilgan faqir ekanligini muallif nutqida shunchaki bayon qilmaydi, balki olim, Temurbek naslidan bo'lmish mavqeい baland shoh Ulug'bekning poymol bo'lgan g'ururini badiiy tasvir tarzida gavdalantiradi.

Ulug'bek shunday holatga tushganidan, umri shunday sharmandalarcha tugayotganidan, o'limi oldida o'zidan-o'zi uyalib, lablarini tishlaydi. Yozuvchining mahoratini qarangki, asar qahramoni Ulug'bek xuddi tirik insonlardek o'lim oldida ilojsiz. Ulug'bekning o'sha paytdagi ilojsizligini, hatto atrofidagi obrazlargacha ham noma'lum ichki dunyosini, ma'naviy olamini faqat muallif nutqi tipiklashtirib berishi mumkin edi. Chunki "...tarixiy romanlarda xarakter yaratish jarayonining o'ziga xos xususiyati hayotiy prototipni bevosita kuzatish, imkon yo'qligi bilan izohlanadi." [2;87]

Demak, tarixni badiiy shaklda qayta tiklash ishida muallifning fantaziysi, xayol ko'zi bilan ko'ra olish qobiliyati qo'l keladi. A.Qahhor yozganidek, "Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib xulosa chiqarmaydi, uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko'rsatib, kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug'diradi." [10;50]

"Ulug'bek xazinasi" romanida kitobxonni nafrat hissi bilan chulg'ab olgan obrazlardan biri padarkush Abdullatifdir.

Yozuvchi Abdullatifning ruhiy dunyosiga bevosita emas, balki bilvosita kirib boradi, uni badiiy tadqiq qiladi. Otasining fojiali o'limidan dahshatga tushgan Abdullatifning ruhiy kechinmalarini ochish uchun adib muallif nutqini vosita qilib oladi. Abdullatifning qo'rquvdan titragan qalb g'alayonlarini davr voqeligi bilan uyg'un holda tasvirlaydi.

"Vojab! Unga ne bo'ldi? Nечун титрайди? Нечун изтироб чекади? Padari buzrukvorи

atalmish betavfiq shoh qatl bo'lsa, shahzodaning gunohi ne? Uni qatl qilgan o'z g'animi Sayyid Abbas emasmu? Kim unga dini islomga muqovamat qilib, barcha ulamoyi zabardastlar, sayidlar, barcha ummati mustafoni haqorat qil dedi?.. Parvardigori olamning qahridan qo'rqlmay, arshi a'lo hisoblanmish koinot sirlarini ochmoqqa jazm etgan ekan, o'z jazosini oldi. Zotan, shahzoda undan, qiblagoh deb atalmish bu bemehr mutakabbir shohdan ne yaxshilik, ne mehr-saxovat ko'ribdiki, unga kuyinadi?” (170-bet).

Mazkur muallif nutqida qahramon monologi ham mavjud, bir-biriga zid bo'lgan ikki guruh - insoniyat ma'naviy taraqqiyoti jonkuyarlari bilan ularga qarshi kuchlar o'rtasidagi kurashni aks ettirish uchun muallif bir paytning o'zida ham salbiy, ham ijobjiy kuchlar tilidan so'zlaydi.

Yana shu o'rinda muallifning nutqi Abdullatifning nutqi bilan qo'shib, “ko'p ovozlilikni”, ya'ni Baxtin “polifoniya” deb atagan hodisani maydonga keltiradi.

Ko'chirmadagi “Voajabo! Unga ne bo'ldi? Nechun titraydi? Nechun azob chekadi?» kabi so'zlarni muallif Abdullatif qiyofasiga kirib so'zlayotgandek, hatto shahzodaning gunohi ne?”, parvardigori olamning qahridan qo'rqlmay, koinot sirlarini ochmoqqa jazm etgan ekan, o'z jazosini oldi”, degan so'zlar Abdullatifga mansubdir. Ammo bu nutq ichida muallif obrazi ham borki, u Abdullatifni o'z nutqi orqali fosh qiladi.

Demak, tarixiy romanlarda muallif obrazi hujjalarni tiriltiruvchi yoki asarning g'oyasini, mazmunini shunchaki ta'rif-tavsiflovchigina emas, balki badiiy asar davomida mustaqillikka, erkinlikka ega bo'lgan obrazlardan biridir.

Fikrimizni dalillash uchun yana o'sha tarixiy asarga murojaat qilamiz:

“Shahzoda cho'g'day qizigan peshonasini oltin taxtning sovuq suyanchig'iga tiraganicha uzoq o'tirdi. Ko'zлari yumuq, yuragida mudhish qo'rquv, istig'for aytar, ko'kka tavallo qilar, xayolan yalinib-yolvorar, lekin quloqlari tagidan shahzoda Abdulazizning xirilloq ovozi ketmas edi: “Mal'un padarkush! Inshoollo xudoning qahriga yo'liqursen. Yer yutadur seni! Er...” (174-bet).

O. Yoqubov u yoki bu qiyofaning xarakterini ochib berishida so'z tanlar ekan, nutqning ma'nosiga va ta'sirchanligiga qarab ajratadi. Salbiy qiyofalarni ochish uchun salbiy ma'nolarni tashuvchi (“sovuj suyanchiq”, “mudhish qo'rquv”, “xudoning qahriga yo'liqqr” va h.k.) so'z va iboralarini qo'llab, qahramonga nisbatan o'z salbiy qarashlarini sezdiradi.

Yuqoridagi ko'chirmani o'qigan kitobxonning nazari Abdullatifning ayanchli qiyofasiga tushadi.

Yana, xarakterlisi shundaki, bu qisqa bayonda muallif nutqini Abdulazizning xirilloq ovozi ham to'ldirib, Abdullatifning o'sha paytdagi azob va shubhaga to'la qalbini, qo'rquvdan qaltirab tavallo qilgan holatini bo'rttirib ko'rsatadi. Demak, “muallif o'z maqsadi uchun o'zganing so'zidan foydalanishi mumkin va shu yo'l bilan o'zining shaxsiy yo'nalishi bo'lgan va uni saqlab turgan so'zga yangi ma'nodagi yo'nalish beradi. U taqdirda bunday so'z vazifasi bo'yicha o'zganing so'zi sifatida tuyulishi kerak. Bir so'zda ikki ma'nodagi yo'nalish, ikkita ovoz paydo qiladi”. [3;243] Muallif nutqi bilan asar qahramoni nutqining aralashuvi so'zning ta'sir kuchini oshiradi.

Har qanday ijodkorning xarakter yaratish uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, muallif nutqi bilan qahramonlar nutqining chambarchas bog'langanligi ko'zga tashlanadi. Bu xil ko'rinishlar, albatta, har bir yozuvchining uslubiga bog'liq. Ba'zi bir yozuvchilar asarlarida bayonni muallif nomidan olib borsa, ba'zi asarlarda qahramon nomidan olib boriladi.

Shunisi xarakterlikni, hikoyachi alohida shaxs bo'lsa, ya'ni muallif tili o'zga hikoyachining tiliga aylansa, bayonchining kimligi noma'lum yoinki “... bayonchi allakimning ifoda qilingan nuqtayi nazari” [7;200] ga aylanadi. Badiiy tadqiqotlarda muallif obrazi va nutqi tahlil qilinayotganda, Baxtin klassifikatsiyasida berilgan, nutq tiplarining birinchisi predmetni bevosita ifodalovchi bevosita nutq — muallif nutqi [4] ko'zdan kechiriladi-yu, ammo muallif nutqi boshqa nutq qatlamlariga singib ketsa yoki muallifning nutqi hikoyachi, bayonchi nutq shakllarida kelsa, ko'pda e'tibor berilmaydi. Bu o'rinda muallif nutqi hikoyachi va bayonchining nutqiga aralashib, yo'qolib ketar ekan, deyish noto'g'ri. Chunki muallif — hokim nutq. U qahramonlarning ruhiyatiga yoki asar voqealarining ichiga har doim aralashmaydi, balki ularni kuzatib, kerak bo'lganda, nutq yukini hikoyachiga, ba'zida qahramonga yuklaydi.

“Yana shuni ta'kidlash lozimki, bayon yoki hikoya kitobxoniga qaratilgani jihatidan suhbatdir. Suhbat bo'lganda ham kitobxon o'z qarshisida turganligini - xolis bayonchimi, ehtirosli

hikoyachimi, qahramonmi, bari bir darhol anglaydigan suhbatdir... Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, basharti asardagi bayonchi voqeani kuzatuvchi sifatida namoyon bo'lsa, kitobxon uning izmi bilan tomoshabinga aylanadi. Bordi-yu, hikoyachi qahramon sifatida tasvirlanayotgan voqe-hodisaning ishtirokchisi, jonli guvohi bo'lsa, bayon ta'siri kitobxon-tinglovchiga o'tadi. Bu ham o'z navbatida muallif obrazining kitobxonni nazarda tutishi, unga ta'sir etishning turli usullaridan foydalanishini ko'rsatadi? [11;142]

Demak, muallif obrazi voqea-hodisalarini izohlash, ayrim voqealarni bir-biriga bog'lash, qahramonlarning xarakteridagi yetakchi xususiyatlarni oshib berishda faqatgina o'z nutqiga tayanmasdan, hikoyachi va bayonchining ishtirokidan foydalanadi. Bu hol asar qahramonlarining ishonarli chiqishiga, muhit va sharoit tasvirining yorqinligiga va ulardan kelib chiqadigan g'oyaviy mazmunning chuqurligiga xizmat qiladi. Hayotning o'zi ko'p qirrali bo'lganidek, yozuvchilarining asarlari ham xilma-xildir. "Ulug'bek xazinası"dek tarixiy roman yaratib bergan Odil Yoqubovning yana bir asari "Diyonat" zamonaviy mavzuda yaratilgan bo'lib, chigal hayotiy muammolar asosida qurilgandir.

"Diyonat" romanida qahramonlar o'z taqdirlari, ijtimoiy faoliyatlarini va kurashlari bilan turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lsalarda, yozuvchining ijodiy niyatini, badiiy mahoratini o'z nutqlari bilan oshkor etadilar. Qahramonlar nutqining tipikligi va haqqoniyligi asardagi voqealarning hayotiyligiga olib kelib, muallif va xarakterlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

"Mana, bu shumxabar yetib kelganiga bir soatdan oshdi, ammo xayolidan o'sha kungi mash'um voqealar chiqmaydi, ko'z oldidan ariq bo'yida rayhon chopib o'tirgan ayaning mittigina bo'y-basti, g'am cho'kkан dardli ko'zlari ketmaydi. Buni eslashi bilan ayaning o'limiga go'yo o'zi aybdorday bo'ladi-yu, yuragi muzlab, bu fikrni jon-jahdi bilan haydashga urinadi, xayolini boshqa narsalarga chalg'itmoqchi bo'ladi. Lekin zum o'tmay o'yłari yana shu sertikan so'qmoqlarga burilganini o'ziyam sezmay qoladi..."

Keyingi paytlarda aya o'zi charchab qolgan, yolg'izlikdan ezilib, o'g'lini o'ylayverib adoyi tamom bo'lgandi. U bo'lsa, Otaqo'zi bo'lsa, butun zahrini shu mushtipar kampirga, bu bebafo dunyoning g'am g'ussasidan qaddi dol bo'lib qolgan shu ko'ngli siniq kampirga sochdi! Ha, o'sha kuni yaxshi ish qilmadi Otaqo'zi" (78-bet).

Bu ko'chirmadagi nutqning tuzilishi ancha murakkab. Sababi nutqda qahramonning xayoliy kechinmalarini muallif emas (chunki bu yerda muallif kuzatuvchi vazifasida, nutqinig ortida turibdi). Qahramonning o'zi emas, balki kimligi noma'lum bayonchi obrazning holatini xolisona tahlil qilayapti yoki "muallif obrazi kompozitsiya va uslubning" [6;176] qatiga yashiringan bo'lishi mumkin, ammo muallif qahramon haqidagi yashirin kechinmalarini voqealar girdobida bayonchi nutqi orqali namoyish qilayapti. Yana aytish kerakki, bayonchi muallifdan ajralgan holda o'z-o'zicha qahramon haqidagi nuqtai nazarini oshib bera olmaydi, balki muallif ning ichki maqsadiga xizmat qiladi.

"Diyonat" romanining bosh qahramoni Otaqo'zi asarda davr voyaga yetkazgan, tip, umumlashma obraz sifatida tasvirlanadi.

Onasi o'rnida onalik qilgan, bezozor Gulsara ayaning o'limi uni sergaklantiradi. Muallif bayonchining monologik mahorati tufayli Otaqo'zining va kitobxonning ko'z o'ngida ariq bo'yida rayhon chopib o'tirgan mittigina bo'y-basti, g'am cho'kkан ko'zlari bilan yolg'izlikdan ezilib, urushda halok bo'lgan o'g'lini o'ylayverib adoyi tamom bo'lgan Gulsara ayaning timsoli namoyon bo'ladi.

Yozuvchi asardagi bosh qahramoninig realligini oshirish maqsadida (chunki tirik insonlar ham o'z ayblarini o'zlari oshkora tan olishdan, yurakni muzlatadigan xayollardan qochishga har vaqt urinadilar) betaraf bayonchining nutqi bilan, ya'ni "u bo'lsa, Otaqo'zi bo'lsa, bugun zahrini shu mushtipar kampirga sochdi-ya, yaxshi ish qilmadi Otaqo'zi!" - deya qahramonning o'sha paytdagi o'ta fojiali, biqiq holatdan chiqishiga ko'maklashdi. Bu bilan muallif o'zining qahramon haqidagi nuqtayi nazarini betaraf bayonchi va bosh qahramon nuqtayi nazari bilan chatishtirib kitobxon tasavvurida ko'pqirrali murakkab tipni shakllantiradi.

Demak, biz muallifga yordamchi bo'lgan xolis bayonchining monologik nutqi orqali muallifning tasvir etilayotgan voqealarga va qahramonlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini ilg'ab olamiz.

Yuqoridagi ko'chirmamizda Otaqo'zining ruhiy holati va kechinmalarini, o'zi tan olmagan jihatlarini muallif-bayonchi bevosita va xolisona tahlil qilgan bo'lsa, mazkur ko'chirmamizda yozuvchi bu yukni Abror Shukurov nutqiga yuklaydi.

“Nima bo‘lgandayam, balo bu odam! Masalaning nozikligini tushundi. Boya cho‘lda domlaning xizmatlarini ro‘kach qilib bir yutgan bo‘lsa, hozir yana bir yutdi” (164-bet).

“Abror Shukurovich yer ostidan kabobpaz yigitlarga bir qarab qo‘ydi. Nazdida Otaqo‘zi bu gaplarni jo‘rttaga hammaga eshittirib aytayotganday, go‘yo “Ko‘rib qo‘yinglar, men katta rahbarning tantig‘i bo‘laman, bu uyda istagan erkaligimni qila olaman”, deyotganday tuyuldi. U shu xildagi odamlarni, rahbarlarga o‘zlarini juda yaqin qilib ko‘rsatadigan va bu bilan ma’lum maqsadlarni ko‘zlaydigan odamlarni yaxshi bilardi...” (212-bet). Ma’lumki, Abror Shukurovning xarakter xususiyatlarda ijobji xislatlar ustunlik qiluvchi - obraz.

Asarning ba’zi o‘rinlarida, ijobji xislatli qahramon bilan muallifining qarashlarida bir xillik seziladi. Yoinki ijobji qahramon nutqi bilan muallif nutqi bir-biriga singishib ketadi. Chunki Abror Shukurovning ziyoli, olimona o‘y-fikrlari muallifning dunyoqarashi, g‘oyalari, ezgu niyatlarini ifodalay oladi. E’tiborga sazovor tomoni shundaki, muallif bilan Abror Shukurovning Otaqo‘zi haqidagi qarashlari, nutqlari bir-birini to‘ldiradi.

“Nima bo‘lgandayam, balo bu odam”, “u shu xildagi odamlarni, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab rahbarlarga o‘zlarini juda yaxshi qilib ko‘rsatadigan odamlarni yaxshi bilardi...” Mana shu gap qurilmalarining biri qahramonni, yana biri muallifni. Ammo kitobxon uchun ikkalasini bir kishi gapira yotgandek tuyuladi. Demak, “Muallif va qahramon ovozining birlashishi bu faqat oddiy bir usullardan emas, tasvir san’atining eng muhim tomonlaridan biridir”. [8;385]

Xulosa. Yuqoridagi kuzatishlarimizdan ko‘rinib turibdiki, yozuvchining shaxsiy uslubini belgilashda muallif nutqi muhim vazifani bajaradi, chunki muallif asarni yaratuvchigina emas, balki butun asar davomida erkinlikka ega bo‘lgan yetakchi obraz hamdir.

Pushkinning shaxsi, degan edi V.G. Belinskiy, “Oneginda shu qadar to‘la, aniq va ravshan aks ettirilganki, shoir shaxsi o‘z asarida bunchalik yaqqol aks ettirilgan asarlar juda kam deyish mumkin... Bunday asarga baho bermoq, shoirning o‘ziga, uning butun ijodiy faoliyatini to‘la ravishda olib baho bermoq, demakdir”. [5;366]

Haqiqatan ham badiiy asarlarda muallifning uslubi, g‘oyasi va tuyg‘usi asarda harakatda bo‘lgan har bir qahramonning xarakterida mujassamlashgan bo‘ladi.

Foydalananilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Avtor nutqi va personaj nutqi.–T.: O‘qituvchi, 2002. –199-b.
2. Алимов Т. Тарих, шахс, бадиият.–Т.: Ўзбекистон, 1991.– 87 б
3. Бахтин И. Проблемы поэтики Достоевского. М., 1993. - С.243.
4. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М.: Сов. писатель, 1993. Олим машхур тадқиқотида нутқни кўйидагича ажратиб кўрсатади. Предметни бевосита ифодаловчи тўғри нутқ. Объектта айланган сўзлар (тасвирланган шахс ва қаҳрамон нутқи)
5. Белинский Б.Г. Танланган асарлар. –Т.: Фан, 1995. – 366 б
6. Виноградов. В.В.О теории художественной речи. –М.: Наука 1994.– С. 176.
7. Гуковский А. Реализм Гоголя. М.-П., 1999. - С.200.
8. Кожинов В.Происхождение романа.–М.: Сов писател. 1990.– С.385.
9. Қаххор А. Асарлар. Т. VI –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.– 411 б.
10. Қаххор А. Ёшлар билан сұхбат.–Т.: Фан. 1999.–50 б
11. Носиров У. Ижодкор шахс бадиий услуб, автор образи.–Т.: Фан, 1991.–109-110-б.

MATYOQUB QO‘SHJONOV FENOMENI VA JAHON ADABIY TANQIDCHILIGI ALOQALARI

Yo‘ldoshev Dilmurod Ne’mat o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

kumushshamshir0404@gmail.com

ORCID 0009-0008-4706-9634

UDK 82.09

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi alohida fenomen sifatida e’tirof etilgan Matyoqub Qo‘shjonov ijodiy merosi va ilmiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi. Muallif uning tanqidchilikdagi uslubiy yondashuvi, ilmiylik va badiiylik uyg‘unligi, milliy adabiy tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi. Qo‘shjonovning nazariy qarashlari Belinskiy, Chernishevskiy, Dobrolyubov, Gyote, Lessing, Mattew Arnold, Lukach kabi jahon adabiy tanqidchilarini metodologiyasi bilan qiyosiy o‘rganilib, ularning umumiyligi va farqli jihatlari ochib beriladi. Shu orqali Qo‘shjonov fenomenining milliy va umuminsoniy adabiy-estetik tafakkur kontekstida tutgan o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalarini shuni ko‘rsatadi, u tanqidni yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi vositachi sifatida talqin etib, milliylik, tarixiylik va xalqchilik tamoyillarini badiiy shakl va mazmun uyg‘unligida ifodalagan. Maqola Qo‘shjonovning ilmiy maktab sifatida shakllangan merosi va uning bugungi adabiyotshunoslik uchun dolzarbligini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: Matyoqub Qo‘shtonov, fenomen, adabiy tanqid, o‘zbek adabiyotshunosligi, ilmiylik va badiiylik uyg‘unligi, milliylik, xalqchilik, estetik tafakkur, jahon adabiy tanqidchiligi, Belinskiy, Chernishevskiy, Dobrolyubov, Gyote, Lessing, Matthew Arnold, Lukach.

THE PHENOMENON OF MATYOQUB QO‘SHJONOV AND HIS CONNECTIONS WITH WORLD LITERARY CRITICISM

Abstract. This article examines the creative legacy and scholarly-aesthetic views of Matyoqub Qo‘shtonov, who is recognized as a unique phenomenon in Uzbek literary criticism. The study highlights his methodological approach, the harmony of scientific analysis and artistic expression, as well as his significant contribution to the development of national literary thought. Qo‘shtonov’s theoretical ideas are comparatively analyzed with the methodologies of world critics such as Belinsky, Chernyshevsky, Dobrolyubov, Goethe, Lessing, Matthew Arnold, and Lukács. Their similarities and distinctive aspects are revealed, showing Qo‘shtonov’s place within both national and universal literary-aesthetic discourse. The findings indicate that he interpreted criticism as a mediator between writer and reader, combining national identity, historicity, and people’s spirit with the unity of form and content. The article also emphasizes the significance of Qo‘shtonov’s scholarly school and its relevance for contemporary literary studies.

Keywords: Matyoqub Qo‘shtonov, phenomenon, literary criticism, Uzbek literary studies, scientific and artistic harmony, national identity, aesthetics, world literary criticism, Belinsky, Chernyshevsky, Dobrolyubov, Goethe, Lessing, Matthew Arnold, Lukács.

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilik tarixida ayrim shaxslar borki, ular nafaqat ilmiy izlanishlari, balki adabiy jarayonga ta’siri, yangi fikr va metodlari bilan ham ajralib turadi. Ana shunday munaqqidlar qatorida Matyoqub Qo‘shtonov alohida o‘rin egallaydi.

“Fenomen” muayyan hodisaning namoyon bo‘lish shakli, o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa hodisalardan ajralib turadigan jihatlari bilan ilmiy izoh va tahlilga loyiq bo‘lgan noyob ko‘rinishidir. M.Qo‘shtonov fenomeni deganda, biz uning ilmiy qarashlari, tanqidchilikdagi uslubi va adabiyotshunoslikka qo‘shtan beqiyos hissasini tushunamiz. M.Qo‘shtonov ijodining dolzarbligi shundaki, u adabiy tanqidni quruq baholash yoki mafkuraviy izoh darajasidan chiqarib, uni ilmiy tahlil va badiiy ifoda uyg‘unligiga asoslangan mustaqil soha sifatida ko‘rsatdi. Uning maqolalari va kitoblari oddiy kitobxon uchun ham, mutaxassis adabiyotshunos uchun ham birday qiziqarli o‘qiladi. Chunki u o‘z tahlillarida quruq ilmiy atamalarni emas, balki hayotiy misollar, jonli obrazlar, sodda va ravon tilda bayon etilgan fikrlardan foydalanadi. Natijada, tanqidchi fikrlari kitobxon ongiga tez yetib boradi va uning asarlari ham ilmiy, ham badiiy jihatdan ta’sirchan bo‘lib qoladi. Matyoqub Qo‘shtonov fenomeni, avvalo, uning ilmiy qarashlari kengligi bilan belgilanadi. U adabiy jarayonni faqat bir davr yoki bir yozuvchi ijodi doirasida emas, balki umumiy adabiy taraqqiyotning bir bo‘lagi sifatida ko‘radi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon yoki Abdulla Qahhor ijodini tahlil qilar ekan, ularning asarlarini faqat mazmun jihatdan emas, balki shakl, kompozitsiya, obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan ham yondashadi. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligida nazariy tahlilning chuqurlashishiga olib keldi. Uning yondashuvi shundan iboratki, u tanqidchilikni yozuvchi bilan kitobxon o‘rtasida positachi sifatida ko‘rdi. Yozuvchi bir marta kitobxonne o‘z asari orqali ma’lum bir g‘oyaga sherik qilsa, tanqidchi uni qayta tahlil qilib, kitobxonne asar mazmuni va badiiy qiymatiga ikkinchi bor jalb etadi. Shu orqali tanqidchi adabiyotning ta’sir doirasini kengaytiradi, kitobxon dunyoqarashiga yangi ma’no qo‘sadi. Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko‘rinadiki, bugun ham yosh tadqiqotchilar va talabalarga M.Qo‘shtonov qarashlari o‘ziga xos ilmiy muktab vazifasini o‘tamodqi. Ularning ijodiy tahlilga kirishishida M.Qo‘shtonovning sodda, ammo chuqur uslubi, hayotiy dalillarga tayangan nazariy mulohazalari katta yordam beradi. Shuning uchun ham “Matyoqub Qo‘shtonov fenomeni”ni o‘rganish adabiyotshunoslik nazariyasining muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Matyoqub Qo‘shtonov fenomenini tadqiq etishda avvalo o‘zbek adabiyotshunosligida uning ilmiy merosini yoritgan manbalar e’tiborga molikdir. M.Qo‘shtonovning “Ma’no va mezon”, “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati” kabi asarlar adabiy tanqidning nazariy va estetik tamoyillarini ochib bergan muhim manbalardandir. Bu asarlarda muallif asar mazmuni va shaklini uyg‘un holda talqin qilish zarurligini ilgari suradi. Shu bilan birga, Boynazar Yo‘ldoshevning “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” (Toshkent: Fan, 2023) darsligida ham M.Qo‘shtonov fenomeni keng yoritilib, uning adabiyotshunoslikdagi o‘rnii nazariy asoslangan. Mazkur manbada olimning adabiy jarayonni davrlararo bog‘liqlikda ko‘ra olishi, yozuvchi va kitobxon o‘rtasida positachilik vazifasini bajarishi alohida qayd etiladi.

Jahon adabiy tanqidchiligi doirasida esa V.G.Belinskiy, N.G.Chernyshevskiy, N.A.Dobrolyubovlarning estetik qarashlari M.Qo‘shtonov faoliyatida muhim metodologik

manba bo‘lib xizmat qilgan. Belinskiyning “San’at – hayotning aksi” degan konsepsiysi, Chernyshevskiyning san’atni ideal yaratuvchi kuch sifatida talqin etishi va Dobrolyubovning xarakter va konflikt muammolariga e’tibori M.Qo’shjonovning tanqidiy tahlil uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, G.Lessingning “Laokoon”, J.V.Gyotening asarlaridagi estetik qarashlar, Mattev Arnoldning adabiyotning tarbiyaviy vazifasi haqidagi mulohazalar, G.Lukachning roman nazariyasi ham M.Qo’shjonov qarashlarini jahon adabiyotshunosligi kontekstida qiyosiy o‘rganish imkonini beradi. Ularning umumiy jihat – adabiyotning ijtimoiy-estetik vazifasini ta’kidlash bo‘lsa, farqli tomoni M.Qo’shjonov tomonidan bu g‘oyalarning milliy ruh, tarixiylik va badiiy shakl uyg‘unligi bilan boyitilganidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Matyoqub Qo’shjonov fenomenining o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi o‘rni hamda uning jahon adabiy tanqidchiligi bilan aloqalari qiyosiy-nazariy asosda tahlil qilindi. Bunda qo‘llanilgan asosiy yondashuvlar qatoriga qiyosiy-tahliliy metod kirib, Qo’shjonovning tanqidiy qarashlari Belinskiy, Chernyshevskiy, Dobrolyubov, Gyote, Lessing, Mattev Arnold va Lukach kabi jahon tanqidchilari qarashlari bilan solishtirildi va ularning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlandi. Tarixiy-nazariy yondashuv orqali Qo’shjonov faoliyati o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi tarixiy jarayonlar va milliy adabiyot taraqqiyotining muhim bosqichlari bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Kontent-tahlil metodi asosida olimning “Ma’no va mezon”, “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati” kabi asarlarida ilgari surilgan g‘oya va qarashlar shakl va mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Estetik-nazariy metod yordamida badiiy asarning shakl va mazmun uyg‘unligi, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi va estetik funksiyalari o‘rganilib, Qo’shjonovning metodologik tamoyillari ochib berildi. Ilmiy umumlashtirish asosida olingan natijalar tizimlashtirilib, Qo’shjonov fenomenining milliy va umuminsoniy adabiy-estetik tafakkurdagi o‘rni nazariy jihatdan xulosa qilindi. Shu tariqa tadqiqot metodologiyasi fenomenning kompleks tahlilini ta’miladi.

Natijalar va muhokama. Matyoqub Qo’shjonov fenomeni – bu adabiy tanqidni ilmiylik va badiiylikning uyg‘unlashgan shakliga olib chiqqan noyob hodisadir. Uning merosi nafaqat o‘tgan asr adabiy jarayonini, balki bugungi adabiyotshunoslikning asosiy yo‘nalishlarini ham belgilab beradi. Matyoqub Qo’shjonov o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilmiy fikrni yangi bosqichga olib chiqqan olimlardan biridir. Uning faoliyati o‘zbek tanqidchiligida ilmiy tahlil, nazariy umumlashtirish va badiiy ifodaning uyg‘unlashgan ko‘rinishi sifatida alohida baholanadi. U ko‘p yillar davomida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida faoliyat yuritib, adabiy jarayonni chuqur tahlil qiluvchi ilmiy maktabni shakllantirdi, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Shuning uchun ham M.Qo’shjonov nafaqat adabiy tanqidchi, balki ilmiy maktab yaratuvchi, adabiyotshunoslik taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan shaxs sifatida yodda qoladi.

M.Qo’shjonovning asosiy xizmati shundan iboratki, u adabiy jarayonni keng miqyosda, bir-biri bilan bog‘liq bosqichlarda ko‘rib chiqqan. Masalan, u Abdulla Qodiri, Cho‘pon, Abdulla Qahhor, Oybek kabi yozuvchilarining ijodini tahlil qilar ekan, ularni faqat o‘z davri doirasida emas, balki butun milliy adabiyot taraqqiyoti nuqtayi nazaridan baholagan. Shu orqali yozuvchi ijodini umumiy adabiy an‘analar bilan bog‘lagan, ularning badiiy uslubi va adabiy jarayondagi o‘rnini aniq ko‘rsatib bergan. M.Qo’shjonov o‘z maqola va kitoblarida asarning faqat g‘oya va mazmuniga emas, balki shakliga ham katta e’tibor qaratgan. U syujetning rivoji, kompozitsiya tuzilishi, obrazlararo munosabat, badiiy til va uslub masalalarini har doim chuqur o‘rgangan. Ayniqsa, “Ma’no va mezon”, “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati” kabi asarlarida u adabiy tahlilni yangi bosqichga olib chiqqan. Bu yondashuv o‘zbek adabiyotshunosligida ilgari yetarlicha rivojlanmagan nazariy qarashlarni boyitdi. Uning adabiyotshunoslikdagi o‘rni yana shunda namoyon bo‘ladiki, u ilmiy tahlilni quruq akademik ohangda emas, balki kitobxon uchun ham qiziqarli bo‘lgan ravishda olib borgan. Qo’shjonovning tahlillari o‘qilishi oson, mantiqan izchil, hayotiy misollar bilan boyitilgan. Shu bois, uning kitoblari nafaqat mutaxassis olimlar, balki oddiy kitobxonlar uchun ham qadrlidir. Bu jihat uni boshqa munaqqidlar orasida alohida ajratib turadi. Shu bilan bиргаликда, M.Qo’shjonov o‘zbek tanqidchiligida ilmiy aniqlik va adabiy zavq uyg‘unlashishi mumkinligini amalda ko‘rsatib berdi. U tanqidchilikni yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi ko‘prik sifatida tushundi. Yozuvchi o‘z asari orqali kitobxonni bir marta jalb etsa, tanqidchi uni tahlil qilish orqali kitobxonni asar mohiyatiga ikkinchi bor qaytadan olib kiradi. Bu esa adabiy jarayonning qamrovini kengaytirib, kitobxonning estetik didini shakllantiradi. Uning adabiyotshunoslikdagi o‘rni faqat ilmiy ishlar bilangina emas, balki pedagogik faoliyatida ham ko‘rinadi. Qo’shjonov ko‘plab shogirdlarga ilmiy yo‘l ko‘rsatgan, ularni mustaqil tadqiqotga yo‘naltirgan. Natijada uning atrofida butun bir adabiyotshunoslar avlodи shakllandi.

Bu esa olim fenomenining yana bir muhim qirrasidir. Umumiy qilib aytganda, Matyoqub Qo'shjonovning adabiyotshunoslikdagi o'rni shundaki, u ilmiy tahlilni nazariy chuqurlik va badiiy ifoda bilan boyitib, adabiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqdi. U milliy adabiyot taraqqiyotini keng qamrovida baholadi, yozuvchi ijodini aniq va ravon tilda kitobxonga yetkazdi, ilmiy maktab yaratdi. Shu sababli M.Qo'shjonov fenomeni o'zbek adabiyotshunosligida muhim hodisadir.

Matyoqub Qo'shjonovning tanqidiy qarashlari shakllanishida rus adabiy tanqidchiligining yirik namoyandalari – Vissarion Belinskiy, Nikolay Chernishevskiy va Nikolay Dobrolyubovning metodologik merosi katta ta'sir ko'rsatgan. Bu tanqidchilar XIX asrda adabiy tafakkurni jamiyat bilan bog'lash, badiiy asarni ijtimoiy-estetik hodisa sifatida talqin qilish orqali butun bir maktab yaratgan edilar. M.Qo'shjonov esa ularning qarashlarini ijodiy o'zlashtirib, o'zbek adabiy tanqidini yangi bosqichga olib chiqdi. Belinskiyning adabiyot haqidagi qarashlarida ijtimoiylik, hayotiylik va xalqchillik asosiy o'rinda turadi. U "San'at – hayotning aksi, hayotdan tashqarida san'at yo'q"^[1] degan mashhur fikrni bildirgan edi. Bu fikr orqali u adabiyotning jamiyatdan ajralmasligini, yozuvchi o'z asari orqali xalq hayotini aks ettirishi kerakligini anglatadi. M.Qo'shjonov ham adabiy asarni xalq hayotining in'ikosi sifatida ko'rgan. Masalan, u Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini tahlil qilar ekan, asar qahramonlari shaxsiy hayoti bilan bir qatorda xalq taqdiri, tarixiy ziddiyatlar va millat taqdirining ham badiiy ifodasi ekanini ta'kidlaydi. Belinskiy bilan M.Qo'shjonovning o'xshashligi – asarda xalq ruhini, jamiyatdagi muammolarni birlamchi deb bilishidadir. Farqi shundaki, Belinskiy ko'proq umumiyligi ijtimoiy muammolarga urg'u bergen bo'lsa, M.Qo'shjonov milliy ruh va tarixiy an'analarni ham muhim omil sifatida tahlilga qo'shadi. Chernishevskiy o'zining "San'atga estetik munosabat" asarida "San'atning vazifasi – hayotni qanday bo'lsa shundayligicha aks ettirish emas, balki uni qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatishdir"^[2] degan edi. Bu fikr orqali adabiyotning ideal yaratuvchi, insonni tarbiyalovchi kuch sifatida talqin etilishini anglash mumkin. M.Qo'shjonov ham yozuvchini faqat ijodkor emas, balki xalq oldida ma'sul shaxs deb bilgan. U Cho'lpon ijodini tahlil qilar ekan, uning asarlarida nafaqat adabiy badiiyat, balki millatni uyg'otuvchi, xalqni erkinlikka chorlovchi ruhni ko'radi. Bu yondashuv Chernishevskiy qarashlari bilan uyg'un. Farqi shundaki, Chernishevskiy ijtimoiy idealni ko'proq universal ma'noda izohlasa, M.Qo'shjonov uni milliy tarix va mentalitet bilan bog'laydi. Dobrolyubov o'z tanqidiy asarlarida xarakter va konflikt muammosini alohida yoritib o'tadi. U shunday yozadi: "Obrazning haqiqiy qiymati uning tipikligida, ya'ni u orqali butun bir ijtimoiy qatlama, muhit namoyon bo'lishidadir"^[3]. Bu fikr adabiy obrazni shunchaki badiiy qahramon emas, balki jamiyatdagi muayyan tip sifatida talqin qilish zarurligini bildiradi. M.Qo'shjonov ham xuddi shunday metoddan foydalangan. U Abdulla Qahhor hikoyalariagi qahramonlarni faqat shaxsiy ruhiy kechinmalar emas, balki jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlama vakillari sifatida tahlil qiladi. Masalan, "O'gri" hikoyasidagi qahramonlar orqali u butun bir davrning ruhini, xalqning ijtimoiy kayfiyatini ochib beradi. Bu jihat Dobrolyubov metodologiyasi bilan yaqin.

Yuqorida fikrlardan anglashiladiki, Belinskiy adabiyotning ijtimoiy hayot bilan uzviyligini ta'kidlaydi, M.Qo'shjonov ham asarlarni xalq hayoti bilan bog'lagan, ammo milliy ruhni alohida ajratib ko'rsatgan. Chernishevskiy san'atni insonni tarbiyalovchi kuch sifatida ko'rgan, M.Qo'shjonov ham adabiyotning tarbiyaviy vazifasini qayd etgan, ammo uni milliy uyg'onish jarayoni bilan bog'lagan. Dobrolyubov obrazni tipiklashtirishga e'tibor bergen, M.Qo'shjonov ham xarakter va konflikti jamiyat muammolari bilan bog'lagan, lekin shakl va ifoda uslubini ham asosiy tahlil mezoniga aylantirgan. M.Qo'shjonov fenomenining mohiyati shundaki, u rus tanqidchilaridan olgan metodologik asoslarni ijodiy o'zlashtirib, ularga milliylik, shakl tahlili va estetikani uyg'unlashtirdi. O'xshashlik – adabiyotning ijtimoiy vazifasini birlamchi deb bilish; farq – bu vazifani milliy ruh, shakl va badiiylik bilan boyitishda. Shu tarzda M.Qo'shjonov o'zbek adabiy tanqidchiligidagi alohida fenomen sifatida maydonga chiqdi.

Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy-estetik qarashlari ham bir necha bosqichlarda shakllanib, takomillashib bordi va bu jarayonni boshqa jahon tanqidchilar qarashlari bilan qiyoslash uning fenomenini yanada ravshanroq anglash imkonini beradi. Uning dastlabki qarashlari milliy adabiyot, xalq hayoti va tarixiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda u shakl va mazmun uyg'unligini ilmiy asoslashga, asarlarning milliy-estetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratdi. Bu tamoyillarni Gyote, Lessing, Mattew Arnold, Georg Lukach kabi tanqidchilar qarashlari bilan qiyoslaganda, M.Qo'shjonovning o'ziga xosligi ham, jahon tanqidiy tafakkuri bilan uyg'unligi ham yaqqol ko'rindi. Gyotening "San'at asari inson ruhining eng nozik kechinmalarini ifodalashga

qodir”[4] degan qarashi asarda psixologik holatlarning markaziy ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. M.Qo’shjonov ham badiiy asarni tahlil qilar ekan, obrazlarning ruhiy kechinmalarini markazga qo’yadi. Masalan, u Abdulla Qodiriy romanlarida qahramonlarning nafaqat ijtimoiy mavqeい, balki ularning ichki dunyosi, shaxsiy iztiroblarini ham keng yoritgan. Gyote va M.Qo’shjonovni yaqinlashtiruvchi jihat – adabiyotning inson ruhini anglash vositasi ekanligi; farqi shundaki, Gyote individual ruhiyatni ko’proq universallikda talqin qilsa, M.Qo’shjonov uni milliy muhit bilan bog’laydi. Lessing “Laokoon” asarida “San’atning har bir turi o’ziga xos chegaralarga ega, u o’z imkoniyatidan tashqariga chiqmasligi kerak”[5] degan edi. Bu fikr badiiy turlarni farqlash, ularning o’z qonuniyatlarini tahlil qilish zarurligini bildiradi. M.Qo’shjonov ham adabiy tur va janrlar muammosiga katta e’tibor bergen. U o’z maqolalarida roman, hikoya, drama kabi janrlarni alohida tahlil qilib, ularning milliy adabiyotdagи o’rnini ko’rsatib bergen. Masalan, u Abdulla Qahhor hikoyalarining ixchamlik, psixologik detallarni chuqr berish uslubi orqali o’zbek nasrida yangi bosqich boshlab berganini ko’rsatadi. Demak, Lessing va M.Qo’shjonovni yaqinlashtiruvchi jihat – shakl masalalariga berilgan katta ahamiyat; farqi esa, Lessing janrlarni umumiy nazariy nuqtayi nazardan ko’rsa, M.Qo’shjonov milliy adabiyotning konkret tajribasida tahlil qiladi. Ingliz tanqidchisi Mattew Arnold “Adabiyotning vazifasi – hayotni eng yaxshi tarzda anglash va uni xalq ongiga singdirishdir”[6] deya ta’kidlaydi. Bu qarash M.Qo’shjonovning metodologiyasi bilan hamohangdir. U ham adabiyotni xalq ongini shakllantirish, milliy ruhni uyg’otish vositasi sifatida talqin etadi. Biroq M.Qo’shjonov buni faqat falsafiy tushuncha sifatida emas, balki adabiy asarlarning konkret tahlilida amalda qo’llagan. Masalan, u Cho’lponning she’rlari va romanlarida xalqnı uyg’otuvchi kuchni ko’radi, Fitrat ijodini esa milliy tafakkurni yangilovchi hodisa sifatida baholaydi. M.Arnold va M.Qo’shjonovning o’xshashligi – adabiyotning tarbiyaviy-estetik vazifasiga urg’u berishi, farqi esa, M.Arnold ko’proq nazariy mulohazalar bilan kifoyalansa, M.Qo’shjonov ularni milliy adabiy jarayonda amaliy tahlilga aylantirgan. Germaniya va Avstriyada yashab ijod qilgan tanqidchi Georg Lukach esa “Roman – bu zamonaviylikning eposi, u tarixiy jarayonni individual taqdirlar orqali ochib beradi”[7] degan edi. Bu qarash romanning tarixiylik va tipiklikka asoslanishini anglatadi. M.Qo’shjonov ham xuddi shunday yondashuvni Abdulla Qodiriy, Cho’lpon va Oybek romanlari tahlilida qo’llagan. U “O’tkan kunlar”ni tarixiy roman sifatida ko’rarkan, unda nafaqat sevgi hikoyasi, balki butun millatning tarixiy taqdiri, davr ziddiyatlari mujassam ekanini ko’rsatadi. G.Lukach va M.Qo’shjonovni yaqinlashtiruvchi jihat – roman janrining ijtimoiy-tarixiy vazifasiga berilgan e’tibor, farqi esa, G.Lukach uni ko’proq umumjahon tarixiy jarayonlar bilan bog’lasa, M.Qo’shjonov milliy tarixiy kontekstda tahlil qiladi. Demak, M.Qo’shjonovning ilmiy-estetik qarashlari shakllanishida uch asosiy bosqich yaqqol ko’zga tashlanadi: dastlab milliy yozuvchilar ijodi asosida o’z qiziqishini shakllantirgan davr, keyin sovet mafkurasi cheklovlariga qaramay, shakl va mazmun uyg’unligini tadqiq etishga intilgan davr, va nihoyat mustaqillik yillarda milliylik, tarixiylik va erkinlik ruhida boyigan davr. Bu bosqichlar davomida u jahon tanqidchiligi merosini ham ijodiy o’zlashtirdi. Belinskiy, Chernishevskiy, Dobrolyubovlardan olingan ijtimoiylik va xalqchilik g’oyalarini Arnoldning estetik qarashlari, Lessingning shakliy yondashuvi, Gyotening psixologik chuqurligi va Lukachning tarixiylik tamoyillari bilan uyg’unlashtirdi. Umumiyl qilib aytganda, M.Qo’shjonov fenomeni faqat milliy adabiyotshunoslik doirasida emas, balki jahon adabiy tanqidchiligi kontekstida ham baholanishi kerak bo’lgan hodisadir. Uning ilmiy-estetik qarashlari xalqchilik, shakl va mazmun uyg’unligi, milliylik va tarixiylikni birlashtirib, o’zbek adabiyotshunosligida yangi bosqich yaratgan. Jahon tanqidchilarini bilan qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadi, Qo’shjonov nafaqat milliy, balki umuminsoniy estetik tafakkurning ham yirik namoyandasasi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. Matyoqub Qo’shjonov fenomeni o’zbek adabiy tanqidchiligidagi ilmiylik va badiiylik uyg’unligini mujassam etgan noyob hodisa sifatida namoyon bo’ladi. Uning ilmiy-estetik qarashlari milliy adabiyot taraqqiyotini keng qamrovda talqin qilish, yozuvchi va kitobxon o’rtasida vositachilik vazifasini bajarish hamda adabiy tanqidni nazariy chuqurlik va badiiy zavq uyg’unligida olib borish bilan ajralib turadi. Qo’shjonovning nazariy merosi Belinskiy, Chernyshevskiy, Dobrolyubov, Gyote, Lessing, Mattew Arnold, Lukach kabi jahon tanqidchilarini qarashlari bilan qiyosiy o’rganilganda, umumiylik va farqli jihatlar yaqqol ko’rinadi. Bu esa uning fenomenini nafaqat milliy, balki umuminsoniy adabiy tafakkur kontekstida baholash imkonini beradi. Qo’shjonov milliy ruh, tarixiylik va xalqchilik tamoyillarini badiiy shakl va mazmun tahlili bilan uyg’unlashtirib, adabiyotshunoslikda yangi bosqich yaratdi. Shuningdek, uning ilmiy maktabi ham bugungi tadqiqotlar uchun dolzarb metodologik asos bo’lib xizmat qilmoqda. Demak, Matyoqub Qo’shjonov fenomenini chuqr o’rganish nafaqat o’zbek tanqidchilagini, balki jahon adabiy tafakkuri bilan uzviy aloqadorlikni ham yoritib beruvchi muhim ilmiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. – М.: Гослитиздат, 1955. Т. 7, 45-б.
 2. Чернышевский Н.Г. Эстетические отношения искусства к действительности. – М.: Правда, 1953. 112-б.
 3. Добролюбов Н.А. Полное собрание сочинений. – Л.: Наука, 1963. Т. 4, 271-б.
 4. Goethe J.W. Werke. – Stuttgart, 1985. Bd. 12, 214-b.
 5. Lessing G.E. Laokoon. – Stuttgart, 1974. 56-b.
 6. Arnold M. Essays in Criticism. – London, 1889. 42-b.
 7. Lukacs G. Die Theorie des Romans. – Berlin, 1920. 88-b.
 8. Qo'shjonov M. Ma'no va mezon. – Toshkent: Fan, 1978. 236-b.
 9. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. – Toshkent: Fan, 1981. 212-b.
 10. Yo'ldoshev B. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. 356-b.
 11. Mirzaev S. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2019. 280-b.
 12. Karimov H. Adabiy tanqid va estetik tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
- 264-b.

ЛИТЕРАТУРНОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ОБРАЗА ТИМУРА В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА

Дилфузада Пардаева

доцент кафедры русского языка и литературы
Каршинского государственного университета

paradise.dil13@gmail.com

ORCID 0000-0002-8313-6186

УДК 894.375:882(045)

Аннотация. В статье рассматривается художественное осмысление образа Амира Тимура в русской и узбекской прозе XX века. Анализ показывает, что восприятие этой исторической личности тесно связано с культурным и идеологическим контекстом. В произведениях Горького Тимур предстает как универсальная аллегория разрушительной силы власти, символизирующей опасность деспотизма и насилия. В прозе Аскада Мухтора образ Тимура, напротив, наполнен национально-духовным содержанием: он представлен как символ справедливости, государственности и лидерства, отражающий стремление народа к независимости и единству. Сопоставление разных художественных интерпретаций выявляет разнообразие подходов к историческим личностям и их роли в формировании коллективной памяти и культурной идентичности.

Ключевые слова. Амир Тимур, Максим Горький, Аскад Мухтор, русская проза, узбекская проза, образ, художественная интерпретация, сравнительный анализ.

XX ACP RUS VA ŪZBEK NASRIDA TEMUR OBRAZINING ADABIY TALQININI

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur obrazining XX asr rus va o'zbek prozasidagi badiiy talqini ko'rib chiqiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu tarixiy shaxsnинг qabul qilinishi madaniy va mafkuraviy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Gorkiy asarlarida Temur hukmronlikning vayronkor kuchi, zo'ravonlik va despotizm xavfini ifodalovchi umumiyligi allegoriya sifatida talqin etiladi. Asqad Muxtor prozasida esa Temur obrazi milliy-ruhiy mazmun bilan to'ldirilgan bo'lib, u adolat, davlatlilik va yetakchilik timsoli sifatida tasvirlanadi hamda xalqning mustaqillikka va birlikka intilishlarini ifodalaydi. Turli badiiy talqinlarni qiyoslash tarixiy shaxslarning kollektiv xotira va madaniy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Amir Temur, Maksim Gorkiy, Asqad Muxtor, rus nasri, o'zbek nasri, obraz, badiiy talqin, qiyosiy tahlil.

Введение. Литературное осмысление великих исторических личностей всегда отражает не только саму эпоху, но и мировоззрение автора, культурные и национальные особенности. Образ Амира Тимура занимает особое место в русской и узбекской литературе XX века. С одной стороны, он выступает символом военной мощи, деспотической власти и разрушительных сил истории; с другой – воплощает государственную мудрость, стремление к справедливости и национальное самосознание.

Анализ литературы. Русская проза начала XX века в лице Максима Горького и узбекская проза второй половины XX века в лице Аскада Мухтора демонстрируют противоположные интерпретации фигуры Тимура. Если Горький в «Сказках об Италии» использует образ Тимура как аллегорию деспотизма и разрушения, но при этом преклоняющегося перед Матерью-созиательницей, то Аскад Мухтор в рассказе

«Мен инсонга куллук килурмен» представляет его как государственную личность, символ национальной силы и справедливости.

Цель данной статьи – сопоставить интерпретации образа Тимура в прозе Горького и Мухтора, выявить общие черты и различия, а также определить культурные основания этих интерпретаций.

Методология исследования. Исследование основано на сравнительно-аналитическом методе. В качестве источников были выбраны произведения русских и узбекских писателей. В анализе образа использовались историко-философский подход, интертекстуальные связи и метод литературного сравнения.

Обсуждение и результаты. В русской литературе начала XX века фигура Тимура становилась частью философских размышлений о природе власти и судьбах человечества. Горький, чьё творчество насыщено социальными и публицистическими мотивами, использует этот образ для критики деспотизма и насилия. При этом в «Сказках об Италии» Тимур изображён не только как символ разрушительной стихии, но и как персонаж, преклоняющийся перед Матерью-созидающейницей, что придаёт образу двойственность и философскую глубину.

В узбекской литературе XX века отношение к Амиру Тимуру менялось в зависимости от политической конъюнктуры. В советское время долгое время его фигура трактовалась негативно, как «феодальный завоеватель». Однако с середины XX века в национальной прозе начинается процесс переосмысливания исторического наследия. Аскад Мухтор одним из первых обратился к художественной интерпретации Тимура как национального лидера, соединяя историческую достоверность с философским осмысливанием власти и человеческой судьбы.

В «Сказках об Италии» Горький вводит фигуру Тимура как символ разрушительной силы. Для него Тамерлан – не столько историческая личность, сколько аллегория деспотической власти, несущей смерть и хаос.

Характерными чертами являются:

- аллегоричность образа, превращение личности в символ;
- универсализм – Тимур олицетворяет любого тирана, а не конкретного узбекского полководца;
- публицистическая окраска – повествование наполнено иронией, сарказмом, стремлением показать бессмысленность власти, построенной на крови.

IX рассказ начинается «Здесь пойдет речь о железном Тимур-ленге, хромом барсе, о Сахиб-и-Кирани – счастливом завоевателе, о Тамерлане, как называли его неверные, о человеке, который хотел разрушить весь мир»[1]. Перечисленные эпитеты создают канон образа – сочетание несгибаемой воли, звериной силы и апокалиптической мощи. Вводная формула «Здесь пойдёт речь...» имитирует устное сказание, переводя читателя из «учёного» контекста в мир народных легенд.

«Слушай! - сказала она. - Что бы ты ни сделал, ты - только человек, а я - Мать! Ты служишь смерти, я - жизни. Ты виноват предо мной, и вот я пришла требовать, чтоб ты искупил свою вину, - мне говорили, что девиз твой «Сила - в справедливости», - я не верю этому, но ты должен быть справедлив ко мне, потому что я - Мать!... Самый красивый и умный мальчик - это мой сын! ...Теперь он у тебя, я это знаю, потому что воины Баязета схватили пиратов, а ты - победил Баязета и отнял у него всё, ты должен знать, где мой сын, должен отдать мне его!»[1]

«Ты - только человек, а я - Мать» ставит героического воителя на уровень обычного смертного, в то время как мать получает сакральный статус. Контраст «ты служишь смерти, я - жизни» противопоставляет воинскую функцию и функцию продолжения рода. Упоминание девиза «Сила - в справедливости» героя подрывает его авторитет: мать сомневается в честности мотива - «я не верю этому». Она призывает его применить принцип «справедливости» на практике – отдать сына.

«Мен тангри кули Тимур! Я, раб божий Тимур, говорю, что следует! Вот – сидит предо мною женщина, каких тьмы, и она возбудила в душе моей чувства, неведомые мне. Говорит она мне, как равному, и она не просит, а требует. И я вижу, понял я,

почему так сильна эта женщина, - она любит, и любовь помогла ей узнать, что ребенок ее - искра жизни, от которой может вспыхнуть пламя на многие века. Разве все пророки не были детьми и героями - слабыми? О, Джигангир, огонь моих очей, может быть, тебе суждено было согреть землю, засеять ее счастьем - я хорошо полил ее кровью, и она стала тучной!»[1] В этом монологе «Тимур» предстаёт воином-предводителем и вместе с тем человеком, способным к сокровенной рефлексии и признанию силы материнской любви. Он называет себя «рабом Бога», выводя свой образ из сугубо светского уровня завоевателя в плоскость божественного предназначения. Тимур впервые признаёт, что материнская речь и любовь пробуждают в нём эмоции, чуждые полководцу. Для Тимура любовь матери оказывается той «искоркой», от которой рождается целое пламя будущего. Тимур именует мальчика «Джигангир» и провозглашает его провозвестником новой эры, сравнивая его рождение с рождением пророков. «...я хорошо полил её кровью, и она стала тучной!» Герой усматривает в своём насилии не только разрушение, но и «подкормку»: его завоевания дают плодородие – образ, который позднее переосмысят писатели-реформаторы. Этот приём – диалог «мать-завоеватель» – завершает сагу, переводя её из жанра чистого эпоса в пространство морального и философского раздумья о власти, справедливости и трансформации насилия в созидание.

Таким образом, фрагмент не только демонстрирует глубину героического сказания, но и обогащает его «внутренний мир» и подтексты, которые долгое время оставались «молчаливыми» из официальных хроник.

Горький акцентирует идею неизбежной конечности любой власти: каким бы сильным ни был правитель, его судьба предопределена временем. В этом контексте образ Тимура превращается в часть философской притчи о разрушительной силе человеческих страстей, смягчённой мотивом преклонения перед Матерью-созидающейницей.

Рассказ Аскада Мухтора «Инсонга қуллук қиладурмен» («Поклоняюсь человеку») (1963) представляет собой принципиально иную интерпретацию. Для узбекского писателя Тимур – это не абстрактный деспот, а историческая личность, оставившая глубокий след в судьбе народа.

Основные акценты:

- национально-исторический подход: Тимур предстает символом узбекской государственности и культурного величия;
- философское осмысление власти: полководец изображён не только как завоеватель, но и как мудрый государственный деятель;
- этический аспект: ключевая идея произведения выражена в словах «Мен инсонга қуллук қилурмен» - служение человеку, народу, справедливости.

«Соҳибқирон ҳангманг бўлдилар, қонлари чехраларига тоши. Илло бу «девона» ўзига ярашмаган бир фасоҳат билан гапирадирки, айтганлари талбис ё мақрга ўҳшамасди. Уни хиргоҳга бошладилар. Иноққа амр қилдиларким, «Бу можаро тафтиш қилинсин, агарчанди гап хақ бўлса, «асирлар» эмас, амир Қатағон қатл этилгай... Отинг нимадур?

- Айри Қўбуз дерлар... - Бор. Либос ёпурлар, хизматимизда бўлурсен.
- ... Мен сўз хизматидамен,-деди Айри Қўбўз тап тортмай,- сўз эса ҳақиқат хизматидадур. Соҳибимни сенга ҳам алмашмасмен.

Соҳибқирон лол қолдилар. Бу нағмакаш сўзида олампаноҳни бирон марта улуғламади, энди эса бетга чопиб...»[2]

(Соҳибқирон был ошеломлен, кровь прилила к его лицу. Однако этот "сумасшедший" говорил с неподходящим для него красноречием, и то, что он говорил, не походило на тальбис или обман. Его повели в хижину. Темур приказал Инаку: "Этот инцидент должен быть расследован, и если это правда, то казнят не "пленных," а Амира Катагана..."

- Как тебя зовут?"
- Меня зовут Айри Кобуз...

- Иди. Они тебя оденут, и ты будешь у нас на службе.

.... - Я служу слову, - без колебаний ответил Айри Кобуз, - а слово служит истине. Я не променяю своего хозяина и на тебя.

Сохибкиран был ошеломлен. Этот музыкант ни разу не похвалил Повелителя Мира в своих словах, а теперь перечит прямо в лицо...) – Перевод наш.

В узбекской традиции образ «сумасшедшего» с таким поведением, часто связан с пророчеством и правдой: мудрец-безумец может нарушить табу и открыть людям глаза. Айри Кобуз, будучи «сумасшедшим», говорит там, где другие молчат, и именно это вызывает у Сохибкирона шок – кровь «прилила к лицу».

Формулировка «я служу слову, а слово служит истине» выносит словесную память и правду превыше личной преданности. Сказители здесь не просто певцы-«музыканты», а хранители народной совести, призванные напоминать даже могущественному хану об ответственности.

Сохибкиран растерян, но не губит артиста – наоборот, приказывает одеть его и взять на службу. Это показывает уважение к честному слову как к силе, не уступающей мечу, каким бы грозным ни казался хакан.

Такой эпизод уводит нас дальше традиционных притч о гуманности Тимура и приближает к современной интерпретации образа сказителя: великий правитель не только всесильный завоеватель, но и слушатель правды, открытый для честного диалога с народом.

Художественная манера Мухтора сочетает историческую конкретику с философской притчевостью, что позволяет воспринимать образ Тимура и как реального деятеля, и как символ национальной идентичности.

Сопоставительный анализ прозы Горького и Мухтора выявляет интересное противопоставление.

Такие общие черты, как:

- философское осмысление личности в истории;
- стремление показать диалектику власти и судьбы человека;
- использование образа Тимура как символа исторической эпохи.

А также различия:

- у Горького Тимур - разрушитель, олицетворяющий деспотизм и насилие.
- у Мухтора Тимур - созидатель, национальный вождь, символ силы и справедливости.
- Горький универсализирует образ, превращая его в аллегорию;
- Мухтор национализирует, связывая его с узбекской историей и духовностью.

Таким образом, одна и та же историческая личность становится в литературе двух народов носителем противоположных смыслов — деспот и разрушитель в русской прозе и справедливый вождь, символ возрождения в узбекской.

Заключение. Интерпретации образа Амира Тимура в прозе М. Горького и Аскада Мухтора демонстрируют богатство и сложность литературного осмысления исторических личностей. Если для Горького Тимур – лишь часть философской притчи о власти и насилии, то для Мухтора он – символ национальной идентичности, воплощающий идеалы справедливости и служения народу.

Сравнительный анализ показывает, что литературные интерпретации всегда обусловлены культурным и историческим контекстом. Через образ Тимура раскрываются универсальные и национальные аспекты понимания истории, а сопоставительный подход помогает выявить точки пересечения и различия двух литературных традиций.

Использованная литература

1. https://briefly.ru/gorkii/skazki_ob_italii
2. Горький М. Сказки об Италии. – М.: Художественная литература, 1969. - https://briefly.ru/gorkii/skazki_ob_italii
3. Мухтор А. Мен инсонга қуллук қилурмен. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
- <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asqad-muxtor/asqad-muxtor-insonga-qulluq-qiladurmen-hikoya>
4. Горький М. Полное собрание сочинений. – М.: Наука, 1953–1956.
5. Гафуров Б. Г. Амир Темур в мировой истории. – Ташкент: Фан, 1996.
6. Жуманиёзов У. Историческая личность в узбекской прозе XX века. – Ташкент: Университет, 2005.
7. Лотман Ю. М. Литература и история. – М.: Искусство, 1992.

VITAGEN TA'LIM ASOSIDA TALABALARING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Rasulova H.S

QarDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi

tayanch doktoranti

hulkar_rasulova@mail.ru

ORCID 0009-0001-7556-7234

UDK 371.302:371.035(045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada vitagen ta'lumi asosida talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlanirish muammoosi tahlil qilinadi, uning pedagogik ahamiyati va amalga oshirish usullari, pedagogikada ijtimoiy kompetentlikni rivojlanirishning muhimligini ko'rsatadi va talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy vazifalarni bajarish qobiliyati bilan ham ta'minlashni nazarda tutishi, ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan muhim masalalardan biri ekanligi, ijtimoiy kompetentlik, shuningdek, shaxsnинг ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatlari bo'lishi, samarali muloqot o'rnatishi, jamoada ishlashi va muammolarni hal qilish qobiliyati, vitagen ta'lim talabalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy va emotsiyal qobiliyatlarni rivojlanirishga imkon yaratishi, ijtimoiy kompetentlik talabanining jamiyatdagi turli xil ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi, odamlar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish qobiliyatini anglatishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: vitagen ta'lim, ijtimoiy kompetentlik, kommunikativ qobiliyat, ko'nikma, vitagen ta'lim konsepsiysi, pedagogik muammo, samarali muloqot, psixologik rivojlanish.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL COMPETENCE ON THE BASIS OF VITAGEN EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. This article analyzes the problem of developing students' social competence on the basis of vitagen education, its pedagogical significance and methods of implementation, shows the importance of developing social competence in pedagogy, and highlights that it involves providing students not only with scientific knowledge, but also with the ability to perform social tasks, that it is one of the important issues aimed at improving students' social competence in the educational process, that social competence is also a person's ability to be successful in social life, establish effective communication, work in a team, and solve problems, that vitagen education allows students to develop not only academic knowledge, but also social and emotional skills, and that social competence means a student's ability to successfully function in various social situations in society, communicate effectively with people, and solve problems.

Keywords: vitagen education, social competence, communicative ability, skill, concept of vitagen education, pedagogical problem, effective communication, psychological development.

Kirish. Zamonaviy hayotning ta'lim va tarbiyani tashkil etishga qo'yadigan yuqori talablari bizni bolalarning maktabda o'qishga tayyorligi talablariga javob beradigan ta'lim natijalarini olishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik-pedagogik yondashuvlarni izlashga majbur qiladi, buning natijasida intellektual rivojlanish muammoosi mavjud. Maktabgacha yoshdagagi bolaning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Uning yechimi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani tashkil etishning maqsad va tamoyillarini belgilash bilan bog'liq. Mahalliy psixologik-pedagogika fanida bolaning intellektual rivojlanishi bilim, ko'nikma va malakalar, harakat usullari, munosabatlar normalari, estetik mulohazalar va didlar shaklida taqdim etilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagagi bolalarda kundalik hayot orqali olingan bilim, ko'nikma va malakalarning ulushi, ayniqsa, katta bo'lib, bu yerda o'quv faoliyati hali yo'lga qo'yilmagan bo'ladi.

Jahonda ta'lim tizimi faqat ilmiy bilimlarni taqdim etish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogika talabalarining nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishini ta'minlashga ham e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonning muhim jihatlaridan biri ijtimoiy kompetentlikni rivojlanirishdir. Ijtimoiy kompetentlik – bu talabanining jamiyatda muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish va jamiyatda o'z o'rmini topish qobiliyati hisoblanadi.

Ushbu mavzu pedagogikada ijtimoiy kompetentlikni rivojlanirishning muhimligini ko'rsatadi va talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy vazifalarni bajarish qibiliyati bilan ham ta'minlash zarurligini nazarda tutadi.

Ijtimoiy kompetentlik, shuningdek, shaxsnинг ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatlari bo'lishi, samarali muloqot o'rnatishi, jamoada ishlashi va muammolarni hal qila olish qobiliyatini ham

o‘z ichiga oladi.[6]

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda pedagogika va ta’lim sohasida ijtimoiy kompetentlik dolzarb masala bo‘lib, bu borada bir qator ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo an‘anaviy ilmiy manbalarda “vitagen ta’lim” atamasi ko‘proq umumiyligi ta’lim tizimi va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuv sifatida ko‘rib chiqilsa-da, “vitagenik ta’lim” deb nomlangan yondashuv bilan bog‘liq ilmiy ishlarni topish qiyin bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonlarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish va ko‘nikmalarni takomillashtirish bo‘yicha bir qancha taniqli olimlar va tadqiqotchilar mavjud. Quyidagi olimlar va ularning ilmiy ishlari shular jumlasidandir:

L. S. Vigotskiy o‘zining “sotsial o‘qish” nazariyasi orqali ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ahamiyatini ko‘rsatgan. U ijtimoiy kompetentlik va interaktiv ta’lim metodlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan.

R. C. Richey ta’limda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun metodik tizimlarni ishlab chiqqan. Uning ishlari o‘quv jarayonidagi yangi metodlarni qo‘llashda foydali hisoblanadi.

M. A. Abdullah o‘zining tadqiqotlarida, vitagen ta’limi asosida talabalarning ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishning pedagogik yondashuvlarini ko‘rib chiqqan.

Shuningdek, O‘zbekiston pedagogikasida ham bu soha doirasida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan:

Sh. M. Sharipov ta’limda ijtimoiy kompetentlik va emotsiyal-intellektual rivojlanish muammolariga bag‘ishlangan bir nechta tadqiqotlarni olib borgan. U o‘quvchilarni ijtimoiy kompetentlikka yo‘naltirish va vitagen ta’limi asosida ularni jamiyatda faol yashashga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

B. T. Norkulov ta’lim tizimida vitagen yondashuvlarni qo‘llash va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish borasida ko‘plab amaliy tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida talabalarning jamiyatdagisi ijtimoiy rolini oshirish uchun ta’lim jarayonini qanday takomillashtirish kerakligi ko‘rsatilgan.

M. T. Tursunov ijtimoiy va emotsiyal ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy ish olib bordi. U o‘quv jarayoniga vitagenik ta’limni joriy etish va talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini oshirish usullarini ko‘rib chiqdi.

Yuqoridaqilardan xulosa qilishimiz mumkinki, bizdan oldingi olimlarning ilmiy ishlarida vitagenik ta’limning turli jihatlari o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Vitagen ta’lim, birinchi navbatda, talabalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu ta’lim yondashuvi jamiyatdagisi o‘zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashishni, shuningdek, talabalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Vitagen ta’lim asosida talabalar bir qator sohalarda ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Kommunikativ qobiliyatlar talabalarning so‘zlashuv, tinglash va o‘z fikrlarini aniq ifoda etish qobiliyatlarini oshiradi.

Empatiya boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga moslashish orqali ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning samaradorligini oshiradi.

Hamkorlik va jamoaviy ishi guruh bo‘lib ishslash va boshqalar bilan birgalikda maqsadga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Madaniy kompetentlik turli xil madaniyatlar va qadriyatlarni tushunish, jahon miqyosida faoliyat yuritish qobiliyatini oshiradi.

Shu bilan bir qatorda, vitagen ta’limi ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalangan yondashuvni taqdim etadi, bu talabalarning ijtimoiy faoliyatdagisi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi.

Kompetentlik tushunchasi pedagogik-psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida ta’lim sohasiga kirib keldi. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “mutaxassisning noan’anaviy va kutilmagan vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, hamkasblar bilan munosabatlarda qanday yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatli vaziyatlarda va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilish rejasiga ega bo‘lishi” degan ma’noni anglatadi. Ingliz tilidagi “kompetentlik” tushunchasi tom ma’noda “qobiliyat” degan ma’noni

anglatadi. U mazmunan nazariy bilimlardan faoliyatda unumli foydalanishni, yuqori darajadagi kasbiy malaka va iste'doddarni namoyon etishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy kompetentlik – bu jamiyatda muvaffaqiyatli yashash uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar majmuasi hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat bilim olish, balki insonlar bilan samarali muloqot qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, ijtimoiy muammolarni hal etish, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga moslashish va boshqa turli ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun zarurdir. Talabalar ijtimoiy kompetentlikni egallash orqali o‘zaro aloqalarni mustahkamlabgina qolmay, balki professional va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishadilar.[1]

Ta’limda ijtimoiy kompetentlikning ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda talabalarning nafaqat akademik bilimlari, balki ijtimoiy ko‘nikmalari ham muvaffaqiyatli kasbiy hayotning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy kompetentlik talabalarning ruhiy salomatligini yaxshilash, ularni stress va ijtimoiy noaniqlikdan himoya qilish uchun ham muhimdir.

Vitagen ta’limining asosiy maqsadi – talabalarda ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirish uchun bir qator pedagogik metodlarni qo‘llashdir. Ularning ba’zilari quyidagilar:

1. Muammoli o‘qitish: Bu usulda talabalar real ijtimoiy vaziyatlarga duch kelgan holda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Bu usul ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki talabalar hamkorlikda va tanqidiy fikrlash orqali muammolarni hal qilishga intiladi.

2. Hamkorlik asosida o‘qitish: Talabalar guruhda ishslash, bir-birlari bilan fikr almashish va ijtimoiy vazifalarni bajarish orqali jamoaviy ish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Bu metod talabalar o‘rtasida empatiya va hurmatni kuchaytirishga yordam beradi.


3. Role-pley o‘yinlari: Talabalarga turli xil ijtimoiy rollarni o‘ynashga imkon berish orqali empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu usul, ayniqsa, psixologik va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi.

4. Jamiyatda faol ishtirok: Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoat ishlarida ishtirok etish, jamoat tadbirlarida qatnashish va ko‘ngillilik faoliyatida faol bo‘lish talab etiladi. Bu esa talabalarni jamiyatga xizmat qilishga, ijtimoiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

Ijtimoiy kompetentlik talabaning jamiyatdagi turli xil ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, odamlar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish, jamoada ishslash va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetentlik talabalarning kommunikativ qobiliyatları (so‘zlashuv va tinglash), empatiya (boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish), kollektiv ishda muvaffaqiyatli qatnashish, jamiyatda faollik kabi ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Vitagen ta’limining asosiy vazifasi – talabalarda zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ishslash va o‘z hayotini boshqarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.[7]

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:



Natijalar va muhokama. Pedagogik nuqtayı nazardan talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish muammosi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

An'anaviy ta'lim tizimi ko'proq ilmiy bilim berishga qaratilgan bo'lsa, vitagenik ta'lim talabalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga qaratilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi muammolar paydo bo'lishi mumkin:

1. **Ta'limning amaliyatga moslashishi** – talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda o'qituvchi va pedagoglar uchun qanday metodlarni qo'llash kerakligini belgilash.

2. **Resurslarning yetishmasligi** – ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, treninglar, tajriba almashish imkoniyatlari va psixologik yordamni taqdim etishning cheklanganligi.

3. **Yangi metodlarni qo'llashdagi qiyinchiliklar** – treninglar, ijtimoiy mashg'ulotlar va o'qitishning innovatsion usullarini ta'lim muassasalariga joriy qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. **Talabalarning psixologik tayyorgarligi** – talabalar uchun ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish ba'zi holatlarda qiyin bo'lishi mumkin, chunki bu ko'nikmalar ko'pincha o'z-o'zini anglash va hissiy ongni talab qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan aytish mumkinki, "Vitagen ta'lim" - bu, umuman olganda, talabalarning ijtimoiy va madaniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy yondashuvni anglatadi. Bu ta'lim shakli an'anaviy bilim berishdan ko'ra keng qamroqliroq bo'lib, talabalarga ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berishga mo'ljallangan.

Vitagen ta'limi quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratadi:

- *emotsional va ijtimoiy rivojlanish*: talabalarning his-tuyg'ularini boshqarish, o'z-o'zini anglash va o'ziga ishonchni rivojlantirish uchun imkoniyatlari yaratish;

- *jamoaviy ish*: hamkorlikda ishslash, boshqalar bilan muloqot qilish va turli ijtimoiy vaziyatlarda muammolarni birgalikda hal qilish;

- *madaniy kompetentlik*: turli madaniyatlarni tushunish, qadrlash va global miyosda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish;

- *vitagen ta'lim kontsepsiysi*: bu o'rganish usuli talabalarga o'z tajribalari va bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. Talabalar o'zlarining ijtimoiy ko'nikmalarini shaxslararo munosabatlar va guruh ishlarida faol ishtirok etish orqali rivojlantiradilar;

- *ijtimoiy kompetentlikni rivojlanish*: talabalarning muloqot qilish, jamoada ishslash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarini oshirish uchun ishlataladi. Bu jarayonda rolli o'yinlar, loyiha ishi va muammoli vazifalar muhim o'rinni tutadi.

- *pedagogik muammo sifatida*: o'qituvchilar ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish borasidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda qanday usul va strategiyalardan foydalanishi kerakligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar ijtimoiy ko'nikmalarini hisobga olgan holda o'quv dasturlari va dars jarayonlarini ishlab chiqishlari kerak;

- *amaliy natijalar*: Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish ularning nafaqat o'qishda, balki ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Natijada ularning kelajakdagisi faoliyati ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy va jamoaviy ishslash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Xulosa. Vitagen ta'limi asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish, nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi. Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish – bu nafaqat jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, balki insonlar o'rtasida tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, bu jarayonni amalga oshirishda pedagogik tizimda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni kiritish va zarur resurslarni ta'minlash lozim. Ushbu yondashuv talabalarning o'zligini anglashiga, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlar asosan psixologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlar sohalarini o'z ichiga oladi. Agar siz "vitagen ta'lim" tushunchasini qo'llashni istasangiz, o'z sohangizda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga bag'ishlangan umumiyy pedagogik metodlar va yondashuvlarga oid tadqiqtlardan

foydanishingiz mumkin. Talabalar uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yuqorida sanab o‘tilgan olimlarning ishlari sizga foydali bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish faqatgina talabalarga jamiyatda muvaffaqiyatlari yashash imkonini yaratmaydi, balki ularni kelajakdagagi professional faoliyatlariga ham tayyorlaydi. Vitagen ta’limi orqali ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, o‘quv jarayoniga turli pedagogik yondashuvlarni kiritish va yangi metodlarni qo‘llashni talab etadi. Ushbu muammo pedagogikada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarning ijtimoiy hayotda faolligini va jamiyatdagi o‘rnini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyeva H. B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784. 2021.
2. Ишмуҳамедов Р.Ж., Юлдашев М.А. Таълим ва тарбияда инновацон педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув кўлланма) - Т. 2017, 368 б.
3. Mamajonova Z.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2021. 207 bet.
4. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent, 2015. 94 bet.
5. Quzmanova G.B. O‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. № 9. 2022.
6. Raxmanova M.Q. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – Toshkent, 2022. -264 bet.
7. Rustamova, N. R. (2020). Training of students of cognitive processes based on vitagen educational situations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8 Special Issue), 869-872. Retrieved from www.scopus.com
8. Якиманская И.С. Знание и мышление школьника. - М., 1985. -C.78.
9. Якиманская И.С. Разработка технологии личностноориентированного обучения // Вопросы психологии. - 1995. - №2. - C.31.
10. Яковлева Т.С. Педагогические условия повышения умственной работоспособности детей 4-5 лет: Дис. ... канд.пед.наук. -М., 1986. - 128с.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA O‘YIN TERAPIYASI ASOSIDA BOLALARDA FAOL NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

Qarshi davlat universiteti

Maktabgacha ta’lim kafedrasи tayanch doktoranti

Xolmatovafotima386@gmail.com

ORCID 0009-0008-3047-7826

UDK-373.23

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sohasida artpedagogik yondashuvning tahlili hamda turli yondashuvlardan farqli jihatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, “Artpedagogika” atamasining nisbatan yangi atamalardan ekanligini hisobga olgan holda maqolada ushbu atamaning ta’rifi hamda mazmun-mohiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Art-terapiyaning turlari hamda har bir turning o‘ziga xos ahamiyati yoritib berilgan. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolajonlarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda art-terapiyaning bir qancha turlari, xususan, o‘yin terapiyasidan foydanish haqida so‘z olib borilgan. Jumladan, maqolada o‘zbek xalq o‘yinlaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagи bolalarda faol nutqni shakllantirish yo‘llari misollar yordamida oolib berilgan. Bundan tashqari, o‘yin terapiyasi orqali bolalarda mustaqil fikr lash qobiliyatlari hamda, jamoa oldida erkin so‘zlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Artpedagogika, o‘yin terapiyasi, ertakterapiya, qum terapiyasi, drama terapiya, fototerapiya, izoterapiya, musiqa terapiyasi.

DEVELOPMENT OF ACTIVE SPEECH IN CHILDREN BASED ON PLAY THERAPY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article analyzes the art pedagogical approach in preschool education, showing its differences from other approaches. Also, taking into account that the term "Art Pedagogy" is a relatively new term, the article provides information about the definition and essence of this term. The types of art therapy and the specific importance of each type are highlighted. Several types of art therapy, in particular, the use of play therapy in the development of speech competencies of preschool children are discussed. In particular, the article reveals the ways of forming active speech in preschool children using Uzbek folk

games with examples. In addition, methods for forming independent thinking abilities in children and the skills of speaking freely in front of a group are highlighted through play therapy.

Keywords: Art pedagogy, play therapy, fairy tale therapy, sand therapy, drama therapy, photo therapy, isotherapy, music therapy.

Kirish. Dunyoda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng izlanishlar, ta’limda kuzatilayotgan o’sish maktabgacha ta’lim sohasida ham zamon talablariga mos holda rivojlanishni taqozo etmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi kundan kunga dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda va pedagogik jarayonda ushbu muammoni bartaraf etishning turli yo’llari va metodlari ishlab chiqilmoqda. Xorijda olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu masalaning o’ziga xos yechimini izlab topishda turli metodikalardan foydalanmoqda.

O‘z tasdig‘ini topayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda artpedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolliklarini oshirish uchun artpedagogik yondashuv metodlaridan foydalanish samarali natijaga olib keladi. Zero, hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab, ularga shaxs sifatida qarab g‘amxo‘rlik ko’rsatish nafaqat ularning kelajagi uchun, balki yurtimiz kelajagi uchun ham muhimdir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2022-yil 15-noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o’tgan “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasi”da so‘zlagan nutqida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yetuk rivojlanishi qanchalar muhim masala ekanligini ta’kidlab shunday degan edilar: “Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko’rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q” [1]

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin terapiyasi asosida bolalarda faol nutqni rivojlantirish quyidagi metodologik xususiyatga ega: artpedagogik yondashuvga asoslangan adabiyotlarni tahlil qilgan holda, o‘yin texnologiyasidan foydalanib maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish; bolalarning nutqiy rivojlanish sohasini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablarga mos darajada rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘yin texnologiyasini qo‘llagan holda o‘z fikrlarini erkin bayon eta oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda bu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatlari tayyorlash.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’limda art-terapiya usullari ta’lim berish hamda davolash ishlarida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu sababdan ko‘plab xorij olimlari hamda yurtimiz tadqiqotchilari ushbu yo‘nalishning natijaviyligini o‘z tajribalarida isbotlab kelmoqda.

Art-terapiya – bu davolashning bir turi hisoblanib, ushbu atamaga juda ko‘plab ta’rif berilgan.

Xususan, Susanina I.V o‘zining “Art-terapiyaga kirish” asarida unga quyidagicha ta’rif bergan: “Art-terapiya – bu taqlidning teskarisi. Bu yerda siz faqat ma’lum bir narsaga amal qilishingiz kerak. Art-terapiya – muvaffaqiyatli takrorlangan obyekt, chizilgan nusxasi yoki haykaltaroshlik o‘z-o‘zidan qoniqish hissi bilan birga bo‘lishi mumkin. U sizni kashf etadigan va rivojlantiradigan ijodiy jarayonga yo‘naltiradi”. [7; 32]

“Art-terapiya tadqiqotlarida assosi e’tibor badiiylikka qaratiladi tasvirlar har doim ham ta’kidlanmasligi kerak, aksincha, istisnosiz barcha holatlarda bermorlarning ular yaratgan tasvirlar haqida og‘zaki hisobotlarida urg‘u qo‘yilmasligi kerak. Darhaqiqat, bu ikkala tomon bir-birini o‘zaro to‘ldiradi”. [5;14]

Natijalar va muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda artpedagogikasining turli xil samarali usullaridan foydalanish mumkin.

Xususan, ertak terapiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda hikoya qilish qobiliyatini shakllantirish mumkin. Turli ertaklarni eshitib qayta hikoya qilish esa bolalarning lug‘at boyligini oshirishda yaxshi samara beradi.


Shuningdek, drama terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnada erkin so‘zlay olish qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari art-terapiyaning o‘yin terapiya nomli ajoyib bir metod turi borki, ushu usul yordamida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda faol nutqni rivojlantirishda kutilgan natijaga erishish mumkin.

“O‘yin terapiyasi” atamasi ilk marta mashhur psixolog M. Klein tomonidan 1920-yillarda taklif qilingan.

O‘yin terapiyasining bolalar nutqini oshirishdagi ahamiyati haqida B. Livexud shunday degan: “O‘yin kattalar uchun bo‘lgani kabi bola uchun nutq. Bu ifodalash vositasidir. O‘yin – bu bolaning o‘z tajribasini tashkil etishga urinishi, uning his-tuyg‘ular, munosabatlarni o‘rganish va o‘zini o‘zi anglash. O‘yin davomida bola vaziyatni nazorat qilish tuyg‘usini boshdan kechiradi, hatto haqiqiy sharoitlar bunga zid bo‘lsa ham.” [6; 21]

Ko‘plab tadqiqot natijalariga ko‘ra art-terapiyaning quyidagi bir necha usullarini maktabgacha yoshdagi bolalarda faol nutqni rivojlantirishda asos qilib olish mumkin:



Ilmiy tadqiqot ishlarida art-terapiyaning yana bir qancha turlari bilan ham tanishish mumkin. Joriy maqola asosi esa – bu o‘yin terapiyasi. O‘yin terapiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim natijalarga erishish mumkin. Chunki o‘yin – bu kichkintoylar uchun muloqot vositasidir.

Bu haqda mashhur psixolog olima Kiseleva shunday degan: “O‘yin terapiyasi – bu bolalarda hissiy va xatti-harakatlarning buzilishlarini tuzatish usuli bo‘lib, u bolaning tashqi dunyo bilan o‘zaro ta’sir qilishning o‘ziga xos usuliga asoslanadi” [4;47]

Darhaqiqat, barchamizga sir emaski, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat – bu o‘yin faoliyatidir. O‘yin orqali bolalarning his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini, hayajonlarini bilib olish mumkin. O‘yin jarayonidagina bola qo‘rquvni yengib o‘z asliyatini ko‘rsata oladi. Shu boisdan bolalarda mustaqil fikrlash hamda erkin so‘zlay olish qobiliyatini shakllantirish uchun o‘yin terapiyasi muhim vosita hisoblanadi.

O‘yin metodi bolalar uchun tabiiy va qiziqarli hisoblanib, ularning bilimlarni faol o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. O‘yin bolalarning yangi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishida muhim omil hisoblanadi. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, ta’limiy o‘yinlar orqali bolaning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muloqot bilan chambarchas bog‘liqidir.

“O‘yinda yosh organizmlarga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, quvnoqlik tarbiyalanadi. Bolalarning nutqini rivojlanirish uchun qo‘llaniladigan o‘yin turlari bolalardagi mohirlikni, mustaqil muloqot usullarini shakllantirishga qaratilgan. Turli nutq buzilishlariga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyatini katta ahamiyatga ega hamda ular shaxs va intellektning har tomonlama rivojlanishiga zarur shart-sharoit yaratadi.” [2;6]

O‘yining asosan ikki turi mayjud:

- qoidali o‘yinlar
- ijodiy o‘yinlar.

Qoidali o‘ynlarga, asosan, turli didaktik o‘yinlar misol bo‘la oladi. Masalan, “so‘zli”

didaktik o‘yinlar nutqiy rivojlanish vazifalarni yanada tabaqlashtirilgan holda hal etishga, ya’ni: fe’llarni, sifatlarni, umumlashtiruvchi nomlarni (“Uchadi-uchmaydi”, “Mazasini ta’tib ko‘r”, “Yesa bo‘ladi-yesa bo‘lmaydi”) faollashtirishga, so‘z yasash usullarini shakllantirishga (“Tavsifiga qarab top”, “Choy ichish”), u yoki bu tovushni to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qilishga (“Kimning ovozi”, “Sehrli qalpoqcha”) yo‘naltirilgan.

“Ta’limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi.

Bolaning kun tartibida ta’limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Ta’limiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.
3. O‘rtoqlari fikrini eshitish olish.
4. O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O‘yin qoidasini bajarish.
6. O‘z xatosini tan olish.” [10;113]

Ijodiy o‘yinlarga erkin turdag'i o‘yinlar misol bo‘la oladi. Bolalar ko‘pincha ijodiy rolli o‘yinlarida turli ertaklarni sahnalashtiradilar. Bu o‘yinlarda turli personajlarni o‘yinlarda aks ettiradilar. Bolalar yozuvchilarning badiiy asarlarini ham sevib sahnalashtiradilar.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalar turli o‘zbek xalq o‘yinlarini ham sevib o‘ynaydilar. Shuningdek, bu o‘yinlar davomida ko‘plab yangi so‘zlarni o‘rganib olishlari mumkin. Masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘ynini misol qilib oladigan bo‘lsak, bu o‘yinda bolalar faol so‘zlashadilar.

O‘zbek xalqining qiziqarli quvnoq o‘yinlaridan yana biri “Tapir-tupir qaldirg‘och”. Bu o‘yinda ham bolalar o‘zaro suhbatga kirishadi. Shuningdek, ushbu o‘yin orqali kichkintoylar turli rang nomlarini bilib olishlari mumkin.

Bunday o‘yinlarni juda ko‘plab misol qilish mumkin. Bu o‘yinlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarda faol nutqni rivojlantirish uchun yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy-erkin o‘yinlarga rolli syujetli o‘yinlarni ham misol qilib olish mumkin. Bunday ijodiy o‘yinlar bolalarda monologik nutqni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Syujetli rolli o‘yinlarni tashkillashtirish tarbiyachidan ulkan mahorat talab qiladi. Shuningdek, sahnalashtirish o‘yinlarining ham o‘ziga yarasha qoida va talablari mavjud.

Sahnalashtirish uchun tanlangan hikoya mazmuni uni o‘qib berish yoki qo‘g‘irchoq, soya teatridda ko‘rsatish orqali tanishtiriladi.

O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlab unga to‘g‘ri rahbarlik qilish kerak. Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi ertakka doir bir nechta rasmlar ko‘rsatadi. O‘yin mana shu tarzda davom etadi.

O‘yin davomida pedagog bolalardan ohangiga e’tibor berishni ham aytib o‘tadi. Chunki so‘zlash vaqtida faqat so‘zlar emas, balki ohang hamda intonatsiya ham muhim vosita hisoblanadi.

“Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, bolaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o‘rgatishi lozim. Nutqning past-balndligi o‘rinli bo‘lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to‘g‘ri nutqning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyatsion va intonatsion qobiliyatning uzviy bog‘liqligi keng ma’nodagi tinglash va artikulyatsion-talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi” [3; 160]

Bolaning kattalar bilan muomala vositalari yetarli darajada har xil bo‘lishi mumkin. Bu, eng avvalo, o‘yin orqali muloqotdir. U bolalarni faollashtiradi, quvnoq kayfiyat baxsh etadi. Bu kayfiyat katta odam tomonidan har qanday paytda hosil qilinishi mumkin.

Kattalar bilan hazil-huzul, ijobiy hissiyotlarga to‘la bo‘lgan muloqotda bola o‘yinchoqlar bilan o‘ynashga kirishadi. Bu mohiyatan, bolaning o‘z tashabbusi bilan vujudga keladigan birinchi o‘yin shaklidir. Qo‘l harakatlari uning nutqini rivojlantirishda alohida

ahamiyatga ega. Shuning uchun bola bilan muloqot qilishda ko‘proq hikoyalar, iboralar, topishmoqlar, aytishuvlardan foydalanish lozim. Bu tovush va nutq muhitini boyitadi, nutqni o‘zlashtirishga yordam beradi, talaffuzni, she’riy so‘z jarangdorligini his qilishni rivojlantiradi.

Ta’limiy hamda ijodiy o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, talaffuz aniqligini oshirish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday metodlarning qo‘llanilishi bolalarning intellektual, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakdagagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha davrdagi bola uchun kattalar bilan muloqot hamon tilni, nutqning shakl va vazifalarini rivojlantirishning asosiy manbasi sifatida chiqadi. Bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun uning o‘z tengdoshlari bilan birgalikda o‘ynashi ham muhim ahamiyatga ega. Bir-biriga yaqin joyda o‘ynar ekan, bolalar o‘yinda tengdoshining ham ishtirok etayotganidan va uning e‘tiborini jalb qilganidan quvonadilar, o‘zlarining o‘yinlarini sharhlaydilar. Natijada birgalikdagi ko‘nglochar o‘yinlar hosil bo‘ladi, unda o‘yin harakatlarini so‘z bilan ifodalaydilar, birgalikda harakat qilish, syujetni rivojlantirish haqida kelishib oladilar, unchalik murakkab bo‘lmagan suhabatni olib boradilar.

Mustaqil o‘yinlarda bolalarning kommunikativ ijodkorligi rivojlanadi. Bolalarning kattalar bilan birgalikda uyushtirilgan o‘yinlari – xalq o‘yinlari, syujetli-didaktik, teatrlashtirilgan, didaktik o‘yinlar muhim vazifani bajaradi.

Keng umumrivojlaniruvchi o‘yinlar bir vaqtning o‘zida nutqqa yalpi ta’sir ko‘rsatadi: bolalarni nutqiy hamjihatlikka kirishishga undaydi, suhabatdoshga, uning tashqi ko‘rinishiga, ovoziga, u tasvirlayotgan personajga e‘tiborni jalb qiladi, nutqning tovush jihatiga yo‘naltiradi, syujetni rivojlanirish, so‘zni va ifodali harakatni taqqoslashni o‘rgatadi.

Xalq o‘yinlari, syujetli-didaktik o‘yinlar, ertaklar va adabiy asarlar bo‘yicha turli xil o‘yinlar bolada so‘zlashayotgan vaqtida hayajonlanmagan holda o‘zini erkin tutib so‘zlashga odatlanishga yordam beradi.

So‘zli didaktik o‘yinlar nutqiy rivojlanish vazifalarni yanada tabaqalashtirilgan holda hal etishga, ya’ni fe’llarni, sifatlarni, umumlashtiruvchi nomlarni faollashtirishga, so‘z yasash usullarini shakllantirishga, u yoki bu tovushni to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qilishga yo‘naltirilgan.

Bolalarning tovushlar, so‘zlar, qofiyadosh so‘zlar bilan mustaqil o‘ynashi, uyushtirilgan o‘yin jarayonida birdaniga ro‘y beradigan til bilan o‘ziga xos tarzda sinov o‘tkazishlar alohida ahamiyatga ega. Folklor va mualliflik asarlaridagi til o‘yinlari ulkan ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasi. – Toshkent, 2022. <https://kun.uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida>
2. Ahmedova Z.M, Ayupova M.Y, Xamidova M.P.Logopedik o‘yin darslik.–Toshkent, 2007. 58 b.
3. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432b
4. Киселева. М. В. Арт-терапия в работе с детьми. – Санкт-Петербург, 2006. - С. 83.
5. Копытина.А.И. Арт-терапия. - Издательский дом «Питер», 2001. - С 317.
6. Ливехуд Б. Фазы развития ребенка / Пер. с нем. - Калуга: Духовное познание, 1998. – С. 103.
7. Сусанина И.В Введение в арт-терапию. Учебное пособие. – Москва, Когито-Центр, 2007. - С 51.
8. Тихеева Е.И. Развитие речи детей (раннего и дошкольного возраста) – М.: Просвещение, 1981 -122 с.
9. Ушинский К.Д. Родное слово // Собр.соч. – М., 1949. – С. 242.
10. Xo‘jamberdiyeva.Sh.K, Abdusamatova.N.J, Isabayeva.A.Y “Bolalarni nutqini o‘stirish” darslik. Toshkent – “Fan ziyoisi” -2023y 238b
11. Зеленцова – Пешкова Н.В. Элементы песочной терапии в развитии детей раннего возраста. Санкт-Петербург Детство-пресс, 2015. – С. 17.

INTEGRATION OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES AND A CROSS-LINGUISTIC APPROACH IN LANGUAGE AESTHETIC CULTURE**Isokova Sitora Shamsiddin qizi**

PhD Student, Department of Pedagogy

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Shakhrisabz, Uzbekistan

isoqovasitora97@gmail.com

ORCID: 0009-0000-1742-9119

UDK 37.02

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of integrating interactive technologies and a cross-linguistic approach in fostering language aesthetic culture among higher education students. The essence of language aesthetic culture is analyzed, along with the potential of interactive tools (web platforms, multimedia, virtual tools) and a cross-linguistic approach (comparative-typological analysis, translation elements, working with texts in different languages) in its formation. Ways to enhance the effectiveness of the educational process and develop students' linguoaesthetic thinking, creative abilities, and intercultural communication competencies by integrating these two modern approaches are proposed. Recommendations on the main principles and practical application of the proposed methodology are provided.

Keywords: language aesthetic culture, interactive technologies, cross-linguistic approach, integration, linguodidactics, higher education, methodology.

TIL ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR VA TILLARARO YONDASHUV INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliv ta’lim talabalarida til estetikasi madaniyatini shakllantirishda interaktiv texnologiyalar va tillararo yondashuvni integratsiyalashning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Til estetikasi madaniyatining mohiyati, uni shakllantirishda interaktiv vositalar (veb-platformalar, multimedia, virtual vositalar) hamda tillararo yondashuv (qiyosiy-tipologik tahlil, tarjima elementlari, turli tillardagi matnlar bilan ishslash) imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu ikki zamонави yondashuvni integratsiyalash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning lingvoestetik tafakkurini, ijodiy qobiliyatlarini va madaniyatlararo muloqot kompetensiylarini rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan. Taklif etilayotgan metodikaning asosiy tamoyillari va amaliy qo‘llanishiga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: til estetikasi madaniyati, interaktiv texnologiyalar, tillararo yondashuv, integratsiya, lingvodidaktika, oliv ta’lim, metodika.

Introduction. The intensification of globalization processes and the rapid development of information and communication technologies worldwide are imposing new demands on educational systems, particularly on language teaching methodologies. Today, future specialists are required not only to have an excellent command of one or more foreign languages but also to possess a deep understanding of the aesthetic potential of their native and studied languages, to have a refined speech culture, and to be able to use linguistic tools appropriately and skillfully. This underscores the relevance of fostering language aesthetic culture in students. Language aesthetic culture is an integral component of an individual's overall culture, encompassing an aesthetic attitude towards linguistic phenomena, the ability to perceive the beauty of language, and skills in achieving expressiveness, imagery, and persuasiveness in speech [Karla, 2024, 59p]. In cultivating this culture, alongside traditional methods, the effective use of modern pedagogical technologies, specifically interactive technologies and a cross-linguistic approach, is of significant importance. Interactive technologies offer opportunities to enliven the learning process, increase student engagement, and provide an individualized approach [Burke, 2024, 227p]. Simultaneously, a cross-linguistic approach aids in understanding the similarities and differences between the native language and foreign languages being learned, facilitating a deeper assimilation of language through the transfer of knowledge and skills from one language to another [Murtazayeva, 2024].

